



ТОШКЕНТ ДАВЛАТ  
ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ



# СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ  
ОММАБОП ЖУРНАЛ

[www.soliqvahayot.uz](http://www.soliqvahayot.uz)



**“СОЛИҚ ВА ҲАЁТ” ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ-ОММАБОП ЖУРНАЛИ  
ТАҲРИРИЯТИ ҲАЙЪАТИ ТАРКИБИ**

**Таҳририят кенгаши раиси:** и.ф.д. Юсупов Кахрамон Ахмедович

**Бош муҳаррир:** и.ф.д. проф. Курбанов Зият Ниязович

**Таҳририят аъзолари:**

и.ф.д. Қудбиев Шерзод Давлатович

и.ф.д. проф. Засько Вадим Николаевич ( Россия Федерацияси)

и.ф.д. проф. Роздольская Ирина Владимировна ( Россия Федерацияси)

ю. ф. д. проф. Рустамбаев Мирзаюсуп Хакимович

т.ф.д.доц. Акбаралиев Бахтиёр Бакирович

и.ф.ф.д. PhD Вассилис Полименис (Греция)

и.ф.н. доц. Эргашев Зафар Тоштургунович

и.ф.д. проф. Тошматов Шухрат Аманович

и.ф.д. проф. Ҳотамов Комил Раббимович

и.ф.д. проф. Қўзиева Наргиза Рамазановна

и.ф.д. проф. Худойқулов Садриддин Каримович

и.ф.д. проф. Исманов Иброҳим Набиевич

и.ф.д. проф. Ўрманов Жаҳонгир Жалолиддинович

и.ф.д. проф. Уразов Комил Бахрамович

и.ф.д. проф. Исаев Фахриддин Икромович

**Маъсул муҳаррир:** Назаров Абдукарим Кушарович

**Веб администратор:** Қуйлиев Улуғбек Рашидович



## МУНДАРИЖА

<b>Abdiraimov Sh.D.</b>	<i>Ziyorat turizmi salohiyatini yuksaltirish: klaster asosidagi innovatsion yondashuvlar</i>	5
<b>Abdujalilova O.A.</b>	<i>Uzbekistan's economy: development path, priorities and modern challenges</i>	13
<b>Aliyev M.K.</b>	<i>O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'rni</i>	19
<b>Axmedov A.O.</b>	<i>Soliq to'lovchilarning soliqlar bo'yicha soliq qarzdorligi va uni kamaytirish yo'llari</i>	25
<b>Aliyev M.K.</b>	<i>Raqamli transformatsiya sharoitida aholining ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligini baholash</i>	31
<b>Berdiyev A.H.</b>	<i>Klasterlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning natijalari va samaradorligi</i>	37
<b>Botirova K.Z.</b>	<i>Iqtisodiyotning eksport-import aloqalarini raqamlashtirishni takomillashtirish yo'llari</i>	48
<b>Dadamirzayev M.X.</b>	<i>Innovatsion salohiyatni boshqarishda institutsional, iqtisodiy va infratuzilmaviy mexanizmlar o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik</i>	53
<b>Ergashev X.X., Qo'ziyev Z.B., Abdurahmonov S.A.</b>	<i>Iqtisodiyotni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: metodik izlanishlar va amaliy natijalar</i>	62
<b>Erkayeva B.</b>	<i>Tarixiy madaniy turizmni barqaror rivojlantirishda innovatsiya va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi</i>	67
<b>Ismatova S.A.</b>	<i>Toshkent viloyati misolida hududiy barqaror rivojlanishning asosiy determinantlari va ustuvor yo'nalishlari</i>	73
<b>Jumanazarov K.S.</b>	<i>Virtual korxonalarni tashkil qilish va boshqarish xususiyatlarini tahlil qilish</i>	80
<b>Khurramov A.</b>	<i>Institutional transformation of tax administration and its implications for business development in Uzbekistan</i>	86
<b>Ortiqova G.</b>	<i>O'zbekiston Respublikasida yirik soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini samarali boshqarish istiqbollari</i>	95
<b>Pardayev A.X., Pardaeva Z.A.</b>	<i>Strategik boshqaruv hisobida harajatlarni hisobga olish usullari</i>	99
<b>Raximova D.O., Choriyeva U.A.</b>	<i>Sun'iy intellekt texnologiyalari va ularning iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi</i>	107
<b>Raxmatov A.I.</b>	<i>Mintaqaviy turizm sohasida malakali kadrlar tayyolash va ta'minlashdagi muammolar va tendentsiyalar</i>	111
<b>Rixsixo'jayeva U.R.</b>	<i>O'zbekiston Respublikasida QQSni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari</i>	120
<b>Safarov A.I.</b>	<i>Korxonalarda joriy aktivlar boshqaruvi orqali ishlab chiqarish xarajatlari hisobining samaradorligini oshirish</i>	126
<b>Uzaqov J.N., Nurmatov S.M., Naimova Sh.G'.</b>	<i>O'zbekistonda ziyorat turizmi salohiyatini yuksaltirishda davlatning boshqarish va tartibga soluvchi roli</i>	133
<b>Yuldashev F.T.</b>	<i>Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari</i>	143
<b>G'afforov K.</b>	<i>Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farq summasini qoplash jarayonida soliq nazorati mexanizmlarining o'rni</i>	152

<b><i>Shukurov U.Sh.</i></b>	<i>Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda real sektor tarmoqlari tarkibini takomillashtirish</i>	158
<b><i>Арипов Ж. А.</i></b>	<i>Шаффоф молиявий тизимни шакллантиришда рақамлаштиришнинг роли</i>	164
<b><i>Давранов О.А.</i></b>	<i>Минтақавий ривожланишни баҳоловчи молиявий кўрсаткичлар</i>	169
<b><i>Исломов Ж.Д.</i></b>	<i>Минтақавий барқарорликни таъминлашда чегара олди савдо-саноат зоналарининг аҳамияти</i>	177
<b><i>Холмурадов О.Н.</i></b>	<i>Фойда солиғи бухгалтерия ҳисобини МҲХС асосида такомиллаштириш</i>	183
<b><i>Холмурадов О.Н.</i></b>	<i>Молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш</i>	188
<b><i>Янгиев А.Л.</i></b>	<i>Банк тизимида кредит портфели сифатини ошириш ва рискларни камайтириш усуллари</i>	194



## ZIYORAT TURIZMI SALOHİYATINI YUKSALTIRISH: KLAS TER ASOSIDAGI INNOVATSION YONDASHUVLAR

**Abdiraimov Sh.D.**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

**Annotatsiya.** *Maqolada ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda innovatsiyalar, resurstejamkor texnologiyalar va inson kapitalidan samarali foydalanishning o'rne tahlil qilinadi. Jahon amaliyoti misolida turizmning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri asoslanadi. O'zbekiston sharoitida turizmni rivojlantirish konsepsiyalari, ichki turizmni kengaytirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar hamda ziyorat turizmi innovatsion shakllari, klaster yondashuvi va metodik yechimlarning zarurati ko'rsatiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ziyosat turizmi, innovatsiya, klaster yondashuvi, rekreatsion resurslar, barqaror rivojlanish, ichki turizm, turizm salohiyati, iqtisodiy samaradorlik, O'zbekiston turizm strategiyasi.*

**Аннотация.** *В статье анализируется роль инноваций, ресурсосберегающих технологий и эффективного использования человеческого капитала в повышении потенциала паломнического туризма. На примерах мировой практики обосновывается влияние туризма на экономическую и социальную устойчивость. В условиях Узбекистана рассматриваются концепции развития туризма, приоритетные направления расширения внутреннего туризма, а также необходимость внедрения инновационных форм паломнического туризма, кластерного подхода и методических решений.*

**Ключевые слова:** *паломнический туризм, инновации, кластерный подход, рекреационные ресурсы, устойчивое развитие, внутренний туризм, туристский потенциал, экономическая эффективность, стратегия туризма Узбекистана.*

**Abstract.** *The article analyzes the role of innovations, resource-saving technologies, and the effective use of human capital in enhancing the potential of pilgrimage tourism. Based on examples from global practice, the impact of tourism on economic and social sustainability is substantiated. In the context of Uzbekistan, tourism development concepts, priority directions for expanding domestic tourism, as well as the necessity of innovative forms of pilgrimage tourism, a cluster approach, and methodological solutions are highlighted.*

**Keywords:** *pilgrimage tourism, innovation, cluster approach, recreational resources, sustainable development, domestic tourism, tourism potential, economic efficiency, Uzbekistan tourism strategy.*

### 1. Kirish.

Jahonda turizmning o'rne tobora kuchayib borayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib, bu jarayon turizm sohasining global darajada kengayishi hamda hududlararo raqobatning ortishi bilan chambarchas bog'liq. Ziyorat maskanlarini raqamli transformatsiya qilish turizmni

jadallashtirish, xalqaro bozorda sayyohlar oqimini ko'paytirish, turistik infratuzilmani yaxshilash va iqtisodiy rivojlanishga qo'shimcha turtki berishga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida innovatsiyalar, resurstejamkor texnologiyalar va inson salohiyatidan samarali foydalanish davlatlar farovonligining asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Turizm sohasi esa global miqyosda iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi, yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiluvchi va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan tarmoq sifatida ajralib turadi. Turizm salohiyatidan oqilona va barqaror foydalanilgan taqdirda tabiiy hamda tarixiy-madaniy merosni asrash, aholining hayot sifatini yaxshilash va rekreatsion resurslarning tiklanishini ta'minlash imkoniyati kuchayadi.

Ziyorat turizmi jahon bozorida barqaror talabga ega bo'lgan yo'naliklardan biri bo'lib, yetakchi davlatlar tajribasi xizmatlar zanjirini klaster modeli asosida tashkil etish yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatadi. Saudiya Arabistonida Makka va Madina shaharlari atrofida shakllangan klasterlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Makkada "Haram City Cluster" modeli asosida mehmonxona xo'jaligi, transport, savdo markazlari, tibbiy xizmatlar hamda raqamli boshqaruv tizimlari yagona boshqaruv ostida muvofiqlashtirilgan. Hajj va Umra jarayonlarini boshqarish uchun joriy etilgan "Nusuk" platformasi klasterning raqamli boshqaruv yadrosi sifatida faoliyat yuritadi. Bu yondashuv natijasida mamlakat yiliga 20 milliondan ortiq ziyoratchini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi va 2030-yilgacha ushbu ko'rsatkichni 30 millionga yetkazish maqsadi belgilandi. Xizmatlar integratsiyasi Saudiya Arabistoni iqtisodiyotiga yiliga 12–15 milliard dollarni tashkil etuvchi qo'shimcha qiymat keltirmoqda.

Shuningdek, Turkiyaning Konya shahrida shakllangan "Mevlana Spiritual Tourism Cluster" klaster tarkibida muzey, diniy-ma'rifiy maskanlar, mehmonxonalar, transport va gastronomiya obyektlari yagona turistik hudud sifatida shakllantirilgan bo'lib, Konya shahar hokimligi va Turizm vazirligi tomonidan boshqariladi. Natijada hududga har yili 3 millionga yaqin ziyoratchi tashrif buyuradi, klaster doirasida 300 dan ortiq turizm subyekti faoliyat yuritadi, shahar iqtisodiyotida turizm ulushi 40 foizga yaqinlashgan.

Eronning "Razavi Holy Shrine Cluster" klasteriga 300 dan ortiq mehmonxona, transport va savdo obyektlari, tibbiy turizm muassasalari birlashtirilgan bo'lib, har yili 20 milliondan ortiq ziyoratchi keladi. Mashhad iqtisodiyotining 60 foizdan ortig'i aynan turizm klasteri orqali shakllanadi, Hindistonning "Kashi Vishwanath Corridor Cluster" loyihasi ham ziyorat turizmini modernizatsiya qilishning muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi. Ibodat maskanlari, daryo bo'yidagi infratuzilma, mehmonxonalar, savdo hamda hunarmandchilik markazlari yagona ekotizimga birlashtirilishi natijasida ziyoratchilar oqimi yillik 50 foizgacha oshgan, 20 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan va hududning umumiy turizm daromadlari sezilarli ravishda ko'paygan.

Yuqoridagi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ziyorat turizmini rivojlantirishda klaster modeli infratuzilma, xizmatlar sifati, marketing va boshqaruvni yagona tizimga birlashtirib, hududning raqobatbardoshligini kuchaytiradi va turizm mahsulotining qo'shimcha qiymatini oshiradi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Ziyorat turizmi bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar diniy sayohatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ta'sirini turli nazariy yondashuvlar asosida o'rgangan. Porter M. (1990) tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasi asosida ko'plab tadqiqotchilar turizm klasterlarining raqobatbardoshligini oshirish, investitsiya oqimini kuchaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilashdagi ahamiyatini asoslab bergan. G. Gulyamova (2023) ilmiy ishida ziyorat turizmi klasterlarini shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilib, ularni mintaqaviy boshqaruvning samarali vositasi sifatida asoslaydi va klaster yondashuvi orqali resurslar, xizmatlar, infratuzilma hamda boshqaruvni yagona tizim sifatida uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. B.M. Eidelman (2017) diniy va ziyorat turizmining shakllanish omillarini,

ziyoratchilar oqimining boshqaruvi va ziyorat maskanlarining tizimli integratsiyasini turizm boshqaruvidagi asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. M.J. Kawsar, M. Evans va R. Khan (2024) diniy turizmni xalqaro bozorda raqobatbardosh qilish uchun klasterlash, yagona brend yaratish va marketing integratsiyasi zarurligini, A.O. Oraibi (2024) esa diniy turizm motivatsiyasi, ziyoratchilar xulqi va hududiy boshqaruv masalalarini o'rganib, diniy turizmning barqaror rivojlanishi uchun hududlar bo'yicha klaster asosida boshqaruvni kuchaytirish muhimligi yuzasidan fikr yuritgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar X. Xasanova va A. Abilqosimovlar (2024) ziyorat turizmin klasterlash ziyorat maskanlarining jozibadorligini oshirishi va turizm xizmatlari uyg'unligini ta'minlashini ta'kidlaydilar.

### **3. Tadqiqotlar metodologiyasi.**

Tadqiqotda ziyorat turizmi salohiyatini baholash va klaster hamda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini aniqlash uchun kontent-tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Ilmiy manbalar, rasmiy statistik ma'lumotlar va xalqaro amaliyotlar asosida ziyorat maskanlari, infratuzilma va xizmatlar tizimi o'rganildi. Olingan tahlillar klaster modeli va innovatsion yechimlarning mintaqaviy turizm rivojiga ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

O'zbekiston hududida tarixiy-diniy merosga oid 300 dan ortiq ziyorat maskanlarining mavjudligi mamlakatning ziyorat turizmi salohiyati naqadar yuqori ekanini ko'rsatadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Toshkent kabi yirik markazlarda joylashgan Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Bahauddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Shohi Zinda ansambli hamda Pahlavon Mahmud maqbarasi kabi yuksak qadr topgan muqaddas ziyorat majmualari xalqaro miqyosda tan olingan diniy sayohat yo'nalishlarining asosiy resursini tashkil etadi. Ushbu maskanlarning yuqori ziyoratchi jalb qilish salohiyati sohani zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida transformatsiya qilishni talab etadi.

So'nggi yillarda mamlakatda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, an'anaviy mehmonxonalar bilan bir qatorda muqobil turar joy variantlarini taklif etish bo'yicha dolzarb o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mahalliy aholi uylarida yashash imkoniyati – homestay modeli ommalashib, etnik va madaniy tajriba asosida shakllangan nostandart turizm turlari keng rivojlanmoqda. Bunday shakl turistlarga mahalliy madaniyat, urf-odat va turmush tarzini bevosita idrok etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, "turizm shaharchasi", "turizm mahallasi" va "turizm ovuli" kabi tashabbuslar orqali hududlarda aholining turizm jarayonlariga jalb qilinishi mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirmoqda. Bu jarayon pandemiya davridan keyingi iqtisodiy tiklanish, aholining sayohat odatlaridagi o'zgarish va arzonroq dam olish variantlariga talab ortishi bilan ham uyg'un ravishda kechmoqda.

Ziyorat turizmi bo'yicha mavjud salohiyatdan samarali foydalanish esa sohada innovatsion va klaster yondashuvlarning joriy etilishini talab etadi. Innovatsion yondashuvlar, avvalo, AKT va raqamli platformalar asosida "aqlli" ziyorat hududlarini shakllantirish, bronlash, yo'nalish bo'yicha navigatsiya, xizmatlar integratsiyasi va ziyoratchi oqimini boshqarishning zamonaviy vositalarini joriy etishni anglatadi. Bunday raqamli infratuzilma turizm jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va qulayligini oshirib, ziyoratchilarning umumiy tajribasini yaxshilaydi.

Klaster yondashuvi esa ziyorat maskanlari atrofida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini – mehmonxona, transport, savdo, servis, gidlik va boshqa xizmat subyektlarini yagona qo'shilgan qiymat zanjiri asosida birlashtirishni ko'zda tutadi. M. Porter ta'riflaganidek, qo'shilgan qiymat zanjiri kompaniya faoliyatining yaratish, ishlab chiqarish, yetkazib berish va xizmat ko'rsatish bo'g'inlarini o'zaro uyg'unlashtiradi. Ziyorat turizmi kontekstida bu mexanizm xizmatlar sifatini yaxshilash, narx-samaradorlikni oshirish, ichki raqobatni kuchaytirish va iqtisodiy resurslardan optimal foydalanish imkonini beradi. Natijada hududiy ziyorat klasterlari

shakllanib, ular raqobatbardosh, barqaror va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega turistik mahsulot yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston uchun innovatsion va klaster yondashuvlar ziyorat turizmini yangi bosqichga olib chiqishning asosiy omillaridan biridir. Mavjud infratuzilmani takomillashtirish, xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, ichki turizmni rag‘batlantirish va hududlarda yangi biznes model va xizmatlarni joriy etish siyosati bu yo‘nalishning strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Ziyoratchilar talabiga mos, raqobatbardosh va diversifikatsiyalashgan xizmatlar yaratish O‘zbekistonni mintaqada ziyorat turizmining yetakchi markaziga aylantirish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ziyorat turizmi sohasini institutsional va infratuzilmaviy jihatdan rivojlantirish bo‘yicha kompleks islohotlar bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda. Tashqi va ichki sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish orqali ularning sonini oshirish, ziyorat turizmini rivojlantirishni jadallashtirish, uni iqtisodiyotning muhim drayveriga aylantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 915-son qarori bilan “Turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan turistik klasterlarni tashkil etish va ularga klaster maqomini berish tartibi tasdiqlandi.

Qarorga muvofiq, klasterlar “turoperator — mehmonxona — transport — savdo va servis” xizmatlarining integratsiyalashgan tizimi sifatida shakllanishi lozim. Shuningdek, kamida 40 o‘rinli joylashtirish vositasi, hunarmandchilik savdo nuqtasi, xavfsizlik infratuzilmasi va ekologik, etnografik, madaniy-tarixiy yoki sog‘lomlashtirish yo‘nalishlaridan biri mavjud bo‘lishi shart etib belgilangan. Klaster maqomini berish vakolati Turizm qo‘mitasiga yuklatilgan, klasterlar reyestri va baholash mexanizmi joriy qilingan.

Xalqaro tajriba va milliy normativ asoslar uyg‘unligi O‘zbekistonda ziyorat turizmining klaster modeli asosida rivojlanishi uchun mustahkam sharoit yaratmoqda. Mazkur yondashuv xizmatlarning integratsiyalashgan boshqaruvini ta‘minlab, hududlarda innovatsion turizm ekotizimini shakllantiradi hamda iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.



**1-rasm. Ziyorat turizmi klasteri: integratsiyalashgan tizim va amaliy natijalar**

Yuqorida keltirilganidek, turistik klaster tizimida turoperator, mehmonxona, ziyoratgoh, transport, savdo va servis xizmatlarining o‘zaro integratsiyasi yagona boshqaruv ostida

ishlaydigan xizmatlar zanjirini shakllantiradi. Ushbu integratsiya marshrutlarni rejalashtirishdan boshlab joylashtirish, tashish, ziyorat obyektlariga yo'naltirish hamda savdo va qo'shimcha servis xizmatlarini uyg'un holda muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Raqamli boshqaruv tizimlarining qo'llanishi bronlash jarayonlarini tezlashtiradi, logistika samaradorligini oshiradi va xizmatlar sifati bo'yicha yagona standartning shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada mahalliy iqtisodiy faollik kuchayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, xizmat sifati va turistlar qoniqishi oshadi, ziyoratchilar oqimi barqaror ko'payadi hamda hududning investitsiya jozibadorligi ortib, ziyorat turizmi iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylanadi.

O'zbekistonda ham mahalliy, ham xorijlik sayyohlar sonini ko'paytirish vazifasini amalga oshirish maqsadida "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ga muvofiq, bir qator vazifalar, jumladan, mamlakatimizda to'siqsiz turizm infratuzilmasini joriy etish belgilangan, mamlakatning asosiy turizm shaharlari, turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish ulardan samarali foydalanish davlat dasturida qabul qilinadi. Bundan tashqari, Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida qo'shimcha turizm zonalari va dam olish maskanlarini barpo etish rejalashtirilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida, Navoiy viloyatida ekoturizm rivojlantiriladi, shuningdek respublikada ziyorat turizmini rivojlantirish salohiyati samarali amalga oshiriladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston diniy ziyorat turizmi bo'yicha Markaziy Osiyoda eng yuqori salohiyatga ega davlatlardan biridir. Mamlakat hududida joylashgan Imom al-Buxoriy, Bahauddin Naqshband, Imom Termiziy, Shohi Zinda ansambli va Pahlavon Mahmud maqbarasi kabi yirik ziyorat maskanlari nafaqat diniy-ma'naviy markaz, balki xalqaro darajada e'tirof etilgan madaniy-tarixiy obyektlar sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu resurslar ziyorat turizmi bozorida O'zbekistonning raqobat ustunligini shakllantiruvchi asosiy omillar bo'lib, ayniqsa innovatsion va klaster yondashuvlar joriy etilganda ularning potentsiali yanada kengayadi.

Ziyorat turizmining iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri innovatsion boshqaruv elementlari hamda klasterlashuv mexanizmlari qo'llanilganda bir necha strategik yo'nalishda yanada kuchli namoyon bo'ladi. Avvalo, klaster modeli asosida xizmat ko'rsatish zanjirining integratsiyalashuvi - mehmonxona, transport, servis, savdo, gidlik va hunarmandchilik sektorlarining yagona tizimda ishlashi — mahalliy bandlikning barqaror oshishiga olib keladi. Ziyoratchilar oqimi ortgani sari bu xizmatlarning har biri qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi, klaster ichida qo'shilgan qiymat zanjiri shakllanadi va iqtisodiy samaradorlik oshadi.

Innovatsion yondashuvlar, xususan AKT asosidagi "aqlli" ziyorat hududlari, raqamli gidlik tizimlari, elektron navbat va bron qilish platformalari infratuzilma modernizatsiyasining tezlashishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon yo'llar, transport bog'lanishlari, turizm axborot markazlari va kommunikatsiya tarmoqlarini yangilashni rag'batlantiradi, turizm mahsulotining sifat ko'rsatkichlarini sezilarli yaxshilaydi.

Klaster shaklidagi boshqaruv diniy-ma'naviy meros obyektlarining saqlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turizm daromadlarining bir qismi restavratsiya va konservatsiya ishlariga yo'naltirilishi natijasida yodgorliklarning asrab-avaylanishi moliyaviy jihatdan ta'minlanadi, bu esa meros obyektlarining uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlaydi.

Innovatsion xizmat modellarining kengayishi ichki turizm faolligini ham oshiradi. Ziyorat yo'nalishlarining raqamli xaritalari, multimodal transport integratsiyasi va mahalliy aholi uylarida joylashtirish kabi moslashuvchan xizmatlar natijasida ichki mobilitet ortadi, aholining madaniy-ma'naviy jarayonlarga qiziqishi kuchayadi.

Klaster yondashuvi hududlar iqtisodiyotining jonlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Ziyoratchilar oqimi yirik shaharlar bilan bir qatorda chekka hududlarni ham qamrab oladi, bu esa hududlararo iqtisodiy tafovutni kamaytiradi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Shu tariqa, innovatsion va klaster yondashuvlarga tayanilgan ziyorat turizmi O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayoniga kuchli multiplikativ ta'sir ko'rsatadi, mavjud resurslar salohiyatini maksimal darajada ochadi va mamlakatni xalqaro diniy turizm xaritasida raqobatbardosh markaz sifatida shakllantiradi.



**2-rasm. Ziyorat klasterini shakllantirishning “aqlli” ziyorat turistik hududi (destinatsion) modeli**

Ziyorat turizmini rivojlantirishda “aqlli” ziyorat hududi modeli va klasterlashuv mexanizmlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat. Birinchisi, zamonaviy AKT va internet texnologiyalaridan keng foydalanish orqali ziyorat hududlarini raqamlashtirish va ularni funksional “aqlli” turistik makonga aylantirishdir. Muqaddas maskanlarning klasterlarga birlashtirilishi natijasida hudud ichida xizmat ko'rsatish jarayonlari optimallashtiriladi, axborot almashinuvi tezlashadi va turistik mahsulotning sifat ko'rsatkichi oshadi. Ikkinchisi, ziyorat xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar ichida qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratishdir. M. Porter (1990) ta'riflaganidek, qo'shilgan qiymat zanjiri mahsulot yaratish, ishlab chiqarish, marketing va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzviy bog'liqligini anglatadi. Ziyorat xizmatlari kontekstida bu zanjir mehmonxona, transport, savdo, servis va boshqa xizmatlarning yagona tizimida ishlashiga olib keladi. Har bir bo'g'inning qiymat yaratishdagi hissasi oshgani sari klasterning umumiy iqtisodiy samaradorligi kuchayadi.

Rasmda aks ettirilgan model aynan shu ikki mexanizmning uyg'unligini ko'rsatadi: ziyorat hududlarini klasterlashtirish, xizmat ko'rsatish subyektlari o'rtasida vertikal va gorizontal aloqalar o'rnatish, ichki raqobatni rivojlantirish hamda destinatsion marketing vositalarini qo'llash orqali integratsiyalashgan ziyorat klasteri shakllanadi. Natijada resurslar samarali taqsimlanadi, xizmatlar zanjiri yaxlit boshqaruv ostida ishlaydi va ziyoratchilar uchun yaratiladigan qiymat sezilarli darajada oshadi. Ushbu jarayonning yakuniy natijasi — ixtisoslashgan, raqobatbardosh va yuqori qo'shimcha qiymatga ega ziyorat turistik mahsulotining shakllanishidir.

## 5. Xulosa.

O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyati tarixiy-diniy meros, madaniy qadriyatlar va yirik ziyorat maskanlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu resurslar davlatning mintaqaviy va global turizm bozorida raqobatbardoshligini belgilab beradi. So'nggi yillarda sektorni modernizatsiya qilish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, AKT asosidagi “aqlli” ziyorat hududlari, turistik klasterlar tashkil etish, qo'shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish, mahalliy

aholi ishtirokini kengaytirish kabi mexanizmlar ziyorat turizmining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini sezilarli oshirmoqda.

Klaster yondashuvi ziyorat maskanlari, mehmonxona xo'jaligi, transport, servis va savdo kabi xizmatlar o'rtasida funksional integratsiyani ta'minlab, yagona boshqaruv tizimi orqali iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Natijada hududlarda yangi ish o'rinlari yaratiladi, infratuzilma modernizatsiyasi jadallashadi, meros obyektlarining saqlanishi uchun qo'shimcha moliyaviy manbalar shakllanadi va ichki turizmning jozibadorligi ortadi. Umuman olganda, innovatsion va klaster yondashuvlarga tayangan ziyorat turizmi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun barqaror rivojlanishning muhim drayveriga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, ziyorat turizmi salohiyatini oshirish, innovatsion boshqaruv yechimlarini joriy etish va klaster modelining iqtisodiy samaradorligini kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Ziyorat turizmining iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, hududlarning turizm drayveri sifatidagi rolini kuchaytirish hamda xizmatlar tizimining samaradorligini oshirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarda tizimli choralar ko'rish zarur.

✓ Ziyoratgoh hududida mavjud mahalliy resurslarni — xalq tabobati an'analari, mashhur milliy taomlar, hududga xos hunarmandchilik mahsulotlari, etnik-madaniy marosimlar, tabiat manzaralari va sog'lomlashtirish imkoniyatlarini klaster modeliga qo'shgan holda xizmatlar zanjirini kengaytirish. Bu yondashuv ziyorat maskanlari atrofida qo'shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlar paketini shakllantiradi, ziyoratchilarga kompleks tajriba taqdim etadi va hududning iqtisodiy samaradorligini sezilarli oshiradi. Shu orqali integratsiya faqat asosiy turistik xizmatlar bilan cheklanmay, balki mahalliy madaniyat, gastronomiya, an'anaviy davolash amaliyotlari va hunarmandchilikni o'z ichiga olgan kengaytirilgan ziyorat klasteriga aylanadi.

✓ turizmning barcha turlarini o'zaro integratsiya qilish muhim strategik yo'nalishdir. Ziyorat turizmini ekoturizm, madaniy turizm, gastronomik turizm va tibbiy turizm bilan mintaqaviy paket-marshrutlar ko'rinishida uyg'unlashtirish turistik mahsulotning qo'shilgan qiymatini keskin oshiradi. "Bir hudud – bir yo'nalishlar majmuasi" tamoyilini qo'llash orqali hududlarning ko'p tarmoqli turizm drayveri sifatidagi salohiyati mustahkamlanadi, mavsumiylik kamayadi va turistlar segmenti diversifikatsiyalanadi.

✓ Ziyorat maskanlarida xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida, ziyoratgohlar infratuzilmasining ayrim funksional qismlarini (servis zonalari, axborot markazlari, savdo va ovqatlanish maydonlari) mulk huquqini bermagan holda xususiy tadbirkorlik subyektlariga uzoq muddatli foydalanish huquqi asosida topshirish mexanizmini joriy etish. Ushbu yondashuv davlat mulkini saqlab qolgan holda xizmatlar sifatini oshirish, investitsiya jalb etish va klaster modelida davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish imkonini yaratadi. Bu modelda davlatning vazifasi yodgorliklarni muhofaza qilish, diniy-ma'naviy merosni asrash va normativ-huquqiy tartibotni ta'minlashdan iborat bo'lib qoladi.

### **Adabiyotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (2024) "Turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 915-son qarori.

"2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni

Oraibi A.O. (2024) Religious tourism and the factors and opportunities that motivate tourists to pursue religious tourism-Iraq as a sample

Eidelman B.M. (2017) Religious tourism in the tourism system Turismo religioso en el sistema turístico

Gulyamova G.P (2023) O'zbekistonda ziyorat turizmi klasterlarini rivojlantirish: imkoniyatlar va muammolar

Kawsar M.J., Evans M.va Khan R.(2024). Pilgrimage and Tourism Marketing Concepts

Porter, M (1990) *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press

Xasanova X., Abilqosimov A. (2024) The history of pilgrimage tourism and its role in the field of tourism

<https://www.aqr.ir>

<https://www.ktb.gov.tr>

<https://www.tourism.gov.in>

<https://www.uptourism.gov.in>

<https://www.vision2030.gov.sa>



## UZBEKISTAN'S ECONOMY: DEVELOPMENT PATH, PRIORITIES AND MODERN CHALLENGES

**Abdujalilova O.A.**

*World Economy and Diplomacy University*

**Abstract.** *The article is about the evaluation of Uzbekistan's economy in the past three decades and their aggressive marketing principles in the transition from a planned economy. It presents the two periods of economic situation from 1991 to 2000 and from 2017 to 2025 based on statistical trends as the basis for the analysis. The outcomes of the study indicates and points out the ways to Uzbekistan's fast economic transformation.*

**Keywords:** *GDP, WTO, export of raw materials, foreign exchange market, national economy, agriculture, economic system of Uzbekistan.*

**Аннотация.** *В статье рассматривается оценка экономики Узбекистана за последние три десятилетия, а также принципы активной маркетинговой политики в процессе перехода от плановой экономики. На основе статистических тенденций в качестве аналитической базы представлены два периода экономического развития: с 1991 по 2000 годы и с 2017 по 2025 годы. Результаты исследования указывают и обосновывают пути ускоренной экономической трансформации Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *ВВП, ВТО, экспорт сырья, валютный рынок, национальная экономика, сельское хозяйство, экономическая система Узбекистана.*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi uch o'n yillikdagi holati hamda rejalashtirilgan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish jarayonida qo'llanilgan faol marketing tamoyillari tahlil qilinadi. Tahlil uchun asos sifatida statistik tendensiyalarga tayangan holda iqtisodiy rivojlanishning ikki davri - 1991-2000-yillar hamda 2017-2025-yillar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning jadal iqtisodiy transformatsiyasi yo'llarini ko'rsatib beradi va asoslab beradi.*

**Kalit so'zlar:** *YAIM, JST, xomashyo eksporti, valyuta bozori, milliy iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, O'zbekiston iqtisodiy tizimi.*

### 1. Introduction.

The process of transition to market relations, which began in the 1990s, has significantly accelerated over the past five years and has reached a new stage of institutional reforms. In particular, the gradual liberalization of the foreign exchange market, simplification and optimization of the fiscal system, restructuring of the banking sector based on modern requirements, and the transfer of state assets to the private sector have been formed as the central directions of the economic liberalization process. Recent years Uzbekistan's

macroeconomic indicators have shown a stable positive trend in the region. That is, the annual growth rates of the country's GDP (Gross Domestic Product) have been one of the leadings among the Central Asian countries. If in the early period of independence, the total GDP of the region amounted to about 47 billion US dollars, then after 34 years later this indicator has expanded more than 10 times and has approached 500 billion dollars. Despite these dynamics, the economies of the region still retain a significant dependence on raw material exports and transnational remittances. At the same time, the structural expansion of industrial production, the service industry, and construction is in full swing. The inflation rate is slowly going down, which is a favorable condition for reaching a relatively stable macroeconomic balance in the medium in the medium term. In recent years, Uzbekistan's industrial sector has undergone a deep diversification process. The economic model which had been mainly concerned with raw material exports in the past, at the moment, the sectors that can create high added value such as the automotive industry, chemical, and petrochemical industries, electrical engineering complex, pharmaceuticals, and other high-tech areas are the ones that are growing rapidly. This change is of great importance as it is not only modernizing the economy but also strengthening the institutional foundations of sustainable growth. The yearly rise in the foreign direct investment inflow testifies to the fact that the country is becoming more and more attractive to investors. In the geography of foreign trade, China, Russia, Turkey, South Korea, Afghanistan, and India are recognized as the main partners. The share of these seven countries is approximately 47.3 percent of the total foreign trade turnover, which confirms their strategic importance for the country's economic system.

## **2. Literature Review.**

According to the Asian Development Bank's 2025 report, the country's economic growth rate is expected to increase to 6.6%, and in 2026, the economic positions will become legally stable. The important role of social cooperation in the country's development in Uzbekistan is also emphasized (Asian Development Bank).

Uzbekistan's growth of 6.5% in 2024 is the result of the government's targeted efforts to develop economic sectors such as industry and construction, said Kanokpan Lao-Araya, ADB's country director for Uzbekistan. "For good results for Uzbekistan's future sustainable and balanced growth with continuous work on improving infrastructure and enabling integration.

At the same time, Uzbekistan is expected to join the WTO, Deputy Prime Minister of Uzbekistan Jamshid Khojaev, Head of the Uzbekistan delegation, said that the country achieved its goal of joining the WTO at the meeting of the Working Group on WTO Accession held on November 5 and 6, 2025. At the same time, he expressed his gratitude to the WTO members for their assistance in the negotiations, stressing Uzbekistan's readiness to work on outstanding issues.

The high-level delegation from Tashkent at the meeting with the WTO included the 30-member high-level delegation, the Special Representative of the President of Uzbekistan for the WTO and Chief Negotiator Azizbek Urunov, and Deputy Minister of Economy and Finance Mahmud Istamov. The delegation was led by senior government officials and specialists from a number of ministries and departments joined virtually from Tashkent (WTO 2025).

Looking back on history, the 2000s were an important and responsible period for the economy of Uzbekistan. After the first decade of economic development, during this period, special attention was paid to ensuring stability in the country, forming a model for the development of the national economy and the country. This period was marked by gradual growth and changes in the economy of Uzbekistan (stat.uz).

The country's industrial enterprises also underwent changes. Energy, non-ferrous metallurgy, textile and food industries became the main drivers of economic growth. The policy of developing import-substituting and export-oriented production served to increase the volume of industrial output. In addition, the share of the non-state sector in the economy

increased by supporting small businesses and private entrepreneurship, and to this day the country is seeing the results of this (cbu.uz).

### 3. Research methodology.

The secondary study technique used in this investigation into enhancing economic development in Uzbekistan by comparative analysis and statistical analysis methods. Sources of information gathered through official website of the President of the Republic of Uzbekistan (president.uz), statistical Agency of the Republic of Uzbekistan (stat.uz). "Uzbekistan's economy: development processes and prospects" – textbook, (Karimov.N). Tashkent: Economics Publishing House, World Bank (worldbank.uz), Country Report – macroeconomic analysis (imf.org). And such kind of similar sites were used to investigate the extent to which the economy of Uzbekistan is emerging, its Gross Domestic Product (GDP) indicators, innovation and investment activity in the state, the rate of decline in inflation, and indicators related to the industrial management and service sectors.

### 4. Analysis and result.

Based on the data obtained, GDP volume, economic growth rate, investment and innovation activity, and infrastructure indicators were analyzed.

**Table 1**


No .	Indicator / Direction	Early years of independence (1991-2000)	Current economy (2017-2025)
1	Economic system	The process of transition from a planned system to a market system has begun.	The principles of a fully market economy have been formed.
2	Currency policy	Large difference between official and unofficial exchange rates, strict control.	The currency is freely convertible; the exchange rate is based on market principles.
3	Prices	Strictly controlled by the state	Mainly market-driven
4	Industry	Mainly relied on the supply of raw materials (cotton, gas)	Diversification: automotive, chemical, electrical engineering, pharmaceuticals
5	Agriculture	Mandatory state orders are strong; cotton is the leader	Compulsory plans have been abolished; horticulture and animal husbandry have developed
6	Private sector	In the development stage, small businesses are just emerging	Forms a large part of GDP, and privatization processes continue
7	Investments	Very little, mainly state funds	Foreign investment has increased sharply; there are many benefits for investors
8	Business environment	Strict procedures, many permits	Simplified procedures, many licenses have been canceled
9	Energy	Domestic needs were covered due to sufficient gas reserves	Population growth, modernization is necessary, "green energy" is developing

10	IT and technologies	Almost nonexistent	IT parks, startups, digital government, artificial intelligence
11	Banking system	Under strong state control	Competitive, digital banking services have developed
12	Foreign trade	Closed economy, many restrictions	Open economy, active trade with neighbors
13	Infrastructure	Based on the old Soviet system	New roads, airports, power grids are being modernized
14	Tourism	Very few tourists	Tourism is open, visa-free regime, number of guests has increased sharply
15	Standard of living	Low, difficult economic transition	Average income has increased; social services have expanded

Source: [Data from the Ministry of Economy and Industry of the Republik of Uzbekistan \(2000-2022\)](#). [Invest Uzbekistan \(official investment portal\) data for 2024](#). Education (economic) analysis: about the crisis and the period of recovery during the years of independence.

An analysis of the table data shows that the economy of Uzbekistan was in a transitional stage during early period of Independence, difficult and regulated. Now the economy is a liberalized, open, attractive for investment, and modernized system.

Another factor in the macroeconomic indicators that indicate that the economy of Uzbekistan is developing is the country’s GDP in US dollars and the inflation rate from 2000 to 2025. As shown in the graph statistics in the 2000s, GDP was 3,255.6 billion soms and the inflation rate was 28.2 percent. Today, by 2025, GDP will be 1,303,702.1 billion soms, representing a growth rate of 107.6 percent, and the inflation rate has decreased by 5.1 percent. This is a significant indicator of the country development.



Source: These graphs information were downloaded in excel format from the macroeconomic indicators section of the official website of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan and visualized using pyhton programming. (24.07.2025)

Assessment of macroeconomic indicators

- GDP growth rates are leading among the Central Asian countries
- Inflation rates are gradually decreasing and are approaching a stable level
- Significant expansion is observed in the industry, services and construction sectors

Development trends by sector

- The share of services accounts for more than half of GDP
  - Foreign investment flows are increasing year by year
  - Horticulture, vegetable growing and livestock breeding are developing
- General indicators of current economic period
- High growth rates
  - The digital economy is developing rapidly
  - The energy system is being modernized

The above economic analysis provides a deeper understanding of the historical changes and current developing trends of the Uzbek economy. First of all, statistical analysis shows that the country has been maintaining stable economy growth rates in recent years. The rise in GDP, the drop in inflation, the growth of industries and the rise in capital investments are all indicators that the economy is undergoing a process of stabilization and liberalization. Even though these aspects are not evidenced by exact statistics, the prevailing trends point to a favorable change in the economic climate.

The comparative analysis reveals Uzbekistan's trajectory from the economic woes of the early independence period to its modern liberalized market economy. In the past, the economy was heavily controlled by the state and was mainly dependent on raw material exports, whereas now, diversification is rising and high-value-added production sectors are developing. The agricultural sector has been transformed from a compulsory regime to a market-based system, the business environment has been made much easier, and foreign trade has been allowed virtually without any restrictions. The differences in the different areas of the economy that have shown qualitative changes are clearly exposed by these comparisons.

In general, the analysis confirms that the Uzbek economy's development gradually and consistently unfolds, reforms are slow but sure to show their results, and the country's entry into the world economy is on the rise. These developments affect the economic indicators as well as good living conditions, the liberalization of business activities, the quality of services, and the upgrading of infrastructure. Therefore, statistical and comparative analysis. Shows that Uzbekistan is moving forward on the path of economic development and provides a basis for giving positive forecasts for the future.

## 5. Conclusion.

This article discusses the complex transition stages of the Uzbek economy since the years of independence and today it has become a stable market economy, combined with modernization processes. Therefore, the Uzbek economy is currently being formed as an economic model that is consistently developing, open, competitive and capable of showing even higher results in the future. These processes create a solid foundation for achieving the country's long-term strategic goals.

## References:

International Monetary Fund (2022). *IMF Data*. [online] IMF. Available at: <https://www.imf.org/en/Data>.

President.uz. (n.d.). *President of the Republic of Uzbekistan*. [online] Available at: <https://president.uz/en>.

Ruziev, K. (2021). Uzbekistan's Development Experiment: An Assessment of Karimov's Economic Legacy. *Europe-Asia Studies*, 73(7), pp.1303–1329. doi:<https://doi.org/10.1080/09668136.2021.1919602>.

Stat. uz (2021). *State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics*. [online] Stat. uz. Available at: <https://stat.uz/en/>.

World Bank (2025). *Uzbekistan | World Bank Group*. [online] Worldbank.org. Available at: <https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan>.

WTO (2025). *Uzbekistan makes*. [online] Wto.org. Available at: [https://www.wto.org/english/news\\_e/news25\\_e/acc\\_05nov25\\_193\\_e.htm](https://www.wto.org/english/news_e/news25_e/acc_05nov25_193_e.htm).

Yoldoshev, Q. and Gulomov, S. (2010). *Macroeconomics*. Tashkent: Science and Technology.

<https://www.facebook.com/AsianDevBank> (2025). *ADB Highlights Uzbekistan's Economic Growth In 2025*. [online] Asian Development Bank. Available at: <https://www.adb.org/news/adb-highlights-uzbekistans-economic-growth-2025>.



## O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING O'RNI

Dotsent **Aliyev M.K.**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinadi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari, xususan progressiv daromad solig'i stavkalari, soliq imtiyozlari, past daromadli qatlamlar uchun soliqqa tortish yengilliklari va ularning kambag'allik darajasiga ta'siri xalqaro tajribalar bilan solishtirilib o'rganiladi. Tadqiqot davomida daromad solig'i orqali daromadlarni qayta taqsimlash, budjet barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish kabi jarayonlarning samaradorligi baholanadi. Maqolada OECD, IMF, ADB hamda O'zbekistonning so'nggi soliq islohotlari bo'yicha statistik ma'lumotlarga asoslangan holda daromad solig'ining kambag'allikni qisqartirishdagi amaliy imkoniyatlari va mavjud cheklovlar aniqlanadi, shuningdek tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** daromad solig'i; kambag'allik; fiskal siyosat; soliq islohotlari; daromadlarni qayta taqsimlash; progressiv soliqlar; soliq yengilliklari; budjet barqarorligi; ijtimoiy tengsizlik; ijtimoiy himoya tizimi.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль подоходного налога с физических лиц в процессе сокращения бедности в Узбекистане, а также его социально-экономические механизмы воздействия. Рассматриваются проводимые в последние годы налоговые реформы, включая внедрение прогрессивных ставок подоходного налога, предоставление налоговых льгот и послаблений для низкодоходных слоев населения, а также их влияние на уровень бедности на основе сравнительного анализа с международной практикой. В исследовании оценивается эффективность перераспределения доходов, обеспечение бюджетной устойчивости, финансирование социальных программ и снижение социального неравенства за счёт подоходного налога. На основе статистических данных OECD, IMF, ADB и последних налоговых реформ Узбекистана выявлены практические возможности и существующие ограничения подоходного налога в сокращении бедности, а также разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию системы.

**Ключевые слова:** подоходный налог; бедность; фискальная политика; налоговые реформы; перераспределение доходов; прогрессивное налогообложение; налоговые льготы; бюджетная устойчивость; социальное неравенство; система социальной защиты.

**Annotation.** This article analyzes the role of personal income tax in reducing poverty in Uzbekistan and examines the socio-economic mechanisms through which it operates. The study reviews recent tax reforms, including the introduction of progressive income tax rates, various tax

*incentives, and relief measures for low-income groups, evaluating their impact on poverty levels in comparison with international practices. The research assesses the effectiveness of income redistribution, budget sustainability, financing of social programs, and reduction of social inequality through income taxation. Based on statistical data from the OECD, IMF, ADB, and Uzbekistan's latest tax reforms, the article identifies the practical potential and current limitations of personal income tax in poverty reduction and proposes scientific and practical recommendations for improving the system.*

**Keywords:** *personal income tax; poverty; fiscal policy; tax reforms; income redistribution; progressive taxation; tax incentives; budget sustainability; social inequality; social protection system.*

## **1. Kirish.**

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida kambag'allikni qisqartirish, aholining real daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalalari turibdi. Mamlakatda ilk bor kambag'allik darajasini rasmiy o'lchash va uni qisqartirish bo'yicha tizimli davlat siyosati shakllantirilishi fiskal mexanizmlarning, xususan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining rolini qayta baholash zaruratini yuzaga keltirdi. Daromad solig'i nafaqat davlat byudjetining barqaror daromad manbai, balki daromadlar notengligini kamaytirish, past daromadli aholini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya dasturlarining moliyaviy asosini mustahkamlovchi eng muhim fiskal vosita sifatida shakllanmoqda.

Jahon tajribasida, xususan OECD, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Janubiy Koreya va Skandinaviya davlatlarida progressiv daromad solig'i tizimi kambag'allik darajasini pasaytirishda asosiy ta'sirchan mexanizmlardan biri ekanligi isbotlangan. Progressiv soliqlar orqali yuqori daromadli qatlamlardan tushadigan qo'shimcha budjet resurslari nafaqat ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy subsidiyalari kabi ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, past daromadli qatlamlar uchun soliq yengilliklari ularning real iste'mol imkoniyatlarini kengaytirib, kambag'allik xavfini kamaytiradi.

O'zbekistonda 2019 yildan boshlab daromad solig'i stavkalarining soddalashtirilishi, 2022 yildan esa ayrim yuqori daromadlilar uchun progressiv stavkalarining joriy etilishi, shuningdek yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha islohotlar mazkur soliqning ijtimoiy yo'naltirilganligini kuchaytirgan. Ammo amaldagi tizimning kambag'allikni qisqartirishga ta'siri, soliq yukining past daromadli guruhlar orasida qanchalik adolatli taqsimlanayotgani, imtiyozlar samaradorligi, shuningdek, norasmiy sektorning ulushi kabi omillar hamon chuqur tahlilni talab etmoqda.

Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqot O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'rnini, uning qayta taqsimlash mexanizmlarini, xalqaro tajriba bilan solishtirilgan holdagi samaradorligini hamda mavjud cheklov va imkoniyatlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi mamlakatda olib borilayotgan soliq islohotlarining yangi bosqichi, kambag'allikni qisqartirish strategiyasining kuchaytirilgan maqsadlari va fiskal barqarorlikka qo'yilayotgan talablar bilan bevosita bog'liqdir.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Kambag'allikni qisqartirishda soliq siyosatining, xususan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'rnini bo'yicha xalqaro va milliy adabiyotlarda keng ko'lamli ilmiy yondashuvlar shakllangan. Dastlabki ilmiy izlanishlarning aksariyati daromad solig'ining qayta taqsimlovchi mexanizmi, progressiv soliqlarning daromadlar notengligini

kamaytirishdagi samaradorligi hamda fiskal siyosat bilan kambag'allik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan.

OECD tomonidan chop etilgan so'nggi yillarning ilmiy-hisobotlarida progressiv daromad solig'ining ijtimoiy tengsizlikni yumshatishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Ushbu manbalarda yuqori daromadli qatlamlardan olinadigan soliq tushumlarining oshishi budjet imkoniyatlarini kengaytirib, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, bolalar nafaqalari, uy-joy subsidiyalari va sog'liqni saqlash xarajatlarini qoplashda muhim o'rin tutishi qayd etiladi. OECD tahlillariga ko'ra, progressiv daromad solig'i joriy etilgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi o'rtacha 2–5 foiz punktga pasaygan.

IMF tadqiqotlarida esa soliq-budjet siyosatining kambag'allikni qisqartirishdagi barqaror ta'siri fiskal adolat tamoyillariga bog'liq ekani ko'rsatiladi. Xususan, IMF ekspertlari past daromadli qatlam uchun soliq yengilliklari, minimal daromadga soliq solmaslik chegarasi va oilaviy chegirmalarning ijtimoiy himoya tizimiga qo'shimcha samaradorlik berishini ilmiy asoslaydi. Shuningdek, daromad solig'ining samarali qo'llanilishi uchun norasmiy bandlik ulushi past bo'lishi kerakligi uqtiriladi.

Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi fiskal siyosat bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, daromad solig'i kambag'allikni qisqartirishga faqat soliq stavkalari o'zgarishi orqali emas, balki soliqqa tortiladigan bazaning kengayishi, ish o'rinlarining rasmiylashuvi va soliq ma'murchiligining yaxshilanishi orqali ta'sir ko'rsatadi. ADB tahlillarida O'zbekistonning 2019–2022 yillardagi soliq islohotlari, ayniqsa jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasining 12 foizga tushirilishi, mehnat bozori faolligini oshirish va past daromadli qatamlar uchun soliq yukini yengillashtirishda ijobiy omil sifatida baholangan.

Mintaqaviy olimlarning ilmiy ishlarida ham daromad solig'i va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik yuzasidan turli yondashuvlar uchraydi. A.A. Xaydarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston sharoitida daromad solig'i mexanizmlarini takomillashtirish kambag'allikni qisqartirishga qo'shimcha impuls berishi mumkinligi ta'kidlanadi. Muallifning fikricha, soliqqa tortilmaydigan minimal daromad miqdorini oshirish, past daromadli guruhlarga qo'shimcha chegirmalar berish va progressivlashtirish orqali real iste'mol imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Rossiya iqtisodchilari -Sergeev, Buinevich va Zikova — tomonidan olib borilgan tadqiqotlardagi nazariy qarashlarda daromad solig'ining qayta taqsimlovchi funktsiyasi ijtimoiy tengsizlikni yumshatishda hal qiluvchi omil ekani qayd etiladi. Ularning ilmiy qarashlarida soliq yengilliklari tizimining noto'g'ri loyihalaniishi yoki ortiqcha imtiyozlar berilishi kambag'allikni kamaytirish o'rniga, teskari natija berishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi.

Xalqaro adabiyotlarda yana bir muhim jihat — ijtimoiy himoya tizimi bilan daromad solig'i o'rtasidagi integratsiyaning samaradorligidir. Bu yondashuvga ko'ra, daromad solig'idan tushumlar aniq maqsadlarga yo'naltirilishi, xususan bolalar nafaqalari, bandlik dasturlari, uy-joy subsidiyalari va qashshoqlikka qarshi ijtimoiy loyihalarga yo'naltirilganda eng yuqori natija beradi. Ko'plab Yevropa davlatlaridagi amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, daromad solig'i orqali moliyalashtiriladigan maqsadli dasturlar kambag'allikni qisqa muddatda sezilarli kamaytirishga xizmat qilgan.

Mahalliy iqtisodchilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda O'zbekistonda daromad solig'i tizimining so'nggi yillarda modernizatsiya qilinishi aholi farovonligi uchun muhim omil bo'layotgani ta'kidlanadi. Ular soliq siyosatining kambag'allikni qisqartirishga ta'siri soliq yukining adolatli taqsimlanishi, soliq ma'murchiligi sifatining oshishi va norasmiy sektordan rasmiy sektor sari o'tish darajasi bilan bevosita bog'liq ekanini ilmiy asoslagan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i kambag'allikni qisqartirishda kuchli fiskal instrument sifatida namoyon bo'ladi. Biroq uning samaradorligi soliq stavkalari bilan emas, balki soliq yengilliklari, ijtimoiy

dasturlar bilan integratsiya, daromadlarni rasmiylashtirish darajasi va progressiv tizimning adolatli shakllantirilishi bilan belgilanadi. Shuningdek, xalqaro tajriba soliq tizimi va ijtimoiy siyosat uyg'unlashtirilgan taqdirdagina barqaror natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish jarayonida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ta'sirini o'rganish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalarni solishtirish, daromad solig'i tushumlari va kambag'allik ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash va kontent tahlili kabi usullardan foydalanildi. Shuningdek, OECD, IMF, ADB va Jahon banki hisobotlari asosida grafik va analitik tahlil usullari qo'llanib, daromad solig'ining ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi o'rni hamda soliq islohotlarining samaradorligi tizimli baholandi. Mazkur metodika soliq siyosatining kambag'allikka ta'sirini aniqlash va amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i so'nggi yillarda nafaqat budget daromadlarini shakllantirish vositasi, balki ijtimoiy tengsizlikni yumshatish va kambag'allikni qisqartirishning asosiy fiskal instrumentlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Daromad solig'i tizimidagi islohotlar, xususan stavkalarining soddalashtirilishi, soliqqa tortilmaydigan minimumning oshirilishi, past daromadli fuqarolar uchun soliq imtiyozlarining joriy etilishi va soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi orqali aholining real daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatildi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, daromad solig'i orqali kambag'allikni qisqartirishning eng muhim mexanizmlaridan biri — daromadlarni qayta taqsimlash tizimining kuchayishi bilan bog'liq. Past daromadli qatlamlar uchun soliq yengilliklarining kengayishi ularning qo'lga tegadigan real daromadlarini oshirib, hayotiy ehtiyojlarini qoplash imkoniyatini yaxshiladi. Shu bilan birga, yuqori daromadli shaxslar uchun progressiv stavkalarining joriy etilishi orqali qo'shimcha budget resurslari shakllanib, ijtimoiy dasturlar moliyalashtirilayotgan yo'nalishlar miqdor jihatidan kengaydi.

Ayniqsa so'nggi yillarda soliqqa tortilmaydigan daromad miqdorining oshirilishi, bolali oilalar uchun qo'shimcha soliq chegirmalari va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun soliq yukining kamaytirilishi kambag'allik xavfini pasaytirishda muhim ijobiy omil bo'ldi. Amaldagi tahlillar ko'rsatadiki, soliq yengilliklaridan foydalanuvchi oilalar iste'mol xarajatlarining asosiy qismi oziq-ovqat, uy-joy va ta'lim xarajatlariga yo'naltiriladi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Shuningdek, daromad solig'i tushumlarining oshishi davlat budgeti uchun barqaror moliyaviy baza yaratmoqda. O'z navbatida, bu bazaning kengayishi orqali ijtimoiy xarajatlar — nafaqa to'lovlari, kam ta'minlangan oilalarga subsidiya, bolalar uchun moddiy yordam, turar-joy sharoitlarini yaxshilash dasturlari — doimiy ravishda moliyalashtirila boshlandi. Ijtimoiy dasturga yo'naltirilayotgan mablag'larning ortishi kambag'al qatlamni qo'llab-quvvatlashning samaradorligini oshirib, ijtimoiy himoya tizimining ahamiyatini kuchaytirdi.

Biroq, tahlil natijalari daromad solig'ining kambag'allikni qisqartirishdagi roli ayrim cheklovlar bilan bog'liqligini ham ko'rsatadi. Eng muhim muammo — norasmiy sektorning yuqori ulushi. Mehnatga layoqatli aholining bir qismi rasmiylashtirilmagan ish bilan band bo'lgani sababli daromad solig'i to'lovchisiga aylanmaydi. Bu esa soliq bazasini toraytiradi va qayta taqsimlash mexanizmlarining to'liq ishlashiga to'sqinlik qiladi. Rasmiy sektor kengaymay turib, daromad solig'i orqali kambag'allikni sezilarli qisqartirish imkoniyatlari ham cheklangan bo'lib qoladi.

Ikkinchi muammo — hududlar o'rtasidagi daromad tafovutlari. Ba'zi viloyatlarda o'rtacha ish haqi darajasi juda past bo'lgani bois soliq yengilliklari ularning iqtisodiy ahvoriga

sezilarli ta'sir ko'rsatolmaydi. Bu hududlarda kambag'allikni qisqartirish faqat soliq siyosati orqali emas, balki qo'shimcha bandlik dasturlari, tadbirkorlikni rag'batlantirish va infratuzilmani yaxshilash bilan birga olib borilishi zarur.

Uchinchi muhim masala — ma'muriy salohiyat. Soliq ma'murchiligi jarayonlarida raqamlashtirish, soliq deklaratsiyalarini elektron shaklda topshirish, ma'lumotlarni avtomatik solishtirish mexanizmlarining takomillashuvi ijobiy natijalar bermoqda, biroq ayrim hududlarda texnik imkoniyatlar va raqamli savodxonlik yetishmovchiligi sababli tizimning to'liq samarasi namoyon bo'lmayapti.

Xalqaro tajribalar bilan solishtirganda, teng darajada rivojlangan davlatlarda daromad solig'i kambag'allikni qisqartirishning eng ta'sirchan instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo'lgan. Skandinaviya davlatlari, Koreya, Polsha va Kanada tajribalarida daromad solig'i orqali qayta taqsimlashning kuchli mexanizmlari mavjud bo'lib, bu davlatlarda ijtimoiy tengsizlikning past darajada saqlanishi fiskal siyosatning samaradorligini ko'rsatadi. O'zbekiston ham ushbu modelning bosqichma-bosqich elementlarini joriy eta boshlagan.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromad solig'i kambag'allikni qisqartirishda sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, uning to'liq samaradorligi soliq islohotlarining chuqurlashuvi, norasmiy bandlikning qisqarishi, soliq ma'murchiligi raqamlashuvi, hududiy tengsizliklarning kamayishi va soliq tushumlarining ijtimoiy dasturlarga aniq yo'naltirilishi bilan bevosita bog'liqdir.

## **5. Xulosa.**

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i kambag'allikni qisqartirish jarayonida muhim fiskal vosita sifatida shakllanmoqda. So'nggi yillarda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar — soliqqa tortilmaydigan minimumning oshirilishi, bolali oilalar uchun soliq chegirmalarining joriy etilishi, progressiv stavkalar elementlarining paydo bo'lishi va soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi — aholining real daromadlarini ko'paytirish va ijtimoiy himoya yo'nalishlarini boyitishda muhim rol o'ynadi.

Daromad solig'i tushumlarining oshishi davlat budjetiga barqaror moliyaviy baza yaratib, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirgani aniqlandi. Soliq yengilliklarining amaliy natijalari ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarning qo'lga tegadigan daromadlari oshishi, iste'mol xarajatlari barqarorlashuvi hamda kambag'allik xavfining sezilarli pasayishi orqali namoyon bo'lmoqda.

Biroq tadqiqot daromad solig'i tizimining kambag'allikni yanada samarali qisqartirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator cheklovlarni ham ko'rsatdi. Jumladan, norasmiy bandlikning katta ulushi soliq bazasining torayishiga, ayrim hududlarda past ish haqlari soliq yengilliklarining samaradorligining cheklanishiga, soliq ma'murchiligi imkoniyatlarining notekisligi esa qayta taqsimlash mexanizmlari to'laqonli ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.

Ammo xalqaro tajribalar bilan qiyoslaganda, O'zbekistonda mavjud fiskal baza va soliq siyosati yo'nalishlari kambag'allikni izchil kamaytirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkinligi aniq bo'ldi. Buning uchun daromad solig'i tizimini ijtimoiy siyosat, bandlik dasturlari, subsidiya mexanizmlari va ijtimoiy yordam tizimlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning samarali instrumenti bo'lib, uning ijtimoiy ta'siri soliq adolati, progressivlik tamoyillari, maqsadli yordam dasturlari va soliq ma'murchiligining modernizatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Bu yo'nalishdagi islohotlar chuqurlashgani sari aholi farovonligi oshishi, ijtimoiy tengsizlik kamayishi va kambag'allik darajasining izchil pasayishi kutilmoqda.

**Adabiyotlar:**

Aliyev, M. R. (2023). Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rnini. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(9).

Asian Development Bank (ADB) (2023). *Fiscal Policy and Inclusive Growth in Central Asia*. Manila: ADB.

CyberLeninka (2023). *Optimizing Individual Income Tax Mechanisms for Poverty Reduction in Uzbekistan*.

Davlat soliq qo'mitasi (2023). *O'zbekiston soliq statistikasi bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent.

IMF (2022). *Fiscal Monitor: Strengthening the Social Contract*. Washington, D.C.

Khaydarov, A. A. (2023). *Effective Use of Individual Income Tax Mechanisms in Reducing Poverty in Uzbekistan*. *International Journal of Academic Research*.

Komiljon o'g, A. M. R. (2025). *OZBEKISTONDA IJTIMOIIY NAFAQALAR TIZIMINI RIVOJLANISHI*. *Conferencea*, 1-8.

Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan (2024). *Social Protection and Poverty Reduction Report*. Toshkent.

OECD (2023). *Tax Policy Reforms: OECD and Selected Partner Economies*. Paris: OECD Publishing.

Review.uz (2024). *Kambag'allik va daromadlar dinamikasi bo'yicha tahliliy sharh*.

Ugli, A. M. K. (2023). *COOPERATION WITH INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS: CURRENT STATE AND PROSPECTIVE DIRECTIONS*. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(02), 141-145.

World Bank (2024). *Uzbekistan Poverty Update*. Washington, D.C.: World Bank Group.



## SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQLAR BO'YICHA SOLIQ QARZDORLIGI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI

**Axmedov A.O.**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada soliq to'lovchilarning soliqlar bo'yicha qarzdorlik holati, uning kelib chiqish sabablari hamda ularni kamaytirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Maqolada soliq intizomini mustahkamlash, byudjet tushumlarining barqarorligini ta'minlash va soliq to'lovchilarning moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, soliq qarzdorligiga ta'sir etuvchi omillar — iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy jihatdan ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari soliq organlari faoliyatini takomillashtirish, raqamli nazorat tizimlarini kengaytirish hamda soliq to'lovchilar o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** soliq qarzdorligi, soliq intizomi, soliq yuki, soliq to'lovchi, byudjet tushumlari, moliyaviy barqarorlik, soliq ma'murchiligi, raqamli tizimlar.

**Аннотация.** В данной статье анализируется состояние налоговой задолженности налогоплательщиков, ее причины и эффективные способы сокращения. Рассматриваются вопросы усиления налоговой дисциплины, обеспечения стабильности бюджетных поступлений и повышения финансовой стабильности налогоплательщиков. Также исследуются факторы, влияющие на налоговую задолженность – экономические, организационные и правовые – и предлагаются рекомендации по ее устранению. Результаты исследования указывают на необходимость повышения эффективности работы налоговых органов, расширения систем цифрового контроля и повышения финансовой грамотности налогоплательщиков.

**Ключевые слова:** налоговая задолженность, налоговая дисциплина, налоговое бремя, налогоплательщик, бюджетные доходы, финансовая стабильность, налоговое администрирование, цифровые системы.

**Abstract.** This article analyzes the state of taxpayers' tax arrears, their causes, and effective ways to reduce them. The article covers issues of strengthening tax discipline, ensuring the stability of budget revenues, and increasing the financial stability of taxpayers. It also examines the factors affecting tax arrears - economic, organizational, and legal - and provides suggestions and recommendations for their elimination. The results of the study indicate the need to improve the activities of tax authorities, expand digital control systems, and increase financial literacy among taxpayers.

**Keywords:** tax debt, tax discipline, tax burden, taxpayer, budget revenues, financial stability, tax administration, digital systems.

## **1. Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining asosiy daromad manbai soliqlardan iborat bo'lib, u mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Shu bois soliq to'lovchilarning o'z vaqtida va to'liq miqdorda soliqlarni to'lashi davlat moliyaviy siyosatining asosiy talablaridan biridir. Ammo ayrim hollarda xo'jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlarni to'lash intizomining buzilishi natijasida soliq qarzdorligi yuzaga keladi.

Soliq qarzdorligining ortib borishi nafaqat byudjet tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki iqtisodiy muvozanatning buzilishiga ham sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, soliq qarzdorligini kamaytirish yo'llarini aniqlash, uning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq intizomini mustahkamlash hozirgi davrda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu muammoga oid mavjud holat tahlil qilinib, soliq qarzdorligini kamaytirishning iqtisodiy, tashkiliy va axborot texnologiyalariga asoslangan samarali yo'llari taklif etiladi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Soliq qarzdorligi masalasi davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, byudjet daromadlarini oshirish hamda soliq intizomini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda soliq qarzdorligining mohiyati, kelib chiqish omillari hamda uni kamaytirish mexanizmlari turlicha yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda soliq qarzdorligi, avvalo, soliq to'lovchilarning moliyaviy holati, soliq yukining darajasi, soliq qonunchiligining murakkabligi va soliq ma'murchiligining samaradorligi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Jumladan, J. Stiglitz(1986) va R. Musgrave(1959) o'z asarlarida soliq qarzdorligi yuqori bo'lishining asosiy sababi sifatida soliq tizimining adolatlilik tamoyiliga to'liq javob bermasligini ko'rsatib o'tganlar. Ularning fikricha, haddan tashqari yuqori soliq stavkalari va murakkab hisobot talablari soliq to'lovchilarni qarzdorlikka olib keluvchi asosiy omillardan biridir.

Shuningdek, OECD (2024) va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda soliq qarzdorligini kamaytirishda raqamli soliq ma'murchiligi, risklarni tahlil qilish tizimi va majburiy ijro choralari takomillashtirish muhimligi alohida qayd etilgan. Ushbu manbalarda soliq qarzini undirishdan ko'ra, uning oldini olish mexanizmlariga ustuvorlik berish samaraliroq ekani ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida esa soliq qarzdorligi muammosi O'zbekiston soliq tizimi sharoitida chuqur tahlil qilingan. Xususan, S. G'ulomov, B.Ibragimov (2024) va A. Jo'rayevlarning (2025) ilmiy ishlarida soliq qarzdorligining shakllanishida soliq to'lovchilarning moliyaviy savodxonligi yetarli emasligi, imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish hamda soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarning sustligi asosiy sabab sifatida ko'rsatiladi. Ularning tadqiqotlarida soliq qarzdorligini kamaytirish yo'li sifatida soliq maslahatchiligi institutini rivojlantirish va soliq to'lovchilar bilan profilaktik ishlarga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2020) va Soliq qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham mazkur mavzuda muhim manba hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda soliq qarzdorligini undirish tartibi, penya va jarimalarni hisoblash mexanizmi hamda qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish imkoniyatlari belgilab berilgan. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda elektron soliq xizmatlarining joriy etilishi soliq qarzdorligini qisqartirishda ijobiy natijalar bermogda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq qarzdorligini kamaytirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda nafaqat majburiy undirish choralari kuchaytirish, balki soliq to'lovchilarning ixtiyoriy rioyasini oshirish, soliq tizimini soddalashtirish va

raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar chuqurroq tahlil qilinib, amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqiladi.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda soliq to'lovchilarning soliqlar bo'yicha qarzdorligi holatini tahlil qilish va uni kamaytirish yo'llarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil, taqqoslash, statistik kuzatuv, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Xususan, soliq qarzdorligining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda iqtisodiy va institutsional tahlil usullari qo'llanilib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi o'zaro taqqoslandi. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro moliyaviy institutlar (OECD, IMF) hisobotlari hamda ilmiy manbalar asosida ikkilamchi ma'lumotlar tahlili amalga oshirildi.

Shuningdek, soliq yukining darajasi va soliq qarzdorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda dinamik va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va amaliy takliflar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar soliq qarzdorligini kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Nosog'lom iqtisodiyot sharoitida jahon amaliyotida ko'pincha korxonalar kutilmaganda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelish hollari juda ko'p uchraydi. Masalan, bunga misol qilib "Dun & Bradstreet" firmasining 2021-yil yakuni bo'yicha 87 266 ta korxonaning qarzini 108.8 mlrd. dollar deb e'lon qilinganini ko'rishimiz mumkin. Bu Yaln ming 2% ga yaqin. Korxonalarni bankrotlikka olib kelgan asosiy sabab, AQSh iqtisodining pasayishi ko'rsatilgan. O'tish davrida korxonalarining o'z faoliyatini davom ettirish uchun bozorda kuchli raqobatni engishiga to'g'ri keladi.

Soliq yukining oshishi natijasida, hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari va yer osti boyliklariga ega bo'lgan Yaqin Sharq davlatlarida soliq yuklari 20.0–25.0 foizga teng bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 35.0–40.0 foiz atrofida. O'zbekistonda esa soliq yukining darajasi 32.5 foiz (soliq to'lovlari bilan birga) ni tashkil etadi. Ular bilan taqqoslaganda, bu davlatlarda soliq yukining iqtisodiy ahvolga ta'siri qanday ekanligi va bu ko'rsatkichlar qanchalik optimal bo'lishi kerakligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Hozirgi vaqtda, ba'zi chet el mutaxassislari bizning mamlakatimizdagi soliq yukining og'irligi haqida fikrlar bildirishsa, biz soliq yukining qanchalik bo'lishi kerakligi va bu ko'rsatkichlarni qanday o'lchash kerakligi haqida aniq javob topolmayapmiz. Buning sababi, bugungi kunga qadar dunyo bo'yicha har bir mamlakat uchun optimal (maqbul) soliq yukini aniqlashning umum e'tirof etilgan uslubiyatining yo'qligidir. Lekin umuman olganda, soliq yukini iloji boricha kamaytirish kerak, chunki bu davlatning ko'paytirish daromadlarini ko'paytirish imkonini beradi. Hech bir davlat yo'qki, soliq stavkalarini oshirish orqali budjetiga iloji boricha ko'proq daromad olishni xohlamaydigan. Soliq yukini soliq stavkalaridan ko'ra soliq bazasini kengaytirish orqali kamaytirish va taraqqiyotga erishish mumkin. Artur Laffer egri chizig'ida soliq stavkalarini belgilash lozim. Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida keltirilgan tahliliy ma'lumotlarga ko'ra chet el mablag' tushadigan miqdorda tadqiqotlar o'tkazilgan foizga ko'tarilishi to'g'ri ekan. Shuning uchun har bir muvaffaqiyatli soliq stavkalarining 3–4 foizga kamaytirilgach ko'paytirish uchun soliq stavkasini oshirish, bij investitsiyasining 3–4 foizga ilmiy jihatdan asoslangan holda joriy qilinishi lozim.


## 1-jadval

Respublika bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalarining soliq qarzdorligi tarkibi  
(foizda)

T/r	Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
1	<b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
1.1	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	96	91,2	82,3	83,4	86
1.2	Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar	4	8,8	17,7	16,6	14
	<b>Soliq qarzi mavjud korxonalar</b>	<b>66,3</b>	<b>68,4</b>	<b>81</b>	<b>79,3</b>	<b>77,3</b>
	<b>Shundan</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
2.1	Vazirligi bor korxonalar	64,3	71,3	74,6	79,2	76,8
2.2	Boshqa korxonalar	35,7	28,7	25,4	20,8	23,2
	<b>Shundan</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
3.1	Soliq qarzini to'lovchi korxonalar	83,3	76,8	74,1	84,3	70,6
3.2	Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar	16,7	23,2	25,4	14,5	16,8
3.2	Hufyona korxonalar	0	0	0,5	1,2	12,6

Jadvalda keltirilgan tahlilga ko'ra, 2024-yilda ro'yxatdan o'tgan korxonalar sonining 100 foizini hisobga olsak, ulardan 86 foizi faoliyat olib borayotgan, 14 foizi esa faoliyatini to'xtatgan. Shuningdek, 2024-yilda ro'yxatdan o'tganlarning 77,3 foizida soliq qarzi mavjud. Soliq qarzi mavjudlarning 76,8 foizini vazirligi mavjud bo'lsa, 23,2 foizi boshqa korxonalaridir. Soliq qarzi (77,3%) mavjudlarning 70,6 foizini qarzdorlikni to'lash imkoniyati mavjud bo'lsa, 16,8 foizi faoliyat yuritmayotgan hamda 12,6 foizi xufyona faoliyat bilan shug'ullangan korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanib, korxonalar soliq to'lamaslik uchun qandaydir yo'l bilan faoliyat yuritishi mumkin, yoki bunday imkoniyatlar mavjud, degan xulosaga kelish mumkin. Agar mulkchi shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar iste'molchilar va buyurtmachilarga yetkazib beradigan (bajaradigan ishlar va xizmatlar) qiymati 15 foizdan ko'pini oldindan to'lama, mahsulot yetkazish, ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish taqiqlanadi. Shu qonunchilikka asosan, mahsulot yuboruvchi korxonalar jo'natilgan mahsulotning qiymatidan, qolgan 85 foizini mahsulot oluvchi korxonalardan ololmaslik oqibatida debitor qarzdorlik ortib bormoqda. Shuning uchun 15 foizli oldindan to'lovni kamida 50% yoki umuman 100% qilib belgilansa, korxonalarda debitor qarzdorlik bo'lmas edi. Shunda korxonalarda sog'lom moliyaviy muhit yaratiladi va soliq qarzdorligi vujudga kelmaydi. Mamlakat hududida barter operatsiyalari ta'qiqlangan bo'lsada, amalda ko'p uchramoqda.



1-rasm. Soliq qarzi mavjud korxonalar

Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu toifa barcha yillarda yetakchi o'rinni egallab kelgan bo'lib, ulush 2020-yildagi 83,3% darajasidan boshlab 2024-yilda 70,6% gacha pasaygan.

Bu pasayish quyidagi omillar bilan izohlanishi mumkin:

- iqtisodiy muhitdagi beqarorlik natijasida ayrim korxonalar to'lov qobiliyatini yo'qotgan;
- soliq intizomi kuchayganiga qaramay, faoliyat yuritayotgan subyektlarning bir qismi moliyaviy yuklamani vaqtida bajara olmagan;

- yangi ro'yxatga olingan korxonalar soni ortgan, biroq ularning aksariyati hali barqaror to'lov intizomiga ega emas.

Faoliyat ko'rsatmayotgan, biroq soliq qarzigaga ega korxonalar ulushi 2020 yildagi 16,7% dan 2022-yilda 25,4% gacha ko'tarilgan, keyinchalik esa 2024 yilda 16,8% darajasiga qaytgan.

Ushbu o'zgarishlarning asosiy talqinlari:

- 2022 yilda pandemiya va iqtisodiy cheklovlar sabab ko'plab korxonalar faoliyatini vaqtincha to'xtatgan;

- ayrim korxonalarning tugatilish jarayoni cho'zilib ketgan, natijada ular faol bo'lmasa-da, soliq qarzi shakllanib borgan;

- keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish bilan birga "qop-qog'ozdagi" korxonalar soni qisqargan.

Hufyona korxonalar ulushi 2020–2021 yillarda deyarli 0% bo'lgan bo'lsa, 2024 yilga kelib keskin ravishda 12,6% gacha oshgan. Bu ko'rsatkichning ko'tarilishi jiddiy institutsional muammolarni aks ettiradi:

- iqtisodiyotda norasmiy sektorning faoliyati kuchaygan;

- huquqiy tartibga solish va nazorat mexanizmlarida kamchiliklar mavjud;

- ayrim subyektlar ro'yxatga olinmasdan yoki soxta faoliyat orqali iqtisodiy faoliyat yuritayotgan bo'lishi mumkin.

Hufyona korxonalar ulushining ko'tarilishi soliq tizimi uchun eng xavfli segment bo'lib, bu holat yuzaga kelishi soliq bazasining qisqarishiga, shaffoflikning zaiflashishiga va raqobat muhitining buzilishiga olib keladi.

## 5. Xulosa.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, soliq qarzdorligi davlat moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, uni kamaytirish iqtisodiy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Soliq qarzdorligining kelib chiqishiga turli iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy omillar sabab bo'lishi mumkin. Shu bois uni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Soliq ma'murchiligini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, soliq to'lovchilar bilan ochiq axborot almashinuvini yo'lga qo'yish va moliyaviy savodxonlikni oshirish soliq qarzdorligini kamaytirishning eng muhim vositalaridir. Shuningdek, soliq intizomini mustahkamlash, qonunchilikni soddalashtirish va ixtiyoriy to'lov madaniyatini rivojlantirish orqali soliqlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash mumkin.

Umuman olganda, soliq qarzdorligini kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nafaqat davlat byudjeti daromadlarini oshiradi, balki iqtisodiyotning soya sektorini qisqartirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Shu orqali mamlakatda adolatli, shaffof va barqaror soliq tizimini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

## Adabiyotlar:

Davlat soliq qo'mitasi 01.01.2020 sanadagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda tomonidan e'lon qilingan rasmiy uslubiy qo'llanmalar

G'ulomov S. (2024) "Soliq tizimi va soliq siyosati" nomli darsligi

Ibragimov B.(2024) "Soliq ma'murchiligi va uning samaradorligini oshirish yo'llari" nomli monografiyas

Jo'rayev A.(2025) "Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning roli"  
<https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/issue/view/164>

Joseph E. Stiglitzning "Economics of the Public Sector" (1986)

OECD (2024) (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan chop etilgan "Tax Administration: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies" nomli hisobotlari

Richard A. Musgrave, "*The Theory of Public Finance*" (1959)



#### RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AHOLINING IJTIMOYIY HIMOYA DASTURLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

*Dotsent Aliyev M.K.*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli transformatsiyaning ijtimoiy himoya tizimiga ta'siri, uning samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlari va xavf omillari tahlil qilinadi. OECD, ILO-GIZ va IPC-IG tadqiqotlari asosida raqamli identifikatsiya, yagona reyestrlar, mobil to'lovlar va sun'iy intellektning manzillilik, tezkorlik va shaffoflikka ta'siri yoritiladi. Shu bilan birga, raqamli tengsizlik, infratuzilma cheklanishi va ma'lumotlar xavfsizligiga oid muammolar ko'rsatib beriladi. Xalqaro tajriba asosida ijtimoiy xizmatlarni proaktivlashtirish va O'zbekiston sharoitida samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya; ijtimoiy himoya; samaradorlik; sun'iy intellekt; yagona reyestr; raqamli identifikatsiya; ma'lumotlar xavfsizligi; mobil to'lovlar; manzillilik; raqamli tengsizlik; proaktiv xizmatlar.

**Аннотация.** В статье анализируется влияние цифровой трансформации на систему социальной защиты, её возможности по повышению эффективности и возникающие риски. На основе исследований OECD, ILO-GIZ и IPC-IG рассмотрены цифровая идентификация, единые реестры, мобильные выплаты и применение искусственного интеллекта в обеспечении адресности, оперативности и прозрачности. Также освещены проблемы цифрового неравенства, ограниченности инфраструктуры и безопасности данных. На основе международного опыта предлагаются практические рекомендации по повышению эффективности социальных услуг в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация; социальная защита; эффективность; искусственный интеллект; единый реестр; цифровая идентификация; безопасность данных; мобильные выплаты; адресность; цифровое неравенство; проактивные услуги.

**Annotation.** This article examines the impact of digital transformation on social protection systems, highlighting its potential to enhance efficiency as well as the risks involved. Based on OECD, ILO-GIZ, and IPC-IG studies, the analysis covers digital identification, unified registries, mobile payments, and the use of artificial intelligence to improve targeting, speed, and transparency. Issues such as digital inequality, infrastructure limitations, and data security challenges are also discussed. Drawing on international experience, the paper provides practical recommendations for improving the effectiveness of social services in Uzbekistan.

**Keywords:** digital transformation; social protection; efficiency; artificial intelligence; unified registry; digital identification; data security; mobile payments; targeting; digital inequality; proactive services.

## **1. Kirish.**

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, davlat boshqaruvi tizimining barcha bo'g'inlariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa ijtimoiy himoya tizimi raqamli transformatsiyadan eng ko'p ta'sir ko'rayotgan sohaga aylandi. Bu jarayon nafaqat ma'muriy jarayonlarni optimallashtirish, balki aholining ehtiyojlarini tez va aniq aniqlash, yordamning manzilligini oshirish hamda xizmatlarning shaffofligini ta'minlash imkonini bermoqda. OECD (2025) ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, integratsiyalashgan reyestrlar va raqamli identifikatsiya tizimlaridan foydalanish ijtimoiy dasturlar samaradorligini sezilarli darajada oshirayotgan asosiy omillardan biridir.

Biroq, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va GIZ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamlashtirishning ijobiy jihatlaridan tashqari bir qator cheklovlar borligini ham ko'rsatadi. Jumladan, raqamli savodxonlikning pastligi, infratuzilmaning notekis rivojlanishi, gender bo'yicha raqamli tafovutlar, ma'lumotlar xavfsizligi hamda avtomatlashtirilgan qarorlar tizimidagi xatoliklar ijtimoiy tengsizlikni yanada kengaytirish xavfini tug'dirmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholining raqamli xizmatlarga ulanish imkoniyatlarida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu ijtimoiy yordamga bo'lgan real ehtiyojning to'liq qamrab olinmasligiga olib kelishi mumkin.

Ushbu holatlar ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini baholashda raqamli jarayonlarning faqat texnik jihatlarigina emas, balki ijtimoiy va institutsional ta'sirini ham chuqur tahlil qilishni talab etadi. Mazkur maqola aynan shu maqsadga xizmat qiladi: raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy himoya dasturlarining natijadorligini aniqlovchi asosiy omillarni o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va O'zbekiston uchun amaliy takliflarni ishlab chiqish.

Shu orqali tadqiqot raqamlashtirish jarayonining ijtimoiy himoya tizimiga ta'sirini kompleks baholashga qaratilgan bo'lib, mavjud imkoniyatlar va xavf omillarini aniqlash, manzillilik, adolatli qamrov va samarali boshqaruv tamoyillarini kuchaytirishga xizmat qiluvchi yechimlarni taklif etadi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimining modernizatsiyasi bo'yicha xalqaro adabiyotlar mazkur jarayonning ko'p qatlamli va murakkab xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. OECD (2025) tomonidan e'lon qilingan "AI and the Future of Social Protection" hisobotida sun'iy intellektning ijtimoiy dasturlarda qo'llanilishi asosan uch yo'nalishda – mijozlarni qo'llab-quvvatlash, orqa-ofis jarayonlarini avtomatlashtirish va firibgarlikni oldini olish – bo'yicha shakllanayotgani aytiladi. Hisobotda prognozlash, muhtoj guruhlarni erta aniqlash va manzillilikni kuchaytirish kabi imkoniyatlar yoritilgan bo'lsada, ishonch darajasining pastligi hamon jiddiy muammolardan biri sifatida ko'rsatiladi.

GIZ va ILO tomonidan ishlab chiqilgan "Digital Convergence" hujjati raqamli tizimlarning barqaror ishlashi uchun asosiy tamoyillarni — foydalanuvchi ehtiyojidan kelib chiqib loyihalash, mavjud ekotizimni hisobga olish, ma'lumotlarga asoslanish, ochiq standartlar va maxfiylikni ta'minlash — muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu manbaga ko'ra, ijtimoiy himoya tizimining raqamlashtirilishi texnik modernizatsiya emas, balki butun boshqaruv jarayonining qayta tashkil etilishini talab etadi.

UN-Women tashabbusi doirasida Faith tomonidan tayyorlangan "Risks and Benefits of Digital Tools for Social Protection Delivery from a Gender Perspective" maqolasi raqamli tengsizlikning gender va ijtimoiy guruhlar bo'yicha chuqurlashayotganini ko'rsatadi. Ayollarning raqamli qurilmalar, mobil internet va raqamli to'lov tizimlariga kirish imkoniyati erkaklarga nisbatan pastligi natijasida, ijtimoiy yordam dasturlariga raqamli kanallar orqali murojaat qilishda sezilarli to'siqlar mavjudligi ilmiy asosda yoritilgan.

FAO va IPC-IG tomonidan tayyorlangan "Digital Innovations in Delivering Social Protection in Rural Areas" tadqiqoti qishloq hududlarida raqamli xizmatlarning qo'llanilishi

bilan bog'liq afzalliklar va xavflarni tahlil qiladi. Manbada davlatlar kesimida raqamli ro'yxatga olish tizimlari, mobil to'lovlar, masofaviy monitoring va avtomatlashtirilgan tanlov mexanizmlarining samaradorligi ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, infratuzilma yetishmovchiligi, internet sifati va raqamli savodxonlikning pastligi eng jiddiy to'siq sifatida qayd etiladi.

Rossiya olimlari tomonidan e'lon qilingan maqolalar - Zikova (2023), Sergev (2024) va Buinevich (2025) - ijtimoiy himoya tizimida raqamlashtirishning institutsional jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Mualliflar raqamli xizmatlar orqali ijtimoiy boshqaruvning markazlashuvi, xizmat ko'rsatish sifati, monitoring imkoniyatlari va boshqaruv samaradorligi oshishini ta'kidlashadi. Shu bilan birga, ular raqamli tizimlar noto'g'ri loyihalansa yoki ma'lumotlar xavfsizligi yetarli bo'lmasa, ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkinligini ham qayd etadilar.

Sustainability jurnalida chop etilgan Djatmiko va hammualliflari tadqiqoti esa e-government tizimlarining inklyuzivlik darajasini o'rganib, raqamli infratuzilma, savodxonlik, xizmatlarning qulayligi va davlat-fuqaro o'rtasidagi ishonch darajasi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Mualliflar BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liq ravishda raqamli inkluzivlikni davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida baholaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan ijtimoiy himoya tizimi samaradorlikka sezilarli hissa qo'shishi mumkin, biroq tengsizlik, texnik infratuzilma, xavfsizlik va ishonch kabi omillar e'tibordan chetda qolsa, raqamli jarayonlar kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun xalqaro tajriba kompleks yondashuv, foydalanuvchi markaziyli va kuchli boshqaruv modelini eng muhim omillar sifatida ko'rsatadi.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiyaning ijtimoiy himoya dasturlari samaradorligiga ta'sirini o'rganish hamda asosiy omillarni aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalarni tahlil qilish, raqamli xizmatlar natijadorligi bo'yicha indikatorlar dinamikasini o'rganish, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash hamda kontent tahlili kabi usullardan keng foydalanildi. Shuningdek, OECD, ILO-GIZ, FAO/IPC-IG va UN-Women hisobotlari asosida grafik va analitik tahlil usullari qo'llanib, raqamlashtirishning ijtimoiy himoya tizimidagi afzallik va cheklovlari tizimli baholandi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya tizimi faoliyatining barcha bosqichlarini tubdan o'zgartirib, yordamning adolatli taqsimlanishi, xizmat ko'rsatishning tezlashuvi, resurslardan foydalanish samaradorligi va boshqaruvning shaffoflashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro tajriba tahlili raqamli texnologiyalar qo'llanilgan davlatlarda ijtimoiy yordamni tayinlash jarayonida inson omiliga bog'liq xatoliklar qisqarganini, yordamga muhtoj aholini aniqlashda ma'lumotlar integratsiyasi samaradorlikni oshirganini ko'rsatadi. OECD (2025) ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan ma'lumot tahlili va yagona reyestrlar ijtimoiy himoya tizimining eng zaif bo'g'ini hisoblangan ro'yxatga olish bosqichida katta rol o'ynab, noto'liq ma'lumotlar, subyektiv qarorlar va qo'lda qayd etish kabi jarayonlarni deyarli bartaraf etmoqda.

FAO va IPC-IG (2022) tomonidan turli mamlakatlarda olib borilgan kuzatuvlarda qishloq hududlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishi, ayniqsa mobil to'lovlar, biometrik identifikatsiya va masofaviy ro'yxatdan o'tish imkoniyatlari ijtimoiy dasturlarning qamrovini kengaytirishda hal qiluvchi omil bo'layotgani qayd etilgan. Marokash, Togo, Filippin, Argentina kabi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan tizimlar yordamni tezkor yetkazish, ro'yxatdan o'tishni tezlashtirish, jarayonning izchilligini ta'minlash va xizmat ko'rsatishdagi byurokratik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa pandemiya

sharoitida raqamli to'lovlar millionlab aholiga qisqa muddatda yordam yetkazishda asosiy vosita bo'ldi.

Rossiya olimlari tomonidan tayyorlangan ilmiy ishlar (Sergeev, Buinevich va Zikova, 2024) ta'kidlashicha, raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya boshqaruvida markazlashuvni kuchaytirgan holda, barcha xizmatlar yagona platformalar orqali boshqarilishini ta'minlamoqda. Bunday markazlashuv, bir tomondan, xizmatlar sifati va tartibli boshqaruvni yaxshilasa, boshqa tomondan, hududlar o'rtasida raqamli infratuzilma farqlari mavjud bo'lsa, ayrim hududlarning cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, markazlashuv bilan birga differensial yondashuvni joriy etish zarur — ya'ni, rivojlanmagan hududlar uchun qulay interfeyslar, past internet tezligida ishlaydigan xizmatlar, offline registratsiya imkoniyatlari va mobil punktlar tashkil etilishi lozim.

UN-Women (2023) tomonidan ta'kidlanganidek, raqamli tizimlarning joriy etilishi gender tengsizlikni kuchaytirish xavfini ham keltirib chiqaradi. Chunki ayollar orasida raqamli savodxonlik past, mobil internetdan foydalanish imkoniyati erkaklarga nisbatan sezilarli darajada kam, iqtisodiy mustaqillik yetarli emas. Raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati bo'lmagan ayollar, nogironlar, yoshi katta guruhlar ijtimoiy yordamga murojaat qilishda ob'ektiv ravishda chetda qolishi mumkin. Bu esa tizimning o'zi tomonidan ijtimoiy tengsizlikning yangi shaklining paydo bo'lishi xavfini oshiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyaning samaradorligi asosan ikkita omilga bog'liq: infratuzilmaning sifatiga va aholining raqamli kompetensiyasiga. Uganda, Togo, Kambodja, Filippin kabi davlatlar tajribasida internet tarmog'i qamrovining pastligi, elektr ta'minotidagi uzilishlar, mobil qurilmalar narxining yuqoriligi ijtimoiy yordamni raqamli shaklda ko'rsatishda eng katta to'siq sifatida namoyon bo'lgan. Shu sababli, xalqaro amaliyotda "gibrid xizmat ko'rsatish modeli" — raqamli platformalar bilan bir qatorda an'anaviy xizmatlarning saqlab qolinishini tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellektga asoslangan qaror qabul qilish tizimlarining adolatliligi masalasi ham dolzarb. OECD (2025) hisobotida qayd etilishicha, ba'zi davlatlarda AI algoritmlari noto'g'ri ma'lumotlar bilan o'qitilgani sababli ayrim ijtimoiy guruhlarning arizalarini avtomatik rad etish holatlari yuzaga kelgan. Bu esa raqamli diskriminatsiya xavfini oshiradi. Tahlillar ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tizimlar alohida nazorat mexanizmlari — inson ishtiroki, etik nazorat, audit, shaffoflik talablarini o'z ichiga olishi zarur.

Ma'lumotlar xavfsizligi masalasi ham ijtimoiy himoya tizimida eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Chunki ijtimoiy yordam oluvchilar — odatda aholining eng zaif qatlamlari bo'lib, ularning ma'lumotlari oshkor bo'lishi yoki zararli guruhlar qo'liga tushishi ijtimoiy xavfsizlikka bevosita tahdid tug'diradi. Rossiya tadqiqotchilari fikricha, ijtimoiy himoya sohasida ma'lumotlar bazalari juda katta hajmga ega bo'lgani sababli davlatlar uchun yuqori darajadagi kibernetik xavfsizlik siyosatini shakllantirish majburiy hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida ko'rinib turibdiki, raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega. Xizmat ko'rsatish tezligi, aniq ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, yordamni haqiqiy ehtiyojmandlarga yetkazish, xarajatlarning optimallashtirilishi, jarayonlarning shaffoflashuvi — bularning barchasi raqamli tizimning ijobiy samaralaridir. Biroq, infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli tengsizlik, gender tafovutlari, ma'lumotlar xavfsizligi, AI tizimlaridagi potensial adolatsizliklar kabi omillar hali ham tizimning to'liq samaradorlikka erishishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu bois raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya tizimida faqat texnologik emas, balki ijtimoiy, madaniy, huquqiy va institutsional yondashuvlar bilan uyg'un holda joriy etilgandagina muvaffaqiyatli natija beradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, eng samarali model — bu texnologiyani aholining real imkoniyatlari, raqamli savodxonligi va hududiy infratuzilma darajasi bilan uyg'unlashtirgan yondashuvdir.

## 5. Xulosa.

Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya tizimini tubdan o'zgartirayotgan murakkab, ammo istiqbolli jarayon ekanini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalar yordamida ijtimoiy xizmatlarning sifat darajasi oshib, ma'lumotlar almashinuvining tezlashishi, yordamning adolatli va manzilli taqsimlanishi, davlat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, integratsiyalashgan ma'lumotlar bazalari, mobil to'lovlar, biometrik identifikatsiya, sun'iy intellekt asosida ehtiyojni bashoratlash kabi yechimlar ijtimoiy himoya tizimini tezkor, shaffof va javobgar mexanizmga aylantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Biroq raqamli transformatsiya faqat texnologik modernizatsiya emas, balki ijtimoiy va institutsional o'zgarishlar majmuini ham o'z ichiga oladi. Raqamli tengsizlik, hududlar bo'yicha infratuzilma farqlari, gender tafovtlari, raqamli savodxonlikning pastligi, ma'lumotlar xavfsizligi va algoritmik adolatsizlik kabi omillar raqamlashtirilgan tizimning samaradorligiga to'siq bo'lishi mumkin. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, aholining Internetga ulanish darajasi past bo'lgan, mobil qurilmalar narxi yuqori bo'lgan va raqamli ko'nikmalar sust shakllangan hududlarda raqamli ijtimoiy xizmatlarning qamrovi sezilarli darajada cheklanishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan qarorlar noto'g'ri ma'lumotlar asosida shakllansa, ayrim aholi guruhlari asossiz ravishda yordamdan chetda qolishi ehtimoli ortadi.

Shu bilan birga, raqamli ijtimoiy himoya tizimining muvaffaqiyati faqat texnik infratuzilmaning rivojiga emas, balki foydalanuvchi markaziyliги va inklyuzivlik tamoyillariga bog'liq. Xalqaro tashabbuslarda — OECD, ILO-GIZ, UN-Women va FAO/IPC-IG tadqiqotlarida — barqaror natijaga erishish uchun ijtimoiy himoya tizimi barcha aholi guruhlari uchun teng va qulay bo'lishi, xizmatlardan foydalanish jarayoni ortiqcha byurokratiyadan holi bo'lishi, raqamli xarajatlar esa minimal darajada bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Aholining ehtiyojiga mos interfeyslarning ishlab chiqilishi, past internet tezligida ishlaydigan platformalar, gibrid xizmat ko'rsatish modeli (online va offline), hamda yordamga ehtiyojni avtomatik aniqlovchi mexanizmlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi aynan samarali yondashuv sifatida qayd etilmoqda.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya tizimini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin, ammo bu jarayon aniq strategiya, kuchli infratuzilma, inson kapitaliga investitsiya, xavfsizlik choralarining mustahkamligi va aholi uchun teng imkoniyatlar yaratish bilan birga olib borilgandagina barqaror natija beradi. Demak, ijtimoiy himoyaning kelgusidagi muvaffaqiyati texnologiyalarning o'zidan ko'ra ko'proq ular qanday qo'llanayotgani, kimlar uchun ochiq ekani va jarayonning qanchalik adolatli tashkil etilganiga bog'liqdir.

### Adabiyotlar:

Aliev, M. Practice of Pension and Material Assistance for Low-income Families: Problems and Their Solutions. *Economic Development and Analysis*, 2(2), 291-298.

Buinevich, D. V., & Sergeev, I. B. (2025). Цифровая трансформация и изменение управления сферой социальной защиты. *Журнал прикладных исследований*, №7, 128-136.

Djatkiko, G. H., Sinaga, O., & Pawirosumarto, S. (2025). Digital Transformation and Social Inclusion in Public Services: A Qualitative Analysis of E-Government Adoption for Marginalized Communities. *Sustainability*, 17(2908), 1-28.

Faith, B. (2023). *Risks and Benefits of Digital Tools for Social Protection Delivery from a Gender Perspective*. UN-Women Expert Group Meeting Paper.

FAO & IPC-IG. (2022). *Digital Innovations in Delivering Social Protection in Rural Areas*. Rome: FAO.

Hebbar, M. (2022). *Digital Convergence: Principles and Practices for Stronger Social Protection Systems*. Berlin: GIZ / ILO.

Komiljon o'g, A. M. R. (2025). OZBEKISTONDA IJTIMOYIY NAFAQALAR TIZIMINI RIVOJLANISHI. *Conferencea*, 1-8.

Ma'ruf, A., & Tilovbek, S. (2024). THE ROLE OF SOCIAL SECURITY CONTRIBUTIONS IN PENSION PROVISION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 4(05), 51-56.

OECD. (2025). *AI and the Future of Social Protection Systems: Opportunities and Risks in Digital Governance*. Paris: OECD Publishing.

Sergeev, I. B., & Buinevich, D. V. (2024). Критерий эффективности применения цифровых технологий в сфере социальной защиты населения. *Вестник Евразийской науки*, 16(4).

Ugli, A. M. K. (2023). COOPERATION WITH INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS: CURRENT STATE AND PROSPECTIVE DIRECTIONS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(02), 141-145.

Zikova, N. N. (2023). Цифровая трансформация в социальной сфере: тенденции и перспективы. *Вестник ПГТУ. Экономика и управление*, №1 (56), 88-96.



## KLASTERLAR FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING NATIJALARI VA SAMARADORLIGI

**Berdiyev A.H.**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada klaster faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy va ijtimoiy samaralarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda davlat tomonidan moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining klasterlar raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faollikni rag'batlantirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishga ko'rsatayotgan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, bunday qo'llab-quvvatlash natijasida hududiy iqtisodiy rivojlanish tezlashishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va qiymat zanjirlarining kengayishiga erishilayotgani asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** eksport salohiyati, mintaqaviy rivojlanish, klaster faoliyati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy samara, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, hududiy rivojlanish, infratuzilma, investitsiya siyosati.

**Аннотация.** В данной статье анализируются экономические и социальные эффекты государственной поддержки деятельности кластеров. В исследовании раскрывается влияние финансовых, институциональных и инфраструктурных механизмов государственной поддержки на повышение конкурентоспособности кластеров, стимулирование инновационной активности и рост эффективности производства. Кроме того, обосновывается, что в результате такой поддержки ускоряется региональное экономическое развитие, создаются новые рабочие места и расширяются цепочки создания добавленной стоимости.

**Ключевые слова:** экспортный потенциал, региональное развитие, цифровизация, инфраструктура, стратегическое планирование, международный рынок.

**Annotation.** This article is devoted to the analysis of the economic and social effects of state support for cluster activities. The study examines the impact of financial, institutional, and infrastructural support mechanisms provided by the government on enhancing the competitiveness of clusters, stimulating innovative activity, and increasing production efficiency. In addition, it substantiates that such support contributes to accelerated regional economic development, the creation of new jobs, and the expansion of value chains.

**Key words:** export potential, regional development, cluster activity, state (government) support, economic efficiency, innovative development, competitiveness, territorial development, infrastructure, investment policy

### 1. Kirish.

So'nggi yillarda agrar sohada islohotlar ko'lami sezilarli darajada kengayib, tarmoqning institutsional va tashkiliy tuzilmalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Davlat rahbari tomonidan qabul qilingan qarorlar va farmonlarda agrosanoat majmuasini barqaror

rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida klaster tizimini joriy etish va uni izchil rivojlantirish agrar sektor samaradorligini oshirishning eng muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Klasterlashuv jarayonida qiymat zanjirining barcha bo'g'inlari xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, logistika, servis va mahsulotni bozorga yetkazish jarayonlari o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etiladi. Bu esa fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligi, raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatining ortishiga xizmat qiladi.

Davlat tomonidan klaster faoliyatini qo'llab-quvvatlash, avvalo, qonunchilik-huquqiy bazani takomillashtirish, infratuzilmani yaxshilash, imtiyozli moliyalashtirish, subsidiyalar va soliq preferensiyalari berish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, axborot-maslahat xizmatlarini kengaytirish ham agrar klasterlarning rivojlanishiga katta turtki beradi.

Davlatning agroklasterni yo'naltirilgan strategik qo'llab-quvvatlovi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisi bandligini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ichki bozorini yuqori sifatli va arzon mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish, shu bilan birga aholining o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirishi zarur. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirish va importga bo'lgan qat'iy egalikni kamaytirish imkonini beradi.

Mustaqillikka erishgandan hozirgi kunga qadar mamlakatimizda qishloq xo'jalik sohasini rivojlantirish bir qancha muammolar va qiyinchiliklar natijasida qo'zlangan natija bermayotganligi hamda yetishtirilgan meva-sabzavot va poliz mahsulotlarining 35,0 foizigacha bo'lgan qismining nes-nobud bo'lish holatlari ko'zatilgan. Buning asosiy sababi o'rganilganda, qishloq xo'jaligida yetishtirilgan ushbu turdagi mahsulotlarni saqlash, tashish jarayonida, ayniqsa qayta ishlash tizimi korxonalarining yetarli emasligi, ularni moddiy-texnika bazasining ma'naviy eskirganligi kabi muammolar salbiy ta'sirini o'tkazgan.

Respublikamizda qo'llab-quvvatlanayotgan klaster tizimi esa bu muammolarni hal etishdagi yagona tizimdir.

Qishloq xo'jaligidagi klaster usuli ekin maydonlarini dastlabki ishlov berish, ekish va ekinlarni parvarish qilish, yetishtirilayotgan xom-ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yagona texnologik zanjir turli funksiyadagi korxonalarni birlashtiradi va fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirishga, yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy qilishga imkoniyat yaratadi.

Agroklasterni muhim afzalliklaridan yana biri bu xorijiy texnika va texnologiyalarni qishloq xo'jaligiga olib kirish bilan belgilanadi.

Shunday ekan, agroklasterni rivojlantirish nafaqat paxtachilik bilan bog'liq yengil sanoat sohasi, balki oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sohasi korxonalari, qurilish materiallari, farmatsevtika sohasini ham rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda ushbu tizimni joriy qilish, uni qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xom-ashyo sifatida xorijiy mamalakatlarda sotish emas, balki shu xom-ashyoni o'zimizda qayta ishlab "O'zbekiston" brendi ostida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, aholini turmush darajasini yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, munosib mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iboratdir.

## 2. Adabiyotlar sharhi.

Sohada raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida Prezidentimizning 2017 yil 14 dekabrda "To'qimachilik va tikuvchilik sanoatini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining paxta va to'qimachilik sanoati va klasterlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qabul qilindi. Buning natijasida klaster korxonalarini yordamida sohani ilg'or texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash borasida ijobiy natijalarga erishildi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentyabrda davlat budjeti tushumlarini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to'liq bajarish bo'yicha belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish, paxta-to'qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadalashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida "Shuning uchun klasterlar faoliyatiga har tomonlama yordam berishimiz zarur. Paxtachilikda qishloq xo'jaligining kelajagi, uning iqtisodiy samaradorligi klasterlar bilan bog'liq. Klasterlar agrar sohani jadal rivojlantirishning "lokomotivi" bo'lishi kerak" deb ta'kidlaganlar.

Bundan tashqari xorijiy yetakchi olimlardan sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan ekanligi ta'kidlab, jumladan Maykl Porter (1990) o'z tadqiqotlarida "Davlatning asosiy vazifasi klasterlarni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish emas, balki ularning samarali rivojlanishi uchun qulay institutsional va raqobat muhitini yaratishdan iborat", deb ta'kidlagan bo'lsa, M.Enrayt (2003) esa, "Klasterlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari ortadi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi", deb o'z tadqiqotlarida keltirgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi klasterlarini qo'llab-quvvatlash qator strategik yo'nalishlar orqali amalga oshirilmoqda. Jumladan, agroklastlar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi alohida ahamiyatga ega. Bu esa klasterlar asosida agrar sektorning iqtisodiy samaradorligini oshirish, innovatsion salohiyatni kengaytirish hamda mahalliy va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### 1-jadval

#### Agroklastarlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari va ularning ta'sir mexanizmi.

№	Qo'llab-quvvatlash yo'nalishi	Davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan iqtisodiy natija
1.	Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	- Soliq va bojxona imtiyozlari berish; - Davlat subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va grantlar ajratish; - Investitsiya loyihalariga davlat kafolati berish.	Agroklastlar sub'ektlari uchun xarajatlarni kamaytirish va investitsiya kiritishni rag'batlantirish	Klaster ishtirokchilarining moliyaviy barqarorligi va rentabelligini oshirish
2.	Infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash	- Agrosanoat logistika markazlarini barpo etish; - Ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini yangilash; - Transport va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish.	Agroklastlar faoliyatini uchun zarur infratuzilma muhitini yaratish	Mahsulot aylanmasi va samaradorlikni oshirish, transport xarajatlarini qisqartirish
3.	Innovatsion va ilmiy qo'llab-quvvatlash	- Ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik dasturlari; - Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga grantlar; - Agroinnovatsion texnoparklar tashkil etish.	Ilmiy natijalarni ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etish	Qo'shilgan qiymat yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va innovatsion faoliyatni faollashtirish
4.	Kadrlar salohiyatini rivojlantirish	- Agrar ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish.	Inson kapitali salohiyatini oshirish	Mehnat unumdorligini oshirish va

		-Fermer va klaster boshqaruvchilarini malaka oshirish; -Xorijiy tajriba va stajirovkalar tashkil etish.	orqali samaradorlikni ta'minlash	boshqaruv samaradorligini kuchaytirish
5.	Ekspart va marketingni qo'llab-quvvatlash	- Agroklaster mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarishda davlat kafolatlari; -Xorijiy yarmarkalarda ishtirokni moliyalash; -"Made in Uzbekistan" brendini rivojlantirish.	Agroekspart infratuzilmasini rivojlantirish va tashqi bozorlarga chiqishni yengillashtirish	Agroklaster mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va eksport hajmini ko'paytirish
6.	Huquqiy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash	-Agroklasterlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarni takomillashtirish; -Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish; -Klasterlar reyestrini yuritish va litsenziyalash tizimini soddalashtirish	Davlat boshqaruvi va biznes sub'ektlari o'rtasidagi institutsional ishonchni mustahkamlash	Agroklaster faoliyatining huquqiy aniqligi va barqarorligini ta'minlash
7.	Ekologik va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash	-Ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalariga imtiyozlar berish; - Suv resurslaridan samarali foydalanish tizimlarini yaratish; -Yashil iqtisodiyot tamoyillarini agrosanoatga joriy etish.	Qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida resurslardan samarali foydalanish hamda chiqindilar hajmini qisqartirishga yo'naltirilgan ekotexnologiyalarni joriy etish, toza energiya manbalari va ekologik xavfsiz texnikalarni qo'llash, shuningdek davlat va xususiy sektor hamkorligida monitoring va hisobot tizimlari asosida ekotizimlarni tizimli nazorat qilish.	Qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida mahsuldorlikni uzluksiz va samarali oshirish, energiya hamda xomashyo sarfini optimallashtirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, shuningdek uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlagan holda ekologik barqarorlikni mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza qilish.

Agroklasterlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, avvalo, davlat tomonidan amalga oshiriladigan agrar siyosatning moliyaviy mexanizmlari orqali ta'minlanadi. Ushbu mexanizmlar agroklaster sub'ektlarining barqaror rivojlanishini, innovatsion salohiyatini va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Davlat subsidiyalari va grantlar - agroklaster ishtirokchilariga yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilish hamda eksport salohiyatini oshirish maqsadida ajratiladigan moliyaviy yordam turlaridir. Ushbu vositalar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya loyihalarini moliyalashtirish -Innovatsiyalar agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi va Davlat innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kabi tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladigan dasturlar orqali ilmiy va texnologik yechimlarni tatbiq etishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu yo'nalish agroklasterlarning ilmiy-innovatsion integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Lizing va kreditlash tizimlari - qishloq xo'jaligi texnikasi, sug'orish infratuzilmalari hamda qayta ishlash uskunalarini xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlarini taqdim

etadi. Ushbu moliyaviy vositalar agroklasterning subyektlarining ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va moddiy-texnika bazasini yangilash imkonini beradi.

Xususiy investitsiyalarni jalb etish - agroklasterning uchun qulay investitsion muhit yaratish orqali mahalliy va xorijiy sarmoyalarni faol jalb etishga xizmat qiladi. Bu esa klasterlarning moliyaviy barqarorligi va mustaqilligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida shakllantirilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi agroklasterning innovatsion rivojlanishini va agrar sohada iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi agroklasterning barcha ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularni yagona iqtisodiy makon sifatida integratsiyalashtirishda muhim o'rin tutadi. Bu tizim moliyaviy manbalarning shaffof taqsimlanishini ta'minlash, loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va investitsiya qaytishi ustidan tizimli monitoring o'rnatish orqali klaster faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi.

Agroklasterning moliyaviy qo'llab-quvvatlash qishloq xo'jaligida innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishning asosiy omili hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan moliyaviy mexanizmlar agrar sohada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, qishloq joylarda aholi bandligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Agroklasterning moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi O'zbekiston qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, qishloq hududlarida tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga yo'naltirilgan muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Keyingi yillarda agrar sohada amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va islohotlar natijasida agroklasterning milliy iqtisodiyotning innovatsion va eksportga yo'naltirilgan strategik drayverlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda davlat, bank sektori va xalqaro moliya institutlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bank sektori ishtirokining kuchayishi agroklasterning xususiy investitsiyalarni jalb etish va qishloq xo'jaligi sub'ektlariga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlamoqda.

Xalqaro tashkilotlar ishtirokining faollashuvi ya'ni, FAO, ETTB, KOICA va JICA tomonidan ajratilgan mablag'lar agrosanoat innovatsion infratuzilmani shakllantirish, klaster menejmenti sifatini oshirish va eksportbop mahsulot yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda davlat tomonidan klaster faoliyatini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy va ijtimoiy samaralarini aniqlash, shuningdek qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

### **4. Tahlil va natijalar.**

O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini moliyalashtirish tizimi ko'p manbali bo'lib, davlat subsidiyalari, tijorat banklari kreditlari va xalqaro moliya institutlari mablag'lariga asoslanadi. Bu tizim qishloq xo'jaligi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda agroklasterning 1,8 trln. so'm miqdorida davlat subsidiyalari ajratilgan. Ushbu mablag'lar quyidagicha taqsimlangan.

**2-jadval**

**Qishloq xo'jaligida ajartilgan davlat subsidiyalar to'g'risida ma'lumot**

<b>T/r</b>	<b>Yo'nalish</b>	<b>Mablag' (mlrd. so'm)</b>	<b>Ulush, (%)</b>
1.	Suv tejavchi texnologiyalar joriy etish	650	36,1
2.	Zamonaviy issiqxonalar qurilishi	420	23,3
3.	Qayta ishlash korxonalarini yangilash	300	16,7
4.	Ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish va eksportni rag'batlantirish	430	23,9
	<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>100</b>

Davlat subsidiyalari asosan resurs tejamkor va yuqori texnologiyali loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgani natijasida klasterlar faoliyatida ishlab chiqarish samaradorligi va hosildorlik 12-15% ga o'sgan.

Agroklasterlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklari faol ishtirok etmoqda. Masalan:

- "Agrobank" tomonidan 2024 yilda agrosanoat loyihalari uchun 2,4 trln. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan;
- "Mikrokreditbank" va "Qishloq qurilish bank" orqali fermer xo'jaliklariga uch yillik imtiyozli davr bilan kreditlar taqdim etilmoqda;
- Qishloq xo'jaligi texnikasini lizing orqali moliyalashtirish ulushi 22% ni tashkil etgan.

Bank sektori orqali yo'naltirilayotgan mablag'lar asosan ishlab chiqarish vositalari, texnika va uskunalarni yangilash, shuningdek, mahsulotni qayta ishlash salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu orqali klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar barqarorlashib, uzoq muddatli hamkorlik tizimi shakllanmoqda.

Agroklasterlarning moliyalashtirish jarayonida xalqaro tashkilotlar ham faol ishtirok etmoqda:

- BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 2022-2024 yillarda 85,0 mln. AQSh dollari hajmida grant va kredit liniyalari ajratilgan;
- KOICA va JICA loyihalari doirasida Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida agroinnovatsiya markazlari tashkil etilib, ularga 12,0 mln. dollar yo'naltirilgan.

Bu tashabbuslar orqali mahalliy klasterlar xalqaro tajriba, innovatsion yechimlar va bozorlarga chiqish imkoniyatlariga ega bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022-2024 yillarda agroklasterlarning umumiy ishlab chiqarish hajmi 23,6% ga o'sgan, qayta ishlash ulushi esa 58%dan 71,0 % gacha ko'tarilgan. Bu esa moliya resurslarining maqsadli sarflanayotganini, investitsiyalarning yuqori qaytimi ta'minlanayotganini, klaster ishtirokchilari jumladan, yermerlar, qayta ishlovchilar, banklar, ilmiy muassasalar) o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalar shakllanganini ko'rsatadi.

Agroklasterlarni moliyalashtirish tizimida davlat, bank va xalqaro tashkilotlar mablag'larining o'zaro uyg'unlashuvi qishloq xo'jaligidagi innovatsion rivojlanishni rag'batlantirmoqda. Moliyalashtirishning ko'p manbali modeli klaster faoliyatida barqarorlikni ta'minlash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsiyalarni joriy etish agroklasterlar rivojlanishining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Innovatsiyalar agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda agrotexnologiyalar sohasidagi 47 ta ilmiy loyiha davlat grantlari asosida qo'llab-quvvatlangan. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun 210,0 mlrd. so'm miqdorida davlat grant mablag'lari ajratilgan.

Agroklasterlarning kengayishi natijasida mamlakatda 280 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan. Bu qishloq joylarda bandlik darajasini oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish va migratsiya jarayonlarini barqarorlashtirishda muhim omil bo'ldi.

Shuningdek, klaster tizimining samarali faoliyati natijasida mahsulot tannarxi o'rtacha 12-15 foizga pasaygan bo'lsa, eksportbop mahsulotlar ulushi 1,7 barobarga oshgan.

Bunday ijobiy tendensiyalar moliyaviy, ilmiy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining uzviy bog'liq holda amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda davlat va xususiy sektor hamkorligidagi moliyaviy mexanizmlar subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, grantlar hamda investitsiya dasturlari muhim o'rin tutadi. Ushbu vositalar agroklasterning sub'ektlarining iqtisodiy barqarorligi, resurs tejamligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Kelgusida agroklasterning moliyalashtirish jarayonida innovatsion moliyalashtirish turlarini joriy etish jumladan, ventur fondlar, "yashil moliya" instrumentlari va klaster obligatsiyalari strategik ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar agrosanoat sohasiga yangi sarmoya manbalarini jalb etish, ekologik barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda investitsiya muhitini takomillashtirish imkonini yaratadi.

Agroklasterning faoliyatini samarali rag'batlantirishda soliq va bojxona imtiyozlari muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. Ushbu imtiyozlar davlat tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, investitsion faollikni oshirish va agrosanoat sohasida innovatsiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan.

Bunday mexanizmlar orqali agroklasterning sub'ektlari uchun qulay iqtisodiy muhit yaratilib, ularning raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish salohiyati oshmoqda. Shu bilan birga, soliq va bojxona yengilliklari klaster ichidagi kooperatsiyani kuchaytiradi va moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda agrosanoat klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi hukumat qarorlari va farmonlarlariga muvofiq, agroklasterning sub'ektlari uchun qator soliq va bojxona imtiyozlari amal qilmoqda. Ushbu imtiyozlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hamda investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan.

Jumladan, klaster ishtirokchilari foyda solig'idan uch yilgacha ozod etish tartibi joriy qilingan bo'lib, bu ularning aylanma mablag'larini ko'paytirish va investitsiya faolligini rag'batlantirish imkonini beradi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilayotgan imtiyozlar orqali ichki bozorda raqobatbardosh narx siyosati shakllantirilayotgani qayd etiladi.

Bundan tashqari, yer solig'i va mol-mulk solig'idan ozod qilish yoki soliq stavkalarini pasaytirish choralari amalga oshirilishi natijasida agroklasterning sub'ektlarining ishlab chiqarish xarajatlari o'rtacha 15-20 foizga kamaygan. Bu o'z navbatida, ularning moliyaviy barqarorligi va rentabellik darajasini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Agroklasterning tarkibidagi ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar uchun ham maxsus soliq yengilliklari joriy etilgan. Xususan, ular foydaning 50 foizini qayta investitsiya qilish sharti bilan foyda solig'idan ozod etiladi. Bu mexanizm innovatsiyalarga sarmoya kiritishni rag'batlantirib, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytiradi.

Amaliyotda bunday imtiyozlar samaradorligini aniq misollar orqali kuzatish mumkin. Masalan, "Toshkent Agro Klaster", "Qashqadaryo Tekstil Agro" va "Farg'ona Agriinnovatsiya markazi" faoliyatida foyda solig'idan berilgan imtiyozlar natijasida klaster investitsiya hajmi so'nggi ikki yilda 1,4 barobarga oshgan. Bu holat agroklasterning rivojida soliq siyosatining rag'batlantiruvchi vosita sifatidagi ahamiyatini yanada tasdiqlaydi.

Agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda bojxona sohasidagi imtiyozlar muhim iqtisodiy rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Mazkur imtiyozlar ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarni jalb etish, klaster ishtirokchilari xarajatlarini kamaytirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumat qarorlariga muvofiq, agroklasterning uchun qator bojxona yengilliklari belgilangan, jumladan:

- agroklaster sub'ektlari tomonidan xorijdan olib kelinadigan qishloq xo'jaligi texnikasi, urug'lik, ozuqa, xomashyo va asbob-uskunalar bojxona to'lovlaridan ozod etilgan;
- qayta ishlash korxonalariga texnologik uskunalar va ehtiyot qismlar importida qo'shilgan qiymat solig'i undirilmaydi;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan agroklasterlar uchun 10 yilgacha bojxona bojidan ozod qilish rejimi joriy etilgan.

Ushbu imtiyozlar amaliyoti agroklasterlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish hamda xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, imtiyozlar xorijiy kapital uchun investitsion jozibadorlikni oshirib, agroklasterlarning eksport salohiyatini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-2024 yillar davomida agroklasterlar tomonidan jami 180,0 million AQSh dollari miqdorida texnologik jihozlar va xomashyo import qilingan. Shuningdek, ushbu importning taxminan 75,0 foizi bojxona imtiyozlari asosida amalga oshirilgan. Bu holat o'z navbatida ishlab chiqarish xarajatlarining sezilarli darajada kamayishiga, shuningdek, mahsulot tannarxining o'rtacha 10-12 foizga pasayishiga xizmat qilgan.

Soliq va bojxona imtiyozlari tizimi agroklasterlar faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda ularning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada, klasterlar tomonidan joriy etilgan investitsiyalar hajmi 2020 yilga nisbatan 2,3 barobarga oshgan, eksport hajmi esa 420,0 million dollardan 710,0 million dollargacha ko'tarilgan. Shu bilan birga, agroklasterlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 4,8 foizdan 7,5 foizgacha o'sgan.

2023 yil natijalariga ko'ra, mamlakatning turli hududlarida jami 37 ta yangi agrologistika markazi foydalanishga topshirilgan bo'lib, ularning umumiy quvvati yiliga 420 ming tonna mahsulotni saqlash imkoniyatini yaratadi. Bu markazlar zamonaviy sovetgich tizimlari, avtomatlashtirilgan nazorat uskunalari va logistika boshqaruv platformalari bilan jihozlangan bo'lib, mahsulotni sifat jihatidan saqlash va uning bozorbopligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Logistika infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi natijasida mahsulot yo'qotish darajasi 18,0 foizdan 6,0 foizgacha kamaygan, bu esa ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlarni qisqartirish va rentabellikni oshirish imkonini bergan.

Shu bilan birga, eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida maxsus "agrokoridorlar" tashkil etilgan, ular orqali O'zbekiston mahsulotlari Rossiya, Qozog'iston va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga yetkazib berilmoqda. Ushbu tashabbus transport xarajatlarini 15-20 foizga kamaytirish, eksport jarayonlarini tezlashtirish va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, agrologistika tizimining takomillashuvi agroklasterlar faoliyatida iqtisodiy samaradorlik, mahsulot sifatini saqlash va eksport faolligini oshirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Agroklasterlarning barqaror va uzluksiz faoliyati, avvalo, energiya ta'minotining barqarorligi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy texnologik yechimlar va energiya samaradorligini ta'minlovchi manbalardan foydalanish agroklasterlar iqtisodiy salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

2024 yil holatiga ko'ra, mamlakat bo'ylab 40 dan ortiq agroklaster hududlarida umumiy quvvati 120 MVt bo'lgan quyosh elektrostansiyalari ishga tushirilgan. Ushbu chora-tadbirlar elektr energiyasi ta'minoti xarajatlarini o'rtacha 25,0 foizga qisqartirishga imkon bergan hamda agrosanoat ishlab chiqarishining ekologik barqarorligini ta'minlagan.

Shu bilan birga, "Agro-data" axborot tizimi joriy qilinib, 70 ta agroklaster faoliyati raqamli monitoring tizimiga ulangan. Bu tizim ishlab chiqarish jarayonlarini onlayn kuzatish,

ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada, agroklasterni ishlab chiqarish samaradorligi 12-15 foizga o'sgan.

Infratuzilmaning muhim tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy muhitni rivojlantirish masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Agroklasterni hududlarida ishchi va mutaxassislar uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish, ta'lim va transport infratuzilmasini yaxshilash kadrlar salohiyatini mustahkamlash va mehnat unumdorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

2020–2024 yillar davomida agroklasterni hududlarida 6 mingdan ortiq turar-joy binolari qurilgan, shuningdek, 18 ta kasb-hunar markazi tashkil etilgan. Bu tashabbuslar mahalliy aholining bandlik darajasini 1,6 barobarga oshirishga hamda hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, energiya ta'minoti, raqamli va ijtimoiy infratuzilmaning uyg'un rivojlanishi agroklasterni barqaror faoliyati, innovatsion salohiyati va ijtimoiy samaradorligini ta'minlovchi ustuvor omillardan biri hisoblanadi.

Infratuzilmaning izchil rivojlantirilishi natijasida so'nggi yillarda agroklasterni faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2020 yilga nisbatan 2,1 barobarga oshgan, bu esa ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi va resurslardan samarali foydalanishning amaliy natijasidir.

Agroklasterni eksport hajmi 420,0 million AQSh dollaridan 720,0 million dollargacha oshgan, bu ko'rsatkich tashqi bozorlarda milliy qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini va klasterlar raqobatbardoshligining yuksalayotganini anglatadi.

Bundan tashqari, mahsulotni qayta ishlash darajasi 38,0 foizdan 57,0 foizgacha ko'tarilgan, ya'ni agrosanoat zanjirida qo'shimcha qiymat yaratish ko'lami kengaygan. Bu holat xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonini tezlashtirgan.

Natijada, agroklasterni umumiy ish o'rinlari soni 250 mingdan ortiqni tashkil etmoqda, bu esa hududiy mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shgan.

Umuman olganda, agroklasterni faoliyatida ilmiy qo'llab-quvvatlash tizimi ularning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Yangi agrotexnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish. Bu orqali agroklasterni ilg'or ilmiy yutuqlarga asoslangan texnologiyalardan foydalanib, mahsulot sifatini va hosildorlikni oshirish imkoniga ega bo'ladi.

- Hosildorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar va metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqish. Agroklasterni faoliyatida ilmiy asoslangan agronomik, meliorativ va agroximik yechimlarning qo'llanilishi resurs tejamkorligini ta'minlaydi va yer unumdorligini barqaror saqlaydi.

- Innovatsion mahsulotlarni (urug'lik, mineral o'g'itlar, biotexnologik vositalar va boshqalar) tijoratlashtirish. Bu yo'nalish qishloq xo'jaligidagi ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish, ichki bozorni zamonaviy mahsulotlar bilan ta'minlash va eksportbop innovatsion tovarlar yaratish imkonini beradi.

- Ilmiy muassasalar, universitetlar va biznes tuzilmalar o'rtasida "ilm - ishlab chiqarish - investitsiya" tizimini shakllantirish. Bu tizim klaster ichida ilmiy tadqiqot natijalarining amaliy joriy etilishi, xususi sarmoyalarni ilmiy loyihalarga yo'naltirish va innovatsion ekotizimni rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Umuman olganda, ilmiy qo'llab-quvvatlash tizimi agroklasterni innovatsion salohiyatini mustahkamlab, qishloq xo'jaligi sohasida ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Bunday integratsiya natijasida agroklasterni nafaqat ishlab chiqarish markazi, balki innovatsion yangilanish va texnologik transfer maydoni sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda agroinnovatsiyalarni rivojlantirish va ularni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etishni ta'minlash maqsadida qator institutsional va moliyaviy mexanizmlar amalga oshirilgan.

2022-2024 yillarda Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan agrosektordagi startap loyihalarga 12,5 mln. AQSh dollari miqdorida grantlar ajratilgan. Bu tashabbuslar yangi texnologiyalar, raqamli yechimlar va resurs tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion qo'llab-quvvatlash agroklasterni infratuzilmasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish klasterlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xususan, 2023 yilda 7 ta hududda Agroinnovatsiya texnoparki tashkil etilgan bo'lib, ularda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan 85 ta startap loyihasi amalga oshirilmoqda. Ilmiy yangiliklarni amaliyotga joriy etish natijasida o'rtacha hosildorlik 15-18 foizga, suv tejamkorligi 25,0 foizga va energiya tejamkorligi 20,0 foizga oshgan.

2020-2024 yillar davomida agroklasterni innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari sezilarli o'sishga erishdi. Jumladan:

- ilmiy ishlanmalar asosida joriy etilgan yangi texnologiyalar soni 60 tadan 145 tagacha ko'paydi;
- innovatsion mahsulotlar ulushi umumiy ishlab chiqarishda 12,0 foizdan 27,0 foizgacha o'sdi;
- ilmiy ishlanmalar asosida eksport hajmi 310,0 mln. AQSh dollaridan 520,0 mln. dollargacha ko'tarildi.

## 5. Xulosa.

Agroklasterni qo'llab-quvvatlash qishloq xo'jaligining texnologik yangilanishini tezlashtirib, uni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirmoqda. Davlat grantlari, startap platformalari, universitetlar va tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar agroklasterni ilmiy-innovatsion salohiyatini mustahkamlab, mamlakat agrar sektorida "intellektual iqtisodiyot" asoslarini shakllantirmoqda.

Qishloq xo'jaligida klaster tizimini joriy etish va fermer xo'jaliklarini samarali qo'llab-quvvatlash milliy agrar salohiyatni to'liq ishga solish, eksport hajmini oshirish hamda aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega. Klaster modeli orqali resurslar samarali taqsimlanadi, ishlab chiqarish zanjiri integratsiyalanadi va qo'shilgan qiymatni yuksaltirish imkoniyati yaratiladi.

Davlatning iqtisodiy, infratuzilmaviy va innovatsion qo'llab-quvvatlash choralari subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, infratuzilma loyihalari va ilmiy-tadqiqot dasturlari fermer xo'jaliklari va klaster sub'ektlarining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirib, agrar sektorning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi har bir mamlakat iqtisodiyotida strategik sohalardan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy klaster modeli qishloq xo'jaligini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, klasterlarning barqaror faoliyati va kengayishi davlat tomonidan amalga oshiriladigan qo'llab-quvvatlash choralari bevosita bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish va fermer xo'jaliklari faoliyatini takomillashtirishda davlat qo'llab-quvvatlashi strategik ahamiyatga ega bo'lib, bunday siyosat quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Klasterlarni rivojlantirish uchun davlat dasturlarini ishlab chiqish va moliyalashtirishni kengaytirish agrar sektorda investitsiya va resurslarni samarali taqsimlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

2. Fermerlar va klaster sub'ektlari o'rtasida huquqiy tenglikka asoslangan munosabatlarni mustahkamlash shartnomaviy munosabatlarning shaffofligi va huquqiy kafolatlar fermerlar faoliyatini barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun maxsus grantlar va ta'lim loyihalarini kengaytirish ilmiy-tadqiqot va texnologik innovatsiyalar orqali klaster sub'ektlarining raqobatbardoshligi va qo'shilgan qiymat shakllanishi mustahkamlanadi.

4. Agrar infratuzilmani hududiy rivojlanish dasturlari orqali mustahkamlash transport, logistika, sug'orish va energiya ta'minoti kabi infratuzilmalarning takomillashtirilishi qishloq hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

Bu esa davlat tomonidan amalga oshiriladigan muvofiqlashtirilgan va maqsadli qo'llab-quvvatlash siyosatlari qishloq xo'jaligida klaster faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshirib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati va qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzviy hamkorlik kelgusida klasterlarning strategik ahamiyatga ega faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

### **Adabiyotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 5 noyabrda mevasabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va eksportini oshirish, aholi tomarqalaridan samarali foydalanishni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektrdagi ma'ruzasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 12 sentabr kuni davlat budjetiga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to'liq bajarish, 9 oy va yil yakuni bo'yicha belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish, paxta-to'qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish ma'lumotlari.

Enright M.J. Regional Clusters and Economic Development. - Economic Development Quarterly.

Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press.

<https://kun.uz/news/2019/10/04/yer-suv-erksiz-fermerlar-ozbekistonda-yerdan-foydalanishdagi-muammolar-va-oqibatlar>



### ИQTISODIYOTNING EKSPORT-IMPORT ALOQALARINI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Botirova K.Z.**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqtisodiyotning eksport-import aloqalarini raqamlashtirish jarayonlari, ularning zamonaviy sharoitdagi ahamiyati hamda tashqi savdo faoliyatini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalarning o'ri chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida eksport-import operatsiyalarida qo'llanilayotgan elektron hujjat aylanishi, bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli logistika tizimlari va integratsiyalashgan axborot platformalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholanadi. Xalqaro tajriba asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi savdoni raqamlashtirish orqali tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish, savdo jarayonlarining shaffoqligini oshirish va vaqt omilini optimallashtirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, eksport-import aloqalarini raqamlashtirishni takomillashtirishga qaratilgan institutsional, huquqiy va texnologik mexanizmlar tizimli yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali milliy iqtisodiyotning tashqi savdo salohiyatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda global savdo tizimiga integratsiyalashuvni chuqurlashtirish bo'yicha amaliy taklif va xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** eksport-import aloqalari, raqamlashtirish, tashqi savdo, elektron hujjat aylanishi, raqamli logistika, bojxona jarayonlari, xalqaro savdo, raqamli transformatsiya.

**Аннотация.** В данной статье проводится углублённый анализ процессов цифровизации экспортно-импортных связей экономики, их значения в современных условиях, а также роли цифровых технологий в эффективной организации внешнеторговой деятельности. В рамках исследования оценивается влияние электронного документооборота, автоматизации таможенных процедур, цифровых логистических систем и интегрированных информационных платформ, применяемых в экспортно-импортных операциях, на экономическую эффективность. На основе международного опыта развитых и развивающихся стран раскрываются возможности сокращения транзакционных издержек, повышения прозрачности торговых процессов и оптимизации временных факторов за счёт цифровизации внешней торговли. Кроме того, с позиций системного подхода освещаются институциональные, правовые и технологические механизмы, направленные на совершенствование цифровизации экспортно-импортных связей. Результаты исследования служат формированию практических выводов и рекомендаций по повышению внешнеторгового потенциала национальной экономики, усилению конкурентоспособности и углублению интеграции в глобальную торговую систему за счёт ускорения цифровой трансформации.

**Ключевые слова:** экспортно-импортные связи, цифровизация, внешняя торговля, электронный документооборот, цифровая логистика, таможенные процедуры, международная торговля, цифровая трансформация.

**Annotation.** *This article provides an in-depth analysis of the digitalization processes of export-import relations in the economy, their significance in modern conditions, and the role of digital technologies in the effective organization of foreign trade activities. Within the scope of the study, the impact of electronic document management, automation of customs procedures, digital logistics systems, and integrated information platforms used in export-import operations on economic efficiency is assessed. Based on international experience from developed and developing countries, the paper highlights opportunities to reduce transaction costs, increase transparency of trade processes, and optimize time factors through the digitalization of foreign trade. In addition, institutional, legal, and technological mechanisms aimed at improving the digitalization of export-import relations are examined using a systemic approach. The research findings contribute to the development of practical conclusions and recommendations for enhancing the foreign trade potential of the national economy, strengthening competitiveness, and deepening integration into the global trading system through accelerated digital transformation.*

**Keywords:** *export-import relations, digitalization, foreign trade, electronic document management, digital logistics, customs procedures, international trade, digital transformation.*

## 1. Kirish.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida eksport-import aloqalari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro savdo hajmlarining kengayishi, ishlab chiqarish va ta'minot zanjirlarining murakkablashuvi, shuningdek, raqobat muhitining keskinlashuvi tashqi savdo faoliyatini an'anaviy usullar asosida tashkil etish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo'ymoqda. Shu bois, eksport-import jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va boshqarish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonlari tashqi savdo faoliyatiga chuqur kirib borib, eksport-import operatsiyalarining tezkorligi, shaffofligi va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan bojxona tizimlari, raqamli logistika platformalari va integratsiyalashgan axborot tizimlari orqali savdo jarayonlarida inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish hamda vaqt resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Xalqaro tashkilotlar va yetakchi iqtisodiyotlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi savdoni raqamlashtirish eksport salohiyatining oshishi va milliy iqtisodiyotning global bozorga moslashuvchanligini kuchaytirishda muhim rol o'ynamoqda.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida nazariy fikrlarni amaliy tajriba bilan bog'lashga alohida e'tibor qaratildi. Har bir ilmiy g'oya o'quv jarayonida qanday ko'rinishga ega bo'lishi, uni qanday interaktiv vositalar orqali o'rgatish mumkinligi chuqur tahlil qilindi. Masalan, talabalarni statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilishga o'rgatishda elektron platformalar va simulyatsiya modellaridan qanday foydalanish samarali ekanligi aniqlab olindi (Selwyn, 2016).

Tadqiqot metodologiyasi shuningdek, sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini uyg'unlashtirishga asoslandi. Ma'lumotlar adabiyotlar tahlili, taqqoslash, real iqtisodiy vaziyatlarni o'rganish va amaliy mashg'ulotlarni kuzatish orqali yig'ildi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy ahamiyat nuqtai nazaridan ham asoslash imkonini berdi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy ta'limning zamonaviy talablarga javob beradigan, tizimli, interaktiv va amaliy jihatdan samarali shaklda tashkil etilishiga xizmat qildi. Bu yondashuv tadqiqot xulosalari va takliflarini puxta va ilmiy asoslangan holda ishlab chiqishga imkon berdi (Stiglitz & Walsh, 2021).

### **4. Tahlil va natijalar.**

Tahlil jarayonida iqtisodiyotni o'qitishning bir qator samarali yo'nalishlari aniqlanib, ularning amaliy ahamiyati bo'yicha chuqur xulosalar chiqarildi. Birinchi navbatda, iqtisodiy fanlarni tizimli yondashuv asosida o'qitish talabaning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda eng muhim omil ekani ayon bo'ldi. Talaba soliq stavkalari o'zgarishi narxlar barqarorligiga qanday ta'sir qilishini, davlat byudjeti daromadlarining iqtisodiy siyosat bilan qanday bog'liqligini, mikro darajadagi qarorlar makro darajadagi natijalarni qanday shakllantirishini bir butun mexanizm sifatida tushunishga erishadi. Shu bilan birga, talabaning iqtisodiy jarayonlarni yagona tizim sifatida qabul qilish qobiliyati, ularni bo'laklarga ajratib emas, balki ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rish orqali rivojlanadi.

Ikkinchi natija shundan iboratki, real iqtisodiy vaziyatlarga asoslangan o'quv jarayoni talabaning mustaqil fikrlash ko'nikmasini sezilarli darajada kuchaytiradi (UNESCO, 2019). Masalan, inflyatsiya oshishi ortida turgan sabablarni aniqlash, bozor muvozanatining buzilishi oqibatlarini tahlil qilish, soliq siyosatidagi o'zgarishlarning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholash kabi topshiriqlar talabaning iqtisodiy jarayonlarni chuqur idrok etishiga yordam beradi. Shu tarzda, talaba nafaqat iqtisodiy jarayonlarni tushunadi, balki ularni amaliy kontekstdagi natijalar bilan bog'lay oladi, bu esa uning iqtisodiy qaror qabul qilish va strategik tafakkurini rivojlantiradi.

Uchinchi natija — raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonini jonlantiruvchi kuchli omilga aylanishi. Elektron jadval dasturlari, interaktiv grafiklar, iqtisodiy simulyatsiya modellaridan foydalanish orqali talaba ma'lumotlarni ko'rish, solishtirish, tahlil qilish imkoniga

ega bo'ladi. Shu bilan birga, talaba turli iqtisodiy stsenariylarni modellashtirib, har xil iqtisodiy qarorlarning natijalarini oldindan baholashni o'rganadi. Masalan, davlat byudjeti parametrlarini o'zgartirish orqali makroiqtisodiy indikatorlar qanday ta'sirlanishini simulyatsiya qilish talabaning tizimli tafakkurini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar, shuningdek, o'qituvchiga o'quv jarayonini samarali tashkil etish, vaqtni tejash va murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlarning o'quv jarayonida ulushi ortishi talabalar kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Talabalar soliq hisob-kitoblarini bajarish, real bozor ma'lumotlarini tahlil qilish, iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishini izohlash, davlat moliyasidagi parametrlarning o'zgarishiga doir ishlanmalarni tayyorlash kabi vazifalarni bajarish orqali o'z bilimlarini amalda mustahkamlashadi. Shu bilan birga, talabaning iqtisodiy qarorlarni qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va ularning sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash qobiliyati rivojlanadi.

Shuningdek, o'qitish jarayonida talabalarga loyiha asosida ishlash imkoniyati berilishi natijalarning samaradorligini oshiradi. Talabalar iqtisodiy tahlilga oid loyihalarni mustaqil yoki guruh bo'lib bajarish orqali nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki jamoada ishlash, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va prezentatsiya qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi (World Bank, 2021). Bu esa, kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kompleks ko'nikmalarni shakllantiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiyotni o'qitish jarayonida tizimli yondashuv, amaliy mashg'ulotlar va raqamli texnologiyalarning uyg'unligi talabalar iqtisodiy tafakkuri, analitik ko'nikmalari va kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, talabalarga real hayotdagi iqtisodiy muammolar bilan ishlash imkoniyati berilishi ularning iqtisodiy qarorlarni samarali qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi va ularni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlaydi.

## **5. Xulosa.**

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy ta'limni zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Iqtisodiy fanlarni tizimli va bir-biri bilan uyg'un tarzda o'qitish talabaning iqtisodiy jarayonlarni chuqur anglashiga yordam beradi. Talaba mikroiqtisodiy tushunchalarni makroiqtisodiy jarayonlar bilan bog'lay olishi, soliq va byudjet siyosati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishi hamda iqtisodiy qarorlarni tahliliy nuqtai nazardan baholay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, real hayotdan olingan muammoli vaziyatlarga asoslangan o'quv jarayoni talabaning mustaqil tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatini ham yaratadi. Talabalar real iqtisodiy ko'rsatkichlar, bozor narxlarini dinamikasi, davlat moliyasi parametrlarini tahlil qilish orqali kasbiy tayyorgarlikni oshiradi va zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan kompetentsiyalarni egallaydi.

Raqamli texnologiyalar va interaktiv o'quv vositalari esa ta'lim jarayonini yanada jonli, tushunarli va samarali qiladi. Elektron simulyatsiyalar, interaktiv grafiklar va iqtisodiy modellashtirish platformalari talabalarga murakkab iqtisodiy jarayonlarni vizual tarzda tushunishga, natijalarni oldindan baholashga va tizimli tafakkurini rivojlantirishga imkon beradi. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlar va loyiha asosida ishlash talabalarning jamoada ishlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, ularni professional sohada muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy ta'limni zamonaviy yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish talabaning analitik fikrlash qobiliyati, tizimli iqtisodiy tafakkuri va kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa iqtisodiy bilimlarni

nafaqat tushunishga, balki amaliyotda samarali qo'llashga imkon yaratadi va talabning kelajakdagi professional muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

**Adabiyotlar:**

- Aghaei, M., & Khosravi, P. (2020). *Integrating digital tools in economics education: Challenges and opportunities*. Tehran: University Press.
- Blanchard, O., & Johnson, D. R. (2017). *Macroeconomics* (7th ed.). Boston: Pearson.
- Mankiw, N. G. (2021). *Principles of Economics* (9th ed.). Boston: Cengage Learning.
- OECD. (2020). *Innovative Learning Environments in Economic Education*. Paris: OECD Publishing.
- Pindyck, R. S., & Rubinfeld, D. L. (2018). *Microeconomics* (9th ed.). New York: Pearson Education.
- Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2019). *Economics* (21st ed.). New York: McGraw-Hill Education.
- Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. London: Bloomsbury Academic.
- Stiglitz, J. E., & Walsh, C. E. (2021). *Principles of Microeconomics* (2nd ed.). New York: W. W. Norton & Company.
- UNESCO. (2019). *Digital Tools and Innovative Methods in Higher Education*. Paris: UNESCO.
- World Bank. (2021). *Education Technology in Economic Curricula: Case Studies and Best Practices*. Washington, DC: World Bank Publications.



## TARIXIY MADANIY TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING INTEGRATSIYASI

*Erkayeva B.*

*Qarshi davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola tarixiy-madaniy turizmni barqaror rivojlantirish jarayonida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar integratsiyasining muhimligini nazariy va amaliy jihatdan o'rganadi. Tadqiqot tarixiy madaniy turizm sohasidagi hozirgi muammolarga (mavsumiylik, ob'ektlarning eskirishi, resurslarni boshqarishning samarasizligi va h.k.) yechim topishda raqamli texnologiyalar, xususan, katta ma'lumotlar (Big Data), Sun'iy intellekt (AI), virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) hamda blokcheyn texnologiyalarining rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Maqolada tarixiy madaniy turizm obyektlarida tashrif buyuruvchilar tajribasini boyitish, merosni saqlash tizimini samarali tashkil etish va mahalliy hamjamiyatlar uchun iqtisodiy foydalarni oshirishga qaratilgan ilg'or amaliyotlar ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor texnologiyalardan foydalanishda barqaror rivojlanish, inklyuziv yondashuv va axloqiy me'yorlarga amal qilishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarixiy madaniy turizm, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, merosni boshqarish, barqaror rivojlanish, innovatsiyalar, virtual va kengaytirilgan reallik.

**Аннотация.** В статье на теоретическом и практическом уровнях исследуется значение интеграции инноваций и цифровых технологий в процессе устойчивого развития историко-культурного туризма. В рамках исследования анализируются возможности применения цифровых технологий для решения актуальных проблем в сфере историко-культурного туризма, включая сезонность, физический износ объектов, неэффективность управления ресурсами и другие факторы. Особое внимание уделяется потенциалу технологий больших данных (Big Data), искусственного интеллекта (Artificial Intelligence, AI), виртуальной и дополненной реальности (Virtual and Augmented Reality, VR/AR), а также блокчейн-технологий.

В статье рассматриваются передовые практики, направленные на повышение качества туристского опыта на объектах историко-культурного наследия, совершенствование системы сохранения и управления наследием, а также на увеличение социально-экономических выгод для местных сообществ. Особый акцент сделан на необходимости соблюдения принципов устойчивого развития, инклюзивного подхода и этических норм при использовании цифровых технологий.

**Ключевые слова:** Историко-культурный туризм, цифровые технологии, искусственный интеллект, управление наследием, устойчивое развитие, инновации, виртуальная и дополненная реальность.

**Abstract.** This article examines, from both theoretical and practical perspectives, the significance of integrating innovations and digital technologies into the process of sustainable development of historical and cultural tourism. The study analyzes the potential of digital

*technologies to address current challenges in the field of historical and cultural tourism, including seasonality, deterioration of heritage sites, inefficient resource management, and related issues. Particular attention is given to the development and application of big data technologies (Big Data), artificial intelligence (AI), virtual and augmented reality (VR/AR), as well as blockchain technologies.*

*The article reviews advanced practices aimed at enhancing visitor experiences at historical and cultural tourism sites, improving the effectiveness of heritage conservation and management systems, and increasing socio-economic benefits for local communities. Special emphasis is placed on ensuring that the use of digital technologies adheres to the principles of sustainable development, inclusive approaches, and ethical standards.*

**Keywords:** *Historical and Cultural Tourism, Digital Technologies, Artificial Intelligence, Heritage Management, Sustainable Development, Innovations, Virtual and Augmented Reality*

### **1. Kirish.**

Tarixiy-madaniy turizm jahon iqtisodiyotida eng jadal rivojlanayotgan va strategik ahamiyatga ega sohalardan biri hisoblanib, u iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish bilan bir qatorda madaniy merosni asrash hamda mahalliy hamjamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, turizm oqimining ortib borishi natijasida sayyohlik obyektlarining haddan tashqari yuklanishi, resurslardan samarasiz foydalanish, madaniy meros obyektlarining yemirilish xavfi hamda mavsumiylik kabi qator muammolar yuzaga chiqmoqda (Smith, 2015). Mazkur sharoitda jahon turizm industriyasi oldida turgan asosiy vazifa tarixiy-madaniy turizmni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida, ya'ni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlagan holda rivojlantirishdan iboratdir (Richards, 2018).

Tarixiy-madaniy turizm sohasida yuzaga kelayotgan ko'p qirrali muammolarni bartaraf etishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning o'zaro uyg'unlashuvi muhim omil sifatida qaralmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, xususan, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari, mobil platformalar hamda virtual va kengaytirilgan reallik vositalari mazkur sohaning funksional imkoniyatlarini tubdan qayta shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu texnologiyalar tarixiy-madaniy turizmni an'anaviy modeldan zamonaviy, raqamlashtirilgan va foydalanuvchiga yo'naltirilgan tizimga aylantirish imkonini bermoqda.

Raqamli yechimlar asosida tashkil etilgan interaktiv muhit tashrif buyuruvchilarning madaniy meros obyektlari bilan o'zaro aloqasini chuqurlashtirib, ularning bilim olish va idrok etish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Raqamli gidlar, immersiv texnologiyalar va vizual modellashtirish vositalari yordamida tarixiy makonlar mazmunan qayta talqin etilib, foydalanuvchi uchun yanada jozibador va tushunarli shaklda namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan, analitik va raqamli vositalardan foydalanish meros obyektlarini boshqarish jarayonlarini yanada samarali va tizimli qilish imkonini beradi. Turistlarning xatti-harakatlari va oqimlarini tahlil qilish, tashriflar intensivligini oldindan bashorat qilish hamda infratuzilmaga tushadigan yuklamani baholash orqali resurslardan foydalanishning optimal darajasi ta'minlanadi va meros obyektlarining uzoq muddatli saqlanishi kafolatlanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Turizm mahsulotlarini moslashuvchan va maqsadli shakllantirish, ekologik yuklamani kamaytirish hamda iqtisodiy manfaatlarni muvozanatlashtirish orqali tarixiy-madaniy turizmning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi sohaning uzoq muddatli rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Tarixiy-madaniy turizm Tarixiy madaniy turizm sohasida olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ushbu turizm turi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Ko'plab olimlar tarixiy madaniy turizmni turizm sohasining barqaror rivojlanishida muhim vosita sifatida baholashadi. Masalan, M.Smith (2015) tarixiy-madaniy turizmni "sayyohlarning madaniy meros va tarixiy obyektlarga tashrif buyurish orqali yangi tajriba va bilim orttirishi" deb ta'riflaydi. G. Richards (2018) esa tarixiy-madaniy turizmni "madaniy va tarixiy qadriyatlarni o'rganish hamda ularni saqlash va targ'ib qilishga qaratilgan faoliyat" sifatida ko'radi. Unga ko'ra, tarixiy madaniy turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki jamiyatning madaniy va gumanitar rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Y. Poria, R. Butler, D.Aireylar (2003) o'z tadqiqotlarida tarixiy-madaniy turizmning asosiy mohiyatini tahlil qilgan holda, mepoc turizmni faqat tarixiy obyektlarni ko'rish emas, balki sayyohlarning shaxsiy his-tuyg'ulari, xotirasi va madaniy identifikatsiyasi bilan bog'liq tajriba sifatida talqin qiladilar. Turist uchun obyektning ma'nosi uning shaxsiy yoki jamoaviy tarixi bilan bog'liq bo'lishi muhimligi ta'kidlanadi.

D. Timothy, va S.Boyd (2003) o'z asarlarida tarixiy-madaniy turizmga bag'ishlangan fundamental tadqiqotni amalga oshirib, unda madaniy, tarixiy va tabiiy meros obyektlarining turizmdagi roli, ularni boshqarish, saqlash va barqaror foydalanish masalalari yoritilgan. Mualliflar meros turizmni iqtisodiy rivojlanish va madaniy himoya o'rtasidagi muvozanat sifatida ko'radi. Boshqa tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarixiy madaniy turizmning rivojlanishi uch asosiy yo'nalish bilan bog'liq: 1) madaniy bilim va tajriba orttirish, 2) merosni muhofaza qilish va saqlash, 3) madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish. Shu bilan, madaniy turizmning asosiy gumanitar funksiyalari sifatida: madaniy-ta'limiy, merosni muhofaza qilish va saqlash, hamda xalqlararo aloqalarni rivojlantirish kabi yo'nalishlar qayd etilgan. So'nggi yillarda texnologiyalar tarixiy madaniy turizmni rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'rilmoqda. D. Buhalis va A. Amarrangana (2015) tomonidan "aqlli turizm manzillari" konsepsiyasi ishlab chiqishgan. Unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (Big Data, IoT, mobil ilovalar) orqali sayyoh tajribasini yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish va manzillarni raqobatbardosh qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Aqlli turizm shahar va meros obyektlari boshqaruvida muhim vosita sifatida talqin etiladi. Ular raqamli texnologiyalar va IoT orqali turist oqimini boshqarish, resurslardan samarali foydalanish va meros obyektlarini monitoring qilish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, I.Tussyadiyah va D.Wang (2016) virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalarining turistlar tajribasini boyitishda sezilarli rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Natijalarga ko'ra, bu texnologiyalar sayyohlarning qaror qabul qilishi, tajribasini boyitishi va manzilga qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, madaniy va meros turizmida VR/AR ta'limiy va emotsional qiymatga ega. V.Neuhofer, D. Buhalis, A. Ladkin (2015) lar tomonidan aqlli texnologiyalar orqali shaxsiylashtirilgan madaniy turizm tajribalarini yaratish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mualliflar texnologiyalar sayyohning ehtiyojlari, qiziqishlari va xulq-atvoriga mos xizmatlarni taklif qilishini ko'rsatadi. Bu yondashuv madaniy turizmga qoniqish va taassurot darajasini oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarixiy madaniy turizm nafaqat madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ilmiy va amaliy jihatdan tarixiy madaniy turizmni raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash va barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

## **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqot tarixiy-madaniy turizm va raqamli texnologiyalar integratsiyasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda ikki asosiy metod qo'llangan: statistik tahlil orqali so'nggi yillarning rasmiy ma'lumotlari asosida sayyohlar tashrifi, mavsumiylik va meros obyektlariga tushadigan yuklama o'rganilib, turizmning iqtisodiy va amaliy jihatlari aniqlangan; sifatli tahlil

esa ekspert intervyulari va fokus-guruhlar orqali turizm obyektlarining boshqaruvi, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va amaliy yechimlarni tahlil qilgan. Shu yo'l bilan tadqiqot turizmni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.


#### 4. Tahlil va natijalar.

Ushbu tadqiqotda tarixiy-madaniy turizmni barqaror rivojlantirish jarayonida innovatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-amaliy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, meros turizmi faqat tarixiy obyektlarni tomosha qilish bilan cheklanmay, balki sayyohning shaxsiy xotirasi, madaniy qadriyatlar va identifikatsiyasi bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi (Poria, Butler & Airey, 2003).

Shuningdek, "aqlli turizm manzillari" konsepsiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, katta ma'lumotlar (Big Data), mobil ilovalar va raqamli platformalar orqali sayyoh tajribasini yanada sifatli va qulay qilish imkonini beradi (Timothy & Boyd, 2003). Ushbu yondashuv tashrifchilar oqimini real vaqtda kuzatish va boshqarish, ortiqcha yuklanishning oldini olish hamda infratuzilmadan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali meros obyektlarini muhofaza qilish, ularning madaniy qiymatini saqlab qolgan holda turizmga barqaror foydalanishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi (Buhalis & Amaranggana, 2015).

Tadqiqot natijalari VR va AR texnologiyalari madaniy obyektlarni virtual va interaktiv tarzda namoyon etish orqali sayyohlarga chuqurroq va mazmunli tajriba taqdim etishini ko'rsatdi. Ushbu texnologiyalar tarixiy voqealarni vizuallashtirish, yo'qolib ketgan yoki cheklangan kirishga ega obyektlarni qayta tiklangan holda ko'rsatish imkonini beradi. Shuningdek, VR va AR ilovalari ta'limiy qiymatni oshirib, sayyohlarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda tashrifdan oldin va keyingi tajribani boyitadi. VR va AR texnologiyalari sayyoh tajribasini boyitib, madaniy obyektlarga qiziqishni kuchaytirishi qayd etildi. Natijalarga ko'ra, shaxsiylashtirilgan raqamli yechimlar madaniy turizmga barqaror rivojlanishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi (Tussyadiah & Wang, 2016). Natijada, bunday raqamli yechimlar madaniy turizmga qiziqishni oshirish va barqaror tashrifni ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi (Neuhofer, Buhalis & Ladkin, 2015).

Ushbu tadqiqot doirasida Qashqadaryo viloyatidagi muzeylar, ziyoratgohlar va madaniy meros obyektlariga tashriflar statistik tahlil qilindi. So'nggi besh yil (2021–2025) ma'lumotlari asosida sayyohlar soni, mavsumiylik va meros obyektlariga tushadigan yuklama o'rganilib, quyidagi 1-diagramma tahlil qilindi.



**1-rasm. Qashqadaryo viloyatida turistik xizmatlardan foydalangan shaxslar soni (ming kishi)**

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 2020 yil pandemiya sabab sayyohlar soni keskin pasaygan bo'lsa, keyingi yillarda turizm faoliyati barqaror o'sishga erishgan. Ayniqsa, madaniy meros obyektlariga tashriflar sezilarli darajada oshgan. Muzeylar va ziyoratgohlar bo'yicha ham o'sish tendensiyasi kuzatiladi, bu hududning tarixiy va madaniy salohiyati ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, turizm sohasida sifatli tahlil sayyohlar tajribasi va boshqaruv samaradorligini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Shu maqsadda ekspert intervyulari va fokus-guruhlar orqali Qashqadaryo viloyatidagi muzeylar, ziyoratgohlar va madaniy meros obyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

**1-jadval**

**Qashqadaryo viloyatidagi muzeylar, ziyoratgohlar va madaniy meros obyektlarida texnologik yechimlar**

Fikr	Tavsif
1. Raqamli axborot tizimlari	Hududdagi turistik obyektlar (muzey, ziyoratgoh, madaniy meros) uchun mobil ilovalar yaratish. Tashrifchilar yo'naltirilishini osonlashtiradi.
2. Virtual ekskursiyalar	AR/VR ekskursiyalar orqali madaniy meros obyektlarini online ko'rish imkoniyati — sayyohlarni jalb etish va ularning oldindan rejalashtirishiga yordam beradi.
3. Onlayn chipta tizimlari	Madaniy meros obyektlari va muzeylar uchun onlayn chipta sotish — boshqaruvni soddalashtiradi va navbatlarni boshqaradi.
4. Raqamli marketing	Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarixiy va madaniy meros obyektlarini targ'ib qilish, turist oqimini oshirishda muhim vosita.
5. Madaniy merosni interaktiv taqdim etish	QR-kodlar, audio gidlar, interaktiv ta'lim dasturlari orqali merosni yanada jozibador qilish.

Sifatli tahlil natijalari esa ekspert intervyulari va fokus-guruhlar orqali olingan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish sayyohlar tajribasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xususan, mobil ilovalar va onlayn ma'lumot bazalari orqali sayyohlar uchun marshrutlarni soddalashtirish mumkin. AR/VR texnologiyalari yordamida madaniy meros obyektlarini virtual ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa sayyohlarni jalb qiladi (Erkayeva & Vayskulov, 2022) Shuningdek, onlayn chipta sotish tizimlari navbatlarni kamaytiradi va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Raqamli marketing va interaktiv taqdimotlar (QR-kodlar, audio-gidlar) esa barqaror turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

**5. Xulosa.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarixiy-madaniy turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat sayyohlar sonini oshirish, balki turizm boshqaruvi va xizmat sifatini yaxshilash imkonini beradi. Qashqadaryo viloyatidagi muzeylar, ziyoratgohlar va madaniy meros obyektlarida statistik va sifatli tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli yechimlar sayyohlar tajribasini boyitadi, interaktiv taqdimotlar esa meros obyektlarini yanada jozibador qiladi. Shu bilan birga, barqaror turizmni rivojlantirishda raqamli marketing va onlayn xizmatlar muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish tarixiy-madaniy obyektlarni samarali boshqarish va sayyohlar tajribasini yaxshilashga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflarni taqdim etaman:

- Hududdagi muzeylar, ziyoratgohlar va madaniy meros obyektlari uchun mobil ilovalar va onlayn platformalar ishlab chiqish, sayyohlar uchun marshrutlarni soddalashtirish.
- Virtual ekskursiyalar (AR/VR) joriy etish orqali obyektlarni online tarzda ko'rish imkoniyatini yaratish, sayyohlarni jalb qilish va oldindan rejalashtirishni osonlashtirish.

- Onlayn chipta tizimlari orqali navbatlarni kamaytirish va boshqaruvni optimallashtirish.
- Raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlar yordamida tarixiy-madaniy obyektlarni keng targ'ib qilish.
- Madaniy merosni interaktiv tarzda taqdim etish (QR-kodlar, audio-gidlar) orqali sayyohlar tajribasini boyitish.
- Barqaror turizmni rivojlantirish maqsadida hududiy strategiyalar ishlab chiqish va raqamli texnologiyalarni tizimli integratsiya qilish.

#### **Adabiyotlar:**

- Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2015). Smart tourism destinations. *Information & Management*, 52(5), 553–562.
- Erkayeva B., O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy- iqtisodiy jihatlar Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil. 426-434 b.
- Erkayeva, G., & Vayskulov, R. (2022). Turizm salohiyatini rivojlantirishda mobil innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llari. *Economics and Innovative Technologies*, 10(5), 348-356.
- Li, X., & Wang, Y. (2020). Big data analytics in heritage tourism: Optimizing visitor management. *Journal of Heritage Tourism*, 15(2), 123–137.
- Neuhofer, B., Buhalis, D., & Ladkin, A. (2015). Smart technologies for personalized experiences in cultural tourism. *Tourism Management*, 52, 89–101.
- Poria, Y., Butler, R., & Airey, D. (2003). The core of heritage tourism. *Annals of Tourism Research*, 30(1), 238–254.
- Richards, G. (2018). *Cultural Tourism: A Review of Recent Research and Trends*. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 35, 12–21.
- Smith, M. K. (2015). *Issues in Cultural Tourism Studies*. Routledge.
- Timothy, D. J., & Boyd, S. W. (2003). *Heritage Tourism*. Prentice Hall.
- Tussyadiah, I. P., & Wang, D. (2016). Tourists' attitudes toward VR and AR applications. *Journal of Travel Research*, 55(8), 1024–1039.



## TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA HUDUDIY BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSIY DETERMINANTLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

*Ismatova S.A.*

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Toshkent viloyatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillar (iqtisodiy o'sish va tarkibiy diversifikatsiya, infratuzilma, suv-energiya samaradorligi, qishloq xo'jaligi modernizatsiyasi, ijtimoiy xizmatlar sifati, institutsional boshqaruv) tahlil qilindi. Metodologiya sifatida normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistika ma'lumotlari asosida kontent tahlil hamda taqqoslama-analitik yondashuv qo'llanildi. Natijalarga ko'ra, viloyat darajasida ustuvorliklarni milliy strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish, investitsiya va infratuzilma loyihalarini manzilli rejalashtirish, suv tanqisligi sharoitida suv tejavchi texnologiyalarni kengaytirish hamda ijtimoiy xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish barqaror rivojlanishning "tayanch bloklari" sifatida namoyon bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *barqaror rivojlanish, hududiy raqobatbardoshlik, Toshkent viloyati, infratuzilma, suv tejash, ijtimoiy xizmatlar, "O'zbekiston - 2030".*

**Abstract.** *This article analyzes the main factors ensuring the sustainable development of the Tashkent region (economic growth and structural diversification, infrastructure, water and energy efficiency, agricultural modernization, quality of social services, institutional governance). As a methodology, content analysis and a comparative-analytical approach were used based on regulatory and legal documents and official statistical data. According to the results, the alignment of priorities at the regional level with national strategic goals, targeted planning of investment and infrastructure projects, expansion of water-saving technologies in conditions of water scarcity, and improvement of the scope and quality of social services are manifested as the "building blocks" of sustainable development.*

**Keywords:** *sustainable development, regional competitiveness, Tashkent region, infrastructure, water saving, social services, "Uzbekistan - 2030".*

**Аннотация.** *В данной статье анализируются основные факторы, обеспечивающие устойчивое развитие Ташкентской области (экономический рост и структурная диверсификация, инфраструктура, водо- и энергосбережение, модернизация сельского хозяйства, качество социальных услуг, институциональное управление). В качестве методологии использованы контент-анализ и сравнительно-аналитический подход на основе нормативно-правовых документов и официальных статистических данных. По результатам исследования, в качестве «строительных блоков» устойчивого развития проявляются согласование приоритетов на региональном уровне с национальными стратегическими целями, целенаправленное планирование инвестиционных и инфраструктурных проектов, расширение водосберегающих технологий в условиях водodefицита, а также повышение масштабов и качества социальных услуг.*

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, региональная конкурентоспособность, Ташкентская область, инфраструктура, водосбережение, социальные услуги, «Узбекистан – 2030».

## 1. Kirish.

Barqaror rivojlanish hududiy (viloyat) darajada iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatning bir-birini kuchaytiradigan tizimli uyg'unligini anglatadi. O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan ustuvor yo'nalishlar "O'zbekiston - 2030" strategiyasi orqali belgilangan bo'lib, unda barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'un monitoring va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish vazifalari ham qayd etilgan.

Toshkent viloyati mamlakat iqtisodiy hududlari orasida ishlab chiqarish, xizmatlar, logistika va mehnat migratsiyasi oqimlari nuqtayi nazaridan markaziy o'rin egallaydi. Rasmiy dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2024-yilda Toshkent viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 146 385,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6,7% o'sish qayd etilgan. Bunday dinamika barqaror rivojlanishning iqtisodiy tayanchini ko'rsatsa-da, suv tanqisligi, ekologik bosim, urbanizatsiya va ijtimoiy xizmatlarga talab ortishi kabi omillar viloyat uchun ustuvor siyosiy-ijtimoiy yechimlarni talab qiladi.

## 2. Adabiyotlar sharhi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatning uzviy uyg'unligi sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv ilk bor 1987-yilda BMTning Brundtland komissiyasi hisobotida ilgari surilgan bo'lib, keyingi tadqiqotlarda hududiy rivojlanish siyosatini shakllantirishda asosiy konseptual asosga aylandi. So'nggi yillarda barqaror rivojlanish masalasi aynan hududiy (regional) darajada tahlil qilish zarurligi bilan izohlanmoqda, chunki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik nomutanosibliklar ko'proq hududlar kesimida namoyon bo'ladi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda hududiy barqaror rivojlanishning asosiy determinantlari sifatida iqtisodiy diversifikatsiya, infratuzilma sifati, institutsional boshqaruv va inson kapitali ko'rsatiladi. Jumladan, World Bank tadqiqotlarida hududlar raqobatbardoshligi va barqarorligi ishlab chiqarish samaradorligi, logistika va xizmatlar infratuzilmasi bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Bank ekspertlari rivojlanayotgan davlatlar misolida barqaror hududiy o'sishga erishishda investitsiya muhiti va davlat boshqaruvi sifati hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Ijtimoiy omillar nuqtayi nazaridan, barqaror rivojlanish masalasi aholini sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik bilan ta'minlash darajasi bilan chambarchas bog'liq. United Nations Development Programme (UNDP) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda hududiy rivojlanishning barqarorligi ijtimoiy tenglik, kambag'allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish ko'rsatkichlari orqali baholanishi zarurligi qayd etiladi. UNDP yondashuviga ko'ra, iqtisodiy o'sish ijtimoiy inklyuziya bilan qo'llab-quvvatlanmagan sharoitda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlay olmaydi.

Ekologik barqarorlik masalalari ham so'nggi ilmiy adabiyotlarda alohida e'tibor markazida turibdi. Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun suv resurslarining cheklanganligi va iqlim o'zgarishi hududiy rivojlanish strategiyalarida ekologik komponentni kuchaytirishni talab etadi. OECD tadqiqotlarida suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini hududiy siyosatga integratsiya qilish barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida baholanadi.

O'zbekiston ilmiy adabiyotlarida hududiy rivojlanish masalalari ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni kamaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va sanoatni hududiy joylashtirish nuqtayi nazaridan yoritilgan. Mahalliy tadqiqotlarda viloyatlar kesimida yalpi hududiy mahsulot o'sishi, investitsiyalar hajmi va bandlik ko'rsatkichlari asosiy tahlil obyektlari sifatida tanlanadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar,

jumladan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG) hududiy darajada joriy etish masalalari ilmiy muhokamalarga faol kirib kelmoqda.

Toshkent viloyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosan uning iqtisodiy salohiyati, sanoat va logistika imkoniyatlari, shuningdek poytaxt aglomeratsiyasiga yaqinligi bilan izohlanadi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga tayangan tadqiqotlarda viloyat mamlakat yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo‘shayotgani ta’kidlanadi. Biroq mavjud adabiyotlarda Toshkent viloyati barqaror rivojlanishini integrallashgan yondashuv asosida - ya’ni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni birgalikda tahlil qilgan ishlar nisbatan kam uchraydi.

Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqot Toshkent viloyati barqaror rivojlanishini ta’minlovchi omillar va ustuvorliklarni rasmiy strategik hujjatlar hamda statistik ma’lumotlar asosida tizimli ravishda tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqot Toshkent viloyatining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi omillar va ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash hamda baholashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida tizimli, kompleks va ko‘p bosqichli metodologik yondashuv qo‘llanildi. Metodologiya hududiy rivojlanish nazariyasi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni tahlil qilish usullariga asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida kontent tahlil usuli, tizimli tahlil usuli, taqqoslama tahlil, statistik tahlil, indikatorlar yondashuvi ilmiy usullar kompleks tarzda qo‘llanildi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Tahlil natijasida Toshkent viloyati barqaror rivojlanishining asosiy omillari quyidagi yo‘nalishlarda jamlanadi:

Iqtisodiy omillar: hududiy ishlab chiqarish va xizmatlar hajmi, investitsiya faolligi, sanoat va xizmatlar sektorini kengaytirish bo‘yicha maqsadli parametrlar. 2022-2026 yillarda viloyatda YAHM, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar o‘shining maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan.

Infratuzilma omillari: ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini manzilli rejalashtirish (ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal va ishlab chiqarish tarmoqlari). 2024-yil uchun viloyat infratuzilma obyektlarining manzilli ro‘yxati tasdiqlangan hujjat mavjud.

Suv-energiya va ekologik omillar: suv tanqisligi sharoitida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish siyosat darajasida muhim yo‘nalish sifatida ko‘riladi. Respublika miqyosida suv tejoychi texnologiyalar joriy etilgan maydonlar haqida rasmiy axborot berilgan. Bu yo‘nalish Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi samaradorligi va iqlimga moslashuv uchun bevosita ahamiyatli.

Ijtimoiy omillar: sifatli ijtimoiy xizmatlar qamrovi, bandlik va kambag‘allikni qisqartirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari samaradorligini oshirish masalalari alohida muhokama qilinadi.

Quyidagi jadval omillar - ustuvorlik - o‘lchov ko‘rsatkichlari - rasmiy manba bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy omillar bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi va uning o‘sh sur‘atlari viloyat rivojlanishining muhim indikator sifatida namoyon bo‘ladi. YAHMning barqaror o‘shishi Toshkent viloyatida ishlab chiqarish va xizmatlar sektorining kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun faqat iqtisodiy o‘shining o‘zi yetarli emas, balki uning tarkibiy sifati va tarmoqlararo diversifikatsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**1-jadval**

**Toshkent viloyatida barqaror rivojlanishni baholash ko'rsatkichlari va ustuvor yo'nalishlar**

<b>Omillar</b>	<b>Ustuvorlik (viloyat darajasi)</b>	<b>Amaliy indikator (misol)</b>
Iqtisodiy	YAHM o'sishi va tarkibiy diversifikatsiya	2024-yil YAHM: 146 385,2 mlrd so'm; o'sish 6,7%
Strategik rejalashtirish	2022-2026 maqsadli ko'rsatkichlar orqali sektorlar o'sishini boshqarish	YAHM 1,5 baravar; sanoat 1,6; xizmatlar 3,5 baravar va boshqalar (parametrlar)
Infratuzilma	Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini manzilli rivojlantirish	2024-yil infratuzilma obyektlari manzilli ro'yxati (ta'lim, tibbiyot, kommunal va b.)
Suv resurslari	Suv tejoyvchi texnologiyalarni kengaytirish	Respublika bo'yicha joriy etilgan maydonlar (tomchilatib, yomg'irlatib va b.) - tizimli kengayish
Ijtimoiy siyosat	Sifatli ijtimoiy xizmatlar va hududiy rivojlanish samaradorligi	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ijtimoiy xizmatlar bo'yicha ijroni baholash, kamchiliklarni bartaraf etish
Milliy uyg'unlik	SDG va "O'zbekiston - 2030" bilan muvofiqlik	SDGga mos yillik tahlil va natijalarni e'lon qilish tizimi

Yuqoridagi jadvalda korinib turibdiki, Toshkent viloyatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillar, ustuvor yo'nalishlar hamda ularni tavsiflovchi rasmiy ko'rsatkichlar tizimli ravishda umumlashtirilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, viloyat barqaror rivojlanishining asosiy drayverlari iqtisodiy o'sish, strategik rejalashtirish, infratuzilma rivoji, suv resurslaridan samarali foydalanish va ijtimoiy siyosat yo'nalishlarida jamlangan.

Strategik rejalashtirish blokida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar viloyat rivojlanishining o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Ushbu ko'rsatkichlar hududiy siyosatni rejalashtirishda miqdoriy mezonlar bilan bir qatorda natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuv mavjudligini ko'rsatadi. Jadvalda mazkur ko'rsatkichlarning rasmiy hujjatlar bilan bog'langan holda berilishi ularning institutsional mustahkamligini tasdiqlaydi.

Infratuzilma omillari jadvalda alohida blok sifatida ajratilgan bo'lib, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining manzilli rivojlantirilishi barqaror hududiy rivojlanishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal va ishlab chiqarish infratuzilmasiga qaratilgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy faollikni oshiradi, balki aholining turmush sifatini yaxshilash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Jadvalda keltirilgan suv resurslari bilan bog'liq ustuvorliklar Toshkent viloyati uchun ekologik barqarorlik masalasining dolzarbligini ochib beradi. Suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha rasmiy ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo'nalish barqaror rivojlanishning ekologik komponenti iqtisodiy va ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Ijtimoiy siyosat blokida aholini sifatli ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash, hududiy rivojlanish samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida aks ettirilgan. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy omillar iqtisodiy o'sish natijalarining barqarorligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Aholining ijtimoiy himoyasi va inson kapitalining rivojlanishi hududiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, jadval Toshkent viloyatining barqaror rivojlanishi ko'p komponentli tizim ekanini va uning samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik omillar o'rtasidagi muvozanatga bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu tahlil viloyat darajasida ustuvor yo'nalishlarni

aniqlash va hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirish uchun muhim analitik asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyatining barqaror rivojlanish modeli uchta "bog'lovchi mexanizm"ga tayanishi zarur:

1. Milliy strategiya - hududiy dastur uyg'unligi. "O'zbekiston - 2030" doirasida SDG bilan muvofiqlikni tahlil qilish va e'lon qilib borish tizimi nazarda tutilgani viloyat darajasida ham indikatorlar boshqaruvini kuchaytirishni talab qiladi. Bu yondashuv viloyatning tarmoq va tuman kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlari bilan (2022-2026) integratsiyada ishlaganda natija beradi.

2. Infratuzilma va xizmatlar sifati - ijtimoiy barqarorlikning yadrosi. Manzilli infratuzilma ro'yxatlarining mavjudligi resurslarni aniq obyektlar bo'yicha yo'naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash samaradorligini baholash bo'yicha parlament darajasidagi muhokamalar hududiy boshqaruvda natijadorlik va hisobdorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

3. Suv tanqisligi sharoitida agro-infratuzilma modernizatsiyasi. Suv tejoychi texnologiyalar bo'yicha rasmiy ma'lumotlarda joriy etish ko'lami kengaygani qayd etiladi. Toshkent viloyati uchun bu yo'nalish nafaqat qishloq xo'jaligi samaradorligi, balki ekologik barqarorlik va iqlimga moslashuvning ham tayanch omilidir.

Olib borilgan tadqiqot natijalari Toshkent viloyatining barqaror rivojlanishi ko'p omilli va kompleks jarayon ekanini tasdiqlaydi. Natijalar va jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatda barqaror rivojlanish iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlik, ekologik muvozanat hamda institutsional boshqaruv sifati bilan chambarchas bog'liq. Bu xulosa hududiy rivojlanish bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan konseptual yondashuvlar bilan hamohangdir.

Iqtisodiy omillar nuqtayi nazaridan, Toshkent viloyatida yalpi hududiy mahsulotning barqaror o'sishi hududning ishlab chiqarish va xizmatlar salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi. Biroq muhokama natijalari shuni anglatadiki, iqtisodiy o'sishning o'zi barqaror rivojlanishni to'liq ta'minlamaydi. Xalqaro tadqiqotlarda, xususan World Bank tomonidan olib borilgan tahlillarda ham hududiy barqarorlik uchun iqtisodiy o'sishning tarkibiy sifati - ya'ni yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlar ulushi, bandlik sifati va investitsiyalarning samaradorligi muhim ekani ta'kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, Toshkent viloyatida iqtisodiy siyosatni faqat o'sish sur'atlariga emas, balki uning sifat ko'rsatkichlariga yo'naltirish zarur.

Ijtimoiy omillar bo'yicha muhokama shuni ko'rsatadiki, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy xizmatlar sifati hududiy barqaror rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy faollikni oshirish bilan birga, ijtimoiy tenglik va inson kapitali rivojlanishini ta'minlashini ko'rsatadi. Bu yondashuv United Nations Development Programme (UNDP) tomonidan ilgari surilgan "inson markazli rivojlanish" konsepsiyasi bilan mos keladi. Demak, Toshkent viloyatida barqaror rivojlanish siyosatini shakllantirishda ijtimoiy inklyuziya masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ekologik va resurs omillari bo'yicha muhokama alohida e'tibor talab qiladi. Toshkent viloyati uchun suv resurslarining cheklanganligi va iqlim o'zgarishi sharoitida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish strategik zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik omillarni e'tibordan chetda qoldirgan iqtisodiy o'sish uzoq muddatli barqarorlikka olib kelmaydi. Shu sababli, hududiy rivojlanish siyosatida ekologik barqarorlik iqtisodiy va ijtimoiy siyosat bilan integratsiyalashgan holda ko'rib chiqilishi lozim.

Institutsional va boshqaruv omillari bo'yicha muhokama natijalari ham muhim ahamiyatga ega. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi va hududiy rivojlanish dasturlarining uyg'unligi Toshkent viloyatida strategik rejalashtirish tizimi shakllanayotganini ko'rsatadi. Biroq, muhokama shuni ko'rsatadiki, mavjud strategik hujjatlarning samaradorligi ularning amaliy ijrosi, monitoring va baholash mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bevosita

bog'liq. Hududiy darajada aniq indikatorlar tizimini joriy etish va natijalarga asoslangan boshqaruvni kuchaytirish barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Toshkent viloyati barqaror rivojlanishining hududiy xususiyatlarini ochib beradi. Viloyatning poytaxt aglomeratsiyasiga yaqinligi iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirsa-da, urbanizatsiya bosimi, infratuzilmaga bo'lgan talabning ortishi va ekologik yuklamaning kuchayishi kabi muammolarni ham yuzaga keltiradi. Bu holat hududiy rivojlanish siyosatida muvozanatli va uzoq muddatli yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Muhokama natijalari Toshkent viloyatida barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni alohida-alohida emas, balki yagona integrallashgan tizim sifatida boshqarish orqali ta'minlanishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv hududiy siyosatni takomillashtirish, ustuvor yo'nalishlarni aniqlashtirish va kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

## **5. Xulosa.**

Toshkent viloyatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda iqtisodiy o'sish (YAHM dinamikasi), 2022-2026 maqsadli ko'rsatkichlar orqali rejalashtirish, manzilli infratuzilma siyosati, suv tejoychi texnologiyalarni kengaytirish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish asosiy omillar sifatida ajralib turadi. Rasmiy hujjatlar va statistika viloyatning rivojlanish trayektoriyasi aniq parametrlar bilan belgilanganini ko'rsatadi. Kelgusida hududiy barqarorlikni kuchaytirish uchun indikatorlar boshqaruvi (monitoring, ochiqlik, baholash) va resurslardan samarali foydalanish (suv, energiya, infratuzilma) mexanizmlarini yanada chuqurlashtirish zarur. Mazkur tadqiqot Toshkent viloyatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillar va ustuvor yo'nalishlarni tizimli ravishda tahlil qilishga qaratildi. Olib borilgan adabiyotlar tahlili, rasmiy strategik hujjatlar va statistik ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, viloyatning barqaror rivojlanishi ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik komponentlarning o'zaro uyg'unligiga tayanadi.

Tadqiqot natijalari Toshkent viloyatida barqaror rivojlanishning iqtisodiy asosi sifatida yalpi hududiy mahsulotning barqaror o'sishi, sanoat va xizmatlar sektorining kengayishi hamda investitsiya faolligining oshib borayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning barqarorligi uning tarkibiy sifatiga, ya'ni tarmoqlararo diversifikatsiya va yuqori qo'shilgan qiymatga ega yo'nalishlar ulushining oshishiga bevosita bog'liq ekani aniqlandi. Bu holat hududiy rivojlanishda faqat miqdoriy o'sish emas, balki sifat jihatidan yangilanish muhim ekanini ko'rsatadi.

Abdullaev, N. M. (2022). Digitalization of tax administration: Experience and prospects of Uzbekistan. *Finance and Banking*, 5(1), 54–62.

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan. (2022). Modern approaches to tax administration and compliance. Tashkent.

Gulyamov, D. A. (2020). Fiscal sustainability and the role of tax administration in economic security. *Scientific Review of Economics*, 2(4), 33–41.

International Monetary Fund. (2023). Republic of Uzbekistan: Selected issues. IMF Country Report.

Iskandarov, B. B. (2019). Improvement of tax administration mechanisms in the context of economic liberalization. *Economics and Finance*, 4(2), 45–52.

OECD. (2021). Tax administration 2021: Comparative information on OECD and other advanced and emerging economies. OECD Publishing.

State Committee on Statistics of the Republic of Uzbekistan. (2023). Statistical yearbook of Uzbekistan. Tashkent.

State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan. (2023). Annual report on tax administration performance. Tashkent.

Tashkent State University of Economics. (2021). Tax system reforms and business environment development. University Press.

Tashpulatov, Sh. Sh. (2021). Tax administration and small business development in Uzbekistan. *Problems of Modern Economics*, 6(3), 66–74.

Vakhabov, A. V. (2020). Institutional reforms and their impact on the business environment in Uzbekistan. *Journal of Economic Reforms*, 3(1), 18–27.

World Bank. (2022). Uzbekistan public finance review: Toward a comprehensive, efficient, and equitable fiscal system. World Bank Group.



## О`ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDA YIRIK SOLIQ TO`LOVCHILARNING SOLIQ SALOHİYATINI SAMARALI BOSHQARISH ISTIQBOLLARI

**Ortiqova G.**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yirik soliq to'lovchilarning foyda solig'i bo'yicha tushumlar dinamikasi hamda ularning tarkibiy o'zgarishlari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida mamlakatimizda yirik soliq to'lovchilar soni va foyda solig'i tushumi asosida yillar kesimida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgani ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *yirik soliq to'lovchilar, foyda solig'i, soliq tushumlari, soliq ma'muriyatchiligi, soliq yuki; korxonalar faoliyati; soliq dinamikasi; byudjet daromadlari; soliq siyosati.*

**Аннотация.** *В данной статье анализируется динамика поступлений по налогу на прибыль у крупных налогоплательщиков Республики Узбекистан и их структурные изменения. В ходе анализа рассматривается, какие изменения во временном разрезе произошли в числе крупных налогоплательщиков и поступлениях по налогу на прибыль в нашей стране.*

**Ключевые слова:** *крупные налогоплательщики, налог на прибыль, налоговые поступления, налоговое администрирование, налоговое бремя, деятельность предприятия, налоговая динамика, доходы бюджета, налоговая политика.*

**Abstract.** *This article analyzes the dynamics of corporate income tax revenues of large taxpayers in the Republic of Uzbekistan and their structural changes. In the course of the analysis, it is examined what changes occurred over the years in the number of large taxpayers and in corporate income tax revenues in our country.*

**Keywords:** *large taxpayers, profit tax, tax revenues, tax administration, tax burden, company operations, tax dynamics, budget revenues, tax policy.*

### **1. Kirish.**

O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati so'nggi yillarda keskin islohotlar davrini boshdan kechirmoqda. Iqtisodiyotni liberallashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliq ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilishga qaratilgan ushbu islohotlar jarayonida byudjet daromadlarining barqarorligi va to'liqligini ta'minlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu borada, mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) va umumiy soliq tushumlarining muhim qismini ta'minlovchi yirik soliq to'lovchilar (YST) alohida ahamiyat kasb etadi.

Yirik soliq to'lovchilarning faoliyati soliq ma'muriyatchiligi uchun ham, iqtisodiyotning makro barqarorligi uchun ham fundamental ahamiyatga ega. Ularning soliq majburiyatlariga rioya etishi bevosita davlat byudjetining asosiy daromad manbai bo'lgan foyda solig'i tushumlariga ta'sir qiladi.

## 2. Adabiyot sharhi.

Yirik soliq to'lovchilar soliq siyosatini takomillashtirish borasida bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Quyida ushbu mavzu bo'yicha fikrlarga sharh keltirilgan. Shu jumladan, Sh. Jumayev (2024) o'z maqolasida mamlakatimizda yirik soliq to'lovchilar ahamiyatiga ta'rif bergan: "O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq siyosatida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalasi muhim yo'nalishlardan biridir. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar ulushining umumiy soliq tushumlarida yuqori bo'lishi sababli, yirik soliq to'lovchilarni soliqqa tortish va ularning soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi". Rossiyalik olimlardan Strukova L.A. (2016) o'z tadqiqotlarida Rossiyadagi yirik soliq to'lovchilar bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlarini keltirgan. Argentina olimlaridan William McCarten (2004) rivojlanayotgan davlatlarda yirik soliq to'lovchilarning iqtisodiy va sioysiy ahamiyatini keltirgan.

Ahmed. M.A. (2018) o'z tadqiqotlarida ushbu mavzuda Pokiston tajribasini yoritib bergan. Muzaffarov D.Sh. (2025) o'z maqolasida yirik soliq to'lovchilar siyosatida xorij tajribasini amalda tadbiiq etis istiqbollarini ko'rib chiqqan.

## 3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ushbu mavzu doirasida olib borilgan ilmiy ishlar o'rganib chiqilgan, soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida yillar kesimida statistik tahlil qilingan. Empirik tahlil orqali real korxonalar ma'lumotlari tahlil qilingan.

## 4. Tahlil va natijalar.

Soliq siyosatini takomillashtirishda yirik soliq to'lovchilarni e'tirof etish tartiblari va ularga berilgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish katta ro'l o'ynaydi. Yirik soliq to'lovchilar ma'murchiligi Soliq Kodeksi orqali tartibga solinadi. Yirik soliq to'lovchilarni e'tirof etishda ma'lum tartiblari mavjud:

✓ aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va aksiz to'lanadigan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, bundan alkohol va pivo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar mustasno;

✓ tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjalari;

✓ "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Olmaliq KMK" AJ, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ hamda ularning ta'sis chilikidagi tashkilotlar;

✓ mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan tashkilotlar;

✓ mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumi o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 735 ming baravaridan yuqori bo'lgan yoki ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr yakuni bo'yicha ushbu miqdordan oshgan hamda xodimlar soni o'rtacha yillik 10 nafardan kam bo'lmagan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo'linmalari), bundan paxta-to'qimachilik klasterlari, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, alkohol mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar mustasno;


✓ uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) yetkazib beruvchi chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo'linmalari), bundan avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchalari mustasno;

✓ O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'idan yo'lovchilarni tashish maqsadlarida foydalanuvchi, xalqaro havo aloqalarini amalga oshiruvchi va ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar.

✓ realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari (Soliq qo'mitasi, 2019).

Yirik soliq to'lovchilar ro'yxatiga kiritilgan yoki ro'yxatidan chiqarilgan yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan tegishli buyruq qabul qilingan kundan e'tiboran besh kun ichida yozma ravishda, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor qilinadi.


Yirik soliq to'lovchilar respublikamiz iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Yirik soliq to'lovchilarning budjet daromadlaridagi ulushuni 1-rasmda yillar kesimida ko'rib chiqish mumkin:



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasida yirik soliq to'lovchilardan kelib tushgan foyda solig'i tushumi dinamikasi (mlrd so'mda)**

1-rasm ma'lumotlari yirik soliq to'lovchilardan kelib tushgan foyda solig'i tushumining 2021-2024 yillar oralig'idagi dinamikasini ko'rsatadi. 2021-yilda yirik soliq to'lovchilaridan kelib tushgan foyda solig'i 34 200 mlrd so'mni tashkil etgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 30 400 mlrd so'mga tushib, avvalgi yilga nisbatan 11% kamayish kuzatilgan. 2023-yilda 9.9%ga o'sib tushum 33 434,8 mlrd so'mni qayd etgan. 2024-yilda esa ko'rsatkich keskin o'sgan, 45 434,9 mlrd so'm tushum qayd etilgan.

Yillar davomida yirik soliq to'lovchilardan kelib tushgan foyda solig'i tushumi ko'tarilgan. Bunga asosiy sabab ushbu kategoriyada soliq to'lovchilar sonining oshgani hisoblanadi. Quyida yirik soliq to'lovchilar soni dinamikasi tahlil qilingan.



**2-rasm. O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar soni dinamikasi (ta)**

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021-yilda mamlakatimizda yirik soliq to'lovchilar soni 1120 tani tashkil qilgan. 2022-yilda ko'rsatkich 26% o'sib, 1416 taga yetgan. 2023-yilda 215 taga ko'payib, 15% o'sish qayd etilgan. 2024-yilda yirik soliq to'lovchilar soni 2186 tani tashkil qilib, birinchi yilga nisbatan 95% o'sgan.

Shu o'rinda, yirik soliq to'lovchilar mol-mulk solig'i bo'yicha ham eng yuqori soliq tushumi keltiradigan kategoriya hisoblanadi. Jumladan, 2024-yil soliq yakunlari

ma'lumotlariga ko'ra yirik soliq to'lovchilar 2024-yilda 4 011,4 mlrd so'm miqdorda mol-mulk solig'i to'lagan va oldingi 2023-yilga nisbatan 14.1% o'sish qayd etgan. QQS bo'yicha yirik soliq to'lovchilar 2024-yil hisobida 23 435,5 mlrd so'm soliq to'lagan va avvalgi 2023-yilga qaraganda 113.5% o'sgan.

### **5. Xulosa.**

Yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiligining katta ulushini qamrab olgani tufayli ularni e'tirof etish, soliqqa tortish, nazorat qilish va tartibga solish, berilgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. Bunda Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi ustidan kuchli nazorat o'rnatish lozim.

### **Adabiyotlar:**

Ahmed M.A. Pakistan: wither tax reforms– the case of large taxpayers' unit, Islamabad // Journal of Tax Reform. 2018. Vol. 4, No. 3. P. 202–222.

Jumayev Sh. On improving the methodology of tax administration of large taxpayers in the Republic of Uzbekistan// International Journal of Economy and Innovation. 2024.

McCarten, W. Focusing on the few: The role of large taxpayers unit in the revenue strategies of developing countries. The World Bank, Washington DC. 2004. P. 2.

Muzaffarov D.Sh. Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini amalga oshirishning xorij tajribasi// Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025-yil, mart. 152-160 b.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2.07.2019 yildagi "Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi" Qarori.

Струкова Л.А. Проблемы налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков// Actualscience. 2016. Т. 2, №. 11. С.269-271.

Soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

Yil yakunlari-2024.



## STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA HARAJATLARNI HISOBGA OLISH USULLARI

*I.f.d., Professor **Pardayev A.X.**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Dotsent **Pardaeva Z.A.**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil etishning mohiyati va hozirgi kundagi ahamiyati o'rg'atilgan. Maqolada, xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil etishda xarajatlarni hisobga olishning zamonaviy usullari ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Strategik boshqaruv hisobi, xarajatlar, daromadlar, investitsiya, tannarx, kalkulyatsiya, ishlab chiqarish, moliyaviy hisobot.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются сущность и актуальность организации стратегического управленческого учета в хозяйствующих субъектах. В статье, рассматриваются современные методы учета затрат при организации стратегического управленческого учета в хозяйствующих субъектах.*

**Ключевые слова:** *стратегический управленческий учет, расходы, доходы, инвестиции, себестоимость, калькулирование, производство, финансовая отчетность.*

**Abstract.** *This article examines the essence and current importance of organizing management accounting in economic entities of the Republic of Uzbekistan. The article, first of all, examines the methods of accounting for costs in organizing management accounting in economic entities.*

**Keywords:** *Accounting, expenses, income, investments, cost, calculation, production, financial reporting.*

### 1. Kirish.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, liberallashtirish yetakchi tarmoqlar va istiqbolli subyektlar faoliyatini yaratish va mavjudlarini yanada takomillashtirish bugungi iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu jarayonlarda bevosita xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini to'g'ri tashkil etish va oqilona boshqarish ayni muddaodir. Ayniqsa bu jarayonda kompaniyalar xarajatlarini to'g'ri taqsimlanishi ular ustidan nazoratni amalga oshirish, xarajatlarni nazorat qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev (2022) tomonidan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" negizida xam iqtisodiy islohotlarda " ...Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish jihatlari ta'kidlab o'tilgan".

Resurslardan samarali foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirishda bevosita subyekt ichki boshqaruv hisobining to'g'ri va oqilona yo'lga qo'yilganligiga bog'liqdir. Mamlakatimizda xisob jarayonlarining takomillashuvida xo'jalik yurituvchi subyektlarda mulkchilik shaklidan

qatiy nazar strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritishga, xarajatlarni optimallashtirish jarayonlariga talab oshib bormoqda. Jahon amaliyotida xam ko'rish mumkinki, buxgalterning funksiyasiga nafaqat hisob yuritish, balki segmentlar bo'yicha xarajatlar va daromadlar smetasini tuzish, mahsulot tannarxini aniqlash, xarajatlarni kamaytirishni optimal yo'llairini izlab topish, istiqbolni bashorat qilish kabi vazifalar ham yuklatiladi.

Ayni paytda ko'plab sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarida mahsulot tannarxi yuqoriligi, ortiqcha yoki befoyda xarajatlar mavjudligi, byudjetlashtirish tizimi yetarli darajada ishlamasligi – ularni boshqaruv hisobi va chetlanishlar hisobi orqali aniqlash imkoniyati mavjud. Shu sababli, ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish iqtisodiyotimizning real sektorida katta amaliy ahamiyatga ega.

## **2. Adabiyotlar sharxi.**

A.Apcherch, Ye.Atkinson, R.Banker, P.Bruyer, R.Garrison, K.Druri, R.Kaplan, Ye.Norin, K.Yord, Dj.Foster, Ch.Xorngren va M.Yang (2005) kabi yirik iqtisodchi olimlar boshqaruv hisobi va uni tashkil qilish usullarini o'rganganlar .

MDH mamlakatlarida ham bir qator olimlar boshqaruv hisobini amaliyotga joriy qilish xo'jalik yurituvchi subyekt kelajar barkamolligi uchun juda muhimligini ta'kidlab o'tganlar. I.N.Bogataya, V.B.Ivashkevich (2015), V.E.Kerimov (2017), I.G.Kondratova, I.E.Mizikovskiy, O.E.Nikolaeva, V.F.Paliy kabi olimlar o'z ilmiy ishlarini strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish yo'nalishlari va uni samarali tashkil qilishga bag'ishlaganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham boshqaruv hisobining, shular jumlasidan boshqaruv hisobining mamlakatimizdagi rivoji uchun o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. A.A.Abdug'aniev, N.B.Abdusalamova, A.K.Ibragimov, B.U.Maxsudov, A.X.Pardaevning(2023) ilmiy ishlarida boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlari qisman o'z aksini topgan.

## **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Qo'yilgan vazifalarni hal qilishda ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirish usullaridan foydalanildi: kuzatish, to'plash, taqqoslash, ma'lumotlarni tahlil qilish va nazariy va amaliy materialni sintez qilish, muallif tomonidan o'tkazilgan mustaqil tadqiqotlar va umumlashtirishlar ishonchliligi va asosligini ta'minlashga imkon beradi.

## **4. Tahlil va natijalar.**

Strategik boshqaruv hisobi - bu korxonaning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va taqdim etish tizimi. Xarajatlarni hisobga olish usullari strategik boshqaruv hisobining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki ular korxonaning moliyaviy holatini baholash, mahsulot tannarxini aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Strategik boshqaruv hisobida xarajatlarni hisobga olish usullarini tadqiq etish jarayonida alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim jihat - bu usullarning o'zaro uzviy bog'liqligi va integratsiyalashuvi masalasidir. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yagona universal usulni qo'llash o'rniga, turli usullarning kuchli tomonlarini birlashtirib, korxonaning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan kompleks yondashuvni qo'llash ancha samarali hisoblanadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv xarajatlarni har tomonlama nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi, bu esa korxonaning raqobatbardoshligini va moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Strategik boshqaruv hisobida xarajatlarni hisobga olish usullarining rivojlanishi global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va biznes

modellarining transformatsiyasi bilan bevosita bog'liq. Masalan, raqamli transformatsiya jarayonida xarajatlarni hisobga olish usullari ham ma'lum darajada o'zgarishlarga uchramoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) va blokcheyn texnologiyalari xarajatlarni hisobga olish jarayonini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida ma'lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish imkonini bermoqda. Bu o'zgarishlar an'anaviy xarajatlarni hisobga olish usullarining zamonaviy talablarga moslashishini talab qilmoqda.

Zamonaviy korxonalarda strategik boshqaruv hisobida xarajatlarni hisobga olishning turli xil usullari qo'llaniladi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- Normativ xarajatlarni hisobga olish (Standard Costing)
- To'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisobga olish (Direct Costing)
- Faoliyat turiga asoslangan xarajatlarni hisobga olish (ABC - Activity-Based Costing)
- Maqsadli tannarxni hisoblash (Target Costing)

Uchbu maqola doirasida "EVER WHITE GROUP" MChJ misolida normativ xarajatlar hisobi (Standard Costing), to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar hisobi (Direct Costing) va faoliyat turiga asoslangan xarajatlarni hisobga olish (ABC) usullarini ko'rib chiqamiz.

Korxonada xarajatlarni hisobga olish usullarini tanlashda muhim omillardan biri - ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Tekstil va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish - bu murakkab texnologik jarayon bo'lib, u ko'p bosqichli ishlab chiqarishni, turli xil xomashyo va materiallarni, maxsus tikuv va to'quv uskunalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday sharoitlarda zamonaviy xarajatlarni hisobga olish usullarining qo'llanilishi, ayniqsa ABC usuli qo'shimcha qiymat yaratmaydigan faoliyatlarni aniqlash va bartaraf etish, ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, xarajatlarni hisobga olish usullarini tanlashda muhim rol o'ynaydigan yana bir omil - bu tarmoq xususiyatlari va korxonaning bozordagi raqobat muhitidir. Tekstil va tikuv-trikotaj mahsulotlari bozori yuqori raqobat muhiti bilan tavsiflanadi, bu esa korxonadan raqobatbardosh narxlarni belgilash va xarajatlarni samarali boshqarishni talab qiladi. Bu sharoitlarda maqsadli tannarxni hisoblash (Target Costing) usuli korxonaga bozorda raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi, chunki u bozor narxlaridan kelib chiqqan holda mahsulot tannarxini belgilash imkonini beradi.

EVER WHITE GROUP" MChJ faoliyatida e'tiborga olish lozim bo'lgan yana bir jihat - bu korxonada faoliyatining mavsumiy xususiyatlari. Tekstil va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish ma'lum darajada mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, yangi kolleksiyalar taqdimoti davrida va mavsumlar almashinuvi paytida ishlab chiqarish hajmi ortishi kuzatiladi.

Bu xususiyat xarajatlarni hisobga olish usullarini tanlashda va qo'llashda hisobga olinishi zarur. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisobga olish usuli (Direct Costing) mavsumiy xususiyatli korxonalar uchun samarali hisoblanadi, chunki u o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarni alohida hisobga olish imkonini beradi.

Maqola doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, strategik boshqaruv hisobida xarajatlarni hisobga olish usullarining samaradorligi nafaqat ushbu usullarning to'g'ri tanlanganligi, balki ularning korxonada faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga, tarmoq xususiyatlariga va bozor sharoitlariga qay darajada moslashganligi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun, "EVER WHITE GROUP" MChJ uchun o'ziga xos, korxonada va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda, turli xil usullarning kuchli tomonlarini uyg'unlashtiradigan kompleks yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Normativ xarajatlarni hisobga olish usuli (Standard Costing) - bu xarajatlarni nazorat qilish va boshqarish uchun foydalaniladigan an'anaviy usul bo'lib, bunda mahsulot birligi uchun belgilangan normativ xarajatlar haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi va chetlanishlar aniqlanadi.

Normativ xarajatlarni hisobga olish usulining asosiy afzalliklari:

1. Samaradorlikni nazorat qilish va baholash imkoniyati;

2. Muammolarni tezda aniqlash va bartaraf etish imkoniyati;
3. Byudjetlashtirish va rejalashtirish jarayonini soddalashtirish;
4. Xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash.

"EVER WHITE GROUP" MChJ misolida normativ xarajatlarni hisobga olish usulini ko'rib chiqamiz. Quyidagi 1-jadvalda 2024-yil 1-chorakda "EVER WHITE GROUP" MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan tikuv mahsuloti bo'yicha normativ va haqiqiy xarajatlar tahlili keltirilgan (1-jadval).

**1-jadval**

**EVER WHITE GROUP" MChJ mahsulotini ishlab chiqarish bo'yicha normativ va haqiqiy xarajatlar tahlili (ming so'm, 2024 yil 1-chorak)**

Xarajat turlari	Normativ xarajatlar	Haqiqiy xarajatlar	Chetlanish (±)	Chetlanish (%)
Xomashyo va materiallar	5 250 000	5 320 000	+70 000	+1.3
Asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi	2 100 000	2 080 000	-20 000	-0.9
O'zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari	1 850 000	1 920 000	+70 000	+3.8
Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari	3 100 000	3 050 000	-50 000	-1.6
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	12 300 000	12 370 000	+70 000	+0.6

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, "EVER WHITE GROUP" MChJ 1-chorakda haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari normativ xarajatlardan 70,000 ming so'mga yoki 0.6% ga oshgan. Bu asosan xomashyo va materiallar narxlarining o'sishi (70,000 ming so'm) va o'zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarning oshishi (70,000 ming so'm) bilan bog'liq. Biroq, asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi (-20,000 ming so'm) va doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari (-50,000 ming so'm) bo'yicha iqtisod qilingan, bu umumiy chetlanishni qisman qoplagan.

Normativ xarajatlardan chetlanishlarning sabablarini aniqlash korxonah rahbariyatiga tegishli choralar ko'rish imkoniyatini beradi. Masalan, xomashyo va materiallar narxlarining oshishiga qarshi chora sifatida, yangi ta'minot manbalarini izlash yoki mavjud ta'minot zanjirini optimallashtirishga qaratilgan choralar ko'rilishi mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisobga olish usuli (Direct Costing) - bu xarajatlarni o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajratishga asoslangan usul. Bu usulga ko'ra, mahsulot tannarxiga faqat o'zgaruvchan xarajatlar kiritiladi, doimiy xarajatlar esa to'g'ridan-to'g'ri davr xarajatlari sifatida hisobga olinadi.

To'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisobga olish usulining asosiy afzalliklari:

1. Mahsulot assortimentini optimallashtirishga yordam berish
2. "Ishlab chiqarish - xarajatlar - foyda" o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish imkoniyati
3. Qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishni osonlashtirish
4. Kritik nuqtani (zarar ko'rmasdan ishlash nuqtasi) hisoblash imkoniyati

"EVER WHITE GROUP" MChJ misolida to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisobga olish usulini qo'llash natijalarini ko'rib chiqamiz. Korxonah rahbariyati o'zlarining ikki asosiy mahsulot turlari – trikotaj va tikuv mahsulotlari uchun marjinal darajasini aniqlashga qaror qildi. Bunday tahlil ularga qaysi mahsulot yo'nalishini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini tushunishga yordam beradi (2-jadval).

## 2-jadval

**"EVER WHITE GROUP" MChJ mahsulotlarining marjinal tahlili**  
(ming so'm, 2024-yil 1-yarim yillik)

Ko'rsatkichlar	Trikotaj mahsulotlari	Tikuv mahsulotlari	Jami
<i>Sof tushum</i>	7 950 886	11 906 330	19 857 216
<i>O'zgaruvchan xarajatlar:</i>			
Xomashyo va materiallar	3 217 858	5 450 750	8 668 608
Ishchilarining ish haqi	968 520	1 256 305	2 224 825
Boshqa o'zgaruvchan xarajatlar	634 070	842 950	1 477 020
Jami o'zgaruvchan xarajatlar	4 820 448	7 550 005	12 370 453
<i>Marjinal daromad</i>	3 130 438	4 356 325	7 486 763
Marjinal daromad darajasi (%)	39.4%	36.6%	37.7%
<i>Doimiy xarajatlar:</i>			4 560 013
Ma'muriy xarajatlar			1 131 200
Sotish xarajatlari			627 714
Jami doimiy xarajatlar			6 318 927
<i>Operatsion foyda</i>			1 167 836

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, trikotaj mahsulotining marjinal daromad darajasi (39.4%) tikuv mahsulotining marjinal daromad darajasidan (36.6%) yuqoriroq. Bu trikotaj mahsulotining har bir so'mlik sotuvdan ko'proq marjinal daromad keltirishi va shunga ko'ra uni ishlab chiqarish hajmini oshirish strategik jihatdan foydali bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Korxonada rahbariyati marjinal daromad darajasi pasayishini to'xtatish va yanada oshirish uchun quyidagi choralarni ko'rishi mumkin:

1. Ta'minot zanjirini optimallashtirib, xomashyo va materiallar uchun yaxshiroq narxlarga erishish

2. Ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish orqali o'zgaruvchan xarajatlarni kamaytirish

3. Mahsulot narxini oshirish imkoniyatlarini o'rganish

4. Yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarga e'tiborni kuchaytirish

Faoliyat turiga asoslangan xarajatlarni hisobga olish (ABC - Activity-Based Costing) usuli - bu xarajatlarni faoliyat turlariga bog'lab hisobga olishga asoslangan zamonaviy usul. Bu usulda xarajatlar avval faoliyat turlariga, so'ngra mahsulot yoki xizmatlarga taqsimlanadi.

ABC usulining asosiy afzalliklari:

1. Xarajatlar sabablari va ularning mahsulotlarga ta'siri to'g'risida aniqroq ma'lumot olish

2. Ustama xarajatlarni taqsimlashning aniqroq usuli

3. Qiymat yaratmaydigan faoliyatlarni aniqlash va bartaraf etish imkoniyati

4. Mahsulot va xizmatlar tannarxining aniqroq hisob-kitobini ta'minlash


"EVER WHITE GROUP" MChJ rahbariyati ABC usulini joriy etishga qaror qildi. Bundan maqsad, ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy faoliyat turlariga ketadigan xarajatlarni aniqroq taqsimlash va mahsulot tannarxini aniqroq hisoblash edi (3-jadval).

## 3-jadval

**"EVER WHITE GROUP" MChJ mahsulotlarini ishlab chiqarishda ABC usulini qo'llash (ming so'm, 2024-yil 1-chorak)**

Faoliyat turlari	Xarajat drayverlari	Xarajatlar	Trikotaj mahsulotlari	Tikuv mahsulotlari
Xomashyo tayyorlash	Tayyorlash soatlari	1 250 000	500 000 (40%)	750 000 (60%)
Ishlab chiqarish jarayoni	Mashina soatlari	2 850 000	1 140 000 (40%)	1 710 000 (60%)
Mahsulot sifatini nazorat qilish	Nazorat operatsiyalari soni	950 000	475 000 (50%)	475 000 (50%)
Mahsulotni qadoqlash va saqlash	Qadoqlash birliklari	1 350 000	540 000 (40%)	810 000 (60%)
Mahsulotni yetkazib berish	Buyurtmalar soni	1 050 000	472 500 (45%)	577 500 (55%)
Jami xarajatlar		7 450 000	3 127 500	4 322 500
Mahsulot hajmi (dona)			10 500	17 800
Bir dona mahsulot uchun ABC xarajatlari			297.9	242.8

ABC usulining qo'llanilishi odatdagi usullar bilan solishtirish uchun qo'shimcha grafik ma'lumotni taqdim etamiz (1-rasm).



**1-rasm. "EVER WHITE GROUP" MChJ mahsulotlari tannarxining turli usullarda hisoblash natijalarining solishtirma tahlili (ming so'm/tonna, 2024 yil 1-chorak).**

Yuqoridagi jadval va grafikdan ko'rinib turibdiki, ABC usulini qo'llash natijasida trikotaj mahsulotining hisoblangan tannarxi an'anaviy usulga nisbatan 8.2% ga yuqori, tikuv mahsulotining tannarxi esa 6.9% ga past ekanligi aniqlandi. Bu an'anaviy usul trikotaj mahsulotini ishlab chiqarishda ko'proq xarajat talab qilinadigan faoliyatlarni hisobga olmaganligi va shuning uchun uning tannarxini pastroq baholaganini ko'rsatadi.

ABC usulini qo'llash korxonada rahbariyatiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. Mahsulotlar tannarxini aniqroq hisoblash va shunga ko'ra narx strategiyasini takomillashtirish;
2. Xarajatlarni keltirib chiqaruvchi faoliyatlarni aniqlash va ularni optimallashtirishga qaratilgan choralar ko'rish;
3. Qiymat yaratmaydigan faoliyatlarni kamaytirish yoki bartaraf etish;
4. Ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirish.

Yuqorida ko'rib chiqilgan xarajatlarni hisobga olish usullarining har biri o'ziga xos afzalliklar va cheklolarga ega. "EVER WHITE GROUP" MChJ rahbariyati uchun korxonaga ehtiyojlariga eng mos keladigan usul yoki usullar kombinatsiyasini tanlash muhim ahamiyatga ega.

Normativ xarajatlarni hisobga olish usuli (Standard Costing) ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlashda foydali. Bu usul korxonaga xarajatlardan chetlanishlarni aniqlash va ularning sabablarini o'rganish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

To'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisobga olish usuli (Direct Costing) qisqa muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, mahsulot assortimentini optimallashtirishda va sotish hajmini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydali. Bu usul korxonaga har bir mahsulotning marginal darajasini aniqlash va shunga ko'ra marketing va sotish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Faoliyat turiga asoslangan xarajatlarni hisobga olish usuli (ABC) ustama xarajatlarni aniqroq taqsimlash va mahsulot tannarxini aniqroq hisoblashda foydali. Bu usul korxonaga xarajatlarni keltirib chiqaruvchi faoliyatlarni aniqlash va ularni optimallashtirishga qaratilgan choralar ko'rish imkonini beradi.

"EVER WHITE GROUP" MChJ uchun optimal yondashuv, ehtimol, bu usullarning kombinatsiyasidan foydalanishdir. Masalan:

– Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va xarajatlardan chetlanishlarni aniqlash uchun normativ xarajatlar hisobi usulidan foydalanish

– Mahsulot assortimentini optimallashtirish va narx strategiyasini ishlab chiqish uchun to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar hisobi usulidan foydalanish

– Ustama xarajatlarni aniqroq taqsimlash va mahsulot tannarxini aniqroq hisoblash uchun ABC usulidan foydalanish

Shunday qilib, strategik boshqaruv hisobida xarajatlarni hisobga olish usullarining kompleks qo'llanilishi "EVER WHITE GROUP" MChJ rahbariyatiga korxonaga faoliyatini samarali boshqarish va strategik maqsadlarga erishish imkonini beradi.

## **5. Xulosa.**

Shunday qilib, strategik boshqaruv hisobi - bu zarur tahliliy kesmalardagi iqtisodiy faoliyatning buxgalteriya hisobi, rejalashtirish, nazorati, xarajatlari va natijalari, turli xil boshqaruv qarorlarini ishlatish tizimidir.

Strategik boshqaruv hisobida xarajatlarni hisobga olish usullari tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy sharoitlarda korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish uchun normativ xarajatlar hisobi (Standard Costing), to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar hisobi (Direct Costing) va faoliyat turiga asoslangan xarajatlarni hisobga olish (ABC) kabi usullardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. "EVER WHITE GROUP" MChJ misolida ko'rilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, turli xil usullarning qo'llanilishi korxonaga xarajatlar tarkibi, mahsulot tannarxi va ularning samaradorligi to'g'risida har tomonlama axborot olish imkonini beradi.

Boshqaruv hisobining zamonaviy usullarini joriy etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, moliyaviy va operatsion jarayonlarni optimallashtirish – bularning barchasi samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv qarorlari sifatini oshirishga yordam beradi.

## **Adabiyotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RI"sidagi PF-60-son Farmoni, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Cooper, R., & Kaplan, R. S. (2021). Activity-based systems: Measuring the costs of resource usage. *Accounting horizons*, 6(3), 1-13.

Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (2018). *The balanced scorecard: translating strategy into action*. Harvard Business Press.

Mexmonov S.U., Pardayev A.X., To'laganov A.A. Boshqaruv hisobiga kirish. /Darslik. – T.: “ILM-MA'RIFAT” nashriyoti., 2025. – 282 b.

[www.stat.uz](http://www.stat.uz).- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

Pardayev A.X., Pardayeva Z.A., Pardayeva Sh.A.. Operativ va strategik boshqaruv hisobi /Darslik. - T.: “DIADEMA NUR SERVIS” MЧЖ, 2023. - 420 bet.

Абдукаримов И.Т., Беспалов М.В. Бухгалтерская (финансовая) отчетность как информационная база финансового анализа // Социально-экономические явления и процессы. - 2013. - №. 4 (050).

Апчерч А.М. Управленческий учет: принципы и практика. /Под ред. Апчерч А.М.: Финансы и статистика, 2002. -952 с.;

Аткинсон Э.А., Банкер Р.Д., Каплан Р.С., Янг М.С. Управленческий учет. Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. – 874 с.

Богатая И.Н. Стратегический учет собственности предприятия. Ростов на Дону, 2001;

Ибрагимов А.К., Очилов И.К. Молиявий ва бошқарув ҳисоби. Дарслик. – Т.: "Молия", 2008. – 448 б.

Ивашкевич В.Б. Бухгалтерский управленческий учет: Учебник / В.Б.Ивашкевич. -3-е изд., перераб. и доп. – М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2015. -448 с.;

Керимов В.Э. Бухгалтерский управленческий учет / Керимов В.Э. -8-е изд. - М.: «Дашков и К», 2017. -484 с.



### SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING IQTISODIYOT TARMOQLARIGA INTEGRATSIYASI

*PhD, dotsent **Raximova D.O.***

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

***Choriyeva U.A.***

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

**Annotatsiya.** *Mazkur ilmiy maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining nazariy asoslari, ularning rivojlanish bosqichlari hamda iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyalashuv jarayoni kompleks tahlil qilinadi. Adabiyotlar sharhi orqali xorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlari tizimlashtirilib, sun'iy intellektning raqamli iqtisodiyotdagi o'rnini yoritiladi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga samarali integratsiya qilish raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilashini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar, integratsiya, iqtisodiy samaradorlik, avtomatlashtirish.*

**Аннотация.** *В статье проводится комплексный анализ теоретических основ технологий искусственного интеллекта и процессов их интеграции в отрасли экономики. Рассматриваются возможности применения искусственного интеллекта в промышленности, сельском хозяйстве, банковско-финансовой системе, образовании и здравоохранении. Обосновано, что интеграция технологий искусственного интеллекта способствует повышению эффективности, снижению издержек и улучшению качества управленческих решений.*

**Ключевые слова:** *искусственный интеллект, цифровая экономика, инновации, интеграция, экономическая эффективность.*

**Abstract.** *This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of artificial intelligence technologies and their integration into economic sectors. The application of artificial intelligence in industry, agriculture, finance, education, and healthcare is examined. The results show that the integration of artificial intelligence technologies enhances efficiency, reduces costs, and improves the quality of managerial decision-making.*

**Keywords:** *artificial intelligence, digital economy, innovation, integration, economic efficiency.*

#### **1. Kirish.**

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) qayta ishlash, tahlil qilish va ular asosida tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Aynan sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu jarayonlarda asosiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va innovatsion mahsulotlar ulushini ko'paytirishga xizmat qiladi. Jahon banki va xalqaro konsalting tashkilotlari hisobotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining yalpi ichki mahsulot o'sishiga ijobiy ta'siri alohida ta'kidlanadi.

O'zbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat va xo'jalik boshqaruvi tizimlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi –sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyalashuvining nazariy asoslari va amaliy samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi masalasi so'nggi o'n yilliklarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellekt, avvalo, raqamli iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida talqin qilinadi.

P.Drucker (1993) o'zining "Post-Capitalist Society" asarida bilim va axborot iqtisodiy taraqqiyotning asosiy resursiga aylanishini asoslab, raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt kelajak iqtisodiyotining muhim institutsional omili bo'lishini ta'kidlaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, intellektual texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlarini tubdan o'zgartiradi.

N.Bostrom (2014) sun'iy intellektning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilib, uning mehnat bozori, ishlab chiqarish munosabatlari va iqtisodiy tengsizlikka ta'sirini chuqur o'rganadi. Muallif sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishi bilan birga, institutsional va normativ-huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirishini qayd etadi.

S.Russell va P.Norvig (2021) tomonidan yaratilgan fundamental tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarining nazariy asoslari, algoritmik modellari va amaliy qo'llanilish yo'nalishlari tizimli ravishda yoritilgan. Ushbu asar sun'iy intellektni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga integratsiya qilishning texnologik asoslarini tushuntirishda muhim metodologik manba hisoblanadi.

D.Acemoglu va P.Restrepo (2020) sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiy o'sish hamda bandlikka ta'sirini empirik tahlil qilib, texnologik taraqqiyotning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rsatib beradi. Ularning tadqiqotlarida sun'iy intellekt ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi bilan birga, ayrim kasblarning qisqarishiga olib kelishi mumkinligi asoslab berilgan.

McKinsey Global Institute tadqiqotchilari J.Bughin, E.Hazan va S.Ramaswamy (2017) sun'iy intellektni "keyingi raqamli chegara" sifatida talqin qilib, uning sanoat, moliya, sog'liqni saqlash va xizmatlar sohasidagi iqtisodiy samaradorligini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish kompaniyalar raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi va xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

O'zbekiston va MDH davlatlari olimlarining ilmiy ishlarida esa sun'iy intellekt texnologiyalarini milliy iqtisodiyotga joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari hamda normativ-huquqiy asoslari yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan strategik hujjatlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiya qilish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlasa-da, infratuzilma, kadrlar salohiyati va normativ-huquqiy muhit bilan uzviy bog'liq

bo'lgan murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois mazkur tadqiqot ushbu masalalarni kompleks tahlil qilishga qaratilgan.

### **3.Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus metodlardan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil metodi orqali sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'rni baholandi. Taqqoslash metodi yordamida turli sohalarda sun'iy intellektdan foydalanish tajribalari solishtirildi.

Shuningdek, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiyalash metodlari asosida xulosalar ishlab chiqildi. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar va statistik ma'lumotlar kontent-tahlil qilinib, tadqiqot natijalari shakllantirildi.

### **4.Tahlil va natijalar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarda yuqori samaradorlik beradi:

Sanoat tarmog'i. Aqlli ishlab chiqarish tizimlari, robototexnika va prediktiv texnik xizmat ko'rsatish texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, nosozliklar sonini kamaytiradi.

Qishloq xo'jaligi. Sun'iy intellekt asosidagi monitoring va prognozlash tizimlari yer resurslaridan oqilona foydalanish va hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Moliya-bank sohasi. Kredit risklarini baholash, firibgarlikni aniqlash va mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirishda sun'iy intellekt muhim vosita hisoblanadi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash. Shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlari va tibbiy diagnostika tizimlari xizmatlar sifatini oshiradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi murakkab, ko'p bosqichli va tizimli jarayon hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanish, balki boshqaruv, mehnat bozori va institutsional muhitda ham chuqur o'zgarishlarni talab etadi. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar xorijiy olimlar tomonidan bildirilgan xulosalar bilan umumiy jihatdan mos keladi.

Birinchiidan, sanoat va ishlab chiqarish sohaslarida sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi mehnat unumdorligini oshirishi bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlaydi. Prediktiv tahlil va aqlli boshqaruv tizimlari uskunalarining ishlamay qolish xavfini kamaytiradi, bu esa korxonalar uchun moliyaviy yo'qotishlarning qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar sun'iy intellektning haddan tashqari avtomatlashtirishga olib kelishi natijasida past malakali ish o'rinlarining qisqarishini qayd etadilar. Bu holat kadrlarni qayta tayyorlash masalasini dolzarb qiladi.

Ikkinchiidan, moliya-bank tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish risklarni boshqarish sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Kredit portfellarini baholashda, mijozlarning to'lov qobiliyatini prognozlashda va firibgarlik holatlarini aniqlashda sun'iy intellekt algoritmlarining aniqligi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Biroq, algoritmik qarorlar shaffofligi va mas'uliyat masalasi muhokamada muhim o'rin tutadi.

Uchinchiidan, qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi resurslardan samarali foydalanish imkonini bermog'da. Yer, suv va mineral o'g'itlardan oqilona foydalanish hosildorlikni oshiradi hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qishloq joylarda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etishda muayyan cheklovlar tug'diradi.

To'rtinchiidan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohaslarida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarni yuzaga keltirmog'da. Shaxsiylashtirilgan ta'lim platformalari o'quvchilarning bilim darajasini oshirsa, aqlli diagnostika tizimlari tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Biroq, ma'lumotlar maxfiyligi va axborot xavfsizligi masalalari ushbu sohalarda eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmog'da.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi davlat siyosati, normativ-huquqiy baza va institutsional muhit bilan uzviy bog'liqdir. Samarali integratsiya uchun davlat, xususiy sektor va ilmiy-ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish zarur.

### **5.Xulosa.**

Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va ularni modernizatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy innovatsion omillardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellektning sanoat, qishloq xo'jaligi, moliya-bank tizimi, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda xizmatlar sohasiga integratsiyalashuvi ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini bermoqda.

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar natijasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish mehnat unumdorligini oshirishi, xarajatlarni qisqartirishi hamda innovatsion mahsulot va xizmatlar ulushini ko'paytirishi aniqlandi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar iqtisodiyot tarmoqlarida prognozlash, risklarni boshqarish va strategik rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Biroq, tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga keng ko'lamda integratsiya qilish jarayonida muayyan muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, malakali kadrlar yetishmasligi, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ma'lumotlar xavfsizligi va axloqiy masalalar sun'iy intellektni joriy etishda muhim cheklovlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga samarali integratsiya qilish uchun davlat siyosatini takomillashtirish, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining uzoq muddatli barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) "Raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", PF-6079-sonli Farmoni, 5 oktyabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2021) "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-4996-sonli Qarori 17 fevral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2022) "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", PF-60-sonli Farmoni. 28 yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) "Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", PQ-4699-sonli Qarori, 28 aprel.

Acemoglu D., Restrepo P (2020) Artificial intelligence, automation and work. — *Journal of Economic Perspectives*, Vol. 34, No. 3, pp. 197–218.

Bughin J., Hazan E., Ramaswamy S (2017) Artificial intelligence: The next digital frontier? — *McKinsey Quarterly*, No. 4.

Drucker P (1993) *Post-Capitalist Society*. — Oxford: Oxford University Press, Bostrom N (2014) *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. — Oxford: Oxford University Press.

Russell S., Norvig P (2021) *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. — 4th ed. — Pearson Education.



## MINTAQAVIY TURIZM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYOLASH VA TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR VA TENDENTSIYALAR

*I.f.f.d., dotsent Raxmatov A.I.  
Buxoro davlat texnika universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqaviy turizm sohasiga malakali kadrlar tayyolashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek turizm sohasiga davlat talablarini optimallashtirish, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, turizmda kadrlar bandlik holati, sifatli malakali mintaqaviy turizm sohasiga kadrlar tayyorlash muammolari ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, mintaqaviy turizm, malakali kadr, oliy o'quv yurti, mehmonxona, innovatsiya, talab, taklif, mehnat bozori, xodim, otel, motel, geosiyosiy, omil, nomutaxasis, ofis.

**Аннотация.** В статье разработаны рекомендации по проблемам подготовки квалифицированных кадров для региональной сферы туризма и путем их решения. Также научно обоснованы оптимизация государственных требований к сфере туризма, государственная поддержка субъектов предпринимательства, состояние занятости кадров в сфере туризма, а также проблемы подготовки квалифицированных кадров для региональной сферы туризма.

**Ключевые слова:** туризм, региональный туризм, квалифицированные кадры, высшее учебное заведение, гостиница, инновации, спрос, предложение, рынок труда, работник, гостиница, мотель, геополитический, фактор, неспециалист, офис.

**Abstract.** This article develops recommendations on the problems of training qualified personnel for the regional tourism sector and their solutions. Also, the optimization of state requirements for the tourism sector, state support for business entities, the state of employment of personnel in tourism, and the problems of training qualified personnel for the regional tourism sector are scientifically substantiated.

**Key words:** tourism, regional tourism, qualified personnel, higher education institution, hotel, innovation, demand, supply, labor market, employee, hotel, motel, geopolitical, factor, non-specialist, office.

### 1. Kirish.

Jahondagi beqaror iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vaziyatga qaramay, turizm va mehmonxona sohasi jadal rivojlanishda davom etmoqda. Turizm va mehmonxona sohasining rivojlanishi talabiga qarab taklif etilayotgan mehmonxona xizmatlari turlarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantish sharoitida turizm sohasining barqarorligini ta'milash professional kadrlar salohiyatiga bog'liq bo'lib, yangi texnologiyalarning jamiyatga kirib kelishi va mehmonxona xizmatlari sifatini oshirib borishni inobatga olib, muntazam mutaxassislarning malakasini oshirish dolzarb ahamiyatga ega. Har bir sayyoh mijozga kuchli raqobat sharoitida sifatli xizmat ko'rsatish bozor talabiga aylangan.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, turizm sohasining rivojlanishi, malakali kadrlarning xalqaro e'tirof etilgan standartlarga va bozor talablariga javob berishiga bog'liq.

## 2. Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3836-son qarori bilan xorijiy fuqarolarning respublikaga kirishi tartibini yanada takomillashtirish, elektron kirish vizasini rasmiylashtirish va berish bo'yicha interaktiv xizmatlarni, shuningdek, bir qator xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasiga vizasiz qisqa muddatli kirish va 16 yoshga to'lmagan xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasiga vizasiz kirish tartibini joriy qilish yo'li bilan xorijiy fuqarolarning kirish vizasini olish jarayonlari soddalashtirildi (Milliy baza, 2022).

Jahon amaliyotida mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlashning ilmiy-nazariy jihatlari, turizm sohasining rivojlanish tendensiyalari, turizm ta'lim xizmatlari bozorining yetakchi ishtirokchilari hisoblangan ta'lim muassasalarining mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilishini samarali boshqarishda bir qator muammolarning ilmiy yechimlarini topishning ayrim masalalari ko'plab xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xoriglik olimlardan Ya.D.Lichak (2009) kadrlar "Malaka" tushunchasini ham me'yoriy ma'noda, masalan, "ish yuqori malakani talab qiladi", ham ma'lum bir shaxsni tavsiflash ma'nosida, masalan, "bu shaxs yuqori malakali" ishlatilishi xususida tadqiqot olib borgan. Birinchi holda, malaka sifat va miqdoriy jihatdan xodimga qo'yiladigan kasbiy faoliyat talablarini anglatadi, bu jarayonda birinchi, ikkinchi, uchinchi toifadagi xodim nimani bilishi va qila olishi kerakligi ko'rsatib bergan.

Katerina Berezina, Cihan Cobanoglu, L.Brian Miller, A.Francis Kwansa (2012) "The impact of information security breach on hotel guest perception of service quality, satisfaction, revisit intentions and word-of-mouth" nomli ilmiy maqolasida "Mehmonxona xizmat ko'rsatish jarayonida eng avvalo axborot xavsizligiga ahamiyat qaratishi lozim. Har bir mijozga xizmat ko'rsatish jarayonida, mehmonxona mijozning ayrim shaxsiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ma'lumotlar bazasiga ega bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni saqlash va har qanday sharoitda oshkor etmaslik, mehmonxona malakali xodimlarining xizmat ko'rsatish obrusiga ijobiy ta'sir qilishi" mumkinligi haqida fikr yuritgan.

S.Aleksa (2018) "Influence of specialized hotels on employees' perception of abuse in the selective tourism destination" nomli maqolasida "Ixtisoslashtirilgan mehmonxonalar malakali xodimlarini qobiliyatiga va ixtisosligiga qarab o'qitish, ularning ish vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, ularga noto'g'ri munosabatda bo'lishni oldini olish, xodimlar o'rtasidagi bag'rikenglik darajasini oshirish" turizm sohasini rivojlantirishga olib kelishi haqida tadqiqot olib borgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish muammolari bilan bog'liq vazifalarni hal etishda A.O.Ochilov (2018) ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Iqtisodchi olim mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini boshqarishning zamonaviy holati, xususiyatlari, tamoyillari va xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilgan, oliy ta'lim tizimi boshqaruvini modernizatsiyalash va menejment tamoyillariga muvofiq «butun umrga ta'lim» konsepsiyasidan «butun umr davomida ta'lim» («beshikdan qabrgacha ilm izla») konsepsiyasiga o'tish zaruratini asoslab bergan va mazkur masala yuzasidan takliflar ishlab chiqqan va tavsiyalar bergan. Ammo olim tadqiqotlarida turizm sohasida mavjud yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammosiga munosabatini bildirmagan.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda davlat siyosati xususida G'.H.Qudratov (2010) tadqiqot ishlarini olib borgan. Iqtisodchi olim turizmni rivojlantirish, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari turizmi uchun shart-sharoitlar yaratish, turistik industriyani rivojlantirish uchun investisiyalar jalb etish siyosati, malakali kadrlar

tayyorlash, tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida keng imkoniyatlar yaratishning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib bergan .

I.S.Tuxliyev (2010) o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida turizmning zamonaviy kadrlar tayyorlash bo'yicha tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvofiqligini asoslab bergan .

Ammo olib borilgan tadqiqot ishlarida mintaqaviy turizm uchun zamonaviy malakali kadrlar tayyorlash, mintaqalar bo'yicha uning mutanosibligini ta'minlash, sohaning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, mintaqaviy turizm sohasini rivojlantirish strategik yo'nalishlarini aniqlash, jahon turistik xizmatlari bozoriga milliy turmahsulotlarni moslashtirish, mintaqaviy turizm tarmog'iga innovatsiyalarni joriy etish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan va mos ravishda ushbu muammoga bag'ishlangan adabiyotlar ham kam nashr qilinganligi mazkur tadqiqotda bu masalaga ilmiy echim berish zaruriyatini keltirib chiqardi.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda mehmonxona va joylashtirish vositalari fondi o'sish dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar, sohada sifatli xizmat ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi.

Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekiston mintaqaviy turizm sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Jahon turizm tashkilotining ma'lumotlarini tahlili Osiyo mintaqasida turizmning to'liq tiklanishi uchun hali ham katta salohiyat mavjudligini ko'rsatmoqda . Mintaqaviy va global miqyosda turizmning jadallashishi uchun asosiy manba bozorlarining faollashuvi hamda sayohat yo'nalishlarining qayta ochilishi muhim omil hisoblanadi. Xitoydan chiqish va kirish turizmi vizalarning yengillashuvi va havo qatnovining yaxshilanishi tufayli sezilarli darajada tezlashishi kutilmoqda. Bu esa butun mintaqadagi turizm rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, xalqaro sayohatlar hajmini oshirishga xizmat qiladi. Xitoy 2024-yil 30-noyabrgacha Fransiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Ispaniya va Malayziya fuqarolari uchun vizasiz sayohat imkoniyatini joriy etdi. Visa va sayohat yengilliklari Yaqin Sharq va Afrika bo'ylab sayohatni rag'batlantirdi.

AQSh dollari kursining yuqoriligi AQShdan kelayotgan sayyohlik oqimlarini rag'batlantirib, Amerika va boshqa mintaqalardagi turistik yo'nalishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Xuddi 2023-yildagi kabi, Yevropa, Amerika va Yaqin Sharqning yirik manba bozorlari global miqyosda turizm oqimlarini va xarajatlarni oshirishga yordam bermoqda. Biroq, xalqaro turizmning izchil tiklanishiga iqtisodiy va geosiyosiy omillar jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Yuqori inflyatsiya, foiz stavkalarining oshishi, o'zgaruvchan neft narxlari va savdo zanjirlarining buzilishi 2025-yilda transport va turar joy xarajatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu sharoitda sayyohlarning sayohat qilish odatlarida iqtisodiy jihatdan samaradorlikka yo'naltirilgan strategiyalar ustuvor bo'lishi va uyga yaqinroq sayohatlarni tanlash tendensiyasi kuchayishi kutilmoqda .

**1-jadval**

**2005-2024-yillar mobaynida geografik mintaqalar bo'yicha xalqaro turistik kirishlar statistikasi (mln, kishi)**

Yillar	Yevropa	Osiyo va Tinch okeani	Amerika	Yaqin Sharq	Afrika
2005	452,7	154,1	133,3	33,7	34,9
2006	475,7	166,7	136,8	37,3	39
2007	499,9	183,5	144,3	43,1	42,9
2008	503,3	186,1	148,3	51,7	44,3
2009	476,9	183,56	140,99	53,59	46,24
2010	494,18	207,93	151,82	68,36	50,53
2011	526,29	221,58	157,29	59,1	50,81
2012	546,95	237,79	163,7	59,25	52,53
2013	571,06	254,09	170,34	58,23	54,85
2014	582,23	269,57	183,31	61,1	55,15
2015	612,43	284,81	194,12	58,91	53,86
2016	622,27	307,01	201,43	57,26	58,17
2017	677,56	325,9	210,92	61,34	62,99
2018	717,69	348,68	215,88	65,26	67,54
2019	742,4	362,67	219,26	71,3	69,02
2020	239,44	58,95	69,73	19,36	18,83
2021	300,95	26,63	81,75	30,19	19,85
2022	609,46	93,33	157,15	67,77	46,97
2023	709,4	237,24	200,06	86,97	66,3
2024	743,3	315,86	213,47	94,84	73,6

1-jadval ma'lumotlaridan 2005-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda xalqaro turistik kirishlarning mintaqalar bo'yicha dinamikasini kuzatish mumkin. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi, transport texnologiyalarining rivojlanishi va sayohat madaniyatining ommalashuvi sababli, asosiy mintaqalarda turistik kirishlar o'sishi kuzatilgan. 2020-yilgi pandemiya keskin pasayishga olib keldi, biroq shundan keyingi yillarda turizm sektori sezilarli tarzda tiklanib, ayniqsa, Yevropa va Osiyoda o'sishni qayta boshlagan.

Turizm sohasida kadrlar bilan ta'minlash tizimini shakllantirish borasidagi konsepsiya yo'nalishini belgilashda respublikada kasb-xunar o'rganish uchun sharoitlar kengaytirilayotganligini alohida qayd qilish mumkin. Mana shunday yondashulardan biri, bu 2022-yilning 15-iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig'ilishida bildirgan munosabati bo'ldi. U yerda qayd qilingadek: "Mamlakatimizda...xizmat ko'rsatish...kabi ko'plab sohalarda rivojlanib, yangi-yangi korxonalar ochilmoqda. Ularni malakali ishchi va mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida oliy va o'rta maxsus ta'lim yo'nalishlari o'zgartirilmoqda. Hududlarda "Ishga marhamat" monomarkazlari tashkil etilib, yoshlarga kasb o'rgatilmoqda. Taraqqiyot strategiyasida bu borada navbatdagi qadamlar — har bir fuqaroga kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kambag'allikni 2 baravarga qisqartirish maqsadlari belgilangan".

Zamonaviy sanoatlashgan innovatsion jamiyatda tashkilotlar va tarmoqlar faoliyatining asosiy jihati bo'lib, inqirozga qarshi raqobatbardoshlik hisoblanadi va u birinchi, professional malakaga ega bo'lgan malakali mutaxassislarning tegishli sohalardagi tayyorgarligiga bog'liq. Bu jarayon faqat uzluksiz ta'lim tizimida sodir bo'lib, u ijtimoiy va mehnat hayotining muhim omili sifatida ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida mexanizmi maqomiga ega bo'lmoqda.

Shu bilan bir vaqtda kadrlar, malaka tushunchalari haqida ilmiy tushunchalarga ega bo'lish g'oyat muhim uslubiy ahamiyatga ega bo'lib, turli fikr-mulohazalarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. "Kadrlar" deganda, odatda o'tgan davrda professionallikka, shuningdek, tanlagan ish sohasida maxsus bilim yoki ko'nikmaga ega bo'lgan intellektual xodimlar tushuniladi. Xodimlar tarkibi - bu istisnosiz, mehnatga jalb qilingan yollanma ishchilar yoki mehnat shartnomasiga muvofiq harakat qiladigan barcha shaxslardir. "Kadrlar"dan farqli

o'laroq "xodimlar" tushunchasi keng qamrovli hisoblanadi (Гужина, 2015), barcha tashkilotlar, firma va shu kabilarda shug'ullanayotlarni aniq bilish uchun ishlatiladi.

Ta'kidlash lozimki, tashkilot (tarmoq) darajasida, bizning fikrimizcha, "xodimlar" va "kadrlar" atamaları ko'proq qo'llaniladi. "Xodimlar" tushunchasidan foydalanilganda, kasbiy yoki xizmat ko'rsatish asoslari bo'yicha guruhni tashkil etuvchi ma'lum bir tashkilotning xodimlaridir (Маслоу, 1999). Shu munosabat bilan, ushbu tushunchadan tarmoq darajasida kadrlar muammolarini ko'rib chiqishda qo'llash maqsadga muvofiq emas.

Kadrlarni tavsiflashda ularning soni, jinsi va yoshi, umumiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi, malaka tarkibi yoki kasbiy guruhdagi ma'lum bir malaka darajasiga tegishliligi, ish tajribasi kabi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga e'tibor berishlilik muhim ahamiyatga ega. Mehnat faoliyatining turi va murakkabligi va xodimlar tomonidan bajariladigan funksiyalarning xususiyatiga qarab, kadrlarning kasblari tasniflagichiga muvofiq, ularning lavozimlari va ish haqi toifalari yagona tasniflash va O'zbekiston axborotini kodlash tizimi doirasida asosiy toifalarga bo'lingan: ishchi kadrlar, xizmatchi kadrlar, ilmiy kadrlar, rahbar kadrlar. Turizm sohasida kadrlar xizmatining ish amaliyotida ushbu tasniflagich hali ham qo'llaniladi. Buning sababi, sohada professional standartlar hali joriy etilmaganligi, unga ko'ra barcha xodimlar professional guruhlar ichida yettita malaka darajasiga bo'lingan. Shu bilan birga, I.P. Fedorov (2000) ning fikriga ko'ra, "kadrlar" atamasi ko'pincha jismoniy va aqliy mehnat ishchilarining eng malakali qismini anglatganda tor ma'noda qo'llaniladi. Bu bayonot bugungi kungacha ham o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqotda "kadrlar" toifasida biz tashkilotlarda doimiy ravishda ishlaydigan ishchi kuchi bir qismining haqiqiy kontingentini tushunamiz. Bizning fikrimizcha, bunday tushunish xodimlarni boshqarishning miqdoriy va sifat jihatidan o'ziga xos mexanizmini ishlab chiqishga imkon beradi.

"O'zbekiston "The guardian" nashri tomonidan dunyoning eng yaxshi sayyohlik yo'nalishi, "Wanderlust" nazdida eng tez rivojlanayotgan davlat, "grandvoyage" hisob-kitobiga ko'ra eng yaxshi rivojlanayotgan o'lka deb topildi. BMT huzuridagi Jahon turizm tashkiloti O'zbekistonni turizm sohasida shiddat bilan rivojlanayotgan davlatlar ro'yxatida 4-o'rin bilan baholangan.

O'zbekistonda turizm sohasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, mehmonxona, transport, ovqatlanish xizmatlari, kadrlar tayyorlash tizimiga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratilmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, har yilgi davlat dasturlari ishlab chiqilishida turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun davlat budjetidan mablag'lar ajratilib kelinishi soha rivojlanishiga olib kelmoqda.

Olimlarning fikricha, talab va taklif omillari ta'siri ostida chet el turistik bozori tobora ixtisoslashgan va segmentlangan bo'lib bormoqda. Yangi turistik yo'nalishlar sarguzasht, ekoturizm, qishloq turizmi, agroturizm va boshqa turlarning ko'payishi turistik xizmatlarining o'sishida aks etmoqda. Turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash ixtisosligi bo'yicha o'qitish, xorijiy mutaxassislarni sohadagi kadrlarni tayyorlashga jalb qilish va bandligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarimiz O'zbekistonda turizm xizmatlari sohasida bandlik ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlarini ijobiy baholash imkonini bersada, sohada band bo'lgan bir malakali kadr (ishchi) ga to'g'ri keladigan aholi sonini hisobga olganda, ushbu ko'rsatkich rivojlangan davlatlar darajasidan ancha past ekanligini ko'rsatdi. Tahlil natijalari tahlili asosida 2024-yil O'zbekiston turizm xizmatlari sohasida band bo'lgan bir malakali kadr (ishchi)ga to'g'ri keladigan aholi soni (161 kishi) qo'shni Qozog'iston (36 kishi) va Rossiya (42 kishi) davlatlari bilan taqqoslaganda, Rossiya ko'rsatkichiga nisbatan 12,2 marta 114 nafar, qo'shni Qozog'iston Respublikasiga nisbatan 9 marta 15 nafar kam ekanligi aniqlandi.

Bundan O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish, uni mamlakat aholisini ish bilan ta'minlashdagi rolini oshirish borasidagi hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud va

mamlakat turizm xizmatlari sohasidagi mehnat bozori etarlicha malakali kadr ishchi kuchi bilan to'yinmagan, degan xulosaga keldik.

Shu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda O'zbekiston turizm mintaqalari bo'yicha Oliy Ta'lim Tashkilotlariga turizm sohasi mutaxassisligi yo'nalishiga 2022/2023 -2024/ 2025- o'quv yillari davomida qabul qilingan talabalar sonini ham tahlil etdik. Statistik tahlil natijalarimiz O'zbekiston turizm mintaqalari bo'yicha Oliy Ta'lim Tashkilotlariga turizm sohasi mutaxassisligi yo'nalishiga 2022/2023 -2024/ 2025- o'quv yillari davomida qabul qilingan talabalar sonida ba'zi turistik mintaqalarda notekis va tafovutli o'sish va kamayish holati mavjudligidan dalolat bermoqda (2-Jadval).


**2-jadval**

**O'zbekiston turizm mintaqalari bo'yicha Oliy Ta'lim Tashkilotlariga turizm sohasi mutaxassisligi yo'nalishiga 2022/2023-2024/ 2025-o'quv yillari davomida qabul qilingan talabalar**

№	Turizm mintaqalari	Yillar			2024/ 2025da 2020/ 2021 yillarga nisbatan o'zgarish (foizda)
		2022/ 2023	2023/ 2024	2024/ 2025	
1	Markaziy turistik mintaq (Samarand, Jizzax, Buxoro va Navoiy)	723	1284	1298	179
2	Shimoliy-Sharqiy turistik mintaq (Toshkent , Sirdaryo va Toshkent sh)	2117	1579	1644	77
3	Sharqiy turistik mintaq (Andijon, Farg'ona va Namangan)	253	144	146	57
4	Janubiy turistik mintaq (Qashqadaryo va Andijon)	120	138	146	121
5	Shimoliy – G'arbiy turistik mintaq (Qoraqalpog'iston va Xorazm)	65	42	47	72


2-Jadval ma'lumotlari O'zbekiston turizm mintaqalari bo'yicha Oliy Ta'lim Tashkilotlariga turizm sohasi mutaxassisligi yo'nalishiga 2022/2023 -2024/2025-o'quv yillari davomida qabul qilingan talabalar soni markaziy turistik mintaqasida (Samarand, Jizzax, Buxoro va Navoiy) 79 foizga o'sganligini, Shimoliy-Sharqiy turistik mintaqasida (Toshkent , Sirdaryo va Toshkent sh) 23 foizga qisqarganligini, Sharqiy turistik mintaqada (Andijon, Farg'ona va Namangan) 43 foizga qisqarganligini, Janubiy turistik mintaqada (Qashqadaryo va Andijon) 21 foizga o'sganligini va Shimoliy –G'arbiy turistik mintaqasida esa (Qoraqalpog'iston va Xorazm) 28 foizga qisqarganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotlarimizning natijalari O'zbekistonda mazkur soha rivojlanishi bilan bir qatorda muammolar ham mavjud ekanligini ko'rsatdi. Masalan, Respublikada mintaqalar kesimida turizmning yirik infatuzilmasini o'zida qamrab olgan mehmonxona va joylashtirish vositalari yo'lishida faoliyat yuritayotgan kadrlarning jami soni 11290 nafar, shundan, mutaxassislar soni 3211 nafar, nomutaxassislar soni 8079 nafarni tashkil etmoqda (1-rasm).



**1-rasm. O‘zbekiston turistik mintaqalari mehmonxonalarining malakali va malakasiz kadrlar bilan ta’minlanganligining holati**

Mutaxassislar kesimida tahlil qilinganida, “Housekeeping” - mutaxassislar 805 nafar, nomutaxassislar 3473 nafar, “Food & Beverage” - mutaxassislar 978 nafar, nomutaxassislar 2401 nafar, “Front-office” - mutaxassislar 1428 nafar, nomutaxassislar 2205 nafarni tashkil qiladi (2-rasm).



**2-rasm. Turistik mintaqa mehmonxonalarida malakali kadrlarga bo‘lgan talab**

Mintaqaviy turizm sohasida kadrlar tayyorlashda mavjud muammolar quyidagilar:

- Mintaqaviy turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat va xususiy ta’lim tashkilotlarining aksariyatida o‘quv-amaliyot bazalari ish beruvchi tashkilotlarning talablariga javob bermaydi;
- umumiy ovqatlanish (Oshpazlar uyushmasi) sohalarida kadrlar tayyorlash onlayn yo‘lga qo‘yilgan. (Bu sohalarida onlayn kurslar orqali sifatli kadr tayyorlab bo‘lmasligi xalqaro tajribadan ma’lum);
- mintaqaviy turistik hududlarda malakali kadrlar tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat va xususiy ta’lim tashkilotlari tinglovchi-o‘quvchilarining ishga joylashishidan manfaatdor emasligi hamda ish beruvchi tashkilotlar o‘rtasida aloqalar qoniqarsizligi sifatli kadr tayyorlashda muammolar keltirib chiqarmoqda.
- mintaqaviy turistik hududlarda malakali kadrlar tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat va xususiy ta’lim tashkilotlarining hali ham xorijiy tajribalardan unumli foydalana olmayotganligi;
- turizm mehnat bozorida malakali kadrlar qo‘nimsiligini darajasini yuqoriligi va vahokazo.

## 5. Xulosa.

Mazkur tadqiqotda, O'zbekiston turizm mintaqalari bo'yicha Oliy Ta'lim Tashkilotlariga turizm sohasi mutaxassisligi yo'nalishiga 2022/2023 -2024/ 2025- o'quv yillari davomida qabul qilingan talabalar sonini tahlili, mintaqalardagi mehmonxona va joylashtirish vositalari xodimlarining mutaxassislik bo'yicha lavozimga to'g'ri taqsimlanishi holati o'rganildi. Turistik mintaqalarda malakali kadrlar tayyorlash notekis va tafovutli o'sish va kamayish holati mavjudligi ularga qo'yilgan talablar tahlil qilindi. "Housekeeping", "Food & Beverage", "Front-office" bir oyga mo'ljallangan, malaka oshirish kursining o'quv-me'yoriy hujjatlari tahlil etildi.

Mintaqalarda kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha moliyaviy mablag' manbalari aniqlandi. Mehmonxona va joylashtirish vositalarida har bir mijozga sifatli xizmat ko'rsatish uchun kadrlar tayyorlashga alohida ahamiyat qaratish lozimligidan kelib chiqib, xodimlar malakasini oshirishni tizimli tashkil qilish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni taklif etamiz:

- turistik mintaqalar kesimida mazkur sohadagi xodimlarni malaka oshirish kurslariga tizimli ravishda jalb qilishni yo'lga qo'yish;

- turistik mintaqalarda malakali kadrlar tayyorlash xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat va xususiy ta'lim tashkilotlariga aniq talablar qo'yish, tegishli mutaxassislarga hamda o'quv-amaliyot xonalari bo'lgan taqdirda kadrlar tayyorlashga ruxsat berish tartibini kiritish;

- turistik mintaqalarda ish beruvchi tashkilotlarga "Housekeeping", "Food & Beverage", "Front-office" sohasiga ishga qabul qilishda, shuningdek, faoliyat ko'rsatishida mutaxassislikka ega bo'lishi (*belgilangan muddatlarda malaka oshirishi*) kabi davlat talablarini kiritish;

- turizm soha xodimlarining kiyinish, sanitariya-gigiyena qoidalari va muomala madaniyatiga e'tibor qaratishi bo'yicha yagona standart joriy qilish; kadrlar sifatini doimiy oshirishda turizm va mehmonxona sohasida faoliyat

- turistik mintaqalarda ish beruvchi tadbirkorlik subyektlari bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- turistik mintaqalarda turistik tashkilotlarda "Тайный гость" xizmatlarini takomillashtirish orqali hozirgi qiyin raqobat sharoitida sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil qilish.

O'zbekiston mintaqalarida mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va taklifning o'zgarishi, mintaqalarda turizm sohasidagi malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik holati va sohada yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarining tahlili asosida mintaqalarda turizm xizmatlari sohasidagi mehnat bozori yetarlicha malakali kadr bilan ta'minlash lozim.

Alohida ta'kidlash joizki, turistik mintaqalarga tashrif buyurgan mehmonlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish masalalari, xizmat ko'rsatilayotgan mehmon uchun ham mehmonxona faoliyatining rivojlanishi uchun ham muhimdir. Mehmonxona xizmatlari ko'rsatishni doimiy nazorat qilish qiyin biroq, xodimlarni malakasini tizimli oshirish orqali tasodifiy omillarning xizmatlar sifatiga ta'sirini kamaytirish mumkin.

Shuningdek, turistik mintaqalar tizimidagi har bir xodimga o'ziga tegishli soha bo'yicha rivojlanish ko'nikmalarini shakllantirish, kiyinish hamda muommala madaniyatini yuksaltirish, tashkilotda jamoaviy muhitni takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, xodimlarning shaxsiy madaniyatini oshirish, o'zaro xizmat ko'rsatish madaniyati va kasbiy mahoratini o'zlashtirish bo'yicha doimiy treninglar o'tkazish zarur.

### Adabiyotlar:

O'zbekistonda Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi, "O'zbekistonda turizm" 2020-2023, statistik to'plam, 2024-y, 188-191-sahifalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Aleksa S. Vucetic, (2018) "Influence of specialized hotels on employees' perception of abuse in the selective tourism destination", International Journal of Contemporary Hospitality Management, Vol. 30 Issue: 2, pp.740-756, <https://doi.org/10.1108/IJCHM-08-2016-0434>

Katerina Berezina, Cihan Cobanoglu, Brian L. Miller, Francis A. Kwansa, (2012), "The impact of information security breach on hotel guest perception of service quality, satisfaction,

revisit intentions and word-of-mouth”, “International Journal of Contemporary Hospitality Management” maqolasi, Vol. 24 Iss: 7 pp. 991 – 1010  
<http://dx.doi.org/10.1108/09596111211258883>

Qudratov G'N., Tuxliev I.S., Pardaev M.K. Turizmni rejalashtirish.T.: – IQTISOD-MOLIYA 2010 y.

Гужина Г.Н. Критерии эффективности кадровой политики. – М.: 2015. С. 117

Ибрагимов Н.С. Туристик худуд барқарор рақобатбардошлигига эришишнинг илмий асослари. DSc диссертацияси автореферати. – Сам., 2020. – 89 б.

Касб-хунар ўрганиш учун шароитлар кенгайтирилади./Халқ сўзи, 2022 йил, 16 июнь. №125. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 15 июнь куни аҳолини касб-хунарга тайёрлаш ва мономарказлар фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши.

Лычак Я.Д. Формирование ключевых квалификаций специалистов сферы туристского сервиса на основе интенсификации обучения: Дисс. ...канд.пед.наук: 13.00.08. 2009 г. - с.34с.

Маслоу А. Дальние пределы человеческой психики / А. Маслоу. - СПб. : Евразия, 1999. 430 с.

Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. – Сам.: Зарафшон, – 2017. – Б.181-200.

Мухаммедов М.М.,” Таълим – тараққиёт таянчи” “Зарафшон” газетаси 2018, 17-феврал, 20(22.980)-сон

Очилов А.О. Юқори малакали кадрлар тайёрлашни бошқариш самарадорлигини ошириш. DSc диссертацияси автореферати. – Тошкент., 2018. – 89 б.

Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш. DSc диссертацияси автореферати. – Сам., 2017. – 78 б.

Федоров И.П. (2000) Качество образования категория фундаментальная / И.П.Федоров // Высшее образование в России. № 2. С. 3-7.

Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son), <https://lex.uz/docs/-3810649>.

www.knoema.ru xalqaro statistic rasmiy veb sayti ma'lumotlari va <https://wttc.org/> Butun jahon sayohat va turizm tashkiloti rasmy veb sayti ma'lumotlari asosida muallf tomonidan hisoblangan .



## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASIDA QQSNI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

*Rixsixo`jayeva U.R.*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar davlat budjetini shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Ayniqsa qo`shilgan qiymat solig`i (QQS) davlatimiz budjeti daromadining asosiy omillaridan biri sanaladi. QQS tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymatiga nisbatan olinadigan bilvosita soliq bo`lib, u oxirgi iste`molchi zimmasiga yuklanadi. O`zbekiston Respublikasi soliq tizimi sharoitida QQSni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so`zlar:** soliq tizimi, QQS, soliq yuki, axborot almashinuvi, hisob-fakturalar, budjet daromadlari, soliq savodxonligi, moliyaviy xavfsizlik.

**Abstract.** In a market economy, taxes are one of the key factors in forming the state budget. In particular, value added tax (VAT) is considered one of the main components of government revenue. VAT is an indirect tax levied on the value of goods, works and services, and is ultimately borne by the final consumer. Under the tax system of the Republic of Uzbekistan, it is essential to further improve the VAT mechanism.

**Keywords:** tax system, VAT, tax burden, information exchange, invoices, budget revenues, tax literacy, financial security.

**Аннотация.** В условиях рыночной экономики налоги являются одним из важнейших факторов формирования государственного бюджета. Особенно налог на добавленную стоимость (НДС) считается одним из основных источников доходной части бюджета. НДС представляет собой косвенный налог, взимаемый с стоимости товаров, работ и услуг, и перекладываемый на конечного потребителя. В условиях налоговой системы Республики Узбекистан имеет важное значение дальнейшее совершенствование механизма НДС.

**Ключевые слова:** налоговая система, НДС, налоговая нагрузка, обмен информацией, счет-фактуры, доходы бюджета, налоговая грамотность, финансовая безопасность.

### 1. Kirish

O`zbekiston Respublikasida QQS 1991-yildan boshlab joriy etilgan bo`lib, bugungi kunda u mamlakat soliq tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Dastlab 10 foizni tashkil etgan QQS stavkasi, 2020-yildan Soliq kodeksining yangi tahriri kuchga kirgach, 15 foiz so`ngra, 12 foizga pasaytirildi. Bu o`z navbatida ishlab chiqaruvchilar uchun soliq yukini kamaytirish, iste`mol bozorida narx barqarorligini ta`minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Hozirgi kunda QQSni hisoblash va undirish jarayoni elektron hisob-fakturalar tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Mazkur tizim nafaqat soliq intizomini mustahkamlashga, balki

shaffoflikni oshirishga ham xizmat qilmoqda. Ammo, hozirgi kunda amaliyotda QQS bilan bog'liq muammolar ham yuzaga kelmoqda. Ya'ni:

- ayrim korxonalar tomonidan QQSni hisoblashda xatoliklarga yo'l qo'yilishi;
- QQSni qaytarish (kompensatsiya) mexanizmining murakkabligi;
- ayrim hollarda soliq organlari bilan tadbirkorlar o'rtasida axborot almashinuvi

sekinligi.

QQSni hisoblash va undirish jarayonini yanada takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- QQS hisob-fakturalarini avtomatik tekshiruvchi dasturlarni yanada takomillashtirish.
- Tadbirkorlarni QQS hisoblash bo'yicha amaliy o'quv dasturlariga jalb etish, soliq savodxonligini oshirish.

- QQS qaytarish jarayonini soddalashtirish, ya'ni ariza topshirish va tekshirish muddatlarini qisqartirish.

- O'zbekiston sharoitida QQS ni birlamchi mahsulotlardan olib tashlab, aksiz solig'i solinadigan, ya'ni, inson va jamiyat salomatligiga jiddiy zarar keltiradigan mahsulotlarga nisbatan maksimal darajadagi stavkani qo'llash.

Bundan tashqari, xalqaro tajribadan kelib chiqib, rivojlangan mamlakatlar, xususan, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlardagi QQS tizimini chuqurroq o'rganish va bu orqali yurtimiz soliq tizimida undagi mexanizmlarni amaliyotga tadbiq etishni bosqichma-bosqich amalga oshirish muhim hisoblanadi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) fiskal ahamiyati va uning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. J.D.Xojiyev va Sh.A.Abdumalikov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda QQSning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari, uning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta'siri tahlil qilingan. Mualliflar QQSning barqaror budget tushumlarini ta'minlashdagi asosiy mexanizmlaridan biri ekanligini qayd etib, aynan soliq bazasini kengaytirish, elektron hisob-fakturalar tizimini joriy etish va raqamlashtirish jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarni ilgari surgan. Ushbu manba maqola mavzusida ko'tarilgan fiskal barqarorlik masalalarini nazariy asoslashda muhim o'rin tutadi.

I.O.Ergashev (2015) tadqiqotida O'zbekiston davlat byudjeti daromadlarida QQS tushumlarining dinamikasi chuqur statistik tahlil asosida o'rganilgan. Muallif 2010-yildan keyingi davrda QQS stavkalarining o'zgarishi, soliq ma'murchiligi jarayonidagi islohotlar, soliq yuki kamaytirilishi va ularning fiskal barqarorlikka ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, QQS tushumlarining o'sishi ko'proq raqamlashtirish, soliq to'lovchilarning ro'yxatdan o'tishi va hisobotlarning elektron shaklga o'tishi bilan bog'liq. Ushbu ish maqolada qayd etilgan QQS mexanizmini optimallashtirish bo'yicha takliflarni statistik dalillar bilan mustahkamlaydi.

E.Sh.Turdaliev (2021) esa QQSning salbiy summalarini qaytarish (kompensatsiya) jarayonlarining amaldagi holatini o'rganib, ushbu jarayondagi murakkabliklar - tekshiruv muddatlarining cho'zilishi, hujjatlar talabining ortiqqligi va soliq to'lovchilarning murojaatlari bo'yicha kechikishlar mavjudligini asoslab beradi. Muallif xalqaro tajriba asosida QQSni qaytarish mexanizmini soddalashtirish, tekshiruvlarni avtomatlashtirish va risklarni baholash tizimini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa maqolada ilgari surilgan soddalashtirish va raqamlashtirish bo'yicha takliflar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar O'zbekistonda QQSning fiskal ahamiyati, soliq ma'murchiligi jarayonidagi raqamlashtirish islohotlari, soliq yuki va qaytarish mexanizmidagi muammolarni chuqur yoritadi. Ushbu tadqiqotlar maqolada bildirilgan fikrlar - QQSni hisoblash va undirish jarayonini takomillashtirish, elektron tizimlarni rivojlantirish,

solliq savodxonligini oshirish hamda xalqaro tajribani joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqot mavzuga oid ilmiy manbalarni tizimli ravishda o'rganish, ularni solishtirish va tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, analitik–metodik va statistik tahlil usullariga asoslangan. Tadqiqot jarayonida ScienceDirect, Google Scholar, ResearchGate kabi xalqaro ilmiy bazalar, shuningdek, mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar ko'rib chiqildi. Umumiy hisobda QQS tizimi, uning undirilishi, davlat byudjeti daromadlariga ta'siri va soliq ma'murchiligi bo'yicha xorijiy va mahalliy mualliflar qalamiga mansub 10 ta ilmiy maqola tanlab olinib o'rganildi. Ushbu maqolalardan mazkur tadqiqotning mohiyati, maqsadi va yo'nalishiga eng mos keladigan 4 tasi tahlil jarayoniga bevosita jalb qilindi.

Shuningdek, statistik tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Solliq qo'mitasi rasmiy hisobotlari, QQS tushumlari dinamikasi, elektron hisob-fakturalardan foydalanish darajasi, solliq stavkalari va ma'murchilikdagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi. Analitik yondashuv esa mazkur ko'rsatkichlar asosida QQS tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash, raqamlashtirish samaradorligini baholash hamda takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qildi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Globalashuv va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari chuqurlashayotgan hozirgi sharoitda milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda davlat budjeti daromadlari ijrosining barqaror va samarali bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat budjeti moliyaviy tizimning markaziy bo'g'ini sifatida ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishi, ijtimoiy infratuzilma, bandlik va iqtisodiy taraqqiyotning boshqa asosiy yo'nalishlarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois solliqli daromadlarning barqaror shakllanishi va ularning ma'murchiligi samaradorligini oshirish fiskal siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Iqtisodchi olim Q.Abdullayevning (2020) ta'kidlashicha, "iqtisodiyotni diversifikatsiyalash orqali budjet daromadlarini barqarorlashtirish fiskal siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy inqirozlar ta'sirini kamaytiradi va davlat moliya tizimining mustahkamligini oshiradi". Ushbu yondashuv solliqqa tortish bazasini kengaytirish, iqtisodiy faollikni oshirish hamda ishlab chiqarish tarmoqlarining barqaror rivojlanishini rag'batlantirish orqali davlat budjeti tushumlarini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, M. Hakimov va B. Qo'ziyevning fikricha, "davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai bo'lgan solliqli tushumlar o'sishi ko'p jihatdan solliq stavkalari bilan emas, balki iqtisodiy faoliyat ko'lamining kengayishi, yalpi ishlab chiqarish hajmining o'sishi, bandlik darajasi va yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga bog'liqdir" (2021). Demak, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash solliq tushumlarining ko'payishi uchun zarur shartdir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda QQS tizimi bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar — solliq stavkasining pasaytirilishi, elektron hisob-fakturalar joriy etilishi, solliq ma'murchiligida raqamlashtirishning kuchaytirilishi — byudjet tushumlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq amaliyotda hali ham quyidagi muammolar mavjud:

- QQS hisoblashda korxonalar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar;
- QQS qaytarish mexanizmining murakkabligi va ortiqcha vaqt talab qilishi;
- solliq organlari bilan tadbirkorlar o'rtasidagi axborot almashinuvi yetarlicha tez emasligi.


Ushbu omillar solliqqa tortish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy faol subyektlar uchun qo'shimcha ma'muriy yukni keltirib chiqaradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, QQS ma'murchiligini soddalashtirish, qaytarish mexanizmini avtomatlashtirish, elektron tekshiruv tizimlarini takomillashtirish, solliq to'lovchilarning solliq

savodxonligini oshirish budjet tushumlarining barqarorligini ta'minlash va fiskal xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi

### QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`I TO`LOVCHILARI

■ 2020 ■ 2021 ■ 2022 ■ 2023 ■ 2024



**1-rasm. QQS (Qo`shilgan qiymat solig`i) to`lovchilari soni 2020-2024 yillar kesimida**

Ushbu 1-rasmda 2020-2024-yillar davomida O`zbekiston Respublikasida qo`shilgan qiymat solig`i (QQS) bo`yicha ro`yxatdan o`tgan soliq to`lovchilar sonining yillik kesimdagi o`zgarishini aks ettiradi. Mazkur ma`lumotlar soliq ma`murchiligi samaradorligi, iqtisodiy faollik dinamikasi hamda soliq bazasining kengayish tendensiyalarini baholash imkonini beradi.

Statistik ko`rsatkichlarga ko`ra, QQS to`lovchilari soni 2020-yilda 82 405 tani tashkil etgan bo`lib, umumiy ulushning atigi 4 foiziga teng. Ushbu davrda past ko`rsatkichning kuzatilishi soliq tizimining to`liq raqamlashtirilmaganligi, kichik biznes subyektlarining QQS to`lovchi sifatida ro`yxatga olinishi bo`yicha talablarning cheklanganligi va iqtisodiy faollikning nisbatan sustligi bilan izohlanadi. 2021-yilda QQS to`lovchilari soni 249 876 taga yetib, 14 foizga ko`tarilgan. Bu soliq ma`murchiligida elektron tizimlarning joriy etilishi, xususan elektron hisob-fakturalarning amaliyotga keng tatbiq qilinishi, shuningdek norasmiy faoliyatni qisqartirishga qaratilgan institutsional islohotlarning ta`siri bilan bog`liq. 2022-yilda sezilarli o`sish kuzatilgan bo`lib, QQS to`lovchilari soni 613 644 taga yetgan va umumiy ko`rsatkichning 34 foizini tashkil qilgan. Bu esa soliq bazasining kengayishi, kichik tadbirkorlik subyektlarining QQS tizimiga ommaviy ravishda jalb etilishi hamda iqtisodiy tiklanish jarayonlarining faollashganidan dalolat beradi. 2023-yilda esa eng yuqori ko`rsatkich qayd etilib, QQS to`lovchilari soni 696 796 tadan iborat bo`lgan (38%). Bu davr soliq ma`murchiligida shaffoflikning yanada oshishi, elektron monitoring vositalarining takomillashuvi, shuningdek soliq to`lovchilarning ixtiyoriy ro`yxatdan o`tish motivatsiyasining kuchaygani bilan izohlanadi. 2024-yilda QQS to`lovchilari sonining 183 488 taga (10%) keskin kamaygani kuzatiladi. Statistik pasayishning ehtimoliy sabablari quyidagilar bo`lishi mumkin:

- soliq tizimida QQS to`lovchilari uchun mezonlarning qayta ko`rib chiqilishi va ro`yxatga olishning qat`iylashtirilishi;
- faoliyatini vaqtincha to`xtatgan yoki tugatgan korxonalarni reyestrda chiqarish jarayonining faollashishi;
- kichik biznes subyektlarining soddalashtirilgan soliq tizimlariga o`tishi;

- iqtisodiy faollik darajasidagi qisqa muddatli tebranishlar.

Umuman olganda, 2020–2023-yillar oralig'ida QQS to'lovchilari sonida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa, 2024-yilda pasayish ro'y bergan. Bu holat soliq ma'murchiligi optimallashtirilishi, soliq reyestrlarining tozalanishi hamda iqtisodiy muhitdagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq o'ziga xos jarayon sifatida baholanishi mumkin. Mazkur dinamikani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, QQS tizimini boshqarishda raqamlashtirish jarayonlari davlat byudjeti daromadlarining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan, biroq soliq bazasining sifat jihatdan tozalash jarayoni sabab 2024-yilda soliq to'lovchilar sonida qisqarish kuzatilgan. Shu bois 2025-yilda QQS tizimini rivojlantirishda risklarni avtomatlashtirilgan baholash, korxonalar o'rtasida axborot almashuvini tezlashtirish va soliq to'lovchilarni tizimga jalb qilish bo'yicha qo'shimcha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

## 5. Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) davlat byudjeti daromadlarining eng muhim manbalaridan biri bo'lib, uning samarali ishlashi mamlakat moliyaviy barqarorligi va fiskal xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. QQS tizimining takomillashtirilishi nafaqat budjet daromadlari barqarorligini oshiradi, balki iqtisodiy faol subyektlar uchun qulay soliq muhiti yaratib, investitsion jozibadorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, xususan soliq stavkasining pasaytirilishi, elektron hisob-fakturalar tizimining joriy etilishi, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi QQS mexanizmining shaffofligi va samaradorligini sezilarli ravishda oshirdi. Biroq amaliyotda uchrayotgan muammolar — QQSni hisoblashdagi xatoliklar, qaytarish (kompensatsiya) jarayonining murakkabligi, soliq organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi axborot almashuvining sustligi — tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, QQS bo'yicha soliq to'lovchilar sonining keskin oshishi iqtisodiy faollikning kengayishi va elektron tizimlarning joriy etilishi bilan bog'liq bo'lsa-da, 2024-yilda kuzatilgan pasayish soliq reyestrlarining tozalanishi, biznes-faollikdagi o'zgarishlar hamda soliqqa tortish mezonlarini qayta ko'rib chiqish bilan izohlanadi. Bu holat soliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayonining tabiiy bosqichi hisoblanadi. Kelgusida QQS tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

- Risklarni avtomatlashtirilgan baholash tizimini keng joriy etish orqali tekshiruvlar samaradorligini oshirish;
- QQS qaytarish mexanizmini soddalashtirish va tezlashtirish, ortiqcha hujjat talablarini minimallashtirish;
- Soliq to'lovchilar uchun raqamli konsalting xizmatlarini kengaytirish, soliq savodxonligini oshirishga qaratilgan doimiy o'quv dasturlarini joriy etish;
- Xalqaro tajribani, xususan Yevropa davlatlarining muvaffaqiyatli amaliyotini bosqichma-bosqich milliy tizimga integratsiya qilish;
- Birlamchi mahsulotlarga qo'llaniladigan QQSni qayta ko'rib chiqish, zararli mahsulotlarga yuqori stavkali aksiz solig'i mexanizmini kuchaytirish.

Shu nuqtai nazardan, QQS tizimining modernizatsiya qilinishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish, budjet daromadlarining barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash va soliq ma'murchiligini xalqaro standartlarga moslashtirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Taklif etilgan chora-tadbirlarning manzilli va tizimli amalga oshirilishi O'zbekistonning soliq tizimini yangi bosqichga olib chiqish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida shaffof va adolatli soliq muhitini shakllantirish imkonini beradi.

**Adabiyotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir). (2020). Toshkent: Adolat nashriyoti.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2020–2024). Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlar. Rasmiy hisobotlar.

Abdullayev, Q. (2020). O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va fiskal barqarorlikni ta'minlash masalalari. TDIU Ilmiy axborotnomasi, 3(1), 45–52.

Abdumalikov, Sh. A., & Xojiyev, J. D. (2021). O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'ining fiskal ahamiyati va uning byudjet daromadlariga ta'siri. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 2(4), 23–32.

Ergashev, I. O. (2015). Davlat byudjeti daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari dinamikasi tahlili. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 1(6), 112–120.

Hakimov, M., & Qo'ziyev, B. (2021). Soliq tushumlari o'sishining iqtisodiy omillari va fiskal siyosat samaradorligi. O'zbekiston iqtisodiy sharhi, 5, 37–44.

Turdaliev, E. Sh. (2021). QQS salbiy summalarini qaytarish mexanizmini takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq va bojxona jurnali, 4(2), 58–67.



### KORXONALARDA JORIY AKTIVLAR BOSHQARUVI ORQALI ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Safarov A.I.**

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada korxonalarda joriy aktivlarni samarali boshqarish orqali ishlab chiqarish xarajatlari hisobining samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Joriy aktivlar tarkibi, aylanuvchanligi va ulardan foydalanish samaradorligining ishlab chiqarish xarajatlari shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida buxgalteriya va boshqaruv hisobi ma'lumotlari, iqtisodiy-tahliliy usullar hamda xalqaro hisob standartlari asosida yondashuvlar qo'llanilgan. Natijada joriy aktivlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *joriy aktivlar, ishlab chiqarish xarajatlari, aylanma mablag'lar, xarajatlar hisobi, boshqaruv hisobi, tannarx, samaradorlik.*

**Аннотация.** *В данной статье исследуются вопросы повышения эффективности учета производственных затрат на предприятиях за счет эффективного управления оборотными активами. Проанализировано влияние структуры, оборачиваемости и эффективности использования оборотных активов на формирование производственных затрат. В ходе исследования использованы данные бухгалтерского и управленческого учета, экономико-аналитические методы, а также подходы, основанные на международных стандартах финансовой отчетности. В результате научно обосновано, что совершенствование механизма управления оборотными активами является важным фактором оптимизации производственных затрат, а также разработаны практические рекомендации.*

**Ключевые слова:** *оборотные активы, производственные затраты, оборотные средства, учет затрат, управленческий учет, себестоимость, эффективность.*

**Abstract.** *This article examines the issues of improving the efficiency of production cost accounting in enterprises through effective management of current assets. The study analyzes the impact of the structure, turnover, and efficiency of current asset utilization on the formation of production costs. The research employs accounting and management accounting data, economic and analytical methods, as well as approaches based on International Financial Reporting Standards. As a result, it is scientifically substantiated that improving the current asset management mechanism is a key factor in optimizing production costs, and practical recommendations are developed.*

**Keywords:** *current assets, production costs, working capital, cost accounting, management accounting, cost of production, efficiency.*

## **1. Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda ishlab chiqarish xarajatlarini oqilona boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, joriy aktivlar – xomashyo va materiallar, tayyor mahsulotlar, debitorlik qarzlari va pul mablag'lari ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi asosiy resurslar hisoblanadi.

Jahonda ro'y berayotgan voqealar oqibatida mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan xomashyo va mahsulotlar narxi, ularni yetkazib berish xarajatlari oshmoqda. Shuning uchun, eng avvalo, o'zimizdagi xomashyoni chuqur qayta ishlab, raqobatbardosh mahsulotlarni ko'paytirish kerak.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi bevosita xarajatlar, resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Korxonada ishlab chiqarish jarayonida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini pasaytirish imkonini beradi. Joriy aktivlardan samarasiz foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarining asossiz oshishiga, mahsulot tannarxining yuqorilashiga va moliyaviy natijalarning yomonlashuviga olib keladi. Shu bois, joriy aktivlar boshqaruvini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish xarajatlari hisobining samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi joriy aktivlar boshqaruvining ishlab chiqarish xarajatlari hisobiga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Bu esa o'z navbatida tanlangan mavzunung g'oyatda dolzarb ekanligini xarakterlaydi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida joriy aktivlar boshqaruvi va xarajatlar hisobi masalalari keng yoritilgan. Xususan, I.A. Blank (2018) joriy aktivlarni boshqarishni korxonaning likvidligi va rentabelligini ta'minlovchi muhim moliyaviy mexanizm sifatida baholaydi. Uning fikricha, aktivlar aylanish tezligini oshirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy omillaridan biridir.

R. Kaplan va R. Cooper (2017) faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (ABC-costing) orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv joriy aktivlarning har bir elementi ishlab chiqarish xarajatlariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekistonlik olimlardan M.Q.Pardaev (2020) va A.X.Shoyalimovlarning (2019) tadqiqotlarida joriy aktivlar hisobi va boshqaruvi milliy buxgalteriya hisobi tizimi sharoitida tahlil qilingan. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, ishlab chiqarish xarajatlari hisobining to'g'ri tashkil etilishi joriy aktivlar ustidan samarali nazoratni talab etadi. Biroq, bu ilmiy ishlarning aksariyatida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuzaga kelgan muammolar to'liq qamrab olinmagan ya'ni ularning ayrim jihatlarigina tadqiq etilgan. Mazkur muammolarning mavjudligi va iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitidagi xo'jalik yuritish talablaridan kelib chiqib ularning yechimlarini hal etishning zarurligi muammoning dolzarbligini ko'rsatib turibdi va ushbu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borishning zarurligini belgilab beradi.

Xarajatlarni hisobga olish bu tegishli xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati ta'minot, ishlab chiqarish va mahsulot (ish, xizmat)larni sotish-iste'molchiga yetkazib berish jarayonlarida sodir bo'lgan voqealarni miqdoriy o'lchash (miqdor va qiymat o'lchovida), qayd qilish, guruxlashtirish, tayyor mahsulotlar tannarxining tarkib topishi chegarasi bo'yicha tahlil qilishga qaratilgan faoliyatdir.

Xarajatlar hisobining nazariyasi va amaliyotida birgina "tannarx" tushunchasigina mavjud emas. Uning mazmuni quyidagi omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin: mahsulotning tayyorlik darajasi va uning sotilishiga qarab, yarim tayyor mahsulot, omborda saqlanayotgan mahsulot va sotilgan mahsulot tannarxlari; mahsulot miqdoriga qarab, mahsulot birligining,

butun ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi; joriy xarajatlarni kalkulyatsiya ob'ektining tannarxiga kiritish to'liqligiga qarab, to'liq amaldagi tannarx va cheklangan tannarx; tannarxni shakllantirishning tezkorligiga qarab amaldagi yoki me'yoriy, rejali tannarx farqlanadi. Tannarxni faoliyat va mahsulot turlari, sotish bozorlari, mintaqalar hamda xaridorlar bo'yicha kalkulyatsiya qilish kerak. Sarflarni shakllantirish usullari tannarxni kalkulyatsiya qilish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon o'zining muhim xususiyatlariga, jumladan, sohaviy xususiyatlariga ega.

**1-jadval**

**Ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi va guruhlanish mezonlari**

<b>№</b>	<b>Guruhlash mezonlari</b>	<b>Ishlab chiqarish xarajatlarining turlari</b>	<b>Tavsif</b>
1	Ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy o'rniga qarab	Asosiy va yordamchi	Asosiy xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq, yordamchi xarajatlar esa ishlab chiqarishni ta'minlashga xizmat qiladi
2	Tarkibiga qarab	Bir elementli va kompleks	Bir elementli xarajatlar yagona iqtisodiy mazmunga ega, kompleks xarajatlar bir nechta elementlardan iborat
3	Tannarxga o'tkazish usuliga qarab	To'g'ri va egri	To'g'ri xarajatlar mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladi, egri xarajatlar esa taqsimlash orqali hisobga olinadi
4	Ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligiga qarab	O'zgaruvchan va o'zgarmas	O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq, o'zgarmas xarajatlar esa hajmdan qat'i nazar doimiy bo'ladi
5	Yuzaga kelish vaqtiga qarab	Doimiy va bir martalik	Doimiy xarajatlar muntazam ravishda amalga oshiriladi, bir martalik xarajatlar muayyan davrda yuzaga keladi
6	Ishlab chiqarishda ishtirok etishiga qarab	Ishlab chiqarish va tijorat	Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tayyorlash bilan bog'liq, tijorat xarajatlari esa sotish jarayoniga taalluqli
7	Samaradorligiga qarab	Samarali va samarasiz	Samarali xarajatlar iqtisodiy foyda keltiradi, samarasiz xarajatlar esa natija bermaydi

Ishlab chiqarishning o'ziga xosligi sarflar tarkibini belgilaydi. Bunda ba'zi sarflar katta hajmga ega, demakki, ahamiyatliroq, boshqalari esa kam ahamiyatli, shuning uchun boshqalarining tarkibida yiriklashtirilgan holda hisobga olinishi mumkin. Shu sababli, ishlab chiqarish sarflarini hisobga olishni tashkil qilish mezonini ajratib ko'rsatish lozim.

Amaliyotda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflarni rejalashtirish, ularning hisobini yuritish va kalkulyatsiya qilish maqsadida boshqarish uchun: mazmuni va maqsadi; ishlab chiqarish hajmiga bog'likligi darajasi sarflarni ma'lum turdagi mahsulot birligining tannarxiga kiritilishi usuli; ishlab chiqarishda sarflarning shakllantirilishi ketma-ketligi kabi belgilar bo'yicha tasnif ishlatiladi. Buxgalteriya hisobida mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarini hisobga olishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

a) iqtisodiy natijalarini hisobga olgan holda boshkaruv karorlarini kabo'l kilish uchun subyektning ma'muriyatini zarur va yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlash;

v) chetga chiqishlarni aniklash maksadida xakikatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazorat o'rnatish, ularni me'yoriy va rejadagi xajmi bilan taqqoslash va kelgusidagi iqtisodiy strategiyasini shakllantirish;

s) ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni baxolash va moliyaviy natijalarni xisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini xisoblash;

d) subyektning tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijalarini aniqlash va baxolash;

y) uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish va texnologiya dasturlarining qoplanishi, ichki va tashqi bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha rentabellik darajasi, asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralari quyilgan kapital mablaglarning samaradorligi va faoliyati bo'yicha boshqaruv xisobi ma'lumotlarini bir tizimga keltirish.

Demak, mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarini hisobga olishning asosiy yo'nalishi bu subyektning ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va ushbu faoliyatni amalga oshirishda sarflanadigan xarajatlarni boshqarishdir.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda korxonalarda joriy aktivlar boshqaruvi orqali ishlab chiqarish xarajatlari hisobi samaradorligini oshirish masalalarini o'rganishda kompleks ilmiy metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Empirik tahlilni amalga oshirishda korxonalarining buxgalteriya va boshqaruv hisobi ma'lumotlari, moliyaviy hisobot shakllari, xususan "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ko'rsatkichlari asos qilib olindi. Joriy aktivlarning tarkibi, aylanuvchanligi va ulardan foydalanish samaradorligining ishlab chiqarish xarajatlariga ta'siri iqtisodiy-statistik, taqqoslash, dinamik va omilli tahlil usullari yordamida baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) va milliy buxgalteriya hisobi talablari o'zaro qiyosiy tahlil qilinib, ilg'or xorijiy tajribalar umumlashtirildi. Olingan natijalar asosida joriy aktivlar boshqaruvini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes korxonalarining ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi miqdoriy, shartli – miqdoriy, mehnat va qiymat o'lchovlarida o'rganilishi mumkin. Bu o'lchovlar tarkibida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini o'rganishda qiymatda hisoblangan ko'rsatkichlarni tahlil etish muhim o'rin egallaydi. Ya'ni, korxonalar bo'yicha barcha turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qiymat o'lchovida umumlashadi. Boshqaruv tahlili uchun kichik biznes korxonalarini ishlab chiqargan mahsulot hajmini o'rganishda quyidagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar o'rganiladi:

- Yalpi mahsulot;
- Tovar mahsuloti;
- Sotilgan mahsulot.

Amaldagi e'lon qilinayotgan moliyaviy hisobotning ikkinchi shakli "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlarida sotilgan mahsulotlar hajmini o'tgan va joriy yillardagi ko'rsatkichlarini o'rganish uchun sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi kabi ko'rsatkichlar aks ettirilmoo'da. Bu ma'lumotlar ham tahlil uchun muhim manba sifatida foydalaniladi.

Korxonalarining mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda muhim o'rinni miqdoriy ko'rsatkichlarni o'rganish egallaydi. Bunda mahsulot turlari bo'yicha dona, metr, tonna va hakoza birliklarda ishlab chiqarish sur'ati, dinamikasi va o'zgarish darajalarini aniqlash borasidagi tahlilning imkoniyatlari yaratiladi.

Korxonaning barcha erishgan natijaviy ko'rsatkichlari to'g'ridan- to'g'ri mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotish bilan bevosita bog'liqligini e'tiborga olsak, bu boradagi iqtisodiy tahlilining muhim vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Mahsulotlar ishlab chiqarishning biznes rejada mo'ljallangan hajmda bajarilganligiga baho berish;
2. Ishlab chiqarishning tarkibi, dinamikasi va o'zgarish sabablarini omilli tahlil etish;
3. Mahsulotlarning sifati va standart talablariga javob berish darajasini o'rganish;
4. Mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash;

5. Mahsulot nomenklaturasi va assortimentiga baho berish hamda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishini tahlil etish;

6. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;

7. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni ko'rsatib berish;

8. Aniqlangan imkoniyatlarni hayotga tadbiiq etish borasida takliflar ko'rsatish va hakozi. Mahsulotlar ishlab chiqarish tahlilining ob'ektlari bo'lib esa quyidagilar hisoblanadi: Mahsulotlar turlari va assortimenti bo'yicha ishlab chiqarish hajmi; Mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligi; Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tarkibi; Ishlab chiqarishning maromiyligi va uzluksizligi.

Mahsulot, ish va xizmatlarning turi va assortimenti tahlilida ularning segmentlar bo'yicha taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan, profildagi va profilda bo'lmagan turlari, asosiy va qo'shimcha mahsulotlar turlari bo'yicha turkumlanishi o'rganiladi. Ular bo'yicha reja topshiriqlarining bajarilishi, umumiy reja topshiriqlarining bajarilishida ularning ta'siri, mahsulotlar tuzilishidagi tarkibiy o'zgarishlarga baho beriladi.

Mahsulotlar nomenkulaturasi – miqdor holida tovarlar guruhlari, kichik guruhlari va pozitsiyalarini belgilashda hamda hisobga olishda qabo'l qilingan ro'yxatidir.

Tovar (ish, xizmat)lar assortimenti esa, mahsulotlarning ma'lum bir belgilariga qarab, ya'ni, uning turlari, navi, o'lchami, markasi, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulotlar xilidir.

Tovarlar nomenklaturasi va assortimentini o'rganishda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi tahlil etiladi.

**2-jadval**

**«Janub bunyodkori» MChJda mahsulotlar nomenkulaturasi va assortimentining tahlili (2023 yil, ming so'm)**

Mahsulot turi	Mahsulot birligini bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot natura shaklida, (dona)		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida		Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot
		Biznes rejada	Haqiqatda	Biznes rejada	haqiqatda	
1	2	3	4	5	6	7
"A"	2415	900	941	2173500	2272515	2173500
"B"	2312	785	825	1814920	1907400	1814920
"V"	1986	2897	2431	5753442	4827966	4827966
"G"	2411	1312	1421	3163232	3426031	3163232
"D"	1813	2540	2354	4605020	4267802	4267802
Jami	x	x	x	17510114	16701714	16247420

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan korxonada joriy hisobot davrida besh xil assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan "A", "B" va "G" assortimentdagi mahsulotlarni natura holatida ortig'i bilan ishlab chiqarilgan. Qolgan ikki xil assortimentdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish rejaları esa to'liq bajarilmagan. Natijada mazkur aksiyadorlik birlashmasi joriy yilda jami assortiment hisobiga 16247420 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi 0,93 ni tashkil etgan. O'rtacha assortiment rejasining bajarilmasligiga "V" va "D" turdagi mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilmasligi sabab bo'lgan. Ammo, korxonada o'rtacha assortiment rejasi 100 % ga bajarilmagan bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish rejasi xam 808400 ga bajarilmagan, ya'ni reja to'liq bajarilmagan. Korxonada ma'muriyati assortiment rejasining

bajarilmaslik sabablarini chuqur o'rganishlari va o'z vaqtida tegishli choralarni ko'rishi lozim bo'ladi.

Assortiment rejasining bajarilmasligi ko'rsatkichi orqali ham assortimentga baho berish mumkin. Mahsulot ishlab chiqarish assortimentining o'zgarishi xo'jalik faoliyati natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarish assortimentini shakllantirishda korxonada birinchi navbatda, mahsulotlar turiga bo'lgan talabni hamda bozordagi holatini, ikkinchidan esa, korxonada mavjud bo'lgan mahsulot, xom-ashyo, texnik-texnologik, moliyaviy va boshqa imkoniyatlardan to'laroq foydalanishni e'tiborga olishi zarur. Assortimentni shakllantirish sistemasi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga olishi shart:

- Iste'molchilarning istiqbolli ehtiyojini aniqlash;
- Chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash;
- Mahsulotning bozordagi hayotiylik siklini o'rganish, o'z vaqtida yangi zamonaviy bo'lgan tovarlar turini yaratish bo'yicha choralar ko'rish va ishlab chiqarish dasturidan ma'naviy eskirgan va iqtisodiy jihatdan kam foydali bo'lgan mahsulotni chiqarib tashlash;
- Iqtisodiy samaradorlik va mahsulot assortimenti o'zgarishida xavf- xatar darajasini baholash.

Ayrim korxonalar yillik, chorak, oylik rejalarini ortig'i bilan bajarishi mumkin, ammo ayrim oylarda ishlab chiqarishni bir maromda tashkil eta olmasligi mumkin. Mahsulot ishlab chiqarishdagi maromiylikni buzilishi shartnoma majburiyatlarini barbod bo'lishiga, uning oqibatida jarimalar to'lanilishiga olib keladi.

**3-jadval**

**«Janub bunyodkori» MChJ da mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining tahlili (2023 yil, ming so'mda)**

O'n kunliklar	Hisobot yili		Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot	Jamida tutgan ulushi, %	
	Biznes rejada	Haqiqatda		Biznes rejada	Haqiqatda
1	2	3	4	5	6
I o'n kunlik	43412	42981	42981	32.8	32.8
II o'n kunlik	44512	43425	43425	33.7	33.2
III o'n kunlik	44300	44521	44300	33.5	34.0
Jami	132224	130927	130706	100.0	100.0

**Maromiylik koeffitsienti:  $K_M = \frac{130706}{132224} = 0,99$**

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida mahsulot ishlab chiqarish maromiyligiga baho berish mumkin. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish maromiylik koeffitsienti 0,99 ni tashkil etgan. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining buzilishiga joriy yildagi oylarning birinchi o'n kunligida biznes rejada belgilangan 43412 ming so'mlik mahsulot ishlab

chiqarilishi o'rniga, haqiqatda 42981 ming so'mga kam mahsulot ishlab chiqarilganligi sabab bo'lgan. Natijada mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi 0,01 koeffitsietga bajarilmagan. Shunday bo'lsada, korxonada hisobot yilidagi oylarda keyingi ikkinchi o'n kunlik bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejalarini xam ado etilmaganligi bois, korxonadagi umumiy mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilmagan. Umuman olganda bunday natijalarni kisman ijobiy baholasak bo'ladi, chunki, korxonada maromiylik buzilishi unchalik katta emas ekan. Odatda, mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining buzilishi oqibatida korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatiga putur yetishiga, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi o'zaro shartnomalarning o'z vaqtida to'liq bajarilmasligiga, iqtisodiy jarimalar qo'llanilishiga hamda

mahsulotlarni sotish hajmlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Korxonada ma'muriyati imkon qadar mahsulot ishlab chiqarish maromiyatini buzilmaslik choralarini ko'rish kerak bo'ladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ta'sirchan omillardan biri bu tadbirkorlik omilidir. Shu sababli mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga tadbirkorlik layoqati omili ham kiritilishi tartiblangan va bu tarkiblash iqtisodiy jihatdan o'rinlidir. Chunki yuqorida qayd etilgan ishlab chiqarish omillari tadbirkorlik omili bilan birgalikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, joriy aktivlarning yuqori ulushi ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida xomashyo va materiallar sarfining ustunligi bilan bevosita bog'liq. Material zaxiralarning me'yordan ortiq jamlanishi saqlash xarajatlarning oshishiga va moliyaviy resurslarning muzlab qolishiga olib keladi.

Debitorlik qarzlarning haddan tashqari ko'payishi pul mablag'lari yetishmovchiligini keltirib chiqarib, ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha moliyalashtirish xarajatlarini yuzaga keltiradi. Natijada ishlab chiqarish tannarxi oshadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, joriy aktivlar aylanish koeffitsientini oshirish ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zaxiralarni boshqarishning zamonaviy usullarini (Just-in-Time, normativ zaxiralar) joriy etish tannarxni sezilarli darajada pasaytiradi.

## 5. Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, joriy aktivlar boshqaruvini takomillashtirish ishlab chiqarish xarajatlari hisobining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Joriy aktivlarning har bir elementi ustidan tizimli nazorat o'rnatish tannarxni pasaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, hisobotda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va haqiqiy moddiy va boshqa xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlashda me'yordan chetga chiqishlar har bir mahsulot turi bo'yicha alohida hisobga olinishi kerak.

Mazkur yo'nalishda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- joriy aktivlarni boshqarish va xarajatlar hisobini integratsiyalashgan holda tashkil etish;
- zaxiralar va debitorlik qarzlari bo'yicha aniq normativlarni belgilash;
- boshqaruv hisobida joriy aktivlar aylanish ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda zamonaviy hisob usullarini joriy etish.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishda ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri hisobga olish, nazorat qilish va mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash usullari tahlil qilinib, kichik biznes korxonasi uchun zararsizlik nuqtasini topish, marjinal daromadni aniqlash hamda o'zgaruvchan, doimiy xarajatlarni to'g'ri hisobga olib borish zarur. Shuning uchun korxonada xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlashning «Direkt-kosting» usulini qo'llash maqsadga muvofiq deb topildi. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar:

- Blank I.A. Upravlenie oborotnymi aktivami predpriyatiya. – Kiev: Nika-Center, 2018.  
IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London, 2023.  
Kaplan R.S., Cooper R. Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance. – Boston: Harvard Business School Press, 2017.  
Pardaev M.Q. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.  
Shoalimov A.X. Korxonada moliyasini boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.  
«Janub bunyodkori» MChJ ma'lumotlari 2023 yil  
[www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.



## О‘ЗБЕКИСТОНДА ЗИЙОРAT TURIZMI SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA DAVLATNING BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLUVCHI ROLI

PhD, dotsent **Uzaqov J.N.**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

**Nurmatov S.M.**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

**Naimova Sh.G’**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada ziyorat turizmni shakllantirish va rivojlantirishda davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash borasida oxirgi yillarda juda katta ishlar amalga oshirilganligi hamda mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘siri asosida ziyorat joylarni obodonlashtirish va turistik makonga aylantirish masalalari keng yaritib berilgan. Shuningdek, eng yaqin, o‘rta uzoq muddatli istiqbolda ziyorat turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati va ziyorat turizm industriyasini davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirishning asosiy shartlar asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turizm, ziyorat turizm, turizm salohiyati, rivojlanish, tartibga solish, rivojlanish bosqichlari, ziyorat turizmni rivojlantirish mexanizmi.

**Аннотация.** В статье широко освещаются вопросы формирования и развития паломнического туризма на основе значительной работы, проведённой в последние годы государством по его регулированию и поддержке, а также его положительного влияния на экономику страны. На этой основе рассматриваются задачи благоустройства объектов паломничества и превращения их в туристические пространства. Кроме того, обоснованы основные направления государственной политики по развитию паломнического туризма в ближайшей, среднесрочной и долгосрочной перспективе, а также ключевые условия совершенствования системы государственного регулирования индустрии паломнического туризма.

**Ключевые слова:** туризм, паломнический туризм, туристический потенциал, развитие, регулирование, этапы развития, механизм развития паломнического туризма.

**Abstract.** The article comprehensively examines the issues of state regulation and support in the formation and development of pilgrimage tourism, highlighting the extensive measures implemented in recent years and their positive impact on the national economy. Based on this, particular attention is paid to the improvement of pilgrimage sites and their transformation into attractive tourist destinations. In addition, the main directions of state policy for the development of pilgrimage tourism in the short-, medium-, and long-term perspectives are substantiated, along with the key conditions for improving the system of state regulation of the pilgrimage tourism industry.

**Keywords:** *tourism, pilgrimage tourism, tourism potential, development, regulation, stages of development, mechanism for the development of pilgrimage tourism.*

## **1. Kirish.**

Ziyorat turizmi mamlakat iqtisodiyotiga, uning ijtimoiy siyosatiga, madaniyatiga, hayot tarziga va xalq salomatligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan eng muhim faoliyat turlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Ziyorat turizmi orqali aholi turmush sifatini oshirish vazifalari hal qilinadi. Bu, xususan, turizm va dam olish infratuzilmasini rivojlantirish, ziyorat turizmi xizmatlarining sifati, ularga erishish imkoniyati va raqobatbardoshligini ta'minlash orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy global taraqqiyotning asosiy paradigmalardan biri BMT tomonidan belgilangan "Mingyillik rivojlanish maqsadlari"ga erishishga ko'maklashuvchi barqaror rivojlanish tamoyillaridir. Yuqori multiplikativ ta'siri tufayli ziyorat turizmi iqtisodiyot va ijtimoiy sohada barqaror rivojlanishni ilgari suruvchi kuchli omilga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasining dolzarbligi ushbu sohaning ortib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ekologik o'zgarishlar ustidan nazoratning yetarli emasligi sharoitida tarmoqning tezkor o'sish sur'atlari, shuningdek, ziyorat turizmi sohasini rivojlantirishdagi muammolarni hal etish bo'yicha boshqaruv choralari kuchaytirish zarurati bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2022-2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ziyorat turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifasini qo'ydi. Bundan tashqari, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashning hozirgi sharoitlarida ziyorat turizm sohasining investitsion jozibadorligini oshirish, davlat va xususiy biznesning sheriklik mexanizmidan foydalangan holda ziyorat turizm salohiyati rivojlanishini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fikrimizcha, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subektlar uchun belgilangan sharoitlardan kelib chiqib, ziyorat turizm ehtiyojlarini sifatli va miqdoriy jihatdan qondira oluvchi turli yangi innovatsion yondashuvlarni shakllantirmay va amalga oshirmay, shahar va qishloq joylarda ziyorat turizm salohiyatidan to'liq foydalanish mumkin emas. Shularni e'tiborga olganda, mazkur tadqiqotning dolzarbligi, ayniqsa, respublikamiz ziyorat turizm sektori koronavirus pandemiyasidan so'ng o'zining yangi rivojlanish bosqichini boshlagan, ziyorat turizm salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlayotgan hozirgi sharoitda shubhasiz, Yangi O'zbekistonda ziyorat turizm salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan bog'liq hisoblanadi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonning ziyorat turizm salohiyatini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan foydalanish muammolariga ko'plab fundamental va amaliy tadqiqotlar bag'ishlangan. YA.Barzikina (2011.), M.B.Birjakova (2010), T.V.Brusokene (2004), M.N.Zabayevo (2011), M.A.Krivulya (2012), L.V.Ovcherenko (2018) singari xorijiy mualliflarning asarlari katta ilmiy va metodologik qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, inqiroz oqibatlarining ziyorat turizm sohasi va uning salohiyatiga ta'siri tadqiq etilgan mualliflarning turli nuqtai nazarlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular qatoriga O.Ye.Afanasev(2020), M.Gunare (2020), S.G.Zemlyanixina (2020), P.Keller (2013) va boshqalarni kiritish mumkin.

Ziyorat turizm salohiyatini rivojlantirish muammosining ayrim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga A.A.Eshtayev (2023), A.M.Abduvohidov (2019), M.T.Alimova (2017) Ye.V.Golisheva (2012), X.F.Ochilova (2021) B.X.Turayev (2011), O.H.Hamidov(2017) singari mamlakatimiz olimlari munosib hissa qo'shdilar.

Mazkur ilmiy ishlarni tavsiflovchi o'ziga xoslik shundaki, aksariyat mualliflar uning asosiy funksional maqsadi sifatida ziyorat turizm infratuzilmasi obektlari va ziyorat turizm mahsulotiga talabni ta'minlash nuqtai nazaridan e'tibor qaratgan va ko'rib chiqqan holda, ziyorat turizm salohiyati tushunchasiga turli xil ma'nolarni kiritadilar. Ziyorat turizm salohiyatidan foydalanish va rivojlantirishga bag'ishlangan ko'plab ishlarga qaramay, turli tavsif, turli inqirozli hodisalar, jumladan, koronavirus pandemiyasi oqibatlarini bilan bog'liq o'zaro aloqalarini ko'rsatuvchi jihatlar nuqtai nazaridan ularning yanada rivojlanishiga yondashuvlar, shuningdek, bunday murakkab sharoitlarida ziyorat turizmning rivojlanishi va uning salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni modellashtirish mavjud emas, bu esa dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligini asoslab beradi.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Ziyorat ziyorat turizm salohiyatining rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon, mantiqiy va iqtisodiy-statistik tahlil, modellashtirish, taqqoslash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya va boshqa usullardan foydalanilgan.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Ta'kidlash joizki, ziyorat turizm sohasiga nisbatan "davlat siyosati" tushunchasini qo'llash O'zbekiston Respublikasi turizm to'g'risida"gi qonunining 6-moddasida belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunning 20-moddasiga ko'ra, ziyorat turizm faoliyati deganda turoperatorlik va turagentlik faoliyati, shuningdek sayohatlar tashkil etishga doir boshqa faoliyat tushuniladi. Biroq fikrimizcha, bu yerda "qonuniy ta'rif"da noaniqlik kuzatiladi, "sayohatlar tashkil etishga doir boshqa faoliyat" tushunchasi aniqlashtirilmagan. Qoidaga ko'ra, boshqa faoliyat turlariga kishilarning turli xildagi sayohat va ziyorat turizmga ehtiyojini qondiruvchi xilma-xil iqtisodiy faoliyat turlari kiradi.

Ta'rifning aynan shu qismi ziyorat turizm uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ziyorat turizm, ayrim olimlarning fikricha, "milliy iqtisodiyotning boshqa sohalari singari odatiy vertikal yuzada yotmaydi, balki turli tarmoqlarga tegishli korxonalar va tashkilotlarni o'z ichiga oluvchi gorizontal makonni qamrab oladi.

Ziyorat turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish bozor mexanizmining faoliyati uchun normal sharoitlarni ta'minlash, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish va ziyorat turizm sohasini rivojlantirishning yagona konsepsiyasini ishlab chiqish uchun davlatning xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatiga va bozor konyunkturasiga ta'sirini ifodalaydi. Shuningdek, bu ziyorat turizmni rivojlantirishni tartibga solish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish, uning maqsadlari, vazifalari, asosiy yo'nalishlarini asoslash, uni amalga oshirish vositalari va usullarini tanlash tartibini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda ziyorat turizm sohasi mustaqil mavjud bo'lgan 30 dan ortiq sohalarda tutashgan joyda joylashgan bo'lib, ularning ziyorat turizmni rivojlantirishga qo'shgan hissasi yetarli emas. Shu munosabat bilan ziyorat turizm industriyasini shakllantirishga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab turdosh tarmoqlar faoliyatini birlashtirish, yalpi ichki mahsulotda ziyorat turizm ulushini oshirish uchun moliyaviy, kadrlar, infratuzilmaviy va institutsional resurslarni muvofiqlashtirishni ta'minlash zarur. Umuman, ziyorat turizm industriyasini rivojlantirishga yordam beruvchi omillar, qolgan barcha narsalar teng bo'lgan holda, sohadagi mavjud muammolar majmuasini hal etishni ta'minlashi va mamlakatni jahon ziyorat turizm xaritasida belgilab berishi kerak.

Ziyorat turizm sohasining rivojlanishini tartibga solish quyidagilarni o'z ichiga oluvchi ko'p pog'onali tizimni ifodalaydi :

xalqaro moliyaviy tashkilotlar ishtirokida Jahon ziyorat turizm tashkiloti vositasida amalga oshiriladigan global ko'lamda ziyorat turizmni rivojlantirishga ko'maklashish va muvofiqlashtirish;


mintaqaviy ziyorat turizm tashkilotlari va davlatlararo birlashmalarning maxsus organlari (masalan, Yevropa hamjamiyati) orqali erishiladigan davlatlararo darajadagi ziyorat turizm siyosatining muvofiqlashtirilganligi;

maxsus tashkil etilgan davlat organlari va ziyorat turizm tashkilotlarining jamoat birlashmalari orqali amalga oshiriladigan milliy va mintaqaviy darajadagi ziyorat turizm sohasidagi siyosatning muvofiqlashtirilganligi.

Ziyorat turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish ikkita asosiy mexanizm orqali amalga oshiriladi: birinchidan, talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish orqali bozorning o'zini o'zi tartibga solish orqali, ikkinchidan, davlat boshqaruvi va muvofiqlashtirishning muayyan mexanizmlarini joriy etish orqali. Qolaversa, ikkinchi holatda ziyorat turizm birlashmalari va uyushmalari tuzish orqali xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatini ham davlat tomonidan tartibga solish, ham o'zini o'zi tashkil etish haqida bormoqda.

Ziyorat turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishi davlat organlari oldida turgan maqsadlar, shuningdek, ushbu siyosatni amalga oshirishda davlat ega bo'lgan vositalar bilan belgilanadi. Ta'kidlash kerakki, ayrim mamlakatlarda ziyorat turizm sohasidagi davlat siyosati ko'pincha alohida ajratilmaydi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari siyosati, masalan, ishlab chiqarish siyosati, to'lov balansi siyosati bilan birlashtiriladi.

Mamlakatda ziyorat turizmni rivojlantirish davlat siyosatini o'zida mujassam etgan davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari strategik va boshqaruv hujjatlarida nazarda tutilgan ustuvor yo'nalish va maqsadlarga erishish uchun keng ko'lamlı qonunchilik, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, axborot, infratuzilma va kadrlarga oid chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ularning har birida birgalikda innovatsion rivojlanishning zamonaviy iqtisodiyotini yaratishda respublikaning uzoq muddatli manfaatlariga erishishga xizmat qiluvchi atrof-muhitni muhofaza qilish, tadbirkorlik, madaniyatni rivojlantirish, qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish, bolalar va yoshlar bilan ishlash, sport, bandlikka ko'maklashish bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining joriy va istiqboldagi vazifalari nuqtai nazaridan ziyorat turizm faoliyatining muayyan o'ziga xos jihatlarini hal etish ko'zda tutilgan. Ziyorat turizmning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish jarayon sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



**1-rasm. Ziyorat turizm rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish sxemasi**

Ziyorat turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish vositalarini ularni qo'llash sohalari bo'yicha quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin.

1. Iqtisodiy sohada – soliqni tartibga solish, ziyorat turizmni rivojlantirish dasturlarini maqsadli byudjetdan moliyalashtirish, ziyorat turizmga investitsiya kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish, ziyorat turizm va rekreatsion turdagi maxsus iqtisodiy zonalarni yaratish.

2. Huquqiy sohada – normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ziyorat turizm sohasida tasniflash, standartlashtirish, lisenziyalash metodologiyasini ishlab chiqish, bojxona tartibga solishi, mamlakatga kirish, chiqish va vaqtincha bo‘lish qoidalarini belgilash, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish, turistlar xavfsizligini ta’minlashdir.

3. Ijtimoiy sohada – aniq manzilli ziyorat turizm dasturlarini ishlab chiqish, turistlar bo‘ladigan joylarda mahalliy aholi bandligi muammosini hal qilish; ziyorat turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayorlashda qatnashish.

4. Ziyorat turizmni tashkil qilish sohasida – jahon ziyorat turizm bozorida mamlakat nufuzini shakllantirish, ziyorat turizm mahsulotini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilishga ko‘maklashish, xalqaro ziyorat turizm dasturlarda ishtirok etish, ziyorat turizm infratuzilmasidan ko‘p maqsadli foydalanish uchun sharoitlar yaratish, ziyorat turizmni rivojlantirish sohasida davlat va xususiy sektor faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-tahlil bazasini shakllantirish, ziyorat turizm sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ziyorat turizm sohasini rivojlantirish strategik vazifa deb tan olingan va 2025-yilga kelib, maqsadli parametrlarga ko‘ra, mamlakat YaiM tarkibida ziyorat turizm 5 % atrofida bo‘lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun respublikamizda faqat oxirgi uch yilning o‘zida quyidagi meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi:

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi: ziyorat turizm sohasini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi roli va hissasini oshirish, ziyorat turizm xizmatlarini diversifikasiya qilish va sifatini oshirish, ziyorat turizm infratuzilmasini kengaytirish;

2. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida ziyorat turizm sohasidagi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslar belgilab berilgan ;

3. 2019-2025-yillarda O‘zbekistonda ziyorat turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi: qulay iqtisodiy sharoitlar va shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishga erishish, ziyorat turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni ishlab chiqish, uning iqtisodiyotdagi roli va hissasi, xizmatlarni diversifikasiya qilish va sifatini oshirish, shuningdek, ziyorat turizm infratuzilmasini yaxshilash.

O‘zbekistonda ziyorat turizm sohasidagi davlat siyosati uzoq muddatli istiqbolda ziyorat turizm industriyasini hududlar va ularning infratuzilmasini jadal kompleks rivojlantirish lokomotivlaridan biriga aylantirish, eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlarni diversifikasiya qilish va rivojlantirish, aholi daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirish, mamlakatning nufuzi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan.

Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, ziyorat turizm sohasi infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda tegishli davlat organlariga bo‘ysunuvchi tashkilotlar mavjud. Bunday organlarning asosiy vazifasi kirish ziyorat turizmini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bunday tashkilotlar turistlarni jalb etish dasturlarini ishlab chiqish bilan, boshqa mamlakatlarda ziyorat turizm bo‘yicha vakolatxonalar bo‘lib, shuningdek, axborot byulletenlari, pochta jo‘natmalari va ziyorat turizm ma’lumotlarining boshqa manbalarini yaratish va tarqatish bilan shug‘ullanadi.

Ko‘plab mamlakatlarda ular yordamida xorijga chiqish ziyorat turizmini faollashtirish bo‘yicha milliy dasturlar ishlab chiqilmoqda, ularda chegara va bojxona rejimini soddalashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, soliq imtiyozlari kabi qator imtiyozlar, ziyorat turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy ommaviy axborot vositalarida reklama joylashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun byudjet subsidiyalarini oshirish va hokazolar nazarda tutilmoqda.

O‘zbekistonda ziyorat turizm sohasini boshqarish tizimining tuzulmasi 2-rasmda ko‘rsatilgan. Ziyorat turizm sohasidagi vakolatli davlat organi O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi bo‘lib, u ziyorat turizm sohasida qator funksiyalarni amalga oshiradi. Mazkur vazirlik

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'zining hududiy bo'linmalariga ega.



**2-rasm. O'zbekistonda ziyorat turizm sohasini boshqarish organlari va tashkilotlari tarkibi**

Ziyorat turizm sohasidagi mahalliy davlat hokimiyati organlari davlat siyosatini amalga oshiradi va tegishli hududda ziyorat turizmni muvofiqlashtiradi; ziyorat turizm sohasidagi davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi; vakolatli davlat organi va (yoki) uning hududiy bo'linmasi bilan kelishilgan holda ziyorat turizm sohasidagi hududiy dasturlarni, shu jumladan qisqa va o'rta muddatda ziyorat turizmni rivojlantirish bo'yicha harakat rejasini tasdiqlaydi; tegishli hududda ziyorat turizmni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi va hokazo.

Shunday qilib, ziyorat turizmni rivojlantirishni tartibga solishning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ziyorat turizm birlashmalar vakili bo'lgan jamoat tashkilotlari sohani tartibga solishda ishtirok etadi. Ziyorat turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solishning mazmuni davlat organlari oldida turgan maqsadlar, shuningdek, ushbu siyosatni amalga oshirishda davlat uchun mavjud usul va vositalar bilan belgilanadi.

Ziyorat turizm industriyasi va uning salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari 3 bosqichda (3-rasm) belgilangan: qisqa muddatli (2019-2020- yillar), o'rta muddatli (2021-2025-yillar) va uzoq muddatli istiqbolda.

Bosqich		Davr		Mazmuni
1-bosqich	▶	2019-2020-yillar	▶	ziyosat turizmni rivojlantirish uchun mustahkam Qonunchilik bazasini yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ'ib qilish
2-bosqich	▶	2021-2025-yillar	▶	mamlakat iqtisodiyotida ziyosat turizm industriyasi ulushini ko'paytirish. Ushbu yo'nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning ziyosat turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida ziyosat turizm ulushini 5 foizgacha (2017-yil yakuni bo'yicha – 2,3 %ga) yetkazish, shuningdek, 2025-yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xorijdan – 2 million turistni jalb etish belgilab quyilgan
3-bosqich	▶	Uzoq atli istiqbol	▶	ziyosat turizm milliy iqtisodiyotdagi yutuqlar bilan cheklanib qolmay, mintaqa va dunyo ziyosat turizm xizmatlari bozoriga eng raqobatbardosh davlatlar qatorida kirib borishi mumkin

**3-rasm. Eng yaqin, o'rta uzoq muddatli istiqbolda ziyosat turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati**

Ma'lum muddat o'tishi bilan ziyosat turizm industriyasining rivojlanish yo'nalishlari kengaytirilishi va to'ldirilishi mumkin.

Qisqa muddatli istiqbolda quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- ziyosat turizm faoliyati sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ziyosat turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro meyor va standartlarni joriy etish;
- turistlarning talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hududlarida ziyosat turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish;
- transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;
- ziyosat turizm bozorining turli qatlamlariga mo'ljallangan ziyosat turizmning mahsulot va xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta'sirini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish;
- respublikada ziyosat turizm xizmatlariga ehtiyojni qondirishga qaratilgan ziyosat turizm faoliyati subektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki ziyosat turizmni rivojlantirish;
- O'zbekiston Respublikasi ziyosat turizm mahsulotini ichki va tashqi ziyosat turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi nufuzini mustahkamlash;
- yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning ziyosat turizm va ziyosat turizm salohiyatining turli jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida sohada davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Ularning tahlili ko'rsatadiki, umumiy maqsad zamonaviy raqobatbardosh ziyosat turizm majmuini shakllantirish hisoblanadi. Maqsadlar sohaning rentabelligini oshirish, ish o'rinlarini yaratish bilan bog'liq. Eng muhim omil investitsiyalarni jalb

etish hisoblanadi. Investitsion jozibadorlikni oshirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalar va ziyorat turizm klasterlar singari ilg'or vositalardan foydalaniladi.

Ziyorat turizm salohiyatini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirishning asosiy shartlarini aniqlashda biznesni tashkil qilish, infratuzilma tarmoqlari bilan harakatlarni muvofiqlashtirish, aholini jalb etish, turistlar javobgarligini oshirish, ziyorat turizmni rag'batlantirish, shuningdek, ziyorat turizm va ta'limni targ'ib qilishni ko'zda tutuvchi butun ziyorat turizm sohasini rivojlantirish borasida to'plangan xalqaro tajribani hisobga olish kerak.

Tahlillar turli davlatlar tomonidan ziyorat turizm sohasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Masalan, turizm sohasida ustuvor faoliyat yo'nalishlari quyidagicha:

- Fransiyada – ijtimoiy turizmni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- Ispaniyada – atrof-muhitni muhofaza qilish; normativ-huquqiy tartibga solish; lisenziyalash, sertifikatlash; hududiy turizm tashkilotlarini muvofiqlashtirish;
- Italiyada – normativ-huquqiy tartibga solish; lisenziyalash; hududiy turizm tashkilotlarini muvofiqlashtirish; statistika faoliyati; xalqaro hamkorlik;
- Vengriyada – marketing tadqiqotlari; turizm mahsulotini tashqi bozorlarda ilgari surish; turistlarni axborot bilan ta'minlash; zamonaviy kompyuter texnologiyalarini joriy etish; kirish ziyorat turizmini rag'batlantirish;
- Gretsiyada – subsidiyalar va soliq imtiyozlari orqali moddiy-texnik bazani mustahkamlash; kirish turizmini rag'batlantirish; lisenziyalash.
- Turkiyada – davlat darajasida har tomonlama qo'llab-quvvatlash; subsidiyalar va soliq imtiyozlari, investitsiyalar, imtiyozli kreditlar va bojxona to'lovlari orqali moddiy-texnik bazani mustahkamlash; kirish turizmini rag'batlantirish; viza tartibini soddalashtirish;
- Xitoyda – normativ-huquqiy bazani takomillashtirish; byudjet investitsiyalari va subventsiyalari; soliq imtiyozlari; innovatsiyalarni rag'batlantirish; kichik biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish; kreditlar, ssudalar, maqsadli grantlar bo'yicha imtiyozlar berish.

O'zbekistonda ziyorat turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash 5 yo'nalishda olib borilmoqda. Bular: kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, mehmonxonalarni qurish va modernizasiya qilish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirish, turistlar uchun transport sotib olishni qo'llab-quvvatlash, texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish. Faoliyat yuritayotgan ziyorat turizm kompaniyalariga ham, ziyorat turizm biznesi bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlarga ham qator imtiyozlar beriladi. Bular soliqlardan ozod qilish, yer ajratish, uzoq muddatli kreditlar va hokazodan iborat.

Koronavirus pandemiyasi davrida O'zbekistonda eng ko'p zarar ko'rgan sohalardan biri sifatida ziyorat turizm sohasini "jonlantirish" uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-mayda qabul qilingan PF-6002-sonli "koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ziyorat turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan bozorning barcha qatnashchilari uchun ko'plab imtiyozlar ko'zda tutilgan.

Xususan, turoperatorlar, turagentlar, shuningdek joylashtirish vositalari uchun: 2020-yil 1-iyundan 2021-yil 31-dekabr qadar foyda solig'i stavkasi belgilangan stavkaga nisbatan 50 foizga kamaytiriladi; 2020 va 2021-yil yakunlari bo'yicha zararlarni O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilgan miqdor bilan cheklanmagan tarzda o'tkazish huquqi beriladi; 2021-yil 1-yanvargacha bo'lgan davrda ziyorat turizm (mehmonxona) yig'imini hisoblash va to'lash to'xtatiladi;

yangi sanitariya-gigiena talablariga muvofiqlashtirish uchun ziyorat turizm sohasi subektlariga beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 10 foizlik punktdan ortiq bo'lmagan qismi;

aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ziyorat turizm sohasi subektlariga beriladigan 1 mlrd. so'mgacha miqdordagi kreditlar bo'yicha 2020-yil 1-iyundan 31-dekabrga qadar davrda foiz xarajatlarining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 10 foizlik punktdan ortiq bo'lmagan qismi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitai tasarrufidagi texnikum va kollejlarga 2020-yilda o'qishga qabul qilingan barcha tinglovchilarni o'qitish, istisno tariqasida, davlat granti asosida amalga oshirildi.

## **5.Xulosa.**

✓ Ziyorat turizm tarmog'ining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, mazkur soha bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini, uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni guruhlash va ularni tadqiq qilish masalalari mamlakatimiz olimlari tomonidan kam o'rganilgan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda ham kam yoritilgan.

✓ Ziyorat turizmni rivojlantirish borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bosqichma-bosqich takomillashib borishi natijasida, uning soni oshib yangilari bilan to'ldirib borilayotganligi qayd etildi va har biriga izoh berildi.

✓ Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, ziyorat turizm sohasi quyidagi iqtisodiy funksiyalarini bajarishi ta'kidlandi, ya'ni: turistik mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiradi; aholini ish bilan ta'minlash orqali bandlik muammosini hal qiladi; milliy daromadni yaratishda ishtirok etadi; mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi; mamlakat to'lov balansini barqarorlashtirishda ishtirok etadi; mamlakatda tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

✓ Ziyorat turizm sohasi bilan shug'ullanadigan aholi qatlamining alohida guruhlari bo'yicha ishtiroki quyidagi yo'nalishlarda tavsiflanishi asoslandi: ziyorat turizm sohasida bevosita band bo'lgan aholi; ziyorat turizm sohasida bilvosita band aholi; ziyorat turizm sohasiga o'z joyida turib xizmat qiluvchi sohalarda faoliyat ko'rsatadigan aholibandligi; turistik obyektlar va infratuzilmalarning qurilishdagi va ularga xizmat qilishdagi band aholiga bo'linishi va ushbu guruhlarning har biriga qanday aholining kirishi asoslab berildi.

✓ Tadqiqot davomida ziyorat turizm sohasini samarali rivojlantirish evaziga qanday natijalarga erishish mumkinligi ko'rsatib berildi, ya'ni: ziyorat turizm mamlakatimizning yalpi milliy mahsuloti soha hisobiga oshiriladi; davlat byudjetining soliq to'lovlari va boshqa to'lovlarning o'sishi hisobiga to'ldiriladi; aholini ish bilan ta'minlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratilishiga erishiladi; chet mamlakatlar kapitali sohaga jalb etilishiga va valyuta tushumining ko'payishiga erishiladi; ziyorat turizm sohasini rivojlantirish barobarida davlatning boshqa sohasini ham rivojlantirish imkoniyati tug'iladi; ziyorat turizm infratuzilmasi va industriyasini rivojlantirishga erishiladi; mahalliy va xorijiy turistlarning dam olish tuzilmalarini isloh qilishga erishiladi.

✓ Ziyorat turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini aniqlash uchun, uning yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushini aniqlashni taqozo qiladi.

✓ Ziyorat turizm tarmog'ining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'llari va ularni baholash usullari doirasida ziyorat turizm tarmog'ining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligining ta'rifi va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar guruhlari ishlab chiqildi. ziyorat turizm tarmog'ining iqtisodiy samaradorligi deyilganda, ushbu tarmoqning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasining va sohani rivojlantirish orqali turistlar va ulardan olinadigan foydaning ko'payishiga muttasil erishib borish orqali o'zining ham rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy imkoniyatlarni yaratganligi tushuniladi.

✓ Ziyorat turizm tarmog'ining ijtimoiy samaradorligining ta'rifi ham ishlab chiqildi. ziyorat turizm tarmog'ida ijtimoiy samaradorlik deyilganda ushbu sohada aholining ish bilan bandligini ta'minlash, farovonligini oshirish, madaniy va intellektual saviyasini ko'tarishga qaratilgan obyektiv voqelikni keltirib chiqarishi bilan bog'liq jarayonlar tushuniladi.

**Adabiyotlar:**

Абдувоҳидов А.М., Умирова Д.С., Абриев З.С. Зиёрат туризм ривожланишини прогнозлаш. Ўқув қўлланма. – Т.:ТДИУ, 43 бет;

Алимова М.Т. Худудий зиёрат туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида): иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 265 б.;

Афанасев О.Е. Инновационные тренды в контексте глобальных угроз пандемии COVID-19: механизмы для туристской отрасли / О. Е. Афанасев, А. В. Афанасева // Современные проблемы сервиса и туризма, С. 7-26.;

Барзикин Й.А. Актуальные вопросы государственной политики в сфере туризма / Й.А. Барзикин Е.Л. Писаревский Т.В. Абрамова // Туризм: право и экономика, С. 221.;

Биржаков М.Б. Введение в туризм: Учебник; 9-е изд., перераб. и доп. – М.: Герда. - 576 с.;

Брусокене Т.В. Формирование и реализация туристского потенциала региона: Автореф. дис канд. экон. наук. – СПб., 23 с.;

Голишева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – Т., – 25 с.;

Гунаре М. Индивидуальный туризм в ожидании перемен / М. Гунаре, О.Е. Афанасев // Сервис в России и за рубежом, С. 197-204.;

Забаева М.Н. Эффективное использование регионального туристского потенциала: теория, методология и практика: Автореф. дис. д-ра экон. наук. – Н. Новгород, 23 с.;

Землянухина С.Г. Трансформация ценностных ориентаций населения в сфере туризма в условиях пандемии // Вестник Ассоциации вузов туризма и сервиса. С. 13-18;

Келлер П. Влияние мировых кризисов на туризм // Вестник РМАТ. С. 17–20.

Келлер П. Влияние мировых кризисов на туризм // Вестник РМАТ. 2013. - № 3. - С. 17–20.

Кривуля М.А. Управление развитием туристического потенциала региона: Автореф. дис...канд. экон. наук. – СПб., 20 с.;

Овчаренко Л.А. Использование рекреационного потенциала в ускоренном экономическом развитии региона: теория, методология, практика: монография. – Донецк: ГОУ ВПО «ДонАУиГС», 424 с.

Очилова Ф.М., Жалолиддинова Х., Нурматова С. Туризм в Узбекистане после COVID-19. //Научно-электронный журнал «Экономические и инновационные технологии», С. 333-341;

Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управления региональным туризмом: Автореф... докт. экон. наук. – Т., 52 с.;

Ҳамидов О.Ҳ. Ўзбекистонда экологик зиёрат туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. докт. (DSc) дисс... автореферати. – Самарқанд, 71 б.

Эштаев А.А. Ўзбекистоннинг зиёрат туризм салоҳияти ва уни ривожлантириш истиқболлари. (Монография) – Самарқанд: “Ипак йўли” Зиёрат туризм ва маданий мерос халқаро университети нашриёти, 8 бет;



## TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI

*Professor v.b., PhD Yuldashev F.T.  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari hamda ushbu jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi institutsional, iqtisodiy va moliyaviy omillar tahlil etiladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining investitsion faoliyatini shakllantirish, investitsiya loyihalarini baholash va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy asoslari yoritilgan. Maqolada O'zbekiston bank tizimida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish, risklarni boshqarish, investitsion portfelni diversifikatsiyalash hamda banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha dolzarb muammolar va ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy yondashuvlari bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, investitsiya loyihalari, moliyalashtirish mexanizmlari, bank investitsiya faoliyati, investitsion muhit, risklarni boshqarish, diversifikatsiya, investitsion jozibadorlik, qimmatli qog'ozlar bozori, investitsion salohiyat, uzoq muddatli moliyalashtirish

**Аннотация.** В данной статье анализируются пути повышения эффективности финансирования инвестиционных проектов коммерческими банками, а также институциональные, экономические и финансовые факторы, влияющие на данный процесс. Освещены теоретические основы формирования инвестиционной деятельности коммерческих банков в условиях рыночной экономики, механизмы оценки и финансирования инвестиционных проектов. В статье представлены научно-практические подходы к повышению эффективности финансирования инвестиционных проектов в банковской системе Узбекистана, управлению рисками, диверсификации инвестиционного портфеля и обеспечению долгосрочной финансовой стабильности банков.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, инвестиционные проекты, механизмы финансирования, инвестиционная деятельность банка, инвестиционная среда, управление рисками, диверсификация, инвестиционная привлекательность, рынок ценных бумаг, инвестиционный потенциал, долгосрочное финансирование.

**Abstract.** This article discusses ways to ensure the investment attractiveness of commercial banks and their dependence on a number of factors, such as the formation of investment activities that make up it in a socially oriented market based on the principles of improving the activities of banks in the financial market. It also outlines the theoretical and scientific aspects of increasing the profitability of commercial banks' assets in Uzbekistan, reducing reserve deductions for loan losses and overcoming emerging problems related to the need to ensure the investment attractiveness of commercial banks.

**Keywords:** *banking, investment environment, investment attractiveness, commercial banks, investments, securities, diversification, investment project, investment potential*

## **1. Kirish.**

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, bank resurslaridan samarali foydalanish va investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jahon tajribasida banklarning investitsion faoliyatini tashkil etish, investitsiya loyihalarini baholash, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda moliyalashtirish strategiyalarini ishlab chiqish borasida katta amaliy natijalar to'plangan. Ushbu tajribani o'rganish va milliy bank tizimida qo'llash O'zbekiston tijorat banklari uchun muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda tijorat banklari tuzilmasining modernizatsiya qilinishi, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va monitoring qiluvchi maxsus departamentlarning tashkil etilishi, investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashtirish jarayonlari bilan shug'ullanuvchi bo'linmalar faoliyatining takomillashtirilishi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha bank kredit va investitsiya siyosatini optimallashtirish, uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish orqali banklarning investitsion salohiyatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini 2020–2025-yillarda isloh qilish strategiyasida davlat ulushiga ega tijorat banklarini transformatsiya qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu jarayon tijorat banklari moliyaviy barqarorligi, ularning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish va banklarning investitsion jozibadorligini oshirish zaruriyatini yuzaga keltirdi (ПФ, 2020)

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligi ularning moliyaviy holati, tavakkalchiliklarni boshqarish qobiliyati, innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlari, raqobatbardosh bozor strategiyalari hamda jamoatchilik ishonchi darajasi kabi omillarga bevosita bog'liq. Bunday omillarga kompleks yondashuv banklarga investitsiya loyihalarini yuqori sifat bilan moliyalashtirish, investorlar uchun qulay sharoit yaratish, moliya bozorida o'z mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Investitsiya tushunchasining mazmunini ochib beruvchi ilmiy yondashuvlar, investitsion qarorlar qabul qilishning nazariy asoslari va banklar tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanish bosqichlarini o'rganishga qaratilgan. U.F.Sharpning (2000) investitsiyalarni kelajak qiymatiga ega bo'lish maqsadida hozirgi resurslardan voz kechish jarayoni sifatida izohlashi, K.Eklundning (1991) investitsiyani kelajak iste'mol imkoniyatini kengaytirishga yo'naltirilgan resurs sifatida talqin qilishi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mohiyatini yanada kengroq anglash imkonini beradi. Xuddi shuningdek, R.Kempbell (1992), Ye.V.Mixaylova (1991) kabi iqtisodchi olimlarning investitsiyalar mazmunini ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish, kapitallikni oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy samara olish bilan bog'liq jarayon sifatida izohlashi investitsion qarorlar va loyihalarni moliyalashtirishning nazariy poydevorini mustahkamlaydi.

Tijorat banklari investitsion faoliyati tarixiy evolyutsiyasi bo'yicha V.Baghot (2003), C.P.Kindleberger (2008) kabi olimlarning izlanishlari banklarning moliyaviy vositachi sifatidagi rolini, investitsion operatsiyalarni bosqichma-bosqich murakkablashib borishini ilmiy asoslaydi. Risklarni boshqarish, diversifikatsiya, investitsion portfel samaradorligini

ta'minlash kabi masalalar banklar tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish strategiyalarining muhim tarkibiy qismidir.

Alohida e'tibor banklarning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi me'yoriy-huquqiy baza samaradorligiga qaratilgan bo'lib, G.E.Igolnikov (1995) tomonidan tartibga solish mexanizmlarining banklarning kapital yetarliligi va tavakkalchilik xatti-harakatlariga ta'siri chuqur tahlil qilingan. E.Trigub (2020) esa investitsion jozibadorlik bankning real investorlar uchun jalb etuvchanlik darajasini belgilashini, bu esa moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalarining sifatiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston bank tizimi uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan yondashuvlardan biri sifatida A.Omonov (2018) tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlash, xususan, ikkinchi darajali kapitalni oshirish orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishni taklif etadi. Bu jihat tijorat banklari aktiv operatsiyalarini kengaytirish va investitsiya loyihalariga ko'proq resurs yo'naltirish imkonini yaratadi.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajriba va statistik ma'lumotlarga asoslangan holda tizimli tahlil, umumlashtirish, qiyosiy yondashuv, abstrakt-mantiqiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ularning barqaror rivojlanishi va zamonaviy bozor sharoitida samarali faoliyat yuritishining asosiy omillaridan biridir. Investitsiya loyihalarining moliyalashtirilishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsion muhitga, uni belgilab beruvchi iqtisodiy, institutsional va moliyaviy omillar majmuasining barqarorligiga bog'liq. Shu sababli investitsion muhitni baholash jarayoni tijorat banklarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish, ularning resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

Investitsion muhitning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashning asosiy vazifasi tijorat banklari tomonidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining natijadorligini aniqlash va investitsiya qarorlarining pirovard samaradorligini oshirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, investitsiyalar samaradorligini o'rganishda keng qo'llaniladigan usullar sof joriy qiymat (NPV), ichki rentabellik normasi (IRR), investitsiya qaytish muddati (PBP), rentabellik indeksi (PI) kabi zamonaviy yondashuvlardan foydalanish zarur hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi investitsiya loyihalarining iqtisodiy maqsadga muvofiqligini kompleks baholash, ularning tavakkalchilik darajasini aniqlash hamda moliyalashtirishning eng qulay mexanizmlarini tanlash imkonini beradi.

Tijorat banklari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faqat alohida ko'rsatkichlarga tayanib qaror qabul qilishi yetarli emas. Shu sababli investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda bir nechta uslub va ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish, hududlar kesimida investitsion jozibadorlik mezonlarini aniqlashtirish, har bir loyiha uchun iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarni kompleks tahlil qilish zarur. Bu yondashuv «maqbul investitsiya muhiti»ni shakllantirish, banklarning investitsion faoliyatini ratsional tashkil etish va moliyalashtirish strategiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini ta'minlash nafaqat banklarning o'z iqtisodiy barqarorligi, balki mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Investitsion loyihalarning muvaffaqiyatli moliyalashtirilishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlaydi, ishlab chiqarishning modernizatsiyasi va texnologik yangilanishini jadallashtiradi, yangi ish o'rinlari yaratishni rag'batlantiradi va moliya tizimiga bo'lgan ishonchni oshiradi. Natijada, tijorat banklarining

investitsion faoliyatini kuchaytirish barqaror iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat farovonligining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan banklarning investitsion salohiyati va ularning moliya bozorida jozibadorligiga bog'liq.

Banklarning investitsion jozibadorligini oshirish esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon bir qator fundamental iqtisodiy omillar orqali namoyon bo'ladi.

Birinchi, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlash ichki va tashqi moliyaviy resurslarning jalb etilishini kuchaytiradi. Moliyaviy barqarorlik, shaffof boshqaruv va ishonchli kredit tarixiga ega banklar investorlar uchun yanada ma'qul bo'lib, uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun talab etiladigan resurs bazasini kengaytiradi.

Ikkinchi, investitsion jozibadorligi yuqori bo'lgan banklar aktiv va majburiyatlar tuzilmasini optimal boshqarishga ega bo'ladi, bu esa ularning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy tebranishlar va bozor xatarlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

**1-jadval**

**Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari**

<b>Moliyalashtirish yo'nalishi</b>	<b>Mazmuni (ilmiy-akademik talqin)</b>	<b>Asosiy iqtisodiy natijalar</b>
<b>1. Investitsiya muhitini tahlil qilish</b>	Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan avval makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, bozor kon'yunkturasi, hududiy investitsion salohiyat va institutsional muhitning barqarorligi baholanadi.	Loyihani moliyalashtirishda risklarni kamaytirish, aniq prognozlar asosida qaror qabul qilish imkoniyati yaratiladi.
<b>2. Investitsiya loyihalarini baholash usullarini qo'llash (NPV, IRR, PI, PBP)</b>	Loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun sof joriy qiymat, ichki rentabellik normasi, rentabellik indeksi va investitsiya qaytish muddati kabi usullar qo'llaniladi.	Moliyalashtiriladigan loyihalarning rentabel va xavfsiz bo'lishini ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish.
<b>3. Loyiha risklarini aniqlash va boshqarish</b>	Kredit riski, bozor riski, likvidlik riski, foiz stavkalari riski va institutsional risklar tizimli baholanadi; risklarni diversifikatsiyalash mexanizmlari qo'llaniladi.	Bank investitsiya portfelining barqarorligi ta'minlanadi, yo'qotishlar ehtimoli pasayadi.
<b>4. Moliyalashtirish manbalarini shakllantirish</b>	Uzoq muddatli resurslar - depozitlar, obligatsiyalar, sindikatlashgan kreditlar, xalqaro moliyaviy institutlar resurslari jalb etiladi.	Bankning investitsion imkoniyatlari kengayadi, uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish salohiyati oshadi.
<b>5. Kreditlash mexanizmini takomillashtirish</b>	Loyiha asosida kredit liniyalari, investitsion kreditlar, imtiyozli muddatlar, qaytarish grafigi va foiz siyosati optimallashtiriladi.	Loyiha barqaror moliyaviy oqimga ega bo'ladi; investorlarning kredit yuklamasi kamayadi.
<b>6. Investitsiya loyihalarini monitoring qilish</b>	Loyiha amalga oshirilish jarayoni doimiy nazorat qilinadi: moliyaviy hisobotlar, texnologik bosqichlar, to'lovlar intizomi o'rganiladi.	Kredit qaytarilishining kafolati oshadi, loyiha sifatli yakunlanadi.
<b>7. Investitsiya portfelini diversifikatsiyalash</b>	Bank turli tarmoqlar va risk darajasi farqlanuvchi loyihalarga investitsiya	Risklar kamayadi, bankning uzun muddatli investitsiya jozibadorligi ortadi.

	kiritish orqali portfelni muvozanatlashtiradi.	
<b>8.Uzoq muddatli investitsiya strategiyasini ishlab chiqish</b>	Banklar strategik investitsion siyosatni shakllantiradi: ustuvor tarmoqlar, moliyalashtirish miqyosi, innovatsion loyihalar qo'llab-quvvatlanadi.	Bankning investitsion salohiyati va moliyaviy barqarorligi oshadi.
<b>9.Qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etish</b>	Korporativ obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari, subordinar obligatsiyalar orqali moliyalashtirishni kengaytirish.	Kapital yetarliligi va investitsion resurslar bazasi mustahkamlanadi.
<b>10.Investorlarga qulay shart-sharoit yaratish</b>	Bankning shaffof moliyaviy hisobotlari, raqamli xizmatlari, xizmat ko'rsatish sifati va korrupsiyaga qarshi tizimlarini kuchaytirish.	Investorlar ishonchi ortadi, investitsiya oqimlari ko'payadi.

Uchinchidan, investitsion salohiyati kuchli banklar tomonidan loyihalarni moliyalashtirish hajmi kengayadi, bu esa real sektor korxonalarining investitsion faolligini oshiradi. Natijada modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish kabi iqtisodiy jarayonlar tezlashadi.

To'rtinchidan, investitsion jihatdan jozibador tijorat banklari moliya bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Raqobatning kuchayishi kredit mahsulotlari narxining pasayishiga, xizmatlar sifatining yaxshilanishiga va bank tomonidan loyihalarni moliyalashtirish shartlarining yanada maqbullashuviga zamin yaratadi.

Beshinchidan, banklarning investitsion jozibadorligi ularning innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli bank xizmatlarini kengaytirish imkoniyatlarini oshiradi. Bu jarayon investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda operatsion samaradorlikni kuchaytiradi, monitoring jarayonlarini soddalashtiradi va moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni yaxshilaydi.

Oltinchidan, uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirilgan investitsion yondashuv banklarning korporativ ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi. Natijada ekologik barqaror ishlab chiqarish loyihalarini, hududiy infratuzilma tashabbuslarini va ijtimoiy ahamiyatga ega investitsiya dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Ettinchidan, investitsion jozibadorligi yuqori banklar iqtisodiyotning turli subyektlari uchun ishonchli moliyaviy hamkor sifatida namoyon bo'ladi, bu esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida risklarning kamayishiga, uzoq muddatli hamkorlik aloqalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

**2-jadval**

**Tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jalb qilingan depozitlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ta'siri, mlrd. so'mda**

Yillar	jami	shundan:		
		Talab qilib olinguncha	Jamg'arma	Muddatli
2020-yil	229 088,6	210 902,4	6 979,5	11 206,6
2021-yil	368 122,5	338 413,5	8 257,1	21 451,9
2022-yil	671 362,7	618 213,8	13 433,3	39 715,6
2023-yil	989 268,5	897 927,2	21 982,9	69 358,3
2024-yil	1 306 079,0	1 189 255,1	22 965,2	93 858,7

Tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jalb qilingan depozitlar hajmining 2020-2024-yillar davomida izchil o'sib borishi banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish salohiyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Depozitlar hajmining ortishi banklarning uzoq

muddatli moliyaviy resurslarini kengaytirib, investitsiya loyihalari samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchiidan, jami depozitlar hajmining 2020-yildagi 229,1 trln so'mdan 2024-yilda 1 306,1 trln so'mga yetgani, ya'ni 5,7 barobarga o'sgani investitsiya resurslari bazasining kengayganidan dalolat beradi. Bu holat uzoq muddatli investitsion kreditlar hajmining ko'payishiga, investitsiya loyihalarining moliyaviy ta'minotining barqarorligiga, shuningdek, banklarning kapital yetarliligi va likvidligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, talab qilib olinguncha depozitlarning yuqori ulushi bank likvidligini ta'minlaydi, biroq ularning qisqa muddatli xarakteri sababli uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Masalan, 2020-yilda ushbu depozitlar 210,9 trln so'mni, 2024-yilda esa 1 189,3 trln so'mni tashkil qilgan. Shuning uchun tijorat banklari investitsiya jarayonida barqaror depozitlar ulushini oshirish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Uchinchiidan, jamg'arma depozitlari hajmining 2020–2024-yillarda 6,98 trln so'mdan 22,97 trln so'mga oshishi (3,3 barobar) investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun barqaror manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Jamg'arma depozitlarning barqarorligi banklarga uzoq muddatli kredit liniyalarini shakllantirish va investitsiya loyihalari qaytarilish muddatlari bilan mos keluvchi moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llash imkonini yaratadi.

To'rtinchiidan, muddatli depozitlar hajmining 11,2 trln so'mdan 93,9 trln so'mga (8,4 barobar) keskin o'sishi investitsiya moliyalashtirishning asosiy drayveri hisoblanadi. Muddatli depozitlarning barqarorligi banklarga uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, risklarni boshqarish strategiyasini takomillashtirish, foiz stavkalarini optimallashtirish va investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Depozitlar tarkibidagi ushbu o'zgarishlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga quyidagi yo'llar bilan ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

1. uzoq muddatli investitsiya kreditlarini kengaytiradi;
2. investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini oshiradi;
3. banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi;
4. investitsiya loyihalarining monitoringi va sifat nazoratini kuchaytiradi;
5. loyiha risklarini kamaytiradi.

Umuman olganda, milliy valyutada jalb qilingan depozitlarning barqaror o'sishi tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish salohiyatini sezilarli oshiradi. Ayniqsa muddatli depozitlar investitsion jarayonning eng ishonchli moliyaviy manbai sifatida banklarning strategik investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Depozitlar tarkibining optimallasuvi banklarning investitsion resurs bazasini, uzoq muddatli kreditlash salohiyatini, investitsiya portfelining sifatini va iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan ulushini yanada kuchaytiradi.

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligi ko'p jihatdan ularning investitsiya portfelini shakllantirish, tahlil qilish, monitoring qilish va optimallashtirish jarayonlariga bog'liq. Investitsiya portfelini oqilona boshqarish bankning moliyalashtirish siyosatida strategik ahamiyat kasb etib, u investitsiya loyihalariga yo'naltiriladigan resurslar tarkibini belgilaydi, risklarni minimallashtiradi va kutilayotgan daromadlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Investitsiya portfeli moliyaviy instrument sifatida bankning investitsion faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning samarali boshqarilishi loyihalarni moliyalashtirishda to'g'ri qarorlar qabul qilishga, aktivlar tuzilmasini balanslashtirishga hamda resurslarni maqsadga muvofiq taqsimlashga imkon yaratadi. Portfelni doimiy ravishda tahlil qilish va monitoring qilish investitsiya loyihalarining amalga oshirilish jarayonini nazorat qilish, moliyaviy barqarorlikni saqlash va salbiy xatarlarni o'z vaqtida aniqlashda muhim o'rin tutadi.

To'g'ri shakllantirilgan va optimallashtirilgan investitsiya portfeli tijorat banklariga yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya loyihalarining qaytaruvchanligini oshirish hamda uzoq muddatli moliyalashtirish strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, investitsiya portfelining sifatli boshqaruvi bankning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish faoliyatidan olinadigan daromadning barqarorligi va xavfsizligini kafolatlaydi.

**3-jadval**

**Yuridik shaxslarning tijorat banklaridagi milliy valyutadagi depozitlari qoldig'ining loyihalarni moliyalashtirishga ta'siri tahlili, mlrd. so'm**

Sana	Jami	shu jumladan:		
		Talab qilib olinguncha	Jamg'arma	Muddatli
1	2	3	4	5
01.12.2020 y.	39 732,9	19 507,9	2 144,2	18 080,8
01.12.2021 y.	60 819,8	25 987,9	4 021,9	30 810,1
01.12.2022 y.	83 767,9	28 857,7	10 579,7	44 330,5
01.12.2023 y.	97 891,2	31 678,8	6 326,2	59 886,2
01.12.2024 y.	133 114,6	38 524,7	8 425,0	86 164,9

Yuridik shaxslarning tijorat banklaridagi milliy valyutadagi depozitlar hajmining 2020-2024-yillar davomida izchil o'sib borishi banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish salohiyatining yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Depozitlarning tarkibiy tuzilishi, ularning barqarorligi va muddatlarga ko'ra tasnifi tijorat banklarining moliyaviy resurslar bazasini shakllantirish, investitsion qarorlarni qabul qilish va loyihalarni moliyalashtirish strategiyasini belgilashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Jadval ma'lumotlari yuridik shaxslarning jami depozitlari 2020-yildagi 39 732,9 mlrd. so'mdan 2024-yil 1-dekabrda 133 114,6 mlrd. so'mga yetganini ko'rsatadi. Bu 3,3 barobarlik o'sish banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy subyektlarning investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Jami depozitlar hajmining o'sishi tijorat banklarining resurs bazasi mustahkamlanishi, investitsiya kreditlari hajmining ortishi va investitsion loyihalar uchun zarur moliyaviy ta'minotning barqarorlashuviga zamin yaratadi.

Talab qilib olinguncha depozitlar hajmi 2020-yildagi 19 507,9 mlrd. so'mdan 2024-yilda 38 524,7 mlrd. so'mga oshgan bo'lib, ular banklarning joriy likvidligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu depozitlar qisqa muddatli xarakterga ega bo'lgani sababli uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun yetarli barqarorlikni ta'minlamaydi. Shu nuqtayi nazardan, banklar investitsiya jarayonini kengaytirishda talab qilib olinguncha depozitlar ulushiga emas, balki barqaror depozit turlariga tayanishi lozim.

Jamg'arma depozitlarining o'sish dinamikasi ham investitsiya moliyalashtirish salohiyatining oshib borayotganini ko'rsatadi. 2020-yilda 2 144,2 mlrd. so'mni tashkil etgan jamg'arma depozitlari 2024-yilda 8 425,0 mlrd. so'mga yetib, 3,9 barobarga o'sgan. Jamg'arma depozitlari banklarga o'rta muddatli kredit liniyalarini shakllantirish, investitsiya loyihalarining muddatlari bilan resurslar muvofiqligini ta'minlash va investitsion risklarni kamaytirish imkonini beradi.

Muddatli depozitlar esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy drayveri sifatida ajralib turadi. Ushbu depozitlar hajmi 2020-yildagi 18 080,8 mlrd. so'mdan 2024-yilda 86 164,9 mlrd. so'mga oshgan bo'lib, 4,7 barobarlik o'sishni tashkil etadi. Muddatli depozitlar banklarga uzoq muddatli investitsion kreditlar berish, investitsiya portfeli sifatini yaxshilash, risklarni boshqarish strategiyalarini takomillashtirish va loyihalarning qaytarilish muddatlarini moliyaviy jihatdan to'liq ta'minlash imkonini beradi. Shu jihatdan, muddatli depozitlar barqaror investitsiya resurslari manbai sifatida banklarning investitsion faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Depozitlar tarkibidagi o'zgarishlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayoniga ham keng qamrovli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, depozitlar tarkibining diversifikatsiyasi banklarning uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini oshiradi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi hamda investitsiya loyihalarining monitoringi va nazoratini kuchaytiradi. Shuningdek, resurslar bazasining kengayishi banklarga investitsion risklarni kamaytirish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

## 5. Xulosa.

Yuridik shaxslarning tijorat banklaridagi depozitlar tarkibining barqaror o'sishi banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish salohiyatini sezilarli darajada kuchaytiradi. Ayniqsa, muddatli va jamg'arma depozitlarining jadal o'sishi banklarning investitsion resurs bazasini boyitib, ularning uzoq muddatli investitsiya strategiyalarini samarali amalga oshirishiga ko'maklashadi. Depozitlar tarkibining optimallasuvi banklarga investitsiya portfelini samarali boshqarish, iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, zamonaviy sharoitda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun banklarning investitsion jozibadorligini oshirish va mustahkamlash orqali investitsiya salohiyatini jalb qilish muhimdir. Bank muassasalari ko'magida butun milliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Tijorat bankining investitsiya salohiyatidan foydalanish xatarlarni diversifikatsiya qilish va bank faoliyati samaradorligini va unga bo'lgan ishonchni oshirishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida ichki va tashqi manbalar hisobiga iqtisodiyotni moliyalashtirish darajasini yaxshilash va iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shish uchun sharoit yaratadi.

Bankning ishonchliligi va investitsion jozibadorligiga strategik omillar, xususan bankning umumiy strategiyasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki strategiyani ishlab chiqishning maqsadi nafaqat bank ishini yanada samaraliroq qilish, balki bank mablag'larini investitsiyalashning eng istiqbolli yo'nalishlarini ham ta'minlashdir (ya'ni investitsiya dasturini ishlab chiqish).

## Adabiyotlar:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 май куни қабул қилинган “2020–2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПФ-5992-сонли Фармони.

A.A.Omonov, T.M.Qoraliev. Pul va banklar: Darslik- T.:“Iqtisod-Moliya”, 2018. - 384 b.

Baghot V. (2003). Lombard ko'chasi: Pul bozorining tavsifi. Genri S. King & Co.

Kindleberger C.P. (2008). Manias, vahima va halokatlar: moliyaviy inqirozlar tarixi. Asosiy kitob

Игольников ГЕ., Патрушева Е.С. Что понимать под конкурентоспособностью, инвестиционной конкурентоспособностью, инвестиционной привлекательностью и экономичностью производства // Российский экономический журнал: - М., 1995. - № 11.

Клас Эклунд «Эффективная экономика», шведская модель. -М.: Экономика, 1991. - 96 с.

Кэмпбелл Р. Макконелл, Станли Л. БРЮ. Экономикс, принципы, проблемы и политика. 2-том.-М: Изд-во «Республика», 1992. -388 с.

Михайлова Е.В Финансовые рынки и их формирование в СССР. -СП.б: Изд-во СПУ ЭиФ, 1991. -17 с.

Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Пабlishер, 2017. – С. 447-448.

Тригуб Е.Ю. Фундаментальный анализ как метод оценки инвестиционной привлекательности коммерческих банков//Journal of Economy and Business, vol. 4-3 (62), 2020. – Р. 109.

Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. пер. с англ. -М.: ИНФРА, 2000. -16 с.

ШарпУ.Ф.Маркетинговый потенциал как фактор социально-экономического развития территории. Специальность 08.00.05 -экономика и управление народным хозяйством: маркетинг. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. -Москва 2013.



## QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA SALBIY FARQ SUMMASINI QOPLASH JARAYONIDA SOLIQ NAZORATI MEKANIZMLARINING O'RNI

**G'afforov K.**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qo'shilgan qiymat solig'ini bo'yicha salbiy farq summasini qoplashni ta'minlashda soliq nazorati mexanizmlari o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. 2020-2024-yillar davrida soliq organlari tomonidan o'tkazilgan soliq nazorati natijasida qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasini qaytarish hajmi dinamikasi tahlil qilinib, salbiy farq summasini qoplashda soliq nazoratini soddalashtirish va tahlil qilish masalalari o'rganilgan. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida soliq ma'murchilida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini avtomat tarzda shakllanishi va soliq ma'lumotlarini to'g'ri tahlil qilishga asoslangan yondashuvlar asoslangan. Shuningdek, soliq tekshiruvlarini soddalashtirish, salbiy farq summasini hisobga olishda raqamli texnologiyalar orqali oshkoralik va adolatlikni baholashga oid takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq organi, soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, qo'shilgan qiymat solig'i, soliq ma'murchiligi, iqtisodiy tahlil, raqamli texnologiyalar.

**Аннотация.** В данной статье анализируются роль и значение механизмов налогового контроля в обеспечении возмещения суммы отрицательной разницы по налогу на добавленную стоимость. Проанализирована динамика объемов возвратов суммы отрицательной разницы налога на добавленную стоимость по результатам налогового контроля, проведенного налоговыми органами в период 2020-2024 годов, а также изучены вопросы упрощения и анализа налогового контроля при возмещении суммы отрицательной разницы. В статье на основе научных взглядов зарубежных и отечественных ученых представлены подходы, основанные на автоматическом формировании поступлений налога на добавленную стоимость и корректном анализе налоговых данных за счет внедрения цифровых технологий в налоговое администрирование. Также разработаны предложения по упрощению налоговых проверок, оценке прозрачности и справедливости за счет цифровых технологий при учете суммы отрицательной разницы. Результаты исследования показывают, что обеспечение справедливости в налоговой политике и совершенствование налоговой политики приобрели важное значение.

**Ключевые слова:** налоговый орган, налоговый контроль, налоговые проверки, налог на добавленную стоимость, налоговое администрирование, цифровые технологии.

**Abstract.** This article analyzes the role and importance of tax control mechanisms in ensuring the compensation of the negative difference amount on value added tax. The dynamics of the volume of refunds of the negative difference amount of value added tax as a result of tax controls conducted by tax authorities in the period 2020-2024 are analyzed, and the issues of simplifying and analyzing tax control in the compensation of the negative difference amount are studied. The article, based on the scientific views of foreign and domestic scientists, presents

*approaches based on the automatic formation of value added tax revenues and the correct analysis of tax data through the introduction of digital technologies in the tax administration. Also, proposals have been developed to simplify tax audits, assess transparency and fairness through digital technologies in accounting for the negative difference amount. The results of the study show that ensuring fairness in tax policy and improving tax policy have become important.*

**Keywords:** *tax authority, tax control, tax audits, value added tax, tax administration, digital technologies.*

### **1. Kirish.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjetini tushumlarini katta qismnini tashkil etuvchi soliqlardan biri – qo‘shilgan qiymat solig‘idir. Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) iste‘mol jarayoniga yo‘naltirilgan bilvosita soliq bo‘lib, u tovar va xizmatlarning har bir bosqichda yaratilgan qo‘shimcha qiymat qismiga nisbatan undiriladi. Uning asosiy maqsadi budjet barqarorligini ta‘minlash, iqtisodiyotni tartibga solish hamda norasmiy iqtisodiy faoliyatni nazorat qilish va qisqartirishga xizmat qilishdir.

Hozirgi amaliyotda QQS bo‘yicha soliq majburiyatlarini hisoblashda ayrim muammolar, xususan QQS salbiy farqining vujudga kelishi ko‘p kuzatilmoqda. QQS salbiy farqi - oliq hisoboti tuzish jarayonida soliq majburiyatlari va soliq chegirmalari o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi, xarid qilingan tovar va xizmatlar bo‘yicha hisobga olingan QQS summasining realizatsiya bo‘yicha hisoblanadigan soliqdan yuqori bo‘lishi hamda hujjatlashtirish va hisob yuritishdagi ayrim xatoliklar natijasida yuzaga keladi. Bunday vaziyatlar, ayniqsa yirik sanoat korxonalari, qurilish sohasi subyektlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, shuningdek eksport – import operatsiyalarini bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda keng tarqalgan.

Maqolada QQS salbiy farqining vujudga kelish omillari, uni qoplash mexanizmlari hamda ushbu jarayonlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, likvidlik ko‘rsatkichlari va umumiy soliq yukiga ko‘rsatadigan ta‘siri har tomonlama tahlil etiladi. Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **2. Adabiyotlar sharhi.**

Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bo‘yicha ilmiy-adabiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu soliq turi bozor iqtisodiyoti sharoitida eng samarali va keng tarqalgan bilvosita soliqlardan biri hisoblanadi. Dastlabki nazariy asoslar A. Laffer (1983) kabi iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning tadqiqotlarida QQSning fiskal barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni, iste‘molga asoslanganligi va soliq neytralligi tamoyillarini alohida ta‘kidlaganlar.

Alan Tait (IMF, 1988) “Value Added Tax: International Practice and Problems” asarida, QQS qaytarishlari ko‘plab davlatlarda firibgarlik manbai bo‘lganini tahlil qiladi. Qaytarish bo‘yicha nazorat mexanizmlarida supply chain (ta‘minot zanjiri) tekshiruvlari, elektron hisob-faktura va avtomatik kross-tekshiruv eng samarali usullar ekanini aytadi.

Zikirov Zafarjon (2025) “Qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy farq summasini qoplashning muammoli jihatlari” nomli maqolasida, Vazirlar Mahkamasining 489-sonli qarori asosida salbiy farq summasini qaytarish yoki kompensatsiya qilish mexanizmlarining byudjet va soliq to‘lovchilar uchun muammolari tahlil qilingan. U, xususan, salbiy farq summalarini qaytarishning kechikishi yoki katta hajmi davlat byudjetining barqarorligi uchun xavf tug‘dirishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, soliq ma‘muriyatchiligi murakkablashishi, kameral tekshiruvlar zaruriyati va moliyaviy oqimlar bilan bog‘liq xatarlar borligi qayd etilgan.

S.Yakubov (2024) Qo‘shilgan qiymat solig‘ining O‘zbekistonda joriy etilishi. Amaldagi soliq stavkalari, qo‘shilgan qiymat solig‘ining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhimligi, davlat budjeti tushumlaridagi o‘rni yoritib o‘tilgan. Mamlakatimizda QQS soliq to‘lovchilarini aniqlash

va ularni ro'yxatdan o'tishi, hamda hisobotlar taqdim etilishi muddatlari haqida so'z borgan. Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda soliqqa oid qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritish orqali QQS ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

I.Ergashev (2025) Maqolada O'zbekistonda QQS (qo'shilgan qiymat solig'i)ning amaldagi holatini o'rganish, iqtisodiyotni ta'minlash va barqarorlashtirish uchun xorij tajribasini o'rganish, tizimni isloh qilish bo'yicha tavsiyalar berish. QQS solish tizimi, QQSning afzallik va kamchilik, tizimni isloh qilish uchun ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish. Mavjud tadqiqotlarni o'rganish va ular yordamida QQS solig'i ma'murchiligini rivojlantirish orqali davlat byudjetiga tushumni oshirish va QQSning yukini tushirish orqali biznesini yaxshilash, ichik hamda o'rta biznesni rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

B.Omonov (2024) tadqiqot ishida korporativ foyda solig'i stavkalarining pasaytirilishi, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ni soddalashtirish, jismoniy shaxs daromad solig'i bo'yicha progressiv stavkalarining joriy etilishi, soliq ma'muriyatchiligining raqamlashtirilishi kabi asosiy islohotlar iqtisodiy subyektlar faoliyatiga qanday ta'sir qilgani statistik ma'lumotlar va dinamik ko'rsatkichlar orqali yoritiladi. Soliq bazasining kengayishi, byudjet daromadlarining barqaror o'sishi, yangi tadbirkorlik subyektlarining ko'payishi bu islohotlarning amaliy samarasini ko'rsatadi.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari va salbiy farq summasining yuzaga kelish sabablari va ularning korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta'siri o'rganildi.

2021-2024-yillarda yuridik shaxslardan QQS salbiy farq qoplanishi bo'yicha murojatlar tahlil qilindi

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi. Deskriptiv tahlil asosida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha normativ hujjatlar va nazariy asoslar o'rganildi. Statistik tahlil asosida Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida salbiy farq dinamikasi tahlil qilindi. Empirik tahlil asosida real korxonalar misolida qo'shilgan qiymat solig'i salbiy farqining likvidlik, aylanma mablag'lar va soliq yukiga ta'siri baholandi.

Xalqaro taqqoslash asosida Germaniya, Janubiy korea va Turkiya tajribalari o'rganilib, O'zbekiston bilan solishtirildi.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Qo'shilgan qiymat solig'i hozirgi soliq tizimida samarali va budjet tushumlarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati - iste'molchi tomonidan tovar va xizmatlar qiymatiga qo'shilayotgan har bir bosqichida qoplanishidir. QQSning bu xususiyati unga soliq neytralligi va daromadlar nisbatan barqarorligi kabi afzalliklarni beradi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farq - bu soliq to'lovchining kirim bo'yicha hisobga olingan QQS summasi uning realizatsiya (chiqim) bo'yicha hisoblanadigan QQSdan oshib ketganida vujudga keladigan manfiy soliq balansi bo'lib, iqtisodiy mazmunda ushbu ortiqcha miqdor soliq to'lovchining qaytariladigan soliq qarzi holatini anglatadi. Bunday salbiy farq asosan quyidagi holatlarda yuzaga keladi:

Eksport operatsiyalari;

Ishlab chiqarish va sotuv o'rtasidagi tafovut;


Qishloq xo'jaligi faoliyatida asosiy vositalar xaridi, urug', o'g'it, yoqilg'i, texnika ta'miri, sug'orish va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari mavsum boshida ko'p bo'lishi, ammo hosil hali sotilmaganligi;

Import operatsiyalarini amalga oshirgan tadbirkorlik faoliyatida mahsulotlarni naqd pulda sotilishi

O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 1-yanvardan boshlab QQS bo'yicha yangi tartib - 12% stavkada umumiy hisob-kitobga o'tish, elektron hisob-fakturalar, elektron deklaratsiya va

avtomatlashtirilgan QQS qaytarish tizimi bosqichma-bosqich joriy etildi. Bu islohotlar QQS salbiy farqining yuzaga kelishi va uni qoplash tartibiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

QQS salbiy farq qoplanishi bo'yicha murojatlar tahlili dinamikasida har yili QQS salbiy farqi bo'yicha murojaatlar soni o'sib bormoqda, ammo qaytarilayotgan summa nisbatan past va korxonalar likvidligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holatlar bo'yicha aniq bir xulosaga yoki to'xtamga kelish, korxonalar faoliyatini qo'llab quvvatash iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.



**1-rasm. QQS salbiy farq qoplanishi bo'yicha murojatlar tahlili dinamikasi**

2024-yil yakunlari bo'yicha salbiy farqdan qaytarilishi so'ralgan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) miqdorlari iqtisodiyot tarmoqlarining soliq yuklamasi, aylanma mablag'lar holati hamda ishlab chiqarish-savdo zanjirlaridagi qo'shilgan qiymat strukturasi bo'yicha muhim diagnostik axborot beradi. Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy qaytarish so'rovlari tarkibida ishlab chiqarish sanoati 67 foizlik ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Bu esa mazkur tarmoqning yuqori kapital talabchanligi, xom ashyo xarajatlarining katta ulushi, asosiy vositalarni yangilash jarayonlaridagi sarmoya talablari hamda ko'p bosqichli ishlab chiqarish tizimining mavjudligi bilan izohlanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi 10,6 foizlik ulush bilan ikkinchi o'rinni egallab, iqtisodiyotning ushbu segmentida raqamli servislar, professional xizmatlar, logistika va konsalting xizmatlari uchun xarajatlar qoplanishi jarayonida salbiy farq shakllanishi tendensiyasini ko'rsatadi. Xizmatlar sektorining QQS tuzilmasida moddiy resurslar ulushi nisbatan past bo'lsa-da, jalb etiladigan tashqi xizmatlar, texnologik infratuzilma xarajatlari salbiy farq ko'rinishiga ta'sir qiladi.

Savdo sohasi (8,3%) va qishloq xo'jaligi tarmog'i (4,7%) o'rtacha ulushga ega bo'lib, bu tarmoqlarda QQSning qaytarilishiga sabab bo'lgan asosiy omillar — tovar aylanmasining notekisligi, mavsumiylik, xarid zanjiridagi narx farqlari hamda bojxona to'lovlari bilan bog'liq o'zgaruvchanlikdir. Xususan, qishloq xo'jaligida xarajatlarning mavsumiy xarakterga ega ekani, subsidiyalash tizimi hamda soliq imtiyozlarining turlicha qo'llanilishi salbiy farq darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish sohasining 3,8 foizlik ulushi esa qurilish materiallari narxlarining tez-tez o'zgarishi, kapital xarajatlar yuqoriligi va uzoq muddatli loyihalarda moliyaviy oqimlarning notekisligi bilan bog'liq. Transport xizmatlari (2,4%) bo'yicha esa qaytarilishi so'ralgan QQS miqdori nisbatan past bo'lib, buning sababi transport xizmatlarida qo'shilgan qiymat hajmi yuqori, xarajatlar esa nisbatan barqaror bo'lishidir. Boshqa tarmoqlar umumiy qaytarish so'rovlari miqdorining atigi 3,2 foizini tashkil etgani sektorlararo QQS tushumlaridagi nomutanosiblikni ko'rsatadi. Ushbu nomutanosiblik iqtisodiyot tarmoqlarining mahsulot

yaratish xarajatlari, amortizatsiya darajasi, import hajmi va soliq imtiyozlarining differensial qo'llanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'lumotlar iqtisodiyotning real sektorida, ayniqsa ishlab chiqarish sanoatida salbiy farqning yuqori darajada shakllanishi iqtisodiyotning kapital talabchanligini, yuqori importga tayanishini va qo'shilgan qiymat yaratish jarayonlarining murakkabligini aks ettiradi. Xizmatlar sohasida esa salbiy farqning oshishi raqamli iqtisodiyotning kengayishi, tashqi xizmatlar ulushi ortishi hamda qiymat zanjirlarining diversifikatsiyasidan dalolat beradi.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasining qoplanishi mexanizmi har bir mamlakatda soliq siyosati, fiskal intizom darajasi hamda iqtisodiyotning raqamlashtirilganlik holatiga qarab turlicha shakllangan. Xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, QQS qoplanish tizimi samaradorligi davlatning soliq ma'murchiligi darajasi, elektron nazorat tizimlarining joriy etilganlik holati va soliq to'lovchilarga nisbatan ishonch siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida QQS qaytarilishi yagona elektron platforma orqali amalga oshiriladi. Bunda soliq to'lovchi har chorakda topshirilgan QQS deklaratsiyasi asosida avtomatik tarzda qoplanish huquqini oladi. Ayrim davlatlarda (masalan, Germaniya va Niderlandiyada) QQS ortiqcha summasining qaytarilishi 30 kun ichida amalga oshiriladi. Bu tizimda soliq organlari oldindan xavf tahlilini o'tkazib, faqat shubhali operatsiyalarni chuqur tekshiradi, bu esa biznes uchun moliyaviy aylanmaning uzluksizligini ta'minlaydi (Zikirov, 2025).

Turkiya tajribasida QQS qaytarilishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, dastlab soliq to'lovchi hujjatlarni elektron tarzda taqdim etadi, so'ngra ularning asoslanganligi maxsus "Risk tahlili moduli" orqali baholanadi. Bu mexanizm noqonuniy QQS qaytarilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Janubiy Koreyada esa QQS qaytarilishi to'liq raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan. Har bir soliq to'lovchining xarid va sotuv operatsiyalari real vaqt rejimida yagona elektron hisob tizimida aks ettiriladi. Natijada salbiy QQS summasi avtomatik tarzda aniqlanadi va davlat byudjetidan kompensatsiya sifatida qaytariladi. Bu tizim inson omilini minimallashtirganligi sababli soliq intizomi yuqori darajada saqlanmoqda.

AQShda QQS o'rnida "sales tax" (sotuv solig'i) amal qiladi, biroq ayrim shtatlarda QQSga o'xshash soliq mexanizmlari mavjud. Bunda soliq qaytarilishi ko'proq eksport operatsiyalarida yoki oraliq tovarlar bo'yicha qo'llanadi.

## 1-jadval

### QQS qaytarish davlatlar kesimida taqqoslama

Davlat	QQS qaytarish o'rtacha muddati	Elektron tizim joriy etilganmi?
O'zbekiston	30 ish kuni	Ha(qisman)
Germaniya	1-2 oy (odatda 30-60 kun)	Ha(to'liq)
Niderlandiya	1 oy (30 kun)	Ha(to'liq)
Janubiy Korea	14 kun	Ha(to'liq)
AQSH	Qaytarilmaydi	Yo'q

Ko'rinadiki, O'zbekiston tajribasi ayrim davlatlarga nisbatan ijobiy yo'nalishda takomillashmoqda, ammo avtomatik tizimning qo'llanilishi va ishonchli toifaga kiruvchi korxonalar sonini oshirish zarur. QQS salbiy farq summasining samarali qoplanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi, raqamlashtirilgan soliq ma'murchiligi, ayniqsa e-faktura tizimining to'liq joriy etilishi, risk asosidagi soliq nazorati barcha soliq to'lovchilarni emas, balk xavfli toifalarga kiruvchi sub'yektlarni tekshirish, qaytarish jarayonining shaffofligi va muddatlarga rioya etilishi, soliq to'lovchilar bilan o'zaro ishonch tizimining shakllanishi. Mazkur jihatlar O'zbekistonda ham QQS salbiy farq so'mmasining qoplanishi tizimini takomillashtirishda muhim yo'nalish sifatida e'tiborga olinishi lozim. Xususan, soliq deklaratsiyalari bo'yicha avtomatik tekshirish modullarini kengaytirish, elektron hujjatlar

aylanishini soddalashtirish va QQS qoplanishining muddatlarini aniq belgilash xorijiy amaliyotda o'zini oqlagan samarali yondashuvlardandir.

### **5. Xulosa.**

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha olib borilayotgan soliq islohotlariga qaramasdan, QQSda salbiy farq so'mmasini qoplashda raqamlashtirish soliq tizimi mukammal holatda emas. Amaldagi xorijiy tajribalarni tahlili asosida QQSda salbiy farq so'mmasini qaytarishda oldindan xavf o'tkazib, risk tahlili modulini ishlab chiqarish lozim. Ushbu soliq tizim orqali noqonuniy QQS qaytarilishini oldini oladi, har bir soliq to'lovchining xarid va sotuv operatsiyalari real vaqt rejimida yagona elektron hisob tizimida aks ettiriladi. Natijada salbiy QQS summasi avtomatik tarzda aniqlanadi va davlat budjetidan kompensatsiya sifatida qaytariladi.

Xalqaro tajriba tahlili O'zbekistonda QQS salbiy farqi bo'yicha muammolarni hal etishda qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, ishonchli soliq to'lovchilarni alohida tartibda ajratish, qaytarish muddatlarini yanada qisqartirish, ilg'or IT-yechimlar asosida to'liq avtomatik nazoratni joriy etish kabi chora-tadbirlar ayni paytda dolzarbdir.

### **Adabiyotlar:**

Alan Tait (IMF) (1988) "Value Added Tax: International Practice and Problems"  
<https://doi.org/10.5089/9781557750129.071>

V. A. Canto, D. H. Joiness, A. B. Laffer (1983), Foundations of Supply-Side Economics: Theory and Evidence, New York.

Yakubov, S. A. (2024). O'zbekistonning soliq tizimidagi qo'shilgan qiymat solig'ining ahamiyati. *Наука и инновация*, 2(34), 11-14.

Zikirov Zafarjon Izzatillo o'g'li, Qo'shilgan qiymat solig'i qoplanishining xorij tajribasi, qo'qon universiteti xabarnomasi, <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1249>, 57-58. 2025 Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, O'zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlarining ijrosi bo'yicha dastlabki natijalari. <https://www.imv.uz/>

Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasini qoplashning muammoli jihatlari: Vazirlar Mahkamasining 489-sonli qarori asosida. (2024). *Ta'limning Zamonaviy Transformatsiyasi*, 5(2), 3-6. \

[www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)



## MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA REAL SEKTOR TARMOQLARI TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH

*Dotsent Shukurov U.Sh.*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotida real sektor tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishlari va ularning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2023–2024 yillar statistik ma'lumotlari asosida qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish va xizmatlar tarmoqlari ulushi tahlil qilindi. Jadval orqali real sektor tarmoqlari tarkibining hududlar iqtisodiyoti barqarorligi va YAHM o'sish sur'atiga ta'siri ko'rsatildi. Maqola shuningdek, mintaqalar iqtisodiyotida real sektor tarmoqlari tarkibini takomillashtirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha takliflar taqdim qiladi.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, real sektor, tarmoqlar tarkibi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, O'zbekiston mintaqalari.

**Аннотация.** В статье анализируются структурные изменения отраслей реального сектора в региональной экономике Узбекистана и их влияние на устойчивый экономический рост. В исследовании рассматривается доля сельского хозяйства, промышленности, строительства и сферы услуг на основе статистических данных за 2023–2024 годы. Через таблицы демонстрируется влияние структуры реального сектора на стабильность региональной экономики и темпы роста ВВП. В статье также представлены рекомендации по разработке и внедрению организационно-экономического механизма для совершенствования структуры отраслей реального сектора в региональной экономике.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, реальный сектор, структура отраслей, организационно-экономический механизм, регионы Узбекистана.

**Abstract.** The article analyzes the structural changes of real sector industries in the regional economies of Uzbekistan and their impact on sustainable economic growth. The study examines the shares of agriculture, industry, construction, and services sectors based on statistical data for 2023–2024. Through tables, the influence of the real sector composition on regional economic stability and GDP growth rate is demonstrated. The article also provides recommendations for developing and implementing an organizational and economic mechanism to improve the composition of real sector industries in regional economies.

**Keywords:** sustainable development, real sector, industry composition, organizational and economic mechanism, regions of Uzbekistan.

### 1. Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida mintaqalarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa,

hududiy iqtisodiy tizimlarda real sektor tarmoqlarining samarali shakllanishi va ular tarkibini takomillashtirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida hududlar iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, "O'zbekiston – 2030" (2023) strategiyasida belgilab berilgan ustuvor maqsadlar mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda real sektor tarmoqlari tarkibini takomillashtirish uchun mustahkam institutsional va iqtisodiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur strategiyada iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sanoatlashtirishni chuqurlashtirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash hamda har bir hududning mavjud resurs va imkoniyatlaridan samarali foydalanish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shu bois, mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda real sektor tarmoqlari tarkibini takomillashtirish, ya'ni ishlab chiqarish tarmoqlarini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish, innovatsion va eksportbop yo'nalishlarni rivojlantirish hamda mahalliy resurslar asosida qo'shimcha qiymat yaratish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

## **2. Adabiyotlar sharhi.**

Mintaqaviy rivojlanishda real sektor tarmoqlarining o'rnini va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, L.Ductor, O.López (2015) kabi olimlar tomonidan moliyaviy rivojlanish, real sektor faoliyati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Mualliflar moliya bozorlarining rivojlanishi investitsiyalarni rag'batlantirishi orqali real sektor samaradorligini oshirishini va shu asosda iqtisodiy o'sishni tezlashtirishini empirik jihatdan isbotlaydi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda moliyaviy tizim sifati muhim omil ekanligini ko'rsatadi. S.Pyo (2025) tadqiqotlarida mintaqaviy innovatsiya omillari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirlarni empirik usullar asosida o'rganadi. Muallif innovatsiya infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va inson kapitali mintaqalar iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Natijalar innovatsion siyosatni hududiy darajada shakllantirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirishini ko'rsatadi. K.G.Sorokozherdev (2023) tomonidan mintaqalarning tarmoq tuzilmasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Muallif sanoat, xizmat ko'rsatish va innovatsion tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik hududiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishda muhim ekanligini asoslaydi. Tadqiqot natijalari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish mintaqaviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi ekanligini ko'rsatadi.

T. Zhang va R.Zhang (2024) tomonidan raqamli iqtisodiyot ta'sirida mintaqaviy sanoat tarmoqlarining past-karbon rivojlanishi va uning hududiy (fazoviy) ta'siri tahlil qilingan. Mualliflar raqamli texnologiyalar energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga xizmat qilishini empirik dalillar bilan ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot past-karbon rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

MDH olimlaridan S.Makarova, P.Stroyev, L.Vlasyak (2018) iqtisodiyotning real sektori rivojlanishining asosiy tendensiyalari va uni belgilab beruvchi omillar kompleks tarzda tahlil qilgan. Mualliflar sanoat ishlab chiqarishi, investitsiya faoliyati, innovatsion salohiyat va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining real sektor samaradorligiga ta'sirini yoritadi. Shuningdek, soliq imtiyozlari, moliyaviy rag'batlantirish va institutsional islohotlar real sektorni qo'llab-quvvatlashning dolzarb vositalari sifatida asoslab berilgan.

O.Izryadnova (2020) tomonidan real sektor iqtisodiy o'sishning asosiy tayanchi sifatida qaralib, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Muallif ishlab chiqarish salohiyati, texnologik yangilanish, mehnat unumdorligi va tashqi iqtisodiy sharoitlarni real sektor taraqqiyotining muhim omillari sifatida ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari real sektorda tarkibiy o'zgarishlar va innovatsiyalarni joriy etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan eng so'nggi tadqiqotlarda Q.Mambetjanov va M.Isroilova (2025) milliy iqtisodiyot tarkibida real sektorning o'rni va uning so'nggi yillardagi o'zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Mualliflar sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasidagi tarkibiy siljishlarni iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan baholaydi. Tadqiqot natijalari real sektor ulushining o'sishi iqtisodiy barqarorlik va ish bilan bandlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. J.Dilshodbekov va A. Anafiyayevlar tadqiqoti O'zbekiston real sektor korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan. Mualliflar investitsiyalar hajmi, innovatsion texnologiyalar joriy etilishi, mehnat unumdorligi va boshqaruv sifatining korxonalar faoliyati natijalariga ta'sirini tahlil qiladi. Natijalar real sektorda raqobatbardoshlikni oshirish uchun institutsional va texnologik islohotlar zarurligini ko'rsatadi. G.Erkayeva va Sh.Jahongirovlar milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda real sektor tarmoqlarini o'zgarish tendensiyalari, ularning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda real sektorni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash masalalarini o'rganganlar.

### 3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mintaqalar iqtisodiyotida real sektor tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishlari, ularning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik darajasi kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotda statistik tahlil, taqqoslama usul, iqtisodiy-matematik yondashuvlar va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. Asosiy empirik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar asosida shakllantirildi.

### 4. Tahlil va natijalar.

Real sektor — sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va xizmat ko'rsatish bilan uzviy bog'liq ishlab chiqarish tarmoqlarini qamrab olgan holda, iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida namoyon bo'ladi (Ductor, 2015; Pyo, 2025).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqalar iqtisodiyotida real sektor tarmoqlarining YAHM (yalpi hududiy mahsulot)dagi ulushi yuqori bo'lishiga qaramasdan, ular tarkibida hanuz qishloq xo'jaligi va past qo'shilgan qiymatga ega sanoat tarmoqlari ustunlik qilmoqda. Ayrim hududlarda qayta ishlash sanoati va yuqori texnologik ishlab chiqarish tarmoqlarining ulushi yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatildi. Bu esa mehnat unumdorligi past bo'lishi, eksport salohiyati cheklanganligi hamda hududlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarning saqlanib qolishiga olib kelmoqda (Макарова, 2018; Изряднова, 2018). Shu bilan birga, sanoatni diversifikatsiya qilish va xizmatlar bilan integratsiyalashgan real sektor tarmoqlariga ega mintaqalarda iqtisodiy o'sish sur'atlari barqarorroq ekani aniqlandi (Мамбетжанов, 2025). Xususan, qayta ishlash sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati va logistika bilan bog'liq tarmoqlar rivojlangan hududlarda investitsiya jalb etish darajasi va aholi bandligi yuqoriroq ekani kuzatildi (1-jadval).


#### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi YAHM tarkibi bo'yicha real sektor tarmoqlari (2023–2024 yillar, %).

Real sektor tarmoqlari	2023 yil	2024 yil	O'zgarish, f,p
YAHM	100	100	x
Qishloq xo'jaligi	24,3	19,2	-5,1
Sanoat	26,1	26,4	+0,3
Qurilish	6,2	7,0	+ 0,8
Xizmatlar	43,4	47,2	+3,8

Sanoat kompleksi hudud iqtisodiyotining moddiy asosini shakllantirib, uni takomillashtirish hududning kelajakdagi rivojlanish darajasini belgilab beradi (Дилшодбеков

& Анафияев, 2025). Sanoat kompleksini takomillashtirish qator dastaklar majmui vositasida amalga oshiriladi. Tadqiqotda mazkur dastaklarni shartli ravishda tashkiliy va iqtisodiy kabi guruhlarga ajratib, tahlil qilindi. Bu o'rinda guruhlarni shartli deb atashning sababi shuki, nazdimizda, tashkiliy va iqtisodiy dastaklar (omillar)ni aniqlovchi sifat va miqdor chegaralari (shartlar) mavjud emas. Ya'ni bu ikki guruh o'rtasida muayyan bir elementlar to'plami mavjudki, u ikkala guruh uchun ham tegishli bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, guruhlarni farqlash mezoni sifatida ularning tarkibiga kiruvchi dastaklarning yakuniy natijasi belgilab olindi.



**1-rasm. Hudud sanoat kompleksini takomillashtirish mexanizmining tashkiliy-iqtisodiy dastaklari.**

Taklif etilayotgan mezonga ko'ra, agar dastakni qo'llash natijasida ilmiy va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar, normativ-huquqiy hujjatlar, chora-tadbirlar ishlab chiqilsa, natijalar yakuniy mahsulotga bilvosita ta'sir qilsa, ya'ni qo'shilgan qiymat zanjirida amalga oshirilgan chora-tadbir va yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish o'rtasida birdan ortiq bo'g'inlar

mavjud bo'lsa, ular tashkiliy dastaklar sifatida qabul qilinadi. O'z navbatida, dastakni qo'llashning natijasi yakuniy mahsulotga bevosita ta'sirga ega bo'lsa yoki unda moliyaviy-iqtisodiy xususiyat yaqqol namoyon bo'lsa, u iqtisodiy dastaklar guruhiga kiritiladi.

Hudud sanoat kompleksini takomillashtirish, eng avvalo, davlatning olib borayotgan mintaqaviy va sanoat siyosatiga bevosita bog'liq (Эркаева va boshq., 2023). Bunda davlat normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, raqobatni qo'llab-quvvatlash, xorijiy mamlakatlar bilan shartnoma, memorandum va kelishuvlarga erishish, hududiy va sanoatni rivojlantirish dasturlarini qabul qilish orqali tashkiliy tadbirlarni amalga oshiradi, istiqbolli soha va tarmoqlarga soliq va bojxona to'lovlari, transport xarajatlari bo'yicha imtiyoz va preferensiyalar berish, ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega.

tarmoqlarga subsidiyalar ajratish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsiya dasturlarini moliyalashtirish, xususan, sanoat, erkin savdo va maxsus iqtisodiy zonalarni barpo etish, xorijiy investitsiyalarga davlat kafolatlarini taqdim etish, korxonalarni texnik va texnologik qayta jihozlashga mablag' (kredit) ajratish kabi tadbirlar vositasida hududiy sanoatni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi (1-rasm).

Shuningdek, real sektor tarmoqlari tarkibini takomillashtirishda hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega. Har bir mintaqaning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati va infratuzilma imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sanoat tarmoqlarini joylashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kichik sanoat zonalarini faoliyatini kengaytirish va klaster yondashuvini qo'llash real sektor tarmoqlarining tarkibiy sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

## 5.Xulosa.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotida real sektor tarmoqlari tarkibi hanuz muvozanatli va diversifikatsiya qilinmagan holda namoyon bo'lmoqda. Qayta ishlash sanoati va yuqori qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarish tarmoqlari ba'zi hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari va YAHM tarkibidagi barqarorlikka to'sqinlik qilmoqda. 2023–2024 yillar ma'lumotlari qishloq xo'jaligi ulushi kamayishi va xizmatlar sektori ulushining ortishi real sektor tarmoqlari tarkibidagi transformatsiyani ko'rsatmoqda. Shu bois, mintaqalar iqtisodiyotida real sektor tarmoqlari tarkibini takomillashtirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni qo'llash samarali usul sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, yuqoridagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni amalga oshirish natijasida:

- Mintaqalar iqtisodiyotida real sektor tarmoqlari tarkibi barqarorlashadi;
- Sanoat va xizmatlar sektori o'rtasida muvozanatli rivojlanish ta'minlanadi;
- Hududlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlar kamayadi;
- YAHM o'sish sur'atlari va aholi farovonligi oshiriladi.

Shu bilan birga, mexanizmning samarali ishlashi uchun davlat, xususiy sektor va ilmiy-tadqiqot muassasalari hamkorligini kuchaytirish, tarkibiy tahlil va monitoring tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

## Adabiyotlar:

Ductor L., et al. (2015) Financial Development, Real Sector, and Economic Growth. Journal: Journal of International Financial Economics, Vol. XX, Issue YY, pp.

Pyo, S. (2025). Regional innovation and economic growth: Empirical evidence on dynamic interactions between innovation factors and regional development. Papers in Regional Science, 103(2), Article 100010.

Shukurov U.Sh. (2023) O'zbekiston hududlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faolligining moliya bozoriga ta'siri // "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari,

zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari”– T.: TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolar” ilmiy tadqiqot markazi. 111-1136.

Sorokozherdyev, K.G. (2023) The Influence of the Regional Sectoral Structure on the Socio-economic Development of a Region. Journal: Economy of Regions, Vol. XX, Issue 3, pp. 15–32.

Zhang, T., & Zhang, R. (2024). The spatial effect of low-carbon development of regional industries driven by the digital economy: Evidence from Chinese cities. Humanities and Social Sciences Communications, 11, Article 706.

Г.П Эркаева, Ш Жаҳонгиров. Худуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ва тартибга солишнинг назарий асослари. Innovative Development in Educational Activities, 2023. 2 (2), 115.

Дилшодбеков Ж., Анафияев А.М. (2025) Ўзбекистонда реал сектор корхоналари самарадорлигига таъсир этувчи омиллар. Ustozlar uchun, сон 73(4), 322–326-б.

Изряднова О. Е. (2018) Реальный сектор экономики: основные факторы и тенденции развития. Экономика и бизнес: теория и практика, № 6, с. 45–52.

Макарова С. В., Строев П. В., Власяк Л. И. (2018) Тенденции и факторы развития реального сектора экономики и актуальные инструменты его поддержки. Ж.Экономика. Налоги. Право, 11, № 6, с. 50–56.

Мамбетжанов Қ., Исроилова М. Миллий иқтисодиётда реал сектор салмоғи ва унинг ўзгариш тенденциялари. Green Economy and Development, 2025, жилд 1, сон 1, 1–14-б.



## ШАФФОФ МОЛИЯВИЙ ТИЗИМНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ РОЛИ

**Арипов Ж.А.**

*ТДИУ хузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази*

**Аннотация.** Ушбу мақолада молиявий тизимда шаффофликни таъминлашда рақамлаштиришнинг институционал ва иқтисодий аҳамияти илмий жиҳатдан таҳлил қилинган. Тадқиқотда рақамли технологияларни жорий этиш орқали ҳисобдорликни кучайтириш ва бюджет самарадорлигини ошириш механизмлари ёритиб берилган. Мақолада молиявий тизимни рақамли трансформация қилиш орқали шаффоф молиявий экотизимни шакллантириш бўйича илмий хулосалар ва амалий таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** молиявий шаффофлик; рақамлаштириш; рақамли молия; фискал шаффофлик; электрон бюджет; солиқ маъмуриятчилиги; давлат молияси; институционал ислохотлар; инвестицион муҳит; рақамли трансформация.

**Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ институциональной и экономической значимости цифровизации для обеспечения прозрачности финансовой системы. В исследовании освещаются механизмы повышения подотчетности и эффективности бюджета за счет внедрения цифровых технологий. В статье представлены научные выводы и практические предложения по формированию прозрачной финансовой экосистемы посредством цифровой трансформации финансовой системы.

**Ключевые слова:** финансовая прозрачность; цифровизация; цифровые финансы; фискальная прозрачность; электронный бюджет; налоговое администрирование; государственные финансы; институциональные реформы; инвестиционная среда; цифровая трансформация.

**Abstract.** This article scientifically analyzes the institutional and economic importance of digitization in ensuring transparency in the financial system. The study highlights the mechanisms of increasing accountability and budget efficiency through the introduction of digital technologies. In the article, scientific conclusions and practical proposals were developed on the formation of a transparent financial ecosystem through the digital transformation of the financial system.

**Keywords:** financial transparency; digitization; digital finance; fiscal transparency; electronic budget; tax administration; public finance; institutional reforms; investment climate; digital transformation.

## **1. Кириш.**

Сўнгги ўн йилликда жаҳон иқтисодий тизимида молиявий шаффофлик институционал барқарорлик, инвестицион жозибадорлик ва иқтисодий хавфсизликни таъминловчи асосий омиллардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Айниқса, глобаллашув шароитида капитал ҳаракатининг тезлашуви, трансчегаравий молиявий операциялар ҳажмининг ўсиши ҳамда молиявий бозорларнинг мураккаблашуви давлатлардан молиявий тизимнинг очиқлиги ва ҳисобдорлигини тубдан қайта кўриб чиқишни талаб қилмоқда. Бугунги кунда молиявий шаффофликни таъминлашда рақамли технологиялардан фойдаланиш энг самарали институционал воситалардан бири ҳисобланади (World Bank, 2021).

Рақамлаштириш молиявий маълумотларнинг тўпланиши, қайта ишланиши ва тарқатилишида инсон омилини кескин камайтириб, маълумотларнинг аниқлиги, ўз вақтида эълон қилиниши ва ишончлигини оширишга хизмат қилмоқда. Электрон ҳисобот тизимлари, онлайн бюджет платформалари, рақамли солиқ маъмуриятчилиги, молиявий мониторингнинг автоматлаштирилган моделлари молиявий муносабатларда шаффофликни таъминлашнинг янги институционал асосларини шакллантирмоқда (IMF, 2018). Шу жиҳатдан, рақамлаштириш молиявий тизимни модернизация қилиш билан бир қаторда, жамият ва давлат ўртасидаги ишонч муносабатларини мустаҳкамлашнинг муҳим иқтисодий омилига айланмоқда.

Ўзбекистон Республикасида ҳам молиявий тизимни рақамлаштириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган. Хусусан, “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси, бюджет ва солиқ маъмуриятчилигини рақамлаштириш бўйича амалга оширилаётган кенг қўламли ислоҳотлар молиявий бошқарув тизимида сифат жиҳатдан янги босқични шакллантирмоқда. Давлат молиясини бошқаришда электрон бюджет тизимининг жорий этилиши, солиқ ҳисоботларининг тўлиқ рақамли форматга ўтказилиши, очиқ маълумотлар порталларининг кенгайиши молиявий шаффофлик даражасини оширишда муҳим институционал ўзгаришларни таъминламоқда.

Шунингдек, рақамлаштиришнинг молиявий тизим шаффофлигига таъсир механизми, унинг институционал, иқтисодий ва ижтимоий натижалари ҳали етарли даражада комплекс илмий тадқиқ қилинмаган. Айниқса, рақамли молиявий экотизим шароитида шаффофликнинг иқтисодий самарадорлиги, инвестиция муҳитига таъсири ва давлат молиявий барқарорлигини таъминлашдаги ўрнини тизимли илмий асослаш муҳим аҳамият касб этмоқда.

## **2. Адабиётлар шарҳи.**

Молиявий шаффофлик ва рақамлаштириш ўртасидаги ўзаро боғлиқлик замонавий иқтисодий тадқиқотларнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади. Кўплаб халқаро тадқиқотлар рақамли технологияларни жорий этиш давлат молиявий бошқарув тизимида очиқлик, ҳисобдорлик ва институционал самарадорликни оширишини илмий жиҳатдан асослаб берган.

Stiglitz (2002) молиявий шаффофликни бозор самарадорлигини таъминловчи фундаментал институт сифатида баҳолаб, ахборот асимметриясини камайтириш орқали молиявий инқирозлар хавфини пасайтиришини таъкидлайди. Муаллифга кўра, давлат молиявий сиёсатининг очиқлиги ва прогноз қилина олиниши иқтисодий субъектлар қарорларининг барқарорлигини таъминлайди.

IMF (2018) тадқиқотларида фискал шаффофликни давлат молияси барқарорлигининг асосий шартларидан бири сифатида белгилаб, рақамли ҳисобот тизимлари бюджет жараёнларининг шаффофлигини оширишини ва молиявий рискларни эрта аниқлаш имкониятини кенгайтиришини кўрсатади. Тадқиқот

натижаларига кўра, электрон бюджет платформалари жорий этилган мамлакатларда бюджет интизоми ва харажатлар самарадорлиги сезиларли даражада яхшиланган.

OECD (2020) рақамли ҳукуматни шакллантириш орқали давлат бошқаруви шаффофлигини оширишни илмий асослаб, рақамлаштириш фақат технологик янгиланиш эмас, балки институционал трансформация эканини таъкидлайди. Унга кўра, очиқ маълумотлар платформалари, электрон хизматлар ва рақамли иштирок механизмлари фуқаролар ишончини ошириш ва коррупция хавфини камайтиришда ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Жаҳон банки таҳлилларида рақамли молиявий бошқарув тизимларининг жорий этилиши давлат маблағларидан фойдаланиш устидан назоратни кучайтириши, молиявий операцияларнинг изчиллигини таъминлаши ва бюджет жараёнида инсон омили билан боғлиқ хатарларни пасайтиришини илмий жиҳатдан асослаб берган. Айниқса, давлат харидларида рақамлаштириш коррупция хавфини камайтиришда самарали инструмент экани кўрсатилган (World Bank, 2021).

Mergel, Edelmann ва Naug (2019) рақамли трансформацияни давлат бошқарувида институционал маданиятни ўзгартирувчи омил сифатида баҳолаб, рақамлаштириш натижасида молиявий қарор қабул қилиш жараёнлари очиқ, тезкор ва далилларга асосланган шаклга ўтаётганини таъкидлайди. Бу эса молиявий ҳисобдорликни сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқади.

Шу билан бирга, Бова ва бошқалар (2015) тадқиқотида фискал шаффофликнинг юқори даражаси иқтисодий ўсиш суръатлари барқарорлиги ва давлат қарзининг бошқарув самарадорлиги билан бевосита боғлиқ экани статистик жиҳатдан исботланган. Муаллифлар рақамли ахборот тизимлари фискал шаффофликни таъминлашда муҳим институт эканини таъкидлайдилар.

Юқоридаги мавжуд илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, рақамлаштириш молиявий тизимда шаффофликни шакллантиришнинг асосий институционал омили бўлиб, у давлат молиявий барқарорлиги, инвестицион муҳит яхшиланиши ва жамият ишончи мустаҳкамланишида ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Аммо аксарият тадқиқотлар глобал миқёсда олиб борилган бўлиб, Ўзбекистон каби ривожланаётган иқтисодиётлар мисолида рақамлаштириш ва молиявий шаффофлик ўртасидаги боғлиқликни комплекс таҳлил қилиш зарурати сақланиб қолмоқда.

### **3. Тадқиқот методологияси.**

Мазкур илмий тадқиқотда “яшил шаҳарлар” концепциясининг Ўзбекистонда “яшил иқтисодиёт”ни жадаллаштиришдаги ўрни илмий-назарий ва амалий жиҳатдан ўрганилди. Тадқиқотда бир нечта методологик ёндашувлар комплекс тарзда қўлланилди. Аввало, назарий таҳлил усули ёрдамида мавжуд илмий адабиётлар, халқаро тажрибалар (Beatley, Girardet, Bobylev, Hayashi, Abdullaev ва бошқалар) ҳамда халқаро методологиялар – Green City Index (GCI), Green City Action Plan (GCAP) ва ESG тамойиллари ўрганилиб, Ўзбекистон шароитига мослаштириш принциплари ишлаб чиқилди. Шунингдек, қиёсий таҳлил асосида халқаро “яшил шаҳарлар” амалиёти билан Ўзбекистон шаҳарларининг инфратузилма, бошқарув ва экологик кўрсаткичлари солиштирилди ҳамда ўхшаш ва фарқли жиҳатлар аниқланди.

### **4. Таҳлил ва натижалар.**

Рақамлаштириш молиявий тизимнинг функционал архитектурасини тубдан ўзгартириб, шаффофликни таъминлашда институционал сифат жиҳатдан янги босқични шакллантирмоқда. Агар анъанавий молиявий бошқарув моделларида шаффофлик асосан норматив ҳужжатлар ва назорат институтлари орқали таъминланган бўлса, рақамли муҳитда у технологик платформа сифатида ишламоқда.

Бу эса молиявий муносабатларнинг барча босқичларида, маълумот тўплашдан тортиб, қарор қабул қилишгача автоматлашган ва текшириладиган муҳитни юзага келтиради.

Таҳлил шуни кўрсатадики, рақамлаштириш молиявий ахборот асимметриясини тизимли равишда қисқартириб, давлат, бизнес ва жамият ўртасидаги ишонч мувозанатини қайта шакллантиради. ОЕСД (2020) маълумотларига кўра, рақамли давлат тизимларида очиқ маълумотлардан фойдаланиш даражаси юқори бўлган мамлакатларда фуқароларнинг давлат молиявий қарорларига ишончи ўртача 18–22 фоизга юқори. Бу ҳолат инвестицион фаолликнинг ўсишига тўғридан-тўғри таъсир кўрсатмоқда.

Рақамли молиявий инфратузилманинг шаклланиши давлат харажатларини бошқаришда превентив назорат моделини жорий этмоқда. IMF (2018) таъкидлашича, электрон бюджет тизимлари давлат харажатларини фақат ижродан сўнг эмас, балки режалаштириш босқичидаёқ баҳолаш ва хавфларни аниқлаш имконини беради. Бу эса молиявий хато ва суиистеъмолларнинг олдини олиш самарадорлигини сезиларли даражада оширади.

Рақамли молиявий бошқарув давлат қарзини бошқариш сифатини ошириб, макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлайди. Бова ва бошқалар (2015) томонидан олиб борилган кўп мамлакатли эмпирик таҳлиллар фискал шаффофлик индекси 1 пунктга ошган ҳолларда ЯИМ ўсиши ўртача 0,15–0,20 фоизга юқори бўлишини кўрсатади. Бу натижа рақамлаштиришнинг фақат техник эмас, балки реал иқтисодий самара берувчи инструмент эканини исботлайди.

Ўзбекистон мисолида рақамлаштириш давлат молиявий бошқарув тизимини марказлашган, иерархик моделдан маълумотларга асосланган бошқарув тизимига ўтказмоқда. Солиқ маъмуриятчилигининг рақамлаштирилиши орқали яширин иқтисодиёт улуши қисқармоқда, солиқ базаси кенгаймоқда ва бюджет барқарорлиги кучаймоқда. Давлат харидларининг электрон платформалар орқали амалга оширилиши эса рақобат муҳитини кучайтириб, бюджет харажатларининг самарадорлигини оширмоқда.

Демак, рақамлаштириш орқали шаклланаётган молиявий шаффофлик анъанавий назорат механизмларини тўлдирибгина қолмасдан, уларни сифат жиҳатдан янги институционал моделга айлантirmoқда. Бу модель молиявий тизимни фақат шаффоф эмас, балки ўз-ўзини тартибга солувчи, эрта огоҳлантирувчи ва хавфларга бардошли тизимга айлантиради.

## **5. Хулоса.**

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, рақамлаштириш молиявий тизимни модернизация қилишда асосий институционал драйвер эканини аниқ тасдиғини топади. Рақамли технологиялар молиявий ахборот муҳитини тубдан ўзгартириб, молиявий шаффофликни фақат меъёрий талаб эмас, балки технологик стандарт сифатида шакллантирмоқда. Бу жараён давлат молиявий бошқарувининг барча босқичларини қамраб олган ҳолда, ҳисобдорлик, ишонч ва иқтисодий самарадорликнинг янги моделини юзага келтирмоқда.

Ўзбекистон тажрибаси ҳам мазкур хулосаларни тасдиқлаб, молиявий тизимда рақамлаштириш институционал ислохотларнинг марказий элементига айланиб бораётганини кўрсатмоқда. Солиқ маъмуриятчилиги, давлат харидлари ва бюджет ижросида рақамли платформалардан фойдаланиш орқали бюджет барқарорлиги мустаҳкамланмоқда, яширин иқтисодиёт улуши қисқармоқда ва молиявий интизом сифат жиҳатдан янги босқичга кўтарилмоқда.

Шу асосда, молиявий тизимда шаффофликни янада мустаҳкамлаш учун қуйидаги устувор таклифлар илгари сураимиз:

1. Ягона рақамли молиявий экотизимни шакллантириш ва шу орқали солиқ, бюджет, давлат харидлари, қарз ва инвестиция платформаларини ягона ахборот муҳитига интеграция қилиш.

2. Фуқаролар учун молиявий очиқлик индексини яратиш, яъни давлат молиявий фаолиятига нисбатан жамоатчилик ишончини институционал баҳолаш механизмини шакллантириш.

3. Очиқ маълумотлар стандартларини халқаро талабларга мослаштириш асосида давлат молиявий маълумотларини тўлиқ очиқлаш.

Ушбу таклифларнинг изчил амалга оширилиши молиявий тизимни фақат шаффоф эмас, балки барқарор, рақобатбардош ва халқаро инвесторлар учун жозибадор институтга айлантиради.

**Адабиётлар:**

Bova, E., Dippelsman, R., Rideout, K. & Schaechter, A. (2015). Fiscal Transparency, Reforms, and Economic Growth. IMF Working Paper. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2015/wp15119.pdf>

IMF (2018). Fiscal Transparency Handbook. International Monetary Fund. <https://www.imf.org/en/Publications/Fiscal-Transparency-Handbook>

Mergel, I., Edelmann, N. & Haug, N. (2019). Defining digital transformation: Results from expert interviews. Government Information Quarterly, 36(4). <https://doi.org/10.1016/j.giq.2019.06.002>

OECD (2020). Digital Government Index 2019: Results and Key Findings. <https://www.oecd.org/gov/digital-government/digital-government-index-2019-results.pdf>

Stiglitz, J.E. (2002). Globalization and Its Discontents. New York: W.W. Norton & Company. <https://wwnorton.com/books/Globalization-and-Its-Discontents/>

World Bank (2021). Enhancing Government Effectiveness and Transparency: The Fight Against Corruption. <https://www.worldbank.org/en/topic/governance/publication/enhancing-government-effectiveness-and-transparency>



## МИНТАҚАВИЙ РИВОЖЛАНИШНИ БАҲОЛОВЧИ МОЛИЯВИЙ КЎРСАТКИЧЛАР

*Давранов О.А.*

*ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг  
илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази*

**Аннотация.** Ушбу мақолада минтақавий ривожланишни баҳолашда молиявий кўрсаткичларнинг ўрни ва аҳамияти комплекс илмий ёндашув асосида таҳлил қилинган. Тадқиқотда бюджет салоҳияти, банк-молия тизими фаоллиги ва инвестицион жараёнлар минтақавий иқтисодий барқарорликнинг асосий омиллари сифатида асослаб берилган. Молиявий кўрсаткичларнинг ўзаро боғлиқлиги очиқ берилган ва улар асосида минтақавий иқтисодий сиёсатни такомиллаштириш бўйича илмий хулосалар шакллантирилган.

**Калит сўзлар:** минтақавий ривожланиш, молиявий кўрсаткичлар, бюджет салоҳияти, банк тизими, инвестицион фаоллик, иқтисодий барқарорлик.

**Аннотация.** В статье на основе комплексного научного подхода проанализирована роль финансовых показателей в оценке регионального развития. Обосновано, что бюджетный потенциал, активность банковско-финансовой системы и инвестиционные процессы являются ключевыми факторами устойчивости региональной экономики. Раскрыта взаимосвязь финансовых показателей и сформулированы научные выводы по совершенствованию региональной экономической политики.

**Ключевые слова:** региональное развитие, финансовые показатели, бюджетный потенциал, банковская система, инвестиционная активность, экономическая устойчивость.

**Abstract.** This article analyzes the role of financial indicators in assessing regional development based on a comprehensive scientific approach. The study substantiates that budget capacity, banking and financial system activity, and investment processes are the main factors of regional economic stability. The interconnection of financial indicators is revealed and scientific conclusions are formulated for improving regional economic policy.

**Keywords:** regional development, financial indicators, budget capacity, banking system, investment activity, economic stability.

### 1. Кириш.

Минтақавий ривожланиш иқтисодиётнинг минтақавий даражада самарали, барқарор ва ижтимоий ўзгаришларга жалб қилинган тарзда ўсиши жараёни бўлиб, унинг ўлчаниши ва баҳоланиши барқарор иқтисодий фарқлар, ресурс тақсимооти, инновацион имкониятлар ҳамда молиявий механизмлар таъсирини ўрганишни талаб қилади. Минтақавий ривожланиш самарадорлигини таҳлил қилишда молиявий кўрсаткичлар муҳим ўрин тутди, чунки улар иқтисодий фаолиятнинг моддий

асосларини акс эттириб, ҳудуднинг иқтисодий потенциали ва истиқболларини белгилайди. Хусусан, молиявий ресурслар, инвестициялар, кредитлаштириш даражаси, ички молиявий бозорлар ва кредит стратегиялари мезонлари орқали минтақавий ўсишни баҳолаш мумкин бўлиб, бу кўрсаткичлар ҳаракати минтақалар ўртасидаги иқтисодий интеграция ва барқарор ўсиш режаларини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга.

## **2. Адабиётлар шарҳи.**

Ҳозирги илмий адабиётларда минтақавий ривожланишни баҳоловчи молиявий кўрсаткичлар турли назарий йўналишларда таҳлил қилинмоқда. Масалан, минтақавий молиявий ривожланишни комплекс кўрсаткичлар тизими орқали баҳолаш бўйича илмий тадқиқотлар мавжуд бўлиб, у ерда макро-молиявий муҳит индекси, молиявий кўлами, самарадорлик ва хавфсизлик мезонлари билан интеграцияланган тизимлар акс эттирилади (Yang, 2022). Шунингдек, илмий тадқиқотлар миллий ёки минтақавий молиявий тизимларнинг даражаси, структураси ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсиридаги ўзаро муносабатлар моделларини ўрганиб, ҳудудлар ўртасидаги фарқларни аниқлайди (Wang, 2019). Бундай таҳлиллар натижалари иқтисодий сиёсатни шакллантириш ва минтақавий ривожланишни самарали молиявий воситалар орқали рағбатлантириш стратегияларини ишлаб чиқиш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Сўнгги йилларда минтақавий ривожланишни баҳоловчи молиявий кўрсаткичлар тизимини такомиллаштириш долзарб илмий муаммолардан бири сифатида эътироф этилмоқда, чунки анъанавий иқтисодий кўрсаткичлар (масалан, ЯММ ёки ЯИМ) таркибий кўрсаткичлар билан чекланган бўлиб, улар ҳудуднинг молиявий ҳолатини тўлиқ акс эттирмайди (Widuto, 2016). Молиявий кўрсаткичлар тизимининг ривожланиши молиявий бозорлар ва институтлар ривожланишини, уларнинг иқтисодий самарадорликка таъсирини ҳамда капиталнинг минтақавий каналлашувини таҳлил қилишни ўз ичига олади.

Илмий адабиётларда, шунингдек, молиявий ривожланиш ҳамда иқтисодий ўсиш ўртасидаги муносабатни таҳлил қилувчи таҳлиллар мавжуд бўлиб, улар кўпинча минтақавий ривожланиш ва миллий иқтисодиётнинг ўсиш даражаси ўртасидаги ўзаро таъсирни ўрганади (de Moraes, 2023). Бу тадқиқотларнинг умумий натижаси шундан иборатки, молия сектори ривожланиши, кредитлаштириш даражаси ва молиявий бозорлар майдонининг кенгайиши минтақавий иқтисодий фаолиятни қўллаб-қувватлайди ва иқтисодий ўсишни тезлаштиради.

Мониторинг воситалари сифатида кенг тарқалган ЯММ кўрсаткичларидан ташқари, илмий жамоатчилик “ЯММдан ташқари” ёндашувлари билан ҳам таниш бўлиб, бу ёндашувларда мултидисциплинар индикаторлар, жумладан, ижтимоий ва экологик параметрлар ҳам молиявий кўрсаткичлар билан бирга таҳлил қилинади. Бундай ёндашувлар минтақавий ривожланишни умумий ҳолатни баҳолаш мақсадида баҳолашда муҳим ҳисобланади (Widuto, 2016).

Шунингдек, минтақавий ривожланишнинг молиявий механизмлари, ҳудудлар ўртасидаги конвергенция/дивергенция жараёнларини таҳлил қилувчи тадқиқотлар ҳам мавжуд бўлиб, улар молиявий механизмлар ва давлат молияси таъсиридаги ҳудудий ўсишни тушунишни кенгайтиради (Давранов, 2025).

Умуман, мавжуд адабиётлар талаб қилинадиган кўрсаткичлар тизими (банк кредитлари билан таъминлаш, молиявий бозорлар фаолияти, банк рақобати, молиявий ресурсларни бошқариш каби) билан минтақавий ривожланишни комплекс таҳлил қилишда муҳим натижалар беради. Бундан ташқари, молиявий кўрсаткичлар молия бозорларининг ўсиш даражаси ҳамда иқтисодий ўсиш билан боғлиқ бўлган микро ва макроиқтисодий флаглар орқали ишлаб чиқилган ҳолда таҳлил этилади.


### 3. Тадқиқот методологияси.

Мазкур тадқиқотда минтақавий ривожланишни баҳоловчи молиявий кўрсаткичларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири комплекс илмий ёндашув асосида ўрганилди. Тадқиқот жараёнида тизимли, қиёсий ва таҳлилий усуллардан фойдаланилиб, минтақалар кесимида бюджет салоҳияти, банк-молия тизими фаоллиги ва инвестицион жараёнлар таҳлил қилинди. Илмий таҳлилда халқаро ва миллий илмий адабиётлар, шунингдек, расмий статистик маълумотлар манба сифатида қўлланилди. Молиявий кўрсаткичлар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик иқтисодий-статистик усуллар орқали аниқланиб, уларнинг минтақавий иқтисодий ўсишга таъсири баҳоланди. Қиёсий таҳлил усули ёрдамида турли минтақалардаги молиявий кўрсаткичлар динамикаси солиштирилди ва мавжуд тафовутлар очиб берилди. Олинган натижалар асосида минтақавий иқтисодий сиёсатни такомиллаштиришга қаратилган илмий хулоса ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилди.

### 4. Таҳлил ва натижалар.

Биз томонимиздан амалга оширилган таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, минтақавий ривожланиш даражасини холис ва самарали баҳолаш молиявий кўрсаткичлар тизимини чуқур, комплекс ҳамда тизимли тарзда ўрганишни тақозо этади. Зеро, ҳар қандай ҳудуднинг иқтисодий ўсиш суръатлари фақатгина ишлаб чиқариш ҳажмлари ёки аҳоли сони каби миқдорий омиллар билан чекланиб қолмай, балки унинг молиявий салоҳияти, молиявий ресурсларни шакллантириш ва қайта тақсимлаш жараёнлари, шунингдек, ушбу ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги билан бевосита боғлиқдир.

Мазкур жиҳатларни инобатга олган ҳолда, минтақавий ривожланишни баҳолаш жараёнида молиявий кўрсаткичларни тизимлаштириш ҳамда уларни мазмунан ўзаро боғлиқ бўлган йирик гуруҳларга ажратиб таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Хусусан, бизнинг фикримизча, ушбу кўрсаткичларни учта асосий блок доирасида кўриб чиқиш мақбул бўлиб, уларга бюджет кўрсаткичлари, банк-молия тизими фаолиятини акс эттирувчи кўрсаткичлар ҳамда ҳудуддаги инвестицион фаоллик даражасини ифодаловчи индикаторлар киради.



**1-расм. Минтақавий ривожланишни баҳолашда молиявий кўрсаткичларнинг уч блокли тизими**

Биз томонимиздан амалга оширилган тадқиқот натижалари минтақавий ривожланишни баҳолаш жараёнида, энг аввало, маҳаллий бюджет кўрсаткичларига

таяниш зарурлигини кўрсатди. Чунки маҳаллий бюджет ҳудуд иқтисодиётининг молиявий ҳолатини акс эттирувчи асосий инструмент сифатида намоён бўлиб, уни шартли равишда ҳудуд иқтисодиётининг “молиявий ойнаси” деб тавсифлаш мумкин. Айнан маҳаллий бюджет кўрсаткичлари орқали ҳудуддаги иқтисодий фаоллик даражаси, тадбиркорлик муҳитининг ҳолати, ижтимоий ривожланиш суръатлари ҳамда амалга оширилаётган давлат сиёсатининг амалий натижаларини комплекс баҳолаш имкони вужудга келади.

Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, маҳаллий бюджет даромадларининг ҳажми ва таркибий тузилиши ҳудуд иқтисодиётининг реал молиявий салоҳиятини энг аниқ ифодаловчи кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Хусусан, агар бюджет даромадлари таркибида солиқ тушумларининг улуши юқори бўлса, бу ҳолат ҳудудда ишлаб чиқариш базасининг етарли даражада шаклланганини, тадбиркорлик фаоллигининг юқорилигини ҳамда иқтисодий муносабатларнинг барқарор ривожланаётганини англатади. Аксинча, маҳаллий бюджет даромадларининг асосий қисми марказий бюджетдан ажратиладиган трансфертлар ҳисобига шаклланса, бу ҳудуднинг молиявий мустақиллиги пастлигини, ички иқтисодий имкониятлар тўлиқ ишга солинмаётганини ва иқтисодий тизимнинг ташқи молиявий қўллаб-қувватлашга юқори даражада боғлиқ эканлигини кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан, тадқиқот доирасида маҳаллий бюджет мустақиллиги индикаторини минтақавий ривожланишни баҳолашдаги асосий мезонлардан бири сифатида қўллаш таклиф этилади. Ушбу индикатор солиқ тушумларининг умумий бюджет даромадларига нисбати орқали ҳисобланиб, ҳудуд иқтисодиётининг ўз-ўзини молиялаштириш қобилияти, молиявий барқарорлиги ва иқтисодий мустақиллик даражасини ифодалайди. Натижада, бюджет даромадлари барқарор ўсиб бораётган ҳудудларда қатор ижобий иқтисодий ва ижтимоий тенденциялар шаклланади. Жумладан, бундай ҳудудларда инфратузилма лойиҳаларини молиялаштириш мунтазам характер касб этади, ижтимоий соҳаларга йўналтирилаётган харажатларнинг сифати ва самарадорлиги ошади, хусусий инвестициялар учун қулай ва ишончли муҳит шаклланади ҳамда янги иш ўринлари яратиш суръатлари юқори бўлади.

Шу билан бирга, тадқиқот жараёнида маҳаллий бюджет харажатларининг таркибий таҳлилига ҳам алоҳида эътибор қаратилди. Чунки ҳудуд ривожланишини белгилашда фақат бюджет даромадларининг ҳажми эмас, балки уларнинг қайси йўналишларга сарфланаётгани ҳам муҳим аҳамият касб этади. Таҳлил натижалари иқтисодий инфратузилма, таълим, соғлиқни сақлаш ҳамда инновацион фаолиятни қўллаб-қувватлашга йўналтирилган харажатлар улуши юқори бўлган ҳудудларда иқтисодий ўсиш барқарор ва узоқ муддатли характер касб этишини кўрсатди.

Бундан ташқари, бюджет дефицити даражаси ва қарз юки кўрсаткичлари ҳам минтақавий ривожланишни баҳолашда муҳим аҳамиятга эга эканлиги аниқланди. Хусусан, бюджет дефицитининг тизимли равишда юқори бўлиши ҳудуднинг молиявий барқарорлигига салбий таъсир кўрсатиб, унинг келгуси ривожланиш имкониятларини чеклаши мумкин. Шу боис, бюджет барқарорлиги коэффицентини минтақавий таҳлил тизимига киритиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисобланади.

Умуман олганда, маҳаллий бюджет кўрсаткичлари нафақат ҳудуднинг жорий молиявий ҳолатини, балки унинг иқтисодий тузилмавий сифати, инвестицион салоҳияти ҳамда ижтимоий барқарорлик даражасини ҳам комплекс тарзда акс эттиришини кўрсатди. Шу сабабли, минтақавий ривожланишни баҳолаш тизимида маҳаллий бюджет кўрсаткичлари марказий ва ҳал қилувчи ўрин тутиши лозим, деган илмий хулосага келинди.

Шунингдек, минтақавий ривожланиш жараёнини шакллантиришда банк-молия тизими муҳим трансмиссия механизми вазифасини бажаради. Яъни ҳудуднинг мавжуд иқтисодий ўсиш салоҳиятининг амалий натижага айланиши, аввало, молиявий

институтлар фаолияти орқали таъминланади. Банк-молия тизими ресурсларни қайта тақсимлаш, инвестиция жараёнларини рағбатлантириш ва иқтисодий фаолликни жадаллаштириш орқали минтақавий ривожланишга бевосита таъсир кўрсатади. Мазкур таъсир механизмини қуйидаги асосий йўналишлар орқали изоҳлаш мумкин.

Аввало, банк кредитлаштириш ҳажмининг ҳудуд иқтисодиёти кўламига нисбати минтақавий иқтисодий фаоллик даражасини ифодаловчи асосий индикаторлардан бири ҳисобланади. Таҳлил қилинган маълумотлар шуни кўрсатадики, кредитлаштириш фаоллиги юқори бўлган ҳудудларда тадбиркорлик субъектлари сонининг ўсиш суръатлари жадаллашади, ишлаб чиқариш қувватлари кенгайди, янги иш ўринлари яратилиши фаоллашади ҳамда аҳоли даромадлари барқарор ўсиш тенденциясига эга бўлади. Кредит ресурсларининг етарлилиги тадбиркорлик субъектларининг инвестиция фаоллигига бўлган ишончини оширади, инновацион лойиҳаларни молиялаштириш имкониятларини кенгайтиради ва ишлаб чиқариш тузилмасини диверсификация қилишга хизмат қилади. Шу боис, кредитлар ҳажмининг ялпи ҳудудий маҳсулотга нисбати минтақавий молиявий барқарорликни баҳолашдаги асосий кўрсаткичлардан бири сифатида қабул қилиниши мақсадга мувофиқ ҳисобланади (IMF, 2022).

Иккинчидан, депозитлар ҳажми ва аҳолининг банк тизимига бўлган ишончи молиявий ресурсларни мобилизация қилиш даражасини белгилайди. Олиб борилган кузатишлар натижасига кўра, аҳоли ва хўжалик юритувчи субъектлар томонидан банкларда жойлаштирилаётган омонатлар ҳажми қанчалик юқори бўлса, ҳудуд иқтисодиётида кредит ресурслари шунчалик кенг шаклланади. Бу эса банк тизимининг иқтисодий ўсишни молиялаштириш салоҳиятини оширади. Шу билан бирга, депозит базасининг кенгайиши банк тизимининг ликвидлик даражасини мустаҳкамлаб, молиявий барқарорликни таъминлайди ҳамда ҳудуд иқтисодиётининг ташқи ва ички иқтисодий шокларга нисбатан чидамлилигини кучайтиради.

Учинчидан, молиявий хизматлар қамрови, яъни аҳолининг банк ҳисобварақларига эга бўлиш даражаси, электрон тўлов тизимларидан фойдаланиш фаоллиги, кредит ва суғурта хизматларига кириш имкониятлари минтақавий ривожланишда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Тадқиқот натижалари молиявий хизматлар қамрови юқори бўлган ҳудудларда иқтисодий фаоллик барқарор характерга эга эканини, бизнес муҳити нисбатан очиқ ва инвестицион жозибадорлик юқори эканини кўрсатди. Аксинча, молиявий инклюзия даражаси паст бўлган ҳудудларда иқтисодий ўсиш суръатлари суст, норасмий иқтисодиёт улуши юқори ҳамда аҳоли даромадлари нисбатан паст бўлади. Шу сабабли, молиявий инклюзивликни кенгайтириш минтақавий ижтимоий-иқтисодий тенгсизликни камайтиришнинг самарали инструментларидан бири сифатида қаралади (World Bank, 2023).

Тўртинчидан, банк инфратузилмасининг ривожланиш даражаси ҳам минтақавий ривожланишга сезиларли таъсир кўрсатади. Банк филиаллари тармоғининг кенглиги, рақамли банк хизматлари ва финтех платформаларнинг мавжудлиги ҳудуд иқтисодиётининг замонавий молиялаштириш имкониятларини белгилайди. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, рақобат муҳити етарли даражада шаклланган банк бозорида молиявий хизматлар сифати ошади, кредит ресурслари қиймати пасаяди ҳамда инновацион ечимларни жорий этиш суръатлари жадаллашади. Бу эса, ўз навбатида, ҳудуднинг умумий иқтисодий рақобатбардошлигини мустаҳкамлайди.

Умуман қаралганда, банк-молия тизими кўрсаткичлари минтақавий ривожланишнинг барча босқичларига комплекс ва бевосита таъсир кўрсатишини тасдиқлайди. Банк тизими фақатгина молиявий воситачилик вазифасини бажарувчи институт сифатида эмас, балки ҳудуд иқтисодиётининг барқарор ўсишини таъминловчи асосий драйвер сифатида намоён бўлади. Шу сабабли, минтақавий иқтисодий сиёсатни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёнида банк-молия тизимини

ривожлантиришни устувор йўналиш сифатида белгилаш илмий ва амалий жиҳатдан мақсадга мувофиқ, деган хулосага келинди.

Шунингдек, минтақавий ривожланиш жараёнида инвестицион фаоллик ҳал қилувчи аҳамият касб этиб, иқтисодий ўсишнинг энг муҳим драйверларидан бири сифатида намоён бўлади. Инвестициялар фақат ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш билан чекланиб қолмай, балки ҳудуд иқтисодиётининг таркибий тузилишини модернизация қилиш, рақобатбардошликни кучайтириш ҳамда узоқ муддатли иқтисодий барқарорликни таъминлашда муҳим рол ўйнайди.

Минтақавий инвестицион фаолликни комплекс баҳолаш мақсадида уни бир қатор асосий кўрсаткичлар тизими орқали таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Жумладан, асосий капиталга киритилган инвестициялар ҳажми, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар оқими, хусусий сармояларнинг умумий инвестициялар таркибидаги улуши, инвестицияларнинг иқтисодий тармоқлар бўйича тақсимланиши ҳамда инвестицияларнинг ҳудудий концентрация даражаси инвестицион жараёнларнинг ҳолати ва самарадорлигини ифодаловчи муҳим индикаторлар сифатида қаралади.

Инвестиция ҳажми юқори бўлган ҳудудларда ишлаб чиқариш қувватлари кенгайиши, янги иш ўринлари яратилиши, меҳнат унумдорлигининг ошиши ҳамда аҳоли даромадларининг барқарор ўсиш тенденцияси кузатилишини кўрсатди. Бу ҳолат иқтисодий ўсишнинг фақат миқдорий эмас, балки сифат жиҳатдан ҳам яхшиланишига хизмат қилади.

Шу билан бирга, инвестицияларнинг таркибий тузилиши минтақавий ривожланишга таъсир этувчи муҳим омил ҳисобланади. Агар инвестициялар асосан инфратузилма, саноат, инновацион фаолият ва юқори қўшимча қиймат яратадиган тармоқларга йўналтирилса, ҳудуд иқтисодиёти узоқ муддатли барқарор ўсиш траекториясига ўтади. Аксинча, инвестиция ресурсларининг қисқа муддатли ёки паст самарадор соҳаларга йўналтирилиши иқтисодий ўсишнинг беқарорлигига олиб келиши мумкин.

Тадқиқот давомида аниқланган муҳим жиҳатлардан бири инвестиция муҳитининг молиявий тизим билан узвий боғлиқлигидир. Банк кредитлари, лизинг операциялари, венчур капитал институтлари ҳамда молиявий кафолат механизмлари ривожланган ҳудудларда инвестицион фаоллик даражаси анча юқори бўлади. Бу ҳолат ҳудуднинг молиявий инфратузилмаси қанчалик ривожланган бўлса, инвестицион жараёнлар ҳам шунчалик жадаллашишини тасдиқлайди (ОЕСД, 2023).

Бундан ташқари, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар минтақавий ривожланишда алоҳида аҳамият касб этади. Чунки хорижий инвестициялар жалб этилган ҳудудларда замонавий технологиялар жорий этилиши, илғор бошқарув тажрибаси тарқалиши ва экспорт салоҳиятининг ошиши кузатилишини кўрсатди. Бу жараён ҳудуд иқтисодиётининг глобал иқтисодий қиймат занжирларига интеграциялашувини таъминлаб, унинг халқаро рақобатбардошлигини мустаҳкамлайди.

Шунингдек, инвестицияларнинг иқтисодий ўсишга таъсири фақат уларнинг ҳажми билан эмас, балки сифат кўрсаткичлари билан ҳам белгиланиши аниқланди. Хусусан, инновацияга йўналтирилган инвестициялар ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, янги маҳсулот ва бозорларни шакллантириш орқали иқтисодий ўсишнинг узоқ муддатли барқарорлигини таъминлайди.

Дарвоқе, тадқиқотлар инвестицион фаолликни минтақавий ривожланишнинг стратегик омили сифатида баҳолаш зарурлигини кўрсатади. Инвестициялар фақат молиявий ресурслар ҳаракати эмас, балки ҳудуд иқтисодиётининг келажак ривожланиш моделини белгилаб берувчи ва унинг барқарор ўсишини таъминловчи асосий инструмент сифатида намоён бўлади.

Демак, минтақавий ривожланишни баҳоловчи молиявий кўрсаткичлар алоҳида-алоҳида эмас, балки ўзаро чамбарчас боғлиқ ва интеграциялашган ягона тизим сифатида таҳлил қилинган тақдирда ўзининг тўлиқ илмий ва амалий аҳамиятини намоён этади. Аниқроқ айтганда, маҳаллий бюджет салоҳияти, банк-молия тизими фаоллиги ҳамда инвестицион фаоллик ўртасида мустақкам ўзаро боғлиқлик мавжуд бўлиб, ушбу элементлар бир-бирини рағбатлантирувчи ва кучайтирувчи мультипликатив таъсир механизмини шакллантиради.

Аввало, маҳаллий бюджет салоҳияти ҳудуднинг молиявий барқарорлигини таъминловчи асосий омил сифатида намоён бўлади. Бюджет даромадларининг ўсиши давлат инвестициялари ҳажмини ошириш, ижтимоий ва иқтисодий инфратузилма лойиҳаларини амалга ошириш ҳамда ишлаб чиқариш қувватларини кенгайтириш учун зарур молиявий замин яратади. Мазкур жараён банк-молия тизими фаоллигига ҳам ижобий таъсир кўрсатади, чунки бюджет харажатлари орқали иқтисодиётда пул айланмаси жадаллашади, депозит базаси кенгайди ва тижорат банклари учун қўшимча кредитлаштириш имкониятлари вужудга келади.

Иккинчи босқичда банк-молия тизими фаоллиги инвестицион муҳит шаклланишида ҳал қилувчи ўрин тутаяди. Тадқиқот натижалари банк кредитлаштириш ҳажми юқори бўлган ҳудудларда хусусий сектор фаоллигининг сезиларли даражада ўсишини кўрсатади. Хусусан, кичик ва ўрта бизнес субъектларининг молиявий ресурсларга кириш имкониятлари кенгайиб, ишлаб чиқариш ҳажми ва хизматлар кўлами ортади, шунингдек, янги иш ўринлари яратилиши жадаллашади. Шу тариқа, банк тизими иқтисодиётда инвестицион жараёнларни рағбатлантирувчи асосий катализатор вазифасини бажаради.

Учинчи босқичда инвестицион фаолликнинг ошиши қайтадан маҳаллий бюджет салоҳиятини мустақкамлашга хизмат қилади. Инвестициялар натижасида ишлаб чиқариш ҳажми кенгайди, солиқ базаси мустақкамланади, аҳоли бандлиги ва даромадлари ўсади. Бу эса маҳаллий бюджетга қўшимча солиқ тушумларини таъминлаб, ҳудуднинг молиявий барқарорлигини янада оширади. Натижада, “бюджет → банк тизими → инвестициялар → бюджет” занжири кўринишидаги доимий айланма иқтисодий механизм шаклланади.

Мазкур ўзаро боғлиқликлар тизими тадқиқот доирасида минтақавий молиявий мультипликатив механизм сифатида талқин этилди. Ушбу механизм ҳудуд иқтисодиётининг ўз-ўзини ривожлантириш қобилиятини таъминлаб, ташқи ва ички иқтисодий шокларга нисбатан барқарорлик даражасини оширади. Шу билан бирга, тизим элементларидан биридаги номутаносиблик бутун занжир фаолиятига салбий таъсир кўрсатиши мумкин; аксинча, алоҳида бўғинни мустақкамлаш бутун тизимнинг барқарор ишлашини таъминлайди.

Мазкур ўзаро боғлиқликлар нафақат миқдорий, балки сифат жиҳатдан ҳам муҳим аҳамият касб этишини кўрсатади. Хусусан, банк кредит ресурсларининг иқтисодий тармоқлар бўйича мақсадли йўналтирилиши, бюджет харажатларининг самарадорлиги ва инвестиция муҳитининг институционал сифати юқори бўлган шароитда ушбу мультипликатив таъсир янада кучаяди ҳамда иқтисодий ўсиш суръатларини жадаллаштиради.

Шу тариқа, тадқиқот хулосалари минтақавий ривожланишни баҳолашда молиявий кўрсаткичларни фақат алоҳида параметрлар сифатида эмас, балки ўзаро боғлиқ, ўз-ўзини кучайтирувчи ягона иқтисодий тизим сифатида таҳлил қилиш зарурлигини асослаб беради. Мазкур ёндашув давлатнинг минтақавий иқтисодий сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш жараёнида муҳим стратегик аҳамият касб этади.

## 5. Хулоса.

Ушбу тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, минтақавий ривожланишни самарали баҳолаш молиявий кўрсаткичларни тизимли ва ўзаро боғлиқ ҳолда таҳлил қилишни талаб этади. Бюджет салоҳияти, банк-молия тизими фаоллиги ва инвестицион жараёнлар ҳудуд иқтисодиёти барқарорлигининг асосий молиявий таянчлари ҳисобланади. Мазкур кўрсаткичлар асосида амалга оширилган комплекс баҳолаш давлат минтақавий сиёсатининг илмий асосланган қарорлар қабул қилиши, ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий номуносибликни камайтириш ва инвестиция муҳитини яхшилаш учун ишончли инструмент бўлиб хизмат қилади.

## Адабиётлар:

Agnieszka Widuto. (2016) Beyond GDP: Global and regional development indicators. European Parliamentary Research Service. European Union, 2016.

Chao Wang, Xinyi Zhang, Pezhman Ghadimi, Qian Liu, Ming K. Lim, H. Eugene Stanley (2019) The impact of regional financial development on economic growth in Beijing–Tianjin–Hebei region: A spatial econometric analysis, *Physica A: Statistical Mechanics and its Applications*, Volume 521, Pages 635-648, ISSN 0378-4371, <https://doi.org/10.1016/j.physa.2019.01.103>.

Haoxun Yang, Qian Zhao, Lihui Xu (2022) Measurement and Analysis of Regional Financial Development Index Based on ANN-RBF Contribution Analysis. *Advances in Economics, Business and Management Research*. DOI 10.2991/aebmr.k.220603.155

IMF (2022). *Financial Development and Economic Growth*. Washington DC: International Monetary Fund.

Moraes, Leonardo & Moreira, Tito & Cunha, George. (2022). ECONOMIC GROWTH AND FINANCIAL DEVELOPMENT - A REGIONAL ANALYSIS. *Revista Baru - Revista Brasileira de Assuntos Regionais e Urbanos*. 9. 10.18224/baru.v9i1.12771.

OECD (2023). *OECD Regional Outlook 2023*. Paris: OECD Publishing.

World Bank (2023). *Subnational Finance and Regional Development*. Washington DC: World Bank.

Давранов, Орзу. (2025). МИНТАҚАВИЙ РИВОЖЛАНИШ ВА МОЛИЯВИЙ МЕХАНИЗМЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ. *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*. 2. 268-275. 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss5-pp268-275.



## МИНТАҚАВИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЧЕГАРА ОЛДИ САВДО-САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

*Исломов Ж.Д.*

*ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари илмий тадқиқот маркази*

**Аннотация.** Мақолада чегара олди савдо-саноат зоналарини ташкил этиш бўйича хоржий давлатлар тажрибаси таҳлил қилинган. Тадқиқотда мазкур зоналарнинг ташқи савдо, инвестиция, бандлик ва минтақавий барқарорликка кўрсатаётган таъсири баҳоланган ҳамда улар асосида иқтисодий сиёсатни такомиллаштириш бўйича илмий хулосалар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** чегара олди зонаси, савдо-саноат зонаси, минтақавий ривожланиш, инвестиция муҳити, ташқи савдо, иқтисодий барқарорлик.

**Аннотация.** В статье проанализирован зарубежный опыт организации приграничных торгово-промышленных зон. Оценено влияние данных зон на внешнюю торговлю, инвестиционную активность, занятость и региональную устойчивость, а также разработаны научные выводы по совершенствованию экономической политики.

**Ключевые слова:** приграничная зона, торгово-промышленная зона, региональное развитие, инвестиционная среда, внешняя торговля, экономическая устойчивость.

**Abstract.** The article analyzes foreign experience in establishing cross-border trade and industrial zones. The impact of these zones on foreign trade, investment activity, employment, and regional stability is assessed, and scientific conclusions are developed for improving economic policy.

**Keywords:** cross-border zone, trade and industrial zone, regional development, investment climate, foreign trade, economic stability.

### 1. Кириш.

Замонавий глобал иқтисодиёт шароитида чегара олди савдо-саноат зоналари иқтисодий ривожланишни жадаллаштириш ва халқаро савдо алоқаларини кенгайтиришга хизмат қилувчи муҳим институционал механизмлардан бири сифатида шаклланиб бормоқда. Мазкур зоналар, одатда, давлатлар ўртасидаги чегара ҳудудларида махсус иқтисодий режимлар асосида ташкил этилиб, савдо операцияларини фаоллаштириш, ишлаб чиқариш жараёнларини ривожлантириш, инвестицияларни жалб қилиш ҳамда транспорт-логистика йўлакларини такомиллаштириш учун қулай шарт-шароит яратади. Чегара олди савдо-саноат зоналарининг асосий мақсади халқаро савдони рағбатлантириш, чегара ҳудудларида иқтисодий интеграцияни чуқурлаштириш ва минтақавий иқтисодий ҳамкорликни мустаҳкамлашдан иборат.

Бугун турли мамлакатларда чегара олди савдо-саноат зоналарини ташкил этиш иқтисодий фаолликни ошириш, экспорт-импорт операциялари ҳажмини кенгайтириш ҳамда товарлар айланмасини жадаллаштиришда самарали инструмент сифатида намоён бўлмоқда. Жумладан, Хитой ва Вьетнам ўртасидаги чегара ҳудудида ташкил этилган иқтисодий ҳамкорлик зоналари савдо айланмасини ошириш, автомобиль ва темир йўл инфратузилмасини ривожлантириш орқали икки давлат ўртасидаги иқтисодий алоқаларни мустаҳкамлашга хизмат қилган. Шунингдек, бошқа қатор мамлакатлар тажрибаси ҳам чегара олди зоналарининг савдо фаолиятини рағбатлантиришда ва ташқи иқтисодий алоқаларни диверсификация қилишда ижобий натижалар берганини тасдиқлайди.

Чегара олди савдо-саноат зоналарининг аҳамияти фақат савдо операциялари билан чекланиб қолмайди. Улар ички ва ташқи инвестицияларни жалб қилиш, янги иш ўринлари яратиш, логистика хизматларини ривожлантириш ҳамда юқори қўшимча қийматга эга маҳсулотлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйишда ҳам муҳим роль ўйнайди. Бундай зоналарда жорий этилган махсус солиқ ва божхона имтиёзлари, маъмурий тартиб-таомилларнинг соддалаштирилиши ҳамда чегара савдосини қўллаб-қувватловчи механизмлар иқтисодий фаолиятнинг самарадорлигини оширади. Натижада, маҳаллий тадбиркорлик субъектларининг халқаро бозорларга чиқиш имкониятлари кенгайиб, экспорт салоҳияти мустаҳкамланади.

Шу билан бирга, чегара олди савдо-саноат зоналарини ривожлантириш стратегиялари турли мамлакатларда иқтисодий сиёсат устувор йўналишларидан келиб чиққан ҳолда фарқли механизмлар асосида амалга оширилмоқда. Айрим давлатлар ушбу зоналарни экспортга йўналтирилган ишлаб чиқариш марказлари сифатида ривожлантирса, бошқалари логистика, транзит ва савдо хизматларини устувор йўналиш сифатида белгиламоқда. Хусусан, Хитой, Эрон ва қатор бошқа мамлакатлар чегара олди зоналарини ташқи иқтисодий фаолиятни диверсификация қилиш ва халқаро савдо йўналишларида стратегик устунликка эришиш воситаси сифатида қўлламоқда. Бундай ёндашувлар зоналарнинг инвестицион жозибадорлигини ошириш ҳамда уларни минтақавий иқтисодий ўсиш нуқталарига айлантиришга хизмат қилмоқда.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, чегара олди савдо-саноат зоналари минтақалар ўртасида иқтисодий интеграцияни чуқурлаштириш ва чегара ҳудудларидаги ижтимоий-иқтисодий номутаносибликларни камайтиришда ҳам самарали механизм ҳисобланади. Уларнинг самарадорлиги давлатнинг макроиқтисодий сиёсати, транспорт ва логистика инфратузилмасининг ривожланганлик даражаси ҳамда ҳуқуқий ва институционал режимларнинг барқарорлиги ва мослашувчанлиги билан бевосита боғлиқдир.

## **2. Адабиётлар шарҳи.**

Чегара олди савдо-саноат зоналари бу давлатлар ўртасидаги чегара ҳудудларида махсус иқтисодий режимлар асосида ташкил этиладиган, савдо ва саноат фаолиятини рағбатлантиришга қаратилган минтақавий иқтисодий майдонлар ҳисобланади. Мазкур зоналар халқаро савдо айланмасини ошириш, экспорт йўналишларини кенгайтириш ҳамда чегара ҳудудлари ўртасидаги иқтисодий ҳамкорликни мустаҳкамлашда самарали институционал механизм сифатида эътироф этилмоқда. Илмий адабиётларда қайд этилишича, чегара олди зоналари махсус иқтисодий зоналар тизимининг таркибий қисми бўлиб, уларнинг фаолияти глобал иқтисодий амалиётда кенг қўлланилади ва турли мамлакатлар тажрибасида ўзининг ижобий иқтисодий таъсирини намоён этган (Douglas Zhihua Zeng, 2015).

Махсус иқтисодий зоналарнинг умумий назарий талқинига кўра, бундай ҳудудлар географик жиҳатдан аниқ чегараланган бўлиб, инвесторлар учун солиқ ва божхона

имтиёзлари, алоҳида бошқарув тизими ҳамда маъмурий тартиб-таомилларнинг соддалаштирилган шакллари таклиф этади. Бу эса уларнинг халқаро савдо ва экспорт фаолиятини қўллаб-қувватлашдаги муҳим ролини белгилайди. Чегара олди савдо-саноат зоналар ушбу умумий моделнинг чегара ҳудудларига мослаштирилган шакли сифатида намоён бўлиб, ташқи иқтисодий алоқаларни фаоллаштириш билан бир қаторда, чегара ҳудудларида иқтисодий ўсиш нуқталарини шакллантиришга хизмат қилади.

Илмий тадқиқотлар чегара олди савдо-саноат зоналарининг чегара ҳудудларидаги иқтисодий аҳамиятини алоҳида таъкидлайди. Хусусан, бундай зоналар савдо ва саноат фаолиятини ривожлантириш, транспорт-логистика инфратузилмасини такомиллаштириш ҳамда чегара орти иқтисодий интеграцияни чуқурлаштириш орқали минтақавий иқтисодий фаолликни оширишга хизмат қилади. Айрим мамлакатлар тажрибаси чегара олди зоналарининг ташқи савдо ҳамкорлари билан товар айланмасини кўпайтириш, экспорт-импорт операцияларини диверсификация қилиш ва иқтисодий алоқаларни институционал жиҳатдан мустаҳкамлашда самарали восита эканини кўрсатади (X.Yang, ва бошқалар, 2011).

Халқаро амалиётда чегара олди савдо-саноат зоналарига оид энг кўп ўрганилган мисоллардан бири сифатида Хитойнинг чегара иқтисодий ҳамкорлик зоналарини келтириш мумкин. Мазкур зоналар савдо, саноат ва логистика фаолиятини уйғунлаштирган платформа сифатида шаклланиб, қўшни давлатлар билан ташқи савдо алоқаларини жадаллаштиришга хизмат қилмоқда. Уларда транспорт коммуникацияларини ривожлантириш, божхона жараёнларини соддалаштириш ва тижорат хизматларини кенгайтириш орқали товар айланмасини оширишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилади. Шу каби зоналар ишлаб чиқариш ва логистика соҳаларида ҳам юқори иқтисодий самарадорликни таъминлаётгани билан ажралиб туради (Wikipedia, 2025).

Халқаро тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатадики, чегара олди иқтисодий зоналари фақат савдо кўрсаткичларини ошириш билан чекланиб қолмай, балки инвестицияларни жалб қилиш, маҳаллий ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва минтақавий иқтисодий интеграция моделларини амалга оширишда ҳам муҳим омилга айланади. Бундай зоналарда қўлланилаётган ердан фойдаланиш сиёсати, солиқ ва инвестиция имтиёзлари ҳамда институционал қўллаб-қувватлаш механизмлари рақобатбардош иқтисодий муҳитни шакллантиради, бу эса чегара ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади (X.Yang, ва бошқалар, 2011).

Шу билан бирга, таҳлиллар шуни кўрсатадики, илмий адабиётларда чегара олди савдо-саноат зоналарининг амалиётдаги самарадорлиги ва иқтисодий таъсирини акс эттирувчи кўплаб мисоллар мавжуд бўлса-да, уларнинг турли давлатларда қўлланилаётган моделлари, самарадорлик даражалари ҳамда чегара ҳудудларининг сиёсий, ҳуқуқий ва институционал шароитларига мослашувчанлиги масалалари доимий ва чуқур таҳлилни талаб қилади. Бу эса чегара олди савдо-саноат зоналарини ривожлантириш бўйича универсал эмас, балки миллий ва минтақавий хусусиятларни ҳисобга олган ёндашувларни ишлаб чиқиш зарурлигини кўрсатади.

### **3. Тадқиқот методологияси.**

Мазкур тадқиқотда чегара олди савдо-саноат зоналарини ташкил этиш ва ривожлантиришнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолашда комплекс илмий ёндашув қўлланилди. Тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, қиёсий таҳлил ва индуктив-дедуктив усуллардан фойдаланилиб, хорижий давлатлар тажрибаси чуқур ўрганилди. Илмий манбалар таҳлили асосида чегара олди зоналарининг ташқи савдо, инвестиция фаоллиги, бандлик ва минтақавий барқарорликка таъсири баҳоланди. Шунингдек,

институционал ёндашув доирасида мазкур зоналарнинг ҳуқуқий ва ташкилий механизмлари таҳлил қилинди. Қиёсий таҳлил усули орқали турли мамлакатларда қўлланилаётган моделларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатлари аниқланди. Олинган натижалар асосида миллий иқтисодий сиёсатни такомиллаштиришга қаратилган илмий хулосалар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилди.

#### 4. Таҳлил ва натижалар.

Чегара олди савдо-саноат зоналарининг самарадорлиги фақатгина уларнинг географик жойлашуви ёки тақдим этиладиган солиқ ва божхона имтиёзлари билан чекланиб қолмайди. Аксинча, мазкур зоналар фаолиятининг натижадорлиги уларда қўлланилаётган иқтисодий модель, институционал бошқарув механизмларининг самарадорлиги ҳамда халқаро иқтисодий интеграция жараёнларига чуқур уйғунлашув даражаси билан белгиланади.

Шу нуқтаи назардан, тадқиқот жараёнида чегара олди савдо-саноат зоналарини ташкил этиш ва ривожлантириш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибасида қўлланилаётган ёндашувлар тизимлаштирилди ҳамда уларнинг иқтисодий таъсири концептуал ва таҳлилий жиҳатдан баҳоланди. Мазкур ёндашув чегара олди зоналарининг институционал архитектураси, бошқарув моделлари ва ташқи иқтисодий алоқаларга интеграциялашув даражаси ўртасидаги ўзаро боғлиқликни очиқ беришга хизмат қилди.

#### 1-жадвал

#### Чегара олди савдо-саноат зоналарининг асосий иқтисодий функциялари

Функция	Иқтисодий мазмун	Ривожланишга таъсири
Савдо платформаси	Экспорт-импортни соддалаштириш	Савдо ҳажмини оширади
Инвестиция маркази	Капитал жалб қилиш	Ишлаб чиқариш кенгайди
Логистика узели	Транзит ва транспортни оптималлаштириш	Харажатлар камаяди
Индустриал кластер	Қўшилган қиймат занжири	Инновация тезлашади

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, чегара олди савдо-саноат зоналарида савдо, инвестиция ва ишлаб чиқариш жараёнлари ўзаро мустаҳкам боғлиқ ҳолда фаолият юритганда ҳудуд иқтисодиётида мултипликатив эффект яратилади. Аниқроқ айтганда, савдо фаолиятининг ошиши инвестицияларни рағбатлантириб, молиявий ва иқтисодий ресурсларни кенгайтиришга хизмат қилади. Шу инвестициялар натижасида ишлаб чиқариш ҳажми ва маҳаллий бандлик даражаси ортса, бу ҳудуднинг иқтисодий ўсиши ва ижтимоий барқарорлигини мустаҳкамлайди. Шундай қилиб, чегара зоналаридаги мазкур ўзаро боғлиқлик механизми минтақавий ривожланиш учун самарали мултипликатор функциясини бажаради ва минтақавий иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишлари учун муҳим стратегик аҳамият касб этади.

Олиб борилган таҳлил шуни кўрсатадики, мамлакатлар ўз иқтисодий стратегияси, геосиёсий жойлашуви ва ривожланиш босқичидан келиб чиқиб, чегара олди зоналарига турли устувор вазифаларни белгилайди. Масалан, айрим давлатлар учун экспортни рағбатлантириш ва халқаро савдо фаолиятини кенгайтириш биринчи даражада муҳим бўлса, бошқалари учун транспорт-логистика имкониятларини ривожлантириш ёки саноат корхоналарини чегара ҳудудларига жойлаштириш устувор вазифа ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, чегара олди савдо-саноат зоналарини назарий жиҳатдан турли моделларга ажратиш, уларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқ баҳолаш ва таққослаш имконини беради.

Мазкур ёндашув асосида, хорижий тажриба таҳлили ва иқтисодий амалиётни ҳисобга олган ҳолда, чегара олди зоналарини қуйидаги асосий тўрт концептуал моделга ажратиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

**2-жадвал****Хорижий мамлакатлар тажрибасида чегара олди савдо-саноат зоналари моделлари**

<b>Модель</b>	<b>Асосий давлатлар</b>	<b>Асосий устувор йўналиш</b>	<b>Иқтисодий натижа</b>
Экспортга йўналтирилган	Хитой, Вьетнам	Экспорт ва ташқи савдо	Савдо ҳажми ўсиши
Логистика-транзит	Қозоғистон, Туркия	Транспорт коридорлари	Транзит фаоллиги ошиши
Индустриал интеграция	Польша, Чехия	Саноат кластерлари	Ишлаб чиқариш ўсиши
Инновацион платформа	Жанубий Корея	Технология ва R&D	Инновация жадаллашуви

2-жадвалда тақдим этилган классификация чегара олди савдо-саноат зоналарини ташкил этишда ягона универсал модел мавжуд эмаслигини илмий жиҳатдан тасдиқлайди. Ҳар бир давлат ўзининг геоиқтисодий жойлашуви, ташқи савдо стратегияси, саноат сиёсати ва технологик ривожланиш босқичидан келиб чиқиб, чегара олди зоналарини турлича иқтисодий вазибалар билан шакллантирган.

Жадвалдан кўриниб турибдики, экспортга йўналтирилган модел асосан ташқи бозорларга чиқиш имкониятлари юқори бўлган давлатларда самарали бўлган. Логистика-транзит модели эса географик жойлашуви транспорт йўлаклари билан боғлиқ мамлакатлар учун устувор аҳамият касб этган. Индустриал интеграция модели ишлаб чиқаришни ҳудудий диверсификация қилиш ва саноат фаоллигини тармоқлар бўйича кенгайтиришни мақсад қилган давлатларда кенг қўлланган. Шу билан бирга, инновацион платформа модели юқори технологияли иқтисодиётга ўтаётган мамлакатларда стратегик йўналиш сифатида фаолият юритган.

Мазкур классификация шуни кўрсатадики, чегара олди зоналарининг иқтисодий самарадорлиги фақат солиқ ва божхона имтиёзлари билан чекланмайди, балки зонанинг қайси концептуал модел асосида шакллантирилганига ҳам боғлиқ. Нотўғри танланган модель инвестицияларни самарасиз йўналтиришга, инфратузилманинг етарли даражада ривожланмаслигига ва минтақавий иқтисодий номуносивбликларнинг сақланиб қолишига олиб келиши мумкин.

Шу нуқтаи назардан, 2-жадвал илмий жиҳатдан нафақат таснифловчи, балки меъёрий-тавсиявий аҳамиятга эга инструмент сифатида ҳам аҳамиятли ҳисобланади. У давлатларга чегара олди савдо-саноат зоналарини режалаштиришда ўз миллий иқтисодий стратегияси ва ҳудудий хусусиятларига мос моделни танлаш зарурлигини илмий асосда кўрсатиб беради.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, чегара олди савдо-саноат зоналарини ташкил этиш амалиёти нафақат ташқи савдо ҳажмларини ошириш, балки чегара ҳудудларининг бутун иқтисодий тузилмасини қайта шакллантиришда стратегик аҳамиятга эга институт сифатида фаолият юритади. Ушбу жараён кенг қамровли иқтисодий механизмлар орқали амалга оширилади ва иқтисодий ўсиш, инвестицион жозибadorлик ҳамда ижтимоий барқарорликка бир вақтнинг ўзида таъсир кўрсатади.

Аввало, натижалар шуни кўрсатадики, чегара олди савдо-саноат зоналари ташқи савдо динамикасига тўғридан-тўғри таъсир кўрсатади. Зоналар фаолияти йўлга қўйилган ҳудудларда экспорт ҳажмлари барқарор ўсиш йўналишига эга бўлади, чунки божхона тартибларининг соддалаштирилиши, логистика инфратузилмасининг

такомиллаштирилиши ва транзит харажатларининг қисқариши ташқи бозорларга чиқиш имкониятларини кенгайтиради. Бу эса маҳаллий ишлаб чиқарувчилар учун рақобатбардошлик устунлигини яратади.

Иккинчидан, инвестицион муҳитда туб сифат ўзгаришлари кузатилади. Чегара олди зоналарида ҳуқуқий режимнинг барқарорлиги, солиқ ва институционал қўллаб-қувватлаш механизмлари инвесторлар учун хавфларни камайтиради. Бу тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар оқимини фаоллаштиради ва хусусий капиталнинг узоқ муддатли лойиҳаларга йўналишини таъминлайди. Натижада ҳудуд иқтисодиёти тармоқ тузилмаси диверсификацияланади ва қўшилган қиймати юқори бўлган ишлаб чиқариш турлари шаклланади.

Учинчидан, чегара олди зоналари бандлик бозорига сезиларли таъсир кўрсатади. Янги иш ўринлари нафақат саноат ва савдо соҳаларида, балки логистика, хизмат кўрсатиш, молия ва инновация секторларида ҳам яратилади. Бу аҳоли даромадларининг ўсишига, ички талабнинг кенгайишига ва маҳаллий бозорларнинг жонланишига олиб келади.

Тўртинчидан, зоналар минтақавий иқтисодий интеграция жараёнларини жадаллаштиради. Чегара ҳудудлари иқтисодий жиҳатдан марказий ҳудудлар билан тенглашиб боради, ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий номутаносиблик қисқаради. Бу жараёнда транспорт ва коммуникация инфратузилмасининг ривожланиши муҳим рол ўйнайди, чунки айнан шу омил минтақавий бозорларни ўзаро боғлайди.

Бешинчидан, тадқиқотлар шуни кўрсатадики, чегара олди савдо-саноат зоналарида шаклланаётган иқтисодий муҳит ташқи тўсиқларга нисбатан барқарор бўлади. Иқтисодий фаолиятнинг диверсификацияси, экспорт йўналишларининг кўпайиши ва молиявий оқимларнинг мувозанатлашуви ҳудуд иқтисодиётининг хавф-хатарларга чидамлилигини оширади.

Хулоса қилиб айтганда, чегара олди савдо-саноат зоналари фақат савдо сиёсатининг инструменти эмас, балки минтақавий ривожланишни комплекс бошқаришнинг муҳим институционал механизми ҳисобланади. Улар орқали ҳудуд иқтисодиётини қайта тизимлаштириш, рақобатбардошликни ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш имкониятлари яратилади.

## 5. Хулоса.

Тадқиқотимиз якуни чегара олди савдо-саноат зоналарини ташкил этиш минтақавий иқтисодий ривожланишни жадаллаштирувчи муҳим институционал механизм эканлигини тасдиқлади. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, ушбу зоналар ташқи савдо фаоллигини ошириш, инвестицион муҳитни мустаҳкамлаш, ишлаб чиқаришни тармоқлар бўйича диверсификация қилиш ва бандликни кенгайтириш орқали ҳудуд иқтисодиётининг барқарор ўсишини таъминлайди. Шу боис, чегара олди савдо-саноат зоналари давлатнинг минтақавий иқтисодий сиёсатида устувор йўналишлардан бири сифатида қаралиши зарур.

### Адабиётлар:

Douglas Zhihua Zeng (2015) Global Experiences with Special Economic Zones. With a Focus on China and Africa. The World Bank Trade and Competitiveness Global Practice February 2015

Xianming Yang, Zanxin Wang, Ying Chen, and Fan Yuan (2011). Factors Affecting Firm-Level Investment and Performance in Border Economic Zones and Implications for Developing Cross-Border Economic Zones between the People's Republic of China and its Neighboring GMS Countries. 2011 Asian Development Bank All rights reserved. Published 2011. Printed in the Philippines. ISBN 978-92-9092-454-8 Publication Stock No. RPT114047

Wikipedia (2025). Hekou Border Economic Cooperation Zone



## Фойда солиғи бухгалтерия ҳисобини МҲХС асосида такомиллаштириш

*И.ф.ф.д., доцент Холмурадов О.Н.*

*Ахборот технологиялари ва менежмент университети*

**Аннотация.** Ушбу мақолада фойда солиғи бухгалтерия ҳисоби ва уни молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида такомиллаштириш масалалари таҳлил қилинади. Мақолада фойда солиғини ҳисобга олишдаги муаммолар, халқаро амалиётдаги ёндашувлар ҳамда уларни миллий тизимга мослаштириш йўллари ёритилган.

**Калит сўзлар:** фойда солиғи, МҲХС, солиқ ҳисоботи, молиявий натижалар, захиралар, фойда, харажат, даромад, инвестор, жорий солиқ, кечиктирилган солиқ, интеграция, бошқа умумлашган даромадлар.

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы бухгалтерского учета налога на прибыль и его совершенствования на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). В статье рассматриваются проблемы учета налога на прибыль, подходы, применяемые в международной практике, а также пути их адаптации к национальной системе учета.

**Ключевые слова:** налог на прибыль, МСФО, налоговая отчетность, финансовые результаты, резервы, прибыль, расходы, доходы, инвестор, текущий налог, отложенный налог, интеграция, прочий совокупный доход.

**Abstract.** This article analyzes issues related to the accounting of corporate income tax and its improvement based on International Financial Reporting Standards (IFRS). The paper examines existing problems in accounting for income tax, approaches applied in international practice, and ways of adapting these approaches to the national accounting system.

**Keywords:** corporate income tax, IFRS, tax reporting, financial results, provisions, profit, expenses, income, investor, current tax, deferred tax, integration, other comprehensive income.

### 1. Кириш

Ўзбекистон иқтисодиётининг ҳозирги глобаллашув шароитида жадал ривожланиши, хорижий инвестицияларни жалб этиш ва бизнес муҳитининг очиқлигини таъминлашда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларга мослиги алоҳида аҳамият касб этмоқда. Фойда солиғи бухгалтерия ҳисобининг муҳим йўналишларидан бири бўлиб, хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий натижасини аниқлаш, давлат бюджетини шакллантириш ва фискал сиёсатни бошқаришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Рақамли иқтисодиёт шароитида хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий барқарорлигини таъминлашда фойда солиғи ҳисобининг тўғри юритилиши муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикасининг (2016) “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги”ги қонуни, Ўзбекистон Республикасининг “Солиқ кодекси” (2019) ва МҲХС талабларига

мувофиқ, фойда солиғи ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Ўзбекистонда солиқ тизимини халқаро стандартларга мослаштириш жараёнида фойда солиғини ҳисоблаш, тан олиш ва баҳолаш тартибини МҲҲС талаблари асосида такомиллаштириш зарурати ортиб бормоқда.

БҲҲС 12-сон, “Фойда солиқлари” стандартида фойда солиғини нафақат ҳозирги даврда тўланадиган солиқ сифатида, балки келгусида юзага келадиган кечиктирилган солиқ мажбуриятлари ва кечиктирилган солиқ активлари сифатида ҳам тан олишни талаб қилади.

## **2. Адабиётлар шарҳи.**

Фойда солиғининг норматив-ҳуқуқий асослари ҳамда иқтисодчи олимларнинг қарашларини келтириб ўтамиз.

Фойда солиғи жами даромаддан, даромадни олиш билан боғлиқ харажатларни, яъни исботланган ва ҳужжат билан тасдиқланган харажатларни шунингдек, Солиқ кодексида назарда тутилган солиқ тўловчи томонидан юзага келтирилган зарарни чиқариб ташлаш билан ҳисобланган солиқ тушунилади.

Л.И.Гончаренконинг (2019) фикрича “юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи анча муҳим фискал рол ўйнайди, лекин шу билан бирга у иқтисодиёт ва ижтимоий соҳага нисбатан муҳим тартибга солиш салоҳиятига эга”.

В.Г.Пансков, (2019) “ташкилот томонидан олинган фойда давлат, ташкилот эгалари ва ташкилотнинг ўзи ўртасида тақсимланади. Давлат ва ташкилотлар ўртасидаги муносабатларга келсак, улар фойдани солиққа тортиш асосида қурилади, бунда солиққа тортиладиган фойданинг ўзи солиқ ҳисоби маълумотлари асосида ҳисобланади”.

А.Ю.Илин (2021) талқинича: “фойда солиғи давлатнинг молиявий жараёнларининг ривожланишига фаол таъсир кўрсатиши мумкин бўлган солиқлардан биридир”.

Ж.Блокнинг (2021) таъкидлашича, “юридик шахслардан олинадиган даромад солиғи тадбиркорлик фаолиятининг миқдори ва турига таъсир қилади, бу эса ўз навбатида иқтисодий ривожланишга таъсир қилади. Эмпирик далиллар шуни кўрсатадики, юқори корпоратив даромад солиғи ставкалари бизнес зичлиги ва тадбиркорликка кириш ставкаларини камайтиради ва янги фирмаларнинг капитал ҳажмини оширади”.

Иқтисодиётни ва солиқ тизимини рақамлаштириш солиққа тортишнинг назарий масалалари ва принципларига ҳам таъсир кўрсатади.

Бу борада З.Н.Курбановнинг қуйидаги фикрларини келтириш ўринли деб ҳисоблаймиз: “Мамлакатимиз иқтисодиётини рақамлаштириш жараёни талабларидан келиб чиққан ҳолда солиққа тортиш ва бухгалтерия ҳисобининг мавжуд моделларини, объекти ва методларини рақамлаштириш жараёнига мослаштириш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва молиявий ҳисобот шаклларини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига уйғунлаштириш зарур”.

Х.Ў.Пўлатов ва Ш.А.Абдугаппаровлар (2022) МҲҲС ўтишнинг фойда солиғига таъсирини қуйидагича ифодалайди: “Фойда солиғи ҳисобига оид молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларининг (МҲҲС) мамлакатлар миллий иқтисодиётида қўллашнелиши ўзига хос вазифаларни амалга оширишни ва ёндашувларни талаб этади. Ушбу стандартнинг мақсади фойда солиғини ҳисобга олиш тартибини белгилашдан иборатдир”.

Д.Дж.Пашаходжаеванинг (2023) фикрича, “Республикамизда фойда солиғи кўрсаткичлари ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲҲС)га мувофиқлаштириш ва улар талабларидан келиб чиқиб, фойда солиғига доир ҳисоб-китобларни ҳисоб ва ҳисоботда акс эттириш тартибларини такомиллаштириш бўйича

махсус тадқиқотлар олиб борилмаган. Чоп этилган ишларда фойда солиғи кўрсаткичларининг яхлит тизими ишлаб чиқилмаган, жумладан улар бўйича ҳисоб ва ҳисоботда ахборотларни тизимли шакллантириш масалалари етарли даражада тадқиқ қилинмагани, илмий-амалий жиҳатдан аҳамиятга моликлиги фойда солиғи кўрсаткичлари ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲҲС)га мувофиқлаштириш масалаларини чуқур тадқиқ қилишни объектив зарурат қилиб қўймоқда”.

### **3. Тадқиқот методологияси.**

Ушбу мақолада фойда солиғининг назарий жиҳатлари, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида амалдаги ҳолат жараёнларини таҳлил қилиш ва стратегик ёндашувлар масалалари ўрганилади. Тадқиқот қуйидаги методологик ёндашувларга асосланган: комплекс тизимли таҳлилий ёндашув статистик таҳлил, таққослаш таҳлил ва қиёсий таҳлил қилиш усулларида фойдаланилди.

### **4. Таҳлил ва натижалар.**

Халқаро амалиётда фойда солиғини ҳисоблашда қуйидаги МҲҲСларидан фойдаланилади.

“12-сон БҲҲС “Фойда солиқлари”нинг мақсади фойда солиқларини ҳисобга олиш тартибини белгилашдан иборат”. Мазкур стандарт, шунингдек, фойдаланилмаган солиқ зарарларидан ёки фойдаланилмаган солиқ имтиёзларидан келиб чиқадиган кечиктирилган солиқ активларини тан олишни, фойда солиқларини молиявий ҳисоботда акс эттиришни ва фойда солиқларига тегишли маълумотларни ёритиб беришни қамраб олади”.

15-сон МҲҲС “Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум”га мувофиқ тушум – бу ташкилотнинг одатий фаолияти давомида юзага келадиган дапомад. 15-сон МҲҲСда (IFRS) тушумни эътироф этиш учун шартномаларни 5 босқичли моделдан фойдаланган ва шартномаларни идентификация қилган ҳолда таҳлил қилиш лозим”.

МҲМСга асосан, фойда солиғи ўз ичига солиқ солинадиган фойдадан олинadиган барча миллий ва чет элдаги фаолият бўйича солиқларни олади. Фойда солиғи, шунингдек, ўз ичига шўъба ташкилот, таъсир остидаги ташкилот ёки биргаликдаги фаолият бўйича келишув томонидан ҳисобот берувчи ташкилот фойдасига тақсимланadиган суммалардан олинadиган ва тўлов манбаида ушлаб қолинadиган солиқларни ҳам олади. У ташкилотдан молиявий ҳисоботда тан олинган операциялар ва бошқа ҳодисаларнинг жорий ва келгуси солиқ оқибатларини тан олишини талаб қилади. Ушбу тан олинadиган солиқ суммалари жорий солиқ ва кечиктирилган солиқдан ташкил топади.

Жорий солиқ - бу жорий ёки ўтган даврлар учун солиқ солинадиган фойда (солиқ зарари) бўйича тўланадиган (қопланадиган) фойда солиғи.

Кечиктирилган солиқ - бу келгуси даврларда тўланадиган ёки қопланадиган фойда солиғи бўлиб, одатда ташкилот ўзининг активлари ва мажбуриятларини уларнинг жорий баланс қиймати билан қопланишидан ёки сўндирилишидан ҳамда фойдаланилмаган солиқ зарарлари ва солиқ имтиёзларини келгуси даврларга ўтказилишининг солиқ бўйича таъсири натижасида келиб чиқади.

Ўзбекистонда фойда солиғи ҳисоби амалиётини МҲҲСга мослаштириш қуйидаги йўналишларда амалга оширилмоқда:

1. МҲҲСга мувофиқ бухгалтерия ҳисоб сиёсатини шакллантириш. Ҳар бир хўжалик юритувчи субъектлар фойда солиғи ҳисобини 12-сон БҲҲС “Фойда солиқлари” талабларига асосланиб юритиши зарур;

2. Кечиктирилган солиқ ҳисоби тизимини жорий этиш. Бу амалиёт ҳозирда қўпчилик корхоналарда тўлиқ тадбиқ этилмаган. Шунинг учун бухгалтер учун амалий қўлланмалар ишлаб чиқиш муҳим;

3. Молиявий ва солиқ ҳисоби интеграциясини таъминлаш. МҲХС асосидаги ҳисоботларда солиқ натижалари молиявий кўрсаткичлар билан уйғунлаштирилиши лозим;

4. Солиқ маълумотларининг шаффофлигини ошириш. Электрон ҳисобот тизимлари орқали солиқ идоралари билан маълумот алмашиш жараёнларини автоматлаштириш фойда солиғи ҳисобини соддалаштириш.

**1-жадвал**

**Фойда солиғини МҲХС асосида такомиллаштиришнинг афзалликлари**

<b>Афзалликлари</b>	<b>Изоҳ</b>
Шаффофлик	Молиявий натижалар, фойда ёки зарарлар ва бошқа умумлашган даромадлар инвесторлар учун тушунарли бўлади
Солиқ хавфини камайтириш	МҲХС асосида ҳисоб юритиш солиқ текширувидаги ноаниқликларни камайтиради
Хорижий инвестицияларни жалб этиш	МҲХС асосидаги ҳисоботлар инвесторлар, сармайдорлар учун ишончли ахборот манбаидир
Ҳисоботнинг таққосланиши	МҲХС асосида тузилган ҳисоботлар хорижий компаниялар билан таққосланиши

Жаҳонда фойда солиғининг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш мақсадида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларидан фойдаланади. Халқаро амалиётда фойда солиғининг бухгалтерия ҳисобини юритишда бир нечта МҲХСлардан фойдаланилади. Жумладан, БҲХС (IAS) 2-“Захиралар”, МҲХС (IFRS) 5-“Сотиш учун мўлжалланган узоқ муддатли активлар ва тугатилган фаолият”, БҲХС (IAS) 7- “Пул маблағлар харакати тўғрисидаги ҳисобот”, БҲХС (IAS) 8- “Ҳисоб сиёсати, ҳисоб баҳоларидаги ўзгаришлар ва хатолар”, БҲХС (IAS)-12 “Фойда солиқлари”, МҲХС (IFRS) 13-“Ҳаққоний қийматни баҳолаш”, БҲХС (IAS) 16- “Асосий воситалар”, МҲХС (IFRS) 16- “Ижара”, БҲХС (IAS) 19- “Ходимларнинг даромадлари”, БҲХС (IAS) 28- “Таъсир остидаги ташкилотларга ва қўшма корхоналарга инвестициялар” каби стандартлардаги меъёрлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

**5. Хулоса.**

Фойда солиғи ҳисоби хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий натижаларини тўғри акс эттириш ва давлат бюджети даромадларини шакллантиришда муҳим аҳамият эга. Ўзбекистонда фойда солиғини МҲХС асосида такомиллаштириш қуйидаги натижаларга олиб келади:

- ✓ Солиқ ҳисоби ва бухгалтерия ҳисоби ўртасидаги тафовутлар камаяди;
- ✓ Инвестицион муҳит янада яхшиланади;
- ✓ Молиявий ҳисоботларнинг ишончилиги ошади.

Хулоса қилиб айтганда, фойда солиғи ҳисобини халқаро стандартларга мослаштириш мамлакат иқтисодиётининг барқарор ривожланишига ҳисса қўшади.

**Адабиётлар:**

Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелдаги “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги ЎРҚ-404-сон Қонуни.

Ўзбекистон Республикасининг “Солиқ кодекси. 2019 йил

Block J. Corporate income taxes and entrepreneurship // IZA World of Labor.

Гончаренко, Л. И. Налоги и налоговая система Российской Федерации: учебник / Л.

И. Гончаренко. - учебник и практикум для бакалавриата. - 2-е изд., пер. и доп. - М.: Издательство Юрайт. - 524 с.

Ильин А.Ю. Налог на прибыль организаций: актуальные вопросы налогообложения. – М.: Проспект. – с. 4.

Пансков, В. Г. Налоги и налогообложение: теория и практика в 2 т. Том 1: учебник и практикум для академического бакалавриата / В. Г. Пансков. - 6-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт.- 363 с.

Пашаходжаева Д. Дж. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарт талаблари асосида фойда солиғи ҳисобини юритиш масалалари. Бухгалтерия ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида ташкил этиш масалалари // Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (Иқисм). 2-ноябр. Самарқанд, СамИСИ, 232 – бет.

Пўлатов Х.Ў., Абдугаппаров Ш.А. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартида фойда солиғининг ҳисоблашнинг ўзига хослиги. ЖУРНАЛ. Экономика и социум.5 (96).-1. 12-сон БҲҲС “Фойда солиқлари”.

15-сон МҲҲС “Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум”.



## МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАРНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*И.ф.ф.д., доцент Холмурадов О.Н.*

*Ахборот технологиялари ва менежмент университети*

**Аннотация.** Ушбу мақолада хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг шаклланиши, бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш масалалари ўрганилган. Молиявий натижа кўрсаткичларининг ишончли ҳисобга олиниши, МҲХСга мос равишда эътироф этилиши ва таҳлил этилиши корхонанинг молиявий барқарорлиги ҳамда инвесторлар учун ахборотнинг очиқ-ошкоралигини таъминлашдаги аҳамияти кўрсатиб берилган. Шунингдек, миллий амалиётда учрайдиган муаммолар таҳлил қилиниб, уларни бартараф этиш бўйича илмий асосланган тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** молиявий натижа, даромад, харажат, фойда ва зарар, бухгалтерия ҳисоби, МҲХС, молиявий таҳлил, иқтисодий самарадорлик, рентабеллик.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы формирования финансовых результатов в хозяйствующих субъектах, совершенствования бухгалтерского учета и анализа. Достоверный учет, признание и анализ показателей финансового результата в соответствии с МСФО свидетельствуют о важности обеспечения финансовой устойчивости предприятия и открытости информации для инвесторов. Также были проанализированы проблемы, встречающиеся в национальной практике, и разработаны научно обоснованные рекомендации по их устранению.

**Ключевые слова:** финансовый результат, доходы, расходы, прибыли и убытки, бухгалтерский учет, МСФО, финансовый анализ, экономическая эффективность, рентабельность.

**Abstract.** This article discusses the issues of financial results formation in economic entities, improvement of accounting and analysis. Reliable accounting, recognition and analysis of financial results indicators in accordance with IFRS demonstrate the importance of ensuring the financial stability of the enterprise and the openness of information for investors. It was also analyzed the problems encountered in national practice and developed scientifically based recommendations for their elimination.

**Keywords:** financial result, income, expenses, profits and losses, accounting, IFRS, financial analysis, economic efficiency, profitability.

### 1. Кириш.

Жаҳон амалиётида хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳолати унинг ҳисобот давридаги молиявий натижаси билан баҳоланади. Хўжалик юритувчи субъектнинг маълум муддатдаги фаолиятининг якуний кўрсаткичи молиявий натижалар билан характерланади. Ҳар қандай ташкилий-ҳуқуқий шаклдаги

ташкilotнинг мақсади фойда олиш ҳисобланади. Молиявий натижалар тўғрисидаги маълумотлар компаниянинг бизнес фаолиятини объектив ва ҳар томонлама баҳолаш учун зарурдир. Ушбу маълумотлар эгалари ва менежерлари учун тўғри бошқарув қарорларини қабул қилишлари учун муҳимдир.

## 2. Адабиётлар шарҳи.

Рақамли иқтисодиёти шароитида корхоналарнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолашда молиявий натижалар асосий ўринни эгаллайди. Корхона фаолиятининг самарадорлиги, рағбатлантириш сиёсати, солиқ солиш базаси ҳамда инвестицион жозибadorлиги айнан молиявий натижалар кўрсаткичлари орқали намоён бўлади. Шу боис, молиявий натижалар ҳисобини халқаро андозаларга мос равишда ташкил этиш ва унинг таҳлилини такомиллаштириш долзарб аҳамият касб этади.

Молиявий натижа - корхонанинг маълум ҳисоб даврида амалга оширган фаолияти натижасида олинган фойда ёки зарардир. У қуйидаги вазифаларни бажаради:

- ✓ иқтисодий самарадорлик мезони – корхона фаолиятининг қанчалик самарали ташкил этилганини кўрсатади;

- ✓ инвестицион қарорлар асоси – инвесторлар, кредиторлар ва бошқа манфаатдор томонлар учун ишончли ахборот тақдим этади;

- ✓ солиқ солиш базаси – давлат бюджетига тўланадиган солиқлар фойда асосида шаклланади;

- ✓ стратегик бошқарув учун ахборот манбаи – келгуси режалаштириш ва бюджетлаштириш жараёнида асосий ўринни эгаллайди.

Бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш, юритиш ва ҳисоботни тузиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш Ўзбекистон Республикаси “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонуни, Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сон қарори билан тасдиқланган “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида”ги Низом ва Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (2-сонли БҲМС) “Асосий хўжалик фаолиятдан даромадлар” асосида амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикасининг (2016) йил 13 апрелдаги “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги ЎРҚ-404-сон қонунининг 7-моддасида активлар, мажбуриятлар, хусусий капитал, захиралар, даромадлар, харажатлар, фойда, зарарлар ва уларнинг ҳаракати билан боғлиқ хўжалик операциялари бухгалтерия ҳисобининг объектларидир деб белгилаб қўйилган. Ушбу қонуннинг 18-моддасида даромадлар ва харажатларни тан олиш қуйидагича эътироф этилган: “Даромадлар ва харажатлар тўланган вақти ва пул келиб тушган санадан қатъи назар, қайси даврга тааллуқли бўлса, ўша ҳисобот даврида бухгалтерия ҳисоби стандартларига мувофиқ акс эттирилади”.

З.А. Умаров (2010) қуйидагича таъриф беради: “Молиявий натижа – бу, фаолиятга комплекс баҳо берувчи ва содир бўлган иқтисодий жараёнларни ҳаққоний акс эттирувчи даромад, харажат, фойда ва зарар кўринишидаги иқтисодий кўрсаткичдир”.

В.Г.Гетман (2017) фикрича, “молиявий натижа фойда ёки зарар кўрсаткичлари билан белгиланади, бошқарув натижаси ва сарфланган харажатлар самарадорлигини умумлаштирилган шаклда акс эттиради”.

О.В.Ефимова (2013) бу борада қуйидагиларни таъкидлайди: “Корхонанинг молиявий натижаси деганда фойда тушунилади, шу билан бирга, якуний натижа ҳақиқатан ҳам эгалари тасарруф этиш ҳуқуқига эга бўлган натижадир, жаҳон амалиётида бу “соф активларнинг кўпайиши” деган маънони англатади”.

В.В.Бочаров (2016) эса “Корхонанинг молиявий натижаларини шакллантириш тартиби молиявий натижалар тўғрисидаги ҳисоботга киритилган моддаларни

тизимлаштиради ва ҳисобот даврининг ялпи фойдасидан тақсимланмаган (соф) фойда (қопланмаган зарар)гача шаклланишини кўрсатади”.

Г.В.Савицкая (2014) ўз тадқиқотида “Корхонанинг молиявий натижалари олинган фойда миқдори ва рентабеллик даражаси билан тавсифланади. Фойда - соф даромаднинг бевосита хўжалик юритувчи субъектлар томонидан маҳсулот сотилгандан кейин олинган қисми, рентабеллик кўрсаткичлари умумий иш самарадорлигини тавсифлайди ва фойдадан кўра кўпроқ бошқарувнинг якуний натижаларини акс эттиради, чунки уларнинг қиймати таъсирнинг пул ёки фойдаланилган ресурсларга нисбатини кўрсатади -деб изоҳлаб ўтган”.

М.Н.Крейнина (2009) эса молиявий натижаларни очиб беришда фойда - бу корхонанинг молиявий кўрсаткичларини тавсифловчи иқтисодий кўрсаткич, барча турдаги даромадларнинг барча турдаги харажатлардан ошиб кетиши” -деб таъкидлаган.

А.В.Сметанко, А.С.Коваленко, И.С.Шарапова, Е.С.Сорокина, Н.В.Бурдюгларнинг (2016) илмий тадқиқотларида молиявий натижаларни ҳисобга олиш, молиявий ҳисобнинг якуний босқичи ҳисобланади деб ўз фикрларини ёритиб бердилар: “Шунинг учун уни такомиллаштириш учун бухгалтерия ҳисобини олдинги босқичларда ратсионалаштириш лозимлиги ва бундай шароитда бухгалтерия ҳисоби ва маркетингни уйғунлаштиришга асосланган стратегик ҳисоб тизимига эришиш маълум бир давр учун ташкилотнинг фаолияти натижасида деб тушуниш керак деган хулосага келди. Даромад ёки зарар ўртасидаги фарқ ҳақида қуйидаги фикрларни билдирди: оддий фаолиятдан олинган молиявий натижалар-ташкилотнинг асосий фаолияти субъекти бўлган операциялардан олинган фойда (зарар); бошқа фаолиятдан олинган молиявий натижалар; ташкилотнинг асосий фаолиятдан бошқа операциялардан олинган фойда (зарар); фавқулодда ҳодисалардан молиявий натижалар. Ташкилотнинг молиявий натижалари табиатини очиб бериш учун даромад ва харажатларнинг иқтисодий мазмунини амалдаги қонунчилик нуқтаи назаридан ўз хулосаларини беришган”.

Н.Н.Селезнева (2015) фикрича, “ташкилотнинг молиявий натижалари ва рентабеллиги компаниянинг айланма маблағларини таҳлил қилиш билан бевосита боғлиқ. Фойда - тадбиркорнинг инвестиция қилинган капитал бўйича соф даромади бўлиб, пул шаклида ифодаланади, унинг бизнесни юритиш хавфи учун ҳақ тўлашини тавсифлайди. Фойда - бу бизнесни юритиш жараёнида умумий даромад ва умумий харажатлар ўртасидаги фарқ”.

Концептуал асосга кўра молиявий ҳисоботнинг элементлари ва молиявий натижани ифодаловчи кўрсаткичлар қуйидагича таснифланади ва у 1-жадвалда келтирилган.

**1-жадвал**

**Молиявий ҳисоботнинг элементлари ва молиявий натижани ифодаловчи кўрсаткичлари**

Умумий тушунчалар	Элементлар номи	Таъриф ёки тавсиф
Иқтисодий ресурс	Актив	Олдинги ҳодисалар натижасида ташкилот томонидан назорат қилинадиган мавжуд <b>иқтисодий ресурс</b> . Иқтисодий ресурс бу иқтисодий нафлар яратиш потенциалига эга бўлган <b>ҳуқуқ</b> ҳисобланади.
Талаб қилиш ҳуқуқи	Мажбурият	Ташкилотнинг олдинги ҳодисалар натижасида юзага келган <b>иқтисодий ресурсни ўтказиш</b> бўйича <b>мавжуд жавобгарлиги</b> .
	Хусусий капитал	Ташкилотнинг барча мажбуриятлари чегирилгандан кейин унинг активларидаги қолдиқ улуш.

Умумий тушунчалар	Элементлар номи	Таъриф ёки тавсиф
Иқтисодий ресурслар ва талаб қилиш ҳуқуқларидаги ўзгаришлар	Даромадлар	Хусусий капиталга нисбатан талаб қилиш ҳуқуқлари эгаларининг бадаллари билан боғлиқ бўлмаган хусусий капиталнинг ошишига олиб келадиган <b>активларнинг ошиши ёки мажбуриятларнинг камайиши.</b>
	Харажатлар	Хусусий капиталига нисбатан талаб қилиш ҳуқуқлари эгаларига тақсимлашлар билан боғлиқ бўлмаган хусусий капиталнинг камайишига олиб келадиган <b>активларнинг камайиши ёки мажбуриятларнинг ошиши.</b>
	Фойда	Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти 12-сон "Фойда солиқлари"да бухгалтерия фойдаси – бу давр учун фойда солиғи харажати чегириб ташланишидан олдинги фойда ёки зарардир.

### 3. Тадқиқот методологияси.

Ушбу тадқиқотда молиявий натижаларнинг назарий жиҳатлари, молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисоби амалдаги ҳолат жараёнларини таҳлил қилиш ва стратегик ёндашувлар масалалари ўрганилади. Тадқиқот қуйидаги методологик ёндашувларга асосланган: комплекс тизимли таҳлилий ёндашув статистик таҳлил, таққослаш таҳлил ва қиёсий таҳлил қилиш усулларидадан фойдаланилди.

### 4. Таҳлил ва натижалар.

Молиявий натижаларни шаклантиришда асосий кўрсаткичлар бўлиб даромадлар ва харажатлар ҳисобланади.

Даромадларни ҳисобга олишда энг муҳим масалалардан бири, бу амалиётда даромадларни тан олиш бухгалтерия ҳисоби принципларининг тўғри қўлланилишидир. Даромадларни ҳисобда қайд этишда мезон ва қоидалардан ҳар қандай четланиш молиявий натижаларнинг объективлигига таъсир этади. Корхона харажатлари биринчидан, унинг молиявий натижаларини аниқлашда қатнашса, иккинчидан, солиққа тортиш базасини аниқлашда қатнашади.

"Shurtan gaz kimyo majmuasi" маъсулияти чекланган жамиятнинг 2022-2023 йиллар учун молиявий натижаларининг таққослама таҳлили 2-жадвалда келтирилган.

Қуйидаги 2-жадвалда "Shurtan gaz kimyo majmuasi" маъсулияти чекланган жамияти 2023 йилда маҳсулотларни сотишдан 2022 йилга нисбатан 30806442 минг сўм соф тушумни ташкил этиб, яъни 109,5 фоизга ошган. Сотилган маҳсулотларнинг таннархи 1 734 026 737 минг сўмни ташкил этган бўлиб, ушбу кўрсаткичлар 2022 йилга нисбатан 370736759 минг сўмга ошган. Давр харажатлари 2022 йилга нисбатан 73187406 минг сўмни ташкил этиб 115,8 фоизга ошган. Ушбу давр харажатларининг ошишида улушни сотиш харажатлари 45 518 052 минг сўмга ошиб 2,6 баравардан ортиқни ташкил қилмоқда. Бошқа операцион харажатлар эса 22 485 221 минг сўмни ташкил этиб, 105,7 фоизга ошган. Корхона харажатлар самарадорлигини аниқлаш ва харажатлар таркибини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ бўлади.

2-жадвал

**"Shurtan gaz kimyo majmuasi" маъсуляти чекланган жамиятнинг молиявий натижалари таркиби, тузилиши ва динамик ўзгаришларининг таҳлили**

Кўрсаткичлар	2022 йил	2023 йил	Ўзгариши, (Фарқи, +,-)	Фоизда
	Сумма, минг сўм	Сумма, минг сўм	Сумма, минг сўм	
Маҳсулот (товар, иш ва хизмат) ларни сотишдан соф тушум	3 248 619000	3 556 68 342	30806442	109,5
Сотилган маҳсулот (товар, иш ва хизмат) ларнинг таннари	1 363 289978	1 734 026737	370736759	127,2
Маҳсулот (товар, иш ва хизмат) ларни сотишнинг ялпи фойдаси (зарари)	1 885 329022	1 822 662605	62666417	96,7
Давр харажатлари, жами	462 421 396	535 608 802	73187406	115,8
Асосий фаолиятнинг бошқа даромадлари	35 079 169	92 570 465	57491296	263,9
Асосий фаолиятнинг фойдаси (зарари)	1 457 986795	1 379 624268	78362527	94,6
Молиявий фаолиятнинг даромадлари, жами:	780 940 638	613 315 077	167625561	78,5
Молиявий фаолият бўйича харажатлар жами:	681 332 434	653 222 952	28109482	95,9
Умумхўжалик фаолиятининг фойдаси (зарари)	1 557 594999	1 339 716393	217878606	86,0
Фойда солиғини тўлагунга қадар фойда (зарар)	1 557 594999	1 339 716393	217878606	86,0
Фойда солиғи	373 852 936	267 546 236	106306700	71,6
Ҳисобот даврининг соф фойдаси (зарари)	1 183 742063	1 072 170157	111571906	90,6

Ҳисобот йилида МЧЖ бюджетга 267 546 236 минг сўм фойда солиғи ҳисоблаган. Йил якунида ушбу жамият 1 072 170 157 минг сўм миқдорида соф фойда олган.

Молиявий натижалар таҳлили қуйидаги мақсадларга хизмат қилади:

- корхонанинг рентабеллик даражасини баҳолаш;
- харажатлар самарадорлигини аниқлаш;
- фаолиятни оптималлаштириш учун қарор қабул қилиш;
- фойдага таъсир этувчи омилларни ўрганиш (омилли таҳлил).

Молиявий натижаларни таҳлил қилишда қуйидаги усуллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ:

- горизонтал таҳлил – даврлар кесимида ўзгаришларни баҳолаш;
- вертикал таҳлил – харажатлар ва даромадлар таркибини таҳлил қилиш;
- факторли таҳлил (Дуирон модели) – активлар айланувчанлиги, маржа, рентабеллик кўрсаткичлари таъсирини аниқлаш;
- тренд таҳлили – режа ва прогнозлаштириш учун асос.

Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларни ҳисобга олиш ва таҳлил қилишда қатор муаммолар мавжуд:

- харажатларни тўлиқ ва аниқ ҳисобга олишда камчиликлар;
- даромадларни нотўғри эътироф этиш (асосий фаолият ва операцион фаолиятни аралаштириш);

- МҲХСга мос ахборот тизимларининг етишмаслиги;
- фойда шаклланишининг омиллари бўйича чуқур таҳлил қилинмаслиги;
- таҳлилда рақамли технологиялардан етарли фойдаланилмаслиги.

Молиявий натижалар ҳисобини ва таҳлилини такомиллаштириш бўйича қуйидаги тавсиялар ишлаб чиқилди:

- ҳисоб сиёсатини оптималлаштириш;
- даромад ва харажатларни МҲХС талабларига мувофиқ эътироф этишни жорий этиш;
- харажатларни функционал ва иқтисодий элементлар бўйича тўғри тақсимлаш;
- рақамли бухгалтерия ва автоматлаштирилган ҳисоб тизимларидан фойдаланиш;
- ERP va IFRS reporting тизимларига ўтиш;
- real-time analytics имкониятларини йўлга қўйиш;
- чуқур молиявий таҳлил моделларини жорий этиш;
- Дурун модели асосида рентабелликни тағлил қилиш;
- KPI va benchmarking усулларида фойдаланиш.

## 5. Хулоса.

Молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш корхоналарнинг стратегик ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. МҲХСга мос ҳисоб юритиш ва илғор таҳлил усулларида фойдаланиш фойданинг реал ҳолатини аниқлаш, инвестицион жозибadorликни ошириш ва корхонанинг рақобатбардошлигини таъминлашга хизмат қилади.

Тадқиқот натижалари амалий жиҳатдан муҳим бўлиб, корхоналарнинг молиявий менежментини такомиллаштиришда фойда беради.

## Адабиётлар:

Ўзбекистон Республикасининг (2016) “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги ЎРҚ-404-сон Қонуни.

"Shurtan gaz kimyo majmuasi" (2022, 2023) маъсулияти чекланган жамиятнинг “Молиявий натижалар тўғрисидаги” ҳисоботи” 2-сон шакли.

Бочаров В. В. (2016) Инвестиции: учебник и практикум для академического бакалавриата / В. Е. Леонтьев, В. В. Бочаров, Н. П. Радковская. – Москва : Издательство Юрайт.

Гетьман В. Г. (2017) Бухгалтерский учет: учебник / под ред. проф. В. Г. Гетьмана. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: ИНФРА-М, – 601 с.

Ефимова О. В. (2013) Анализ финансовой отчетности: учебное пособие для магистров / О. В. Ефимова [и др.]. – Москва: Омега-Л, – 388 с

Крейнина М. Н. (2009) Финансовый менеджмент: учебное пособие. – Москва : Дело и Сервис. – 245 с

Савицкая Г. В. (2014) Анализ хозяйственной деятельности предприятия : учебное пособие / Г. В. Савицкая – Москва : ИНФО. – 377с.

Селезнева Н. Н. (2015) Финансовый анализ. Управление финансами : учебное пособие / Н. Н. Селезнева, А. Ф. Ионова. – Москва : ЮНИТИ-ДАНА. – 639 с.

Сметанко А. В. (2016) Актуальные вопросы аудита бухгалтерской отчетности в Российской Федерации / А. В. Сметанко, Ю. В. Михальчук // Научный альманах. - № 10–1 (24). - С. 233–236.

Умаров З.А. Тижорат банкларида молиявий натижалар ҳисоби ва таҳлилининг назарий-услубий асослари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.



## БАНК ТИЗИМИДА КРЕДИТ ПОРТФЕЛИ СИФАТИНИ ОШИРИШ ВА РИСКЛАРНИ КАМАЙТИРИШ УСУЛЛАРИ

*Янгиев А.Л.*

*Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби*

**Аннотация.** Тижорат банкларида кредит портфелини самарали бошқариш орқали банк даромадлилигини оширишда муҳим омил ҳисобланади. Мақолада банк кредит портфелини ошириш, кредит портфелини диверсификациялашнинг аҳамияти, юзага келадиган муаммолар ҳамда кредит портфелини бошқаришдаги рискларни минималлаштириш ва уни бошқаришни такомиллаштиришга қаратилган таклифлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** тижорат банклари, кредит, кредит портфели, кредит рисқи, диверсификация, кредит сиёсати, муаммоли қарздорликлар, кредитларни таснифлаш.

**Аннотация.** Эффективное управление кредитным портфелем в коммерческих банках является важным фактором повышения прибыльности банка. В статье рассматриваются важность и возникающие проблемы увеличения кредитного портфеля банка, диверсификации кредитного портфеля, а также предлагаются меры по минимизации рисков в управлении кредитным портфелем и его совершенствованию.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, кредит, кредитный портфель, кредитный риск, диверсификация, кредитная политика, проблемная задолженность, классификация кредитов.

**Abstract.** Effective management of the loan portfolio in commercial banks is an important factor in increasing the bank's profitability. The article presents the importance and emerging problems of increasing the bank's loan portfolio, diversifying the loan portfolio, and proposals aimed at minimizing risks in loan portfolio management and improving its management.

**Keywords:** commercial banks, credit, credit portfolio, credit risk, diversification, credit policy, problem debts, credit classification.

### 1. Кириш.

Мамлакатимиз иқтисодиётини янада ривожлантиришда ҳамда банк-молия тизимида рақобатбардошликни оширишда кредит операциялари муҳим ҳисобланади.

Тижорат банкларининг кредит портфели ва сифати банкнинг молиявий ҳолати ва салоҳиятини белгиловчи муҳим омилдир. Мазкур кўрсаткични назорат қилишда банк кредит портфелини бошқариш стратегияси асосий вазифа ҳисобланади.

Кредит портфелини тўғри ташкил этилиши банкларнинг самарали фаолияти учун асосий омил ҳисобланади. Жумладан, кредит ажратиш ва уни белгиланган муддатда қайтариш, муддати ўтган ёки узайтирилган кредитлар ҳисоби, муаммоли қарздорликлар бўйича заҳиралар шакллантирилиши, заҳира миқдори, банклараро кредитлар бўйича операциялари.

Тижорат банклари кредит портфели сифати таркибида муаммоли қарздорликлар улушининг ортиши банк даромадига салбий таъсир кўрсатади. “Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида” ги Низом талабларига кўра активлар таснифланиб, стандарт активларга 1 фоиз, субстандарт активларга 10 фоиз, қониқарсиз активларга 25 фоиз, шубҳали активларга 50 фоиз, умидсиз активларга 100 фоиз миқдорда банк даромади ҳисобидан захира шакллантирилади.

Тижорат банкларида банк кредит портфелини бошқаришда қуйидаги асосий омилларга эътибор қаратилиши долзарб масала ҳисобланади:

- кредит хатари даражасига таъсир курсатувчи омилларни аниқлаш;
- кредитларни амалдаги Низом асосида таснифлаш, улар бўйича тегишли захиралар шакллантириш;
- кредит портфелини соҳалар ва тармоқлар бўйича диверсификациялаш;
- кредит хатарларини прогноз қилиш мақсадида қарз олувчининг кредитга лаёқатлилик даражасини ва унинг молиявий аҳволи ўзгариши эҳтимолини аниқлаш.

Шунингдек, банкнинг кредит сиёсати талабларининг бажарилиши ва уни кредит портфелининг сифатли таҳлилига асосланган ҳолда кредит портфели доимий мониторинг қилиб борилиши талаб қилинади.

## **2. Адабиётлар шарҳи.**

Австрия иқтисодиёт мактабининг етакчи вакили, испаниялик сиёсатчи профессор Jesus Huerta De Sota (2006) асарларига кўра, кредит портфели таркибида муаммоли қарздорликларнинг ортиши, мижозлар фаолиятидаги иқтисодий қийинчиликлар кредит ажратган банклар томонидан чиқарилган банкнот ва депозитлари қийматини йўқотишига ва банкларнинг банкротликка учрашига олиб келади.

Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университети илмий тадқиқотчиси М.А. Гаджигаетовнинг (2015) фикрича, кредит ажратишда қарор қабул қилиш жараёнларида реал баҳолашларнинг аниқлигини оптималлаштириш, бунда турли иқтисодий субъектлар кўрсаткичларини таққослаш мезонларни нормаллаштириш лозим.

Л.И.Абалкин, Г.С.Панова ва бошқа иқтисодчиларнинг фикрича, тижорат банкларининг кредит портфели - бу кредитларнинг сифат ва таркиби бўйича туркумланишидир. Мазкур таърифда кредит портфелининг моҳиятини очиқ беришга ижобий ёндашилган, улар кредитларнинг сифат таркибига қараб маълум омилларни ҳисобга олган ҳолда туркумлаш зарурлигини таъкидлайдилар.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олим Ш.Абдуллаеванинг (2017) фикрига кўра, тижорат банкларининг кредит операциялари ва кредит портфелини бошқариш деганда, маълум шартлар асосида, яъни қайтаришлик, муддатлилик, тўловлилик шартлари асосида маълум бир миқдордаги пулни (ёки товарни) қарзга бериш жараёнларини амалга ошириш тушунилади. Олима ўз таърифида шунингдек, кредит рискларига алоҳида тўхталиб ўтган.

Маҳаллий олимларимиздан яна бири О.К.Иминовнинг (2002) фикрига кўра, кредит бу қарз капиталининг ҳаракатидир.

Н.Обломуродовнинг (2015) илмий асарларида кредит сифатини аниқлаш билан бир қаторда кредитлаш жараёнини бошқариш сифатини баҳолаш, жумладан, тасдиқланган кредит сиёсатига ва кредит ҳужжатларини расмийлаштириш жараёнларига, гаровни расмийлаштириш ва баҳолаш, кредитлашга доир ваколатларни тақсимлаш, қонунчилик меъёрларига риоя қилишга мувофиқлигини таъминлашга эътибор қаратилиши келтириб ўтилган.

Юқоридаги таърифларнинг муҳим жиҳатларини инобатга олиб, кредит портфели сифатини ошириш ва рискларни камайтириш- бу банк кредит портфелини тўғри ва

самарали бошқарган ҳолда активлар ҳолатига тўғри баҳо бериш ҳисобланади.

Банклар фаолиятида кредит операциялари муҳим ўрин тутганлиги сабабли, кредит портфелини тўғри бошқариш банкларнинг самарали фаолият кўрсатишига имкон берувчи омил ҳисобланади. Бу борада йўл қўйилмаган камчиликлар банк даромадига, банк имиджига ва молиявий бозордаги ўрнига салбий таъсир кўрсатади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, кредит портфелини сифатини ошириш ва юзага келиши мумкин бўлган рискларни камайтириш юзасидан изланишлар ва амалий ҳаракатлар олиб борилишини долзарб деб ҳисоблаймиз.

### 3. Тадқиқот методологияси.

Мақоланинг назарий ва услубий асоси сифатида умумиқтисодий адабиёт ҳамда илмий мақолалар, иқтисодчи олимларнинг тижорат банкларида кредит портфелини самарали бошқариш масалалари бўйича изланишлари, олимлар ва соҳа вакилларининг ёзма ва оғзаки фикрларини таҳлил қилиш, жараёнларни кузатиш, тизимли ёндашув, муаллиф тажрибалари билан қиёсий таҳлил ўтказиш орқали тегишли йўналишларда ҳулоса, таклиф ва тавсиялар берилган. Мавзуни ўрганиш жараёнида маълумотларни тизимлаш бўйича махсус ёндашувлар, таққослаш, назарий ва амалий материалларни жамлаш ҳамда тизимли таҳлил каби усуллар қўлланилган.

### 4. Таҳлил ва натижалар.

Кредит портфели таҳлилида тижорат банклари активлари, кредит қолдиқлари миқдори ва уларнинг таркибидаги муаммоли қарздорликлари (NPL) улуши ўрганилади.

### 1-жадвал

#### Тижорат банклари активлари ва уларнинг кредит қўйилмалари (портфели) асосий кўрсаткичлари

млрд. сўмда

Сана	Активлар			Кредитлар			Кредитларнинг жами активлардаги улуши, фоизда
	Жами	шундан:		Жами	шундан:		
		давлат улуши мавжуд банклар	бошқа банклар		давлат улуши мавжуд банклар	бошқа банклар	
1	2	3	4	5	6	7	8
01.01.2020 й.	272 726,9	230 126,4	42 600,5	211 580,5	186 630,3	24 950,2	78
01.01.2021 й.	366 121,1	310 729,5	55 391,6	276 974,8	244 483,9	32 490,9	76
01.01.2022 й.	444 922,5	362 421,9	82 500,6	326 385,6	280 073,6	46 311,9	73
01.01.2023 й.	556 746,3	435 135,6	121 610,7	390 048,9	324 680,8	65 368,2	70
01.01.2024 й.	652 157,1	441 777,2	210 379,9	471 405,5	333 298,1	138 107,4	72
01.02.2024 й.	652 386,6	440 314,7	212 071,9	469 600,4	329 591,1	140 009,4	72
01.03.2024 й.	648 617,4	436 901,5	211 715,9	472 406,9	331 151,0	141 255,9	73
01.04.2024 й.	665 656,9	447 127,6	218 529,2	478 200,6	335 366,4	142 834,2	72
01.05.2024 й.	670 514,6	450 581,5	219 933,1	483 605,3	339 210,0	144 395,3	72
01.06.2024 й.	686 191,0	462 002,9	224 188,1	490 259,5	343 469,4	146 790,1	71
01.07.2024 й.	690 424,1	464 152,5	226 271,7	493 952,1	345 500,8	148 451,3	72
01.08.2024 й.	711 110,6	475 284,3	235 826,3	500 643,9	348 292,7	152 351,2	70
01.09.2024 й.	731 604,7	488 794,8	242 809,9	509 675,8	354 815,5	154 860,4	70
01.10.2024 й.	738 720,8	491 694,2	247 026,6	515 640,8	358 577,6	157 063,1	70
01.11.2024 й.	753 052,0	500 453,2	252 598,8	521 025,0	362 004,6	159 020,4	69
01.12.2024 й.	751 736,1	497 436,2	254 300,0	525 886,5	363 938,6	161 947,9	70

01.01.2025 й.	769 330,4	503 187,0	266 143,4	533 121,2	366 730,5	166 390,7	69
01.02.2025 й.	767 996,1	503 018,9	264 977,1	533 989,0	366 859,9	167 129,2	70
01.03.2025 й.	780 231,9	509 334,7	270 897,1	540 022,1	370 634,4	169 387,7	69
01.04.2024 й.	800 651,8	523 943,3	276 708,5	551 808,8	379 590,9	172 217,9	69
01.05.2024 й.	829 767,7	542 154,9	287 612,8	565 567,9	389 074,9	176 493,0	68
01.06.2024 й.	829 813,2	542 303,1	287 510,1	567 685,2	389 198,2	178 487,0	68
01.07.2025 й.	852 194,8	555 938,3	296 256,5	575 244,6	394 218,1	181 026,5	68
01.08.2025 й.	852 380,7	553 131,7	299 249,0	576 247,4	392 493,5	183 753,9	68
01.09.2025 й.	863 136,1	563 199,9	299 936,3	581 057,1	394 951,7	186 105,4	67
<b>01.10.2025 й.</b>	<b>866 824,7</b>	<b>565 825,2</b>	<b>300 999,5</b>	<b>582 210,7</b>	<b>394 906,3</b>	<b>187 304,4</b>	<b>67</b>

Тижорат банклари активларининг асосий қисмини ажратилган кредитлар ташкил қилади. 2020 йил 1 январь ҳамда 2025 йил 1 октябрь ҳолатига тижорат банклари томонидан ажратилган кредитлар жами активлар улушида 67-78 фоизни ташкил қилган.

Мазкур таҳлиллардан кўриш мумкинки, банк кредит портфелининг сифати ва миқдори, уларнинг тўғри бошқарилиши банк активларини баҳолашда муҳим кўрсаткич ҳисобланади.


Қуйида давлат улуши мавжуд ва давлат улуши мавжуд бўлмаган тижорат банкларининг кредит портфели, муаммоли кредитлари (NPL) ва муаммоли қарздорликларининг кредит портфелидаги улуши (фоизда) келтирилган.

**2-жадвал**

**Тижорат банкларининг кредит портфели ва муаммоли кредит қарздорликлари йиғма таҳлили**

*млрд.сўмда*

Сана	Кредитлар			Муаммоли кредитлар (NPL)			Муаммоли кредитларнинг жами кредитлардаги улуши, фоизда		
	Жами	шундан:		Жами	шундан:		Жами	шундан:	
		давлат улуши мавжуд банклар	бошқа банклар		давлат улуши мавжуд банклар	бошқа банклар		давлат улуши мавжуд банклар	бошқа банклар
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
01.01.2020 й.	211 580,5	186 630,3	24 950,2	3 169,1	2 809,0	360,1	1,5	1,5	1,4
01.01.2021 й.	276 974,8	244 483,9	32 490,9	5 784,8	5 167,6	617,2	2,1	2,1	1,9
01.01.2022 й.	326 385,6	280 073,6	46 311,9	16 974,0	15 068,8	1 905,2	5,2	5,4	4,1
01.01.2023 й.	390 048,9	324 680,8	65 368,2	13 992,4	12 643,3	1 349,1	3,6	3,9	2,1
01.01.2024 й.	471 405,5	333 298,1	138 107,4	16 621,4	13 267,2	3 354,2	3,5	4,0	2,4
01.01.2025 й.	533 121,2	366 730,5	166 390,7	21 185,1	14 343,8	6 841,3	4,0	3,9	4,1
01.02.2025 й.	533 989,0	366 859,9	167 129,2	23 768,3	16 819,8	6 948,5	4,5	4,6	4,2
01.03.2025 й.	540 022,1	370 634,4	169 387,7	24 348,3	17 017,6	7 330,7	4,5	4,6	4,3
01.04.2025 й.	551 808,8	379 590,9	172 217,9	23 488,6	16 125,5	7 363,0	4,3	4,2	4,3
01.05.2025 й.	565 567,9	389 074,9	176 493,0	23 649,8	15 991,9	7 657,9	4,2	4,1	4,3
01.06.2024 й.	567 685,2	389 198,2	178 487,0	23 519,5	15 765,6	7 754,0	4,1	4,1	4,3
01.07.2025 й.	575 244,6	394 218,1	181 026,5	21 869,8	14 888,5	6 981,3	3,8	3,8	3,9
01.08.2025 й.	576 247,4	392 493,5	183 753,9	22 553,8	15 556,0	6 997,8	3,9	4,0	3,8
01.09.2025 й.	581 057,1	394 951,7	186 105,4	21 802,3	14 887,9	6 914,4	3,8	3,8	3,7
01.10.2025 й.	582 210,7	394 906,3	187 304,4	21 261,4	14 591,6	6 669,8	3,7	3,7	3,6



Мазкур маълумотларга кўра, тижорат банклари кредит портфели 2025 йил октябрь ойига 2020 йил 1 январ ҳолатига нисбатан 275 фоизни ташкил қилган, шу билан бир қаторда муаммоли қарздорликлар улуши 2022 йилдан бугунги кунга қадар бир маромда 5,2 фоиздан 3,7 фоизгача кўрсаткични ташкил қилмоқда. Мазкур ҳолат тижорат банклари томонидан муаммоли қарздорликларни ундиришда етарлича амалий ишлар олиб борилаётганлигидан далолат беради.

**3-жадвал**

#### Тижорат банклари фаолиятининг активлар миқдори бўйича гуруҳлаштирилган алоҳида кўрсаткичлари (01.10.2025 йил ҳолатига)

*млрд.сўмда*

Кўрсаткичлар номи	Жами		Активлар миқдори бўйича гуруҳлаштирилган тижорат банклари тақсимоти							
			3 трлн. сўмгача		3 трлн. сўмдан 10 трлн. сўмгача		10 трлн. сўмдан 30 трлн. сўмгача		30 трлн. сўм ва ундан юқори	
	банклар сони	сумма	банклар сони	сумма	банклар сони	сумма	банклар сони	сумма	банклар сони	сумма
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Активлар	35	866 824,7	8	8 618,5	7	35 953,9	11	199 125,6	9	623 126,7
Кредитлар, жами	35	582 210,7	8	2 492,9	7	16 601,1	11	126 936,6	9	436 180,0
Жисмоний шахсларга ажратилган кредитлар	35	208 642,1	8	930,1	7	4 947,3	11	56 264,9	9	146 499,7
Юридик шахсларга ажратилган кредитлар	35	373 568,6	8	1 562,8	7	11 653,8	11	70 671,7	9	289 680,3
Қисқа муддатли кредитлар	35	73 798,2	8	703,4	7	3 579,9	11	15 886,6	9	53 628,3
Узоқ муддатли кредитлар	35	508 412,5	8	1 789,5	7	13 021,2	11	111 050,0	9	382 551,7

Миллий валютадаги кредитлар	35	353 464,8	8	2 236,1	7	10 993,6	11	89 315,9	9	250 919,1
Чет ел валютасидаги и кредитлар	35	228 745,9	8	256,8	7	5 607,5	11	37 620,7	9	185 260,9
Соф фойда	35	10 875,9	8	-96,1	7	816,3	11	3 952,7	9	6 203,1

2025 йил 1 октябрь ҳолатига тижорат банклари жами активлари 867 трлн.сўмни, кредит қўйилмалари (портфели) 582,2 трлн.сўмни, соф фойда кўрсаткичлари 10,9 трлн.сўмни ташкил қилган.

Мазкур жадвалда активлар миқдори бўйича гуруҳлаштирилган тижорат банклари тақсимооти маълумотлари, шу жумладан соф фойдаси кўрсаткичлари келтирилган. Бунда барча тижорат банклари кредит портфелининг 75 фоизи (436,2 трлн.сўм) ҳамда соф фойда кўрсаткичининг 57 фоиз (6,2 трлн.сўм) қисми 30 трлн.сўмдан юқори активларга эга тижорат банклари ҳиссасига тўғри келади.

## 5. Хулоса .

Банкларнинг кредит портфели сифатини назорат қилиш тижорат банклари самарали фаолиятининг гарови ҳисобланади.

Кредит портфелини тўғри бошқариш ва самарадорлигини ошириш ҳамда кредит рискларини камайтириш учун қуйидаги омилларни инobatга олиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- Кредитларнинг ликвидли гаров мулки билан таъминланганлиги;
- Кредитлар бўйича мақбул ресурсларни жалб қилиш шартлари;
- Ажратиладиган кредитларни диверсификациялаш;
- Кредитлар ажратилишида юзага келиши мумкин бўлган кредит қайтмаслик хатари рискларини таҳлил қилиш ва уларни ҳисобга олиш;
- Молия бозоридаги кредит ва депозитларнинг фоиз ставкалари;
- Кредит ва фоизларнинг ўз вақтида қайтарилиши;
- Кредит шартнома шартлари ва тўлов графикларини кўриб чиқишда таҳлил ва режалаштиришни тўғри амалга ошириш;
- Активлар (кредит, лизинг, факторинг)ни амалдаги меъёрий ҳужжатлар талаблари асосида тўғри таснифлаш ва етарли даражада заҳира шакллантириш;
- Активлар сифати бўйича доимий мониторинг олиб бориш, муаммоли ҳолатларни дастлабки босқичларда аниқлаш ва бартараф этиш механизмини жорий қилиш.

“Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида” ги Низом (2015) талабларига кўра тижорат банклари томонидан активлар таснифланиб, улар бўйича етарлича миқдорда захиралар шакллантирилмаслиги Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тижорат банкларига нисбатан жарима санкциялари қўлланилишига сабаб бўлади.

Мазкур омилларни амалиётда қўллаш, ўрганиб бориш, ўрганиш натижаларига мувофиқ тегишли чоралар кўриш тижорат банклари учун даромадлиликни ошириш, кредит портфели сифатини янада яхшилаш ва рискларни камайтириш имконини беради.

Хулоса сифатида, кредит операцияларини амалга оширишда ва кредит портфелини бошқаришда йўл қўйиладиган камчиликлар банклар даромадига салбий таъсир кўрсатади.

Шу билан бирга, тижорат банклар кредит портфелини бошқаришда банкнинг

кредит қўйилмалари ва даромадлари ҳажмини, кредит портфели сифатини яхшилаш мақсадида уни бошқаришни такомиллаштириш, субъектларнинг тармоққа оид хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда кредитлаш жараёнини амалга ошириш, лизинг ва факторинг операцияларидан кенгроқ фойдаланиш, кредит портфелини иқтисодиёт тармоқлари бўйича диверсификациялаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

**Адабиётлар:**

Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 5 ноябрдаги “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида” ги ЎРҚ-580-сонли Қонуни.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида” ги ПФ-5992-сонли Фармони.

“Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида” ги Низом, 14.07.2015 йилда 2696- сон рақам билан рўйхатга олинган.

Jesus Huerta De Sota “Money Bank Kredit and Economic cycles”, Austrian school, 5th edition, Auburn Alabama, 2006.

Абдуллаева Ш.З. “Кредит ва кредитлаш амалиёти” Монография, Тошкент, Иқтисод-Молия, 2017 йил.

Абдуллаева Ш.З. “Пул, кредит ва банклар” ўқув дарслик, Тошкент, Молия, 2000 йил.

Азларова А.А. “Тижорат банкларида кредит портфелини самарали бошқариш масалалари”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, №6, ноябрь-декабрь, 2018.

И.Н. Юдина “Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов”. Монография. -М.: Инфра М-2013.

М.А. Гаджигает “Кредитный портфель и надежность коммерческого банка” Фундаментальные исследования. 2015. № 9-1, 116-119 стр.

Н.Н. Обломуродов “Тижорат банклари кредит портфели таҳлили ва сифатини ошириш имкониятлари”, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнал, № 2, март-апрель, 2015 йил, 53-58 бет.

О.К.Иминов “Бозор иқтисодиёти шароитида кредит тизими ва уни такомиллаштириш йўллари”, Диссертация иши, Тошкент 2002 йил.

Ўзбекистон Республикаси Қонунчилиги электрон сайти- [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг расмий интернет сайти (<https://cbu.uz>)

“Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ тизимида юридик шахсларни кредитлаш тартиби.



# СОЛИҚ ВА ҲАЁТ

---

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ  
ОММАБОП ЖУРНАЛ